

# TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI № 4 (21) 2019.

**BOSH MUHARRIR**

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

**НАУЧНЫЙ**

**ВЕСТНИК**

ТАШКЕНТСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА

**SCIENTIFIC**

**BULLETIN**

OF THE TASHKENT  
STATE PEDAGOGICAL  
UNIVERSITY

**BOSH MUHARRIR O' RINBOSARI**

Muslimov N. – pedagogika fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY'ATI**

- Asqarov A. – tarix fanlari doktori, akademik  
Djurayev R. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Abdullayeva B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Begimqulov U. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Djorayev M. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Mirsoliyeva M. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Mo'minova L. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Toyloqov N. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Yunusova D. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Urazova M. – pedagogika fanlari doktori  
Djamilova N. – pedagogika fanlari doktori  
Ergashev P. – psixologiya fanlari doktori  
Nuriddinov E. – tarix fanlari doktori, professor  
Yakubov I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Qahramonov Q. – filologiya fanlari doktori, professor  
Raupova L. – filologiya fanlari doktori, professor  
Saparov Q. – biologiya fanlari doktori, professor  
Shaxmurova G. – biologiya fanlari doktori, professor  
Tulenova K. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nasriddinov K. – fizika-matematika fanlari doktori, professor  
Shodiyev X. – XXR Shaansi universiteti professori  
Chudakova V.P. – Ukraina pedagogika instituti professori, falsafa doktori  
Yaroslavl davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori  
Mazilov V. – Yaroslavl davlat universiteti professori, psixologiya fanlari doktori  
Verenich S.B. – Belarusiya davlat pedagogika instituti professori  
Yumi LI – Seul pedagogika universiteti professori, falsafa doktori  
Avazov Sh. – pedagogika fanlari nomzodi, professor  
Isyanov R. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Mamadaliyev A. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Matenova Yu. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Tursunov S. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Xalilova N. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Ishquvatov V. – tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Azimov I. – filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Panjiyev Q. – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent  
Nurullayev M. – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda ro'yxatga olingan. Guvohnoma №02-00175. Har uch oyda bir marta nashr etiladi.

Jurnalning chiqish ma'lumotlarini GOST 7.4-95 "Nashrlar. Chiqish ma'lumotlari" hamda GOST 7.56-2002 "Xalqaro standart turkum raqami" davlatlararo standartlar talablari asosida bo'lishini to'liq ta'minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan **2181-9580 ISSN raqami** berilgan.

Manzil: 10100, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy. Tel.: 276-75-26  
e-mail: tdpuil@gmail.com

Buyurtma № 14 Adadi 10 nusxa.  
Hajmi 10 b/t. Bichimi 60x84 1/8  
Nizomiy nomidagi TDPU "Tahrir va nashr" bo'limida chop etildi.  
Toshkent, Bunyodkor ko'chasi-27.

Muharrir **Xolsaidov F.B.**

**UYUSHMAGAN YOSHLARNING JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORT ORQALI JAMIYATDAGI IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**Sharipova D. – pedagogika fanlari doktori, professor**

**Umurzakov O‘. – Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada uyushmagan yoshlarga doir davlat siyosatining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportga motivatsiyalash, jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlarga oid amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish, mahallalarda yoshlarni sportga jalb qilish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** uyushmagan yoshlar, kompetensiya, motivatsiyalash, jismoniy tarbiya, sport, sog‘lom turmush tarzi, mahalla, jismoniy madaniyat, ma‘naviyat.

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ НЕОРГАНИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ В ОБЩЕСТВЕ ЧЕРЕЗ ФИЗКУЛЬТУРУ И МАССОВЫЙ СПОРТ**

**Шарипова Д. – доктор педагогических наук, профессор**

**Умурзаков О. – исследователь Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы современной государственной политики в области работы с неорганизованной молодёжью, развития у неё мотивации к формированию здорового образа жизни, интереса к занятиям физической культурой и спортом, а также вовлечение молодежи в занятия спортом в махаллях.

**Ключевые слова:** Неорганизованная молодёжь, компетенция, мотивация, физическое воспитание, спорт, махалля, физическая культура, здоровый образ жизни.

**WAYS TO INCREASE THE SOCIAL ACTIVITY OF UNORGANIZED YOUTH IN SOCIETY THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND MASS SPORT**

**Sharipova D. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Umurzakov O.K. - Researcher, Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The article examines the issues of modern state policy in the field of work with unorganized youth, its development motivation for the formation of a healthy lifestyle, interest in physical culture and sports, as well as the involvement of young people in sports activities in makhallas.

**Key words:** Unorganized youth, competence, motivation, physical education, sport, mahalla, physical culture, healthy lifestyle.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusiga ko‘ra qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 – yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” dagi Farmonning beshta ustuvor yo‘nalishidan to‘rtinchisi ijtimoiy sohaning rivojlantirilishga qaratilgan. Unga ko‘ra aholi va ayniqsa respublikamizdagi yoshlar qatlami bandligini ta‘minlash, yoshlarning sog‘lom voyaga yetishishlari hamda sport va jismoniy tarbiya masalalari bilan bog‘liq chora-tadbirlar ham qamrab olingan va ular orsida uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish haqidagi dolzarb masalalar alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Mazkur qonunda O‘zbekiston Hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy – me‘yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi.

Inson avvalo yetuk intellektual va barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun u jismoniy jixatdan chiniquqan, sog‘lom, ong va tafakkuri shakllangan ma‘naviy yetuk, dunyoqarashi keng, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashadigan, inson xayotida uchraydigan ba‘zi noaxloqiy xatti-harakatlardan xoli (Turli xil spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga ruju qo‘yish, turli xil giyohvand moddalar ta‘siriga tushib qolish,

psixotrop tabletkalar hamda ayni kunlarda yoshlar orasida oz bo'lsada uchrab turadigan chilim, elektron sigaretalarni iste'mol qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni sodir etish kabi va h.k) illatlarga nisbatan murosasiz hamda sog'lom fikr egasi bo'lmog'i lozim.

Inson umri davomida tinch hayot kechirish maqsadida sog'lom, tetik va baquvvat bo'lishi, sog'lom turmush tarziga rioya qilishi, irodasi mustahkam, sabrli, ishchanlik qobiliyatini hamda tashqi ko'rkamlikni saqlashga erishishning asosiy omillaridan biri jismoniy madaniyat sanaladi.

Jismoniy madaniyat - umuminsoniy madaniyatining bir qismi bo'lib, inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat sohasidir

Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish – bu jismoniy mashqlarni muntazam bajarish, kun tartibiga va gigiyena qoidalariga rioya qilish, tanani quyosh, havo va suvdan samarali foydalanib chiniqtirish demakdir.

Jamiyatdagi jismoniy madaniyat, asosan, odamlarning sog'lomligi va jismonan chiniqqanligi tarbiya va ta'lim sohasida, turmushda qay darajada tadbiiq qilinayotganligi, sportdagi yutuqlar, xalq o'yinlari, jismoniy mashqlar, sportni va turizmning faol harakat talab qiladigan ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy madaniyat tibbiyot, ekologiya, pedagogika, psixologiya kabi fanlar bilan bog'liq holda shakllangan va rivojlangan. U jamiyat taraqqiyoti, odamlarning samarali mehnat qilishi, aqliy imkoniyatlarining ravnaq topishi, axloqiy poklanish, kelajak nasllarning jismoniy ahvoliga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun har bir xalq, har bir millat o'zidan keyin qoladigan avlodning jismonan sog'lom, ma'nan barkamol bo'lib o'sishi haqida qayg'uradi.

Uch ming yillik tarixga ega bo'lgan "Avesto"da "Bizga shunday kamyoblik baxsh aylagilki, navqiron va kuchli yorlar topaylik. Toki ulardan hushyor va sog'lom farzandlar dunyoga kelsin" deya ta'kidlagani o'sha davrlardayoq insoniyatning jismoniy madaniyat yordamida sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratganidan dalolat beradi. "Avesto"da yoshlarning jismonan chiniqishlari uchun hayotda kerak bo'ladigan mashqlar bajarganliklarini, ya'ni yoshlikdan otida yurish, ovchilikka kerak bo'ladigan mashqlarni bajarish va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullantirilganligini ko'rsatib o'tilgan.

O'zbek xalqining qahramonlik eposi "Alpomish" dostonida esa kurash, merganlik va chavondozlik musobaqalariga katta e'tibor berilgan. Dostonda yozilishicha, qizlar Alpomishdek oldilariga qo'yilgan shartlarni bajargan yigitlarnigina kuyovlikka loyiq ko'rishgan<sup>1</sup>.

Jismoniy tarbiya va sport orqali sog'lom yoshlarni tarbiyalash butun bir jamiyatning vazifasi bo'lmog'i kerak. Har bir inson, oila, mahalla, ota-ona jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni odat darajasiga chiqarishi bilan birga, qadriyat sifatida e'zozlashi jamiyatning uzluksiz ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga olib keladi. Shunday ekan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish insonga jismoniy jihatdan yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu nuqtayi nazardan uyushmagan yoshlardagi ma'lum bir xususiyatlar hamda jismoniy tarbiya va sport o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish zarur hisoblanadi. Uyushmagan yoshlarning xususiyatlari bevosita ularning ma'naviyatida mujassamlashgan bo'lib, undagi tuyg'ularni rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni juda muhimdir.

Yoshlarda, ayniqsa, ularning uyushmagan qatlamida ma'naviyat shakllangan bo'lsa u o'zidagi imkoniyatlardan umum manfaati yuzasidan foydalanadi. Aks holda unda o'z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo'yish holatlari, xohish-istaklari g'olib chiqib turli buzg'unchi illatlarga berila boshlaydi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport inson ma'naviyatini shakllantiruvchi ajralmas qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari ma'naviyatning asosiy vazifalaridan biri - inson ruhini poklaydi. Bunda jismoniy tarbiya va sport ham inson tanasini chiniqtirish orqali tanada ruhning imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson ruhining barqarorligi milliy g'ururni ham shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. G'ururi bor odamning qaddi baland bo'ladi. Oldimizda turgan og'ir vazifalarni bajarish, muammolarni yechish, katta sinovlardan o'tish – bularning hammasi yoshlarimizning ruhini, milliy g'ururini tiklash bilan bog'liqdir.

Inson qalbi va ruhi mutanosibligi uchun qalbning kengligi talab qilinadi. Qalb kengligi jismoniy tarbiya va sport orqali ham shakllanadi. Negaki, inson jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi natijasida u o'zida jismoniy qiyinchiliklarni his qila boshlaydi. Qiyinchilik va azobni o'z tanasidan o'tqazib,

<sup>1</sup> Аҳатов Л.К, Расулов.А.Г. "Жисмоний тарбия ва спортда фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологиялардан фойдаланиш". Қарши: 2018. 56-58 б.

uni his qiladi. Bu esa insonning qalbini chiniqishiga olib keladi. Natijada inson qalbining ulg'ayishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport inson ichki dunyosining boyishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Inson ichki dunyosi ma'rifat bilan boyib boradi. Ma'rifatli bo'lish asosida ham mashaqqat yotadi. Mashaqqatning mohiyatini jismoniy jihatdan chiniqqan insongina to'liq anglab yeta oladi.

Insonda irodani shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish ushbu sifatning xususiyatlarini o'z tanasidan kechirish imkoniyatini beradi. Uning faqat ruhi emas, balki tanasi ham ushbu sifatga chiniqishi irodaning to'liq shakllanganligidan dalolat beradi. Asosan, turmushning qiyin davrlarida inson irodasining mustahkamligi uning qiyinchiliklarni yengishida asosiy omillardan biri bo'lish bilan birga, qolgan omillar va xususiyatlarni shakllantirishda ham asosiy yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport inson iymon-e'tiqodini butun qilishda ham ishtirok etadi. Inson iymon-e'tiqodi qachon mustahkam bo'ladi, qachonki o'ziga bo'lgan ishonchi ortib borsagina iymon-e'tiqodning butunligi ortib boradi. Iymon-e'tiqod o'z manfaatini boshqalar manfaatidan ustun qo'ymaganda, bironvga yordam berib, qilgan yordamini unga sezdirmaganda namoyon bo'ladi. Ya'ni, inson jismoniy jihatdan sog'lom va tetik bo'lgandagina boshqaga o'z yordamini bera oladi, uning ma'naviyatligi esa bergan yordamini minnatqilmasligi orqali ko'rinadi. Bunda inson o'zini nazorat qilish ko'nikmasini ham shakllantirib boradi. U o'z-o'zini yengadi. Ushbu holat ma'naviyat va jismoniy tarbiyaning uyg'unligini ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya va sport inson vijdonini uyg'otishda ham katta yordam beradi. Bizga ma'lumki, sport bilan shug'ullangan inson jismoniy jihatdan baquvvat bo'ladi. Uning baquvvatligi o'ziga ishonchni shakllantirish bilan birga adolatsizlikka qarshi kurashishga undaydi. Masalan, jismoniy zo'ravonlikni ko'rgach uni bartaraf etishga harakat qiladi. Ya'ni zo'ravonlikni amalga oshirayotgan insonga qarshi harakat qilib, zo'ravondan zo'ravonlik ko'rayotganni himoya qilishga shoshiladi, adolatsizlikka o'z nafratini ko'rsatadi. Adolatsizliklarga chiday olmaydi.

Ularga qarshi kurashishda uning jismoniy jihatdan yetukligi har qanday adolatsizlikka qarshi turishga yordam beradi. Bu esa jismoniy tarbiya va sportning inson vijdonini uyg'otishdagi o'rnini ko'rsatadi. Umuman olganda jismoniy tarbiya va sport boshqa omillar qatorida inson ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy mezonlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sportning yuqoridagi ko'plab xususiyatlarini inobatga olib, uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga ko'proq jalb qilish orqali ularda milliy xususiyatlar va jamoaviy qadriyatlarini shakllantirish mumkin. Chunki jismoniy tarbiya va sportning jamoaviy turlari uyushmagan yoshlarda jamoada harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishi ularni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol bo'lishiga xizmat qiladi. Xo'sh, uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sport orqali ijtimoiy siyosiy hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun qanday ishlarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq?

Uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishning tizimli tashkil etish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya etgan bo'lar edik. O'zbekiston aholisining 60 % dan ortig'i yoshlar tashkil qilishini inobatga oladigan bo'lsak bu masalaga umummilliy masala sifatida qarash va soha vakillaridan shijoat bilan ishlashni talab etadi. Jumladan:

1. Barcha sektor rahbarlari ushmagan yoshlar bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarilishini o'z nazoratiga olishlari muhim ahamiyat kasb etadi:

2. Mahalla fuqarolar yig'inlari shtat tarkibida oliy ma'lumotga ega jismoniy tarbiya va sport sohasi vakili ishlashini ta'minlash hamda o'sha soha vakili atrofida tashabbuskor sportchi yoshlardan iborat gurux tuzish. Guruh zimmasiga mahallalarda yoshlar va ularning uyushmagan qatlami orasida sport musobaqalarini tizimli olib borish hamda iste'dodli yoshlarni kashfetishni yuklash.

3. Sport federatsiyalar, sport klublar rahnamoligida ushmagan yoshlardan tashkil etilgan sport jamoalarni tuzish.

4. Mahallalardagi sport faxriylarini jismoniy tarbiya va sport ishlariga jalb qilish orqali yoshlarni ular atroflariga birlashtirish. Mahallalarda o'tadigan to'y, yubiley marosimlari munosabati bilan sport musobaqalarini o'tkazishni ommalashtirish. Xotira turnirlarni o'tkazish.

5. Bolalar va o'smirlar sport maktabi murabbiylari va maktab, kollej jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini mahalla sportiga ko'maklashishini tashkil etish.

6. Mahalla fuqarolar yig'inlari binolari oldida "Mahallamiz iftixorlari" nomi ostida yoshlar tasviyriy oynasini tashkil etish va u yerda iqtidorli sportchi yoshlarni suratlarini qo'yishni tashkillashtirish.

7. Barcha siyosiy partiyalarni uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish yuzasidan yillik reja asosida tadbirlar o'tkazishlarini yanada jadallashtirish.

8. Mahallalarda tashabbuskor va iqtidorli yoshlarni "Mahalla iftihori" hamda "Kelajak bunyodkori" davlat mukofotlariga nomzodlarini berishish.

9. Tegishli mutasaddi tashkilotlar va siyosiy partiyalar ko'magida viloyat musobaqalarida fahri o'rinlarni egallagan uyushmagan yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga "Jismoniy madaniyat" yo'nalishiga imtiyozli o'qishga kirishlariga ko'maklashish.

10. Mahallalarda, ayniqsa, qishloq qizlari va ayollari sportini jonlantirish uchun ayol murabbiylarni ushbu sohaga olib kirish dolzarb muammolardan biri desak adashmaymiz.

Zamon tajribasi shuni ko'rsatmoqda-ki, davlatning ertasi mazkur jamiyatda yashayotgan yoshlarning qanday kamol topayotgani bilan chambarchas bog'liq.

Yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g'oyasiga yuqori ma'naviyat va insonparvarlik an'anasiga sadoqat tuyg'ulari yanada chuqur ildiz otishi, radikalizm hamda ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetini mustahkamlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan maqsadli va tizimli ravishda jismoniy tarbiya va sport musobaqalarini hamda tadbirlarni o'tkazib borishni yo'lga qo'yishimiz, jismoniy tarbiya va sport orqali uyushmagan yoshlarni jamiyatda o'z o'rinlarini topib olishlariga imkoniyatlar yaratishimiz lozim.

#### РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА

**Рузиева Д.И. – профессор Ташкентского государственного педагогического университета, доктор педагогических наук**

**Жолдасбеков А.А. - Международный университет SILKWAY, Казахстан**

**Жумабеков Р.К – Международный университет SILKWAY, Казахстан**

**Аннотация.** Статья рассматривает организацию процесса воспитания социальной активности студентов вуза. Основное внимание автор акцентирует на разработанную систему и результатах ее применения в высшем учебном заведении. В исследовании категория «социальной активности» рассматривается в узком смысле.

**Ключевые слова:** социальная активность, активность студента, студенческое самоуправление, воспитание, критерии воспитанности социально активной личности.

#### TALABA SHAXSINING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Ruziyeva D.I. - Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori**

**Joldasbekov A.A. - SILKWAY xalqaro universiteti, Qozog'iston**

**Jumabekov R.K - SILKWAY xalqaro universiteti, Qozog'iston**

**Annotatsiya.** Maqolada universitet talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish jarayonini tashkil etish ko'rib chiqilgan. Muallif ishlab chiqilgan tizim va uni oliy o'quv yurtida qo'llash natijalariga e'tibor qaratadi. Bizning tadqiqotimizda "ijtimoiy faoliyat" toifasi tor ma'noda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy faollik, talabalarining o'zini o'zi boshqarishi, ta'lim, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash mezonlari.

#### DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY OF STUDENT PERSONALITY

**Ruzieva D.I. - Professor of Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Pedagogical Sciences**

**Zholdasbekov A.A. - International University of SILKWAY, Kazakhstan**

**Zhumabekov R.K - SILKWAY International University, Kazakhstan**

**Annotation.** In the given article was described the organization of the process of raising the social activity of university students. The author focuses on the developed system and the results of its application in a higher educational institution. In our study, the category of “social activity” is considered in a narrow sense.

**Key words:** social activity, student activity, student self-government, education, criteria for the upbringing of a socially active person.

Общество заинтересовано в воспитании социальной активности личности будущего учителя, поскольку от этого зависит эффективная реализация его социальных функций и ролей, обеспечивающих овладение и принятие студентами общественных целей и идеалов, развитие форм и способов их реализации в труде, поведении, жизнедеятельности. Проблема формирования социальной активности личности сложна и многогранна, она была актуальна во все времена. Студенческая молодежь представляет собой ту социальную группу, которая является носителем потенциальных возможностей будущего развития общества. В связи с этим проблема воспитания социальной активности студенческой молодежи приобретает важное значение в деятельности высшего учебного заведения. Формирование социальной активности студенческой молодежи должно осуществляться с учетом, с одной стороны, особенностей изменяющейся социальной образовательной среды, с другой – специфики этой социально-демографической группы, её внутренней дифференциации, места и роли в обществе, а также необходимости разрешения сложившегося противоречия между потребностями молодежи в становлении её в качестве социального субъекта и возможностями их реализации. Факторами, способствующими формированию социальной активности студенческой молодежи, являются: стремление молодежи к самореализации, эффективная государственная молодежная политика, а также интересные и авторитетные для молодежи люди<sup>1</sup>. Наиболее препятствуют формированию социальной активности: неверие в общественные идеалы и безразличие общества, старших возрастных групп к проблемам молодежи, недоверие органам власти и индифферентность самой студенческой молодежи. Социальная активность является критерием отношения субъекта к конкретной сфере реальности. Практически любую деятельность можно рассматривать как проявление активности. Некоторые авторы понимают эту активность как разновидность социальной или психической. Принято выделять степени интенсивности и направленности личности на определенную деятельность. Среди факторов, которые определяют социальное взаимодействие, психолог Н.Н. Обозов выделяет три группы:

- регулирующие (сознание и эмоционально-волевая сфера);
- мотивационные (сфера потребностей);
- индивидуальные (характер, темперамент).

В современных условиях одним из наиболее активно действующих социальных институтов выступает студенческое самоуправление, органы которого содействуют созданию условий для удовлетворения потребностей, интересов, формируют новые стремления<sup>2</sup>. В силу своей большой открытости его можно считать практически идеальным местом для общения на добровольных началах, идеальным воспитательным пространством. Личность, которая присоединилась к работе органов студенческого самоуправления, вступает одновременно в бесконечное количество контактов с другими участниками, в результате чего и возникают те отношения, которые в литературе описываются как “субъект-субъектные” или “межличностные” контакты. Американские ученые Чарльз Кули и Герберт Мид также считают, что личность не только адаптируется к социальной среде, но и может повлиять на жизненные обстоятельства и самого себя. Рассматривая «субъект-субъектное» отношение важно проследить диалектику связи общения и деятельности. Неправильным будет представление про совместную деятельность участников студенческого самоуправления лишь как про совокупность индивидуальных видов деятельности, которые развиваются параллельно. В процессе общения происходит формирование общего субъекта

<sup>1</sup> Харланова Е.М. Социальная активность студентов: сущность понятия // Теория и практика общественного развития. 2011. № 4. С. 183–186.

<sup>2</sup> Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. Питер: 2009. -395 с.

деятельности и общения внутри органов студенческого самоуправления. Создаются основы для гармонизации целей совместной деятельности, развития мотивационного поля социального взаимодействия в ней. В качестве основных критериев социальной активности будущих учителей выделим активность в социально ориентированной деятельности и социально значимые личностные качества. Педагогическое понимание воспитания социально активной личности студентов в системе студенческого самоуправления основано на ключевых понятиях, сформулированных Г.М. Андреевой, Е.В. Бондаревской, А.В. Мудриком, которые определили такие принципы управления данным процессом: ориентация на развитие индивидуальности; коммуникативной направленной жизнедеятельности; интеграции преподавателей и студентов, основанной на гуманистических ценностях. Как показало исследование все выделенные критерии воспитанности социальной активности будущих учителей тесно связаны между собой. Научная новизна и практическая значимость исследования состоит в том, что уточнено понятие “социальная активность будущего учителя” как динамическое свойство личности, обусловленное гуманистической направленностью и готовностью приобщиться к разным видам жизнедеятельности, обусловленных спецификой работы учителя. Сформированы и описаны критерии воспитанности социальной активности будущего учителя в результате его приобщения к студенческому самоуправлению, которые могут быть использованы в процессе формирования воспитательной среды высшего педагогического учебного заведения. В результате проведенного исследования было установлено, что социальная активность – сложное интегрированное свойство личности, которое проявляется в инициативной, направленной, социально значимой деятельности и готовности действовать в интересах социума. Воспитание социально активной личности в педагогическом аспекте – это создание системы педагогических ситуаций в рамках процесса обучения и воспитания, имеющие цель, оптимальные формы и методы, а также социально значимые изменения в личности, которые проявляются в активной, самостоятельной деятельности<sup>1</sup>. Специфика воспитания социальной активности будущего учителя обусловлена тем, что будущим учителям свойственна педагогическая направленность – свойство личности, которая представляет по своей сути систему отношений к профессии, предметам, которые будут преподаваться детям, к себе как субъекта будущей педагогической деятельности. Средой, которая влияет на воспитание социально активной личности будущего учителя, формирование высокого уровня описанных выше критериев, может и должно стать студенческое самоуправление. Социальная активность учителя понимается как деловитость, инициативность, настрой на планомерную и целенаправленную реализацию профессиональных обязанностей, творческое отношение к разным проявлениям жизни общества. Творческие ресурсы оказываются социальными только при выражении в общественно значимой и активной деятельности. Социальная активность учителя предполагает развитие и обогащение личностных ресурсов, отличается особенностями, которые обусловлены спецификой педагогической деятельности. Динамика социальной активности студентов выражается в формировании у них в процессе учебной деятельности стремления к дальнейшим саморазвитию и самореализации с учетом согласованных социальных и личных приоритетов, в реализации социальных проб позиции субъекта социальной активности в учебно-профессиональной деятельности, так как субъектом является тот, кто может авторизовать свою деятельность, реализовать ее построение и проектирование как целого, определить собственное видение ее образца и образа. Формирование позиции субъекта активности в учебно-профессиональной деятельности выражается в переходе к авторству в ее внешней реализации и внутреннем конструировании при взаимодействии с образовательной средой, что содержательно сопровождается самостоятельной реализацией и освоением функций, связанных с проявлением социальной активности. Приняв в качестве основы модель действий специалиста, которая разработана А.А. Вербицким и включает анализ ситуации, постановку задачи (в качестве результата собственной личностно значимой активности), решение задачи (или его организацию с помощью других специалистов), доказательство правильности решения, выделим функции социальной активности студента: – понимание, осмысление и принятие проблемы (функция

<sup>1</sup> Алексеева, Л. Ф. Психология активности личности / Л. Ф. Алексеева. - Новосибирск : Педуниверситет, 1996. — 148 с

ориентации); – формулирование основных целей, постановка задач, выбор средств и способов ее решения (функция целеполагания и планирования); – выполнение определенных действий по реализации плана (функция организации); – оценивание полученных результатов (функция оценки). Готовность студента к реализации в образовательном процессе данных функций в результате взаимодействия с образовательной средой обеспечивает становление его субъектности. По мнению Н.И. Бычковой, социальная компетентность выступает в виде готовности к реализации главных социальных функций в меняющихся условиях деятельности человека как гражданина и специалиста. Согласно данной позиции социальная активность студента в виде компетентности представляется как совокупность сформированных у студента компетенций, которые обеспечивают его готовность к взаимодействию с социальной средой. Опираясь на представленную исследователями В.В. Краевским, Н.С. Малюткиной, А.В. Хуторским структуру компетенции как единства трех составляющих – когнитивной (владение знаниями), операциональной (сформированность способов деятельности) и аксиологической (освоение ценностей), рассматриваем компетенции, составляющие социальную активность будущего специалиста, как совокупность компонентов – знаний, умений (в том числе опыта) и отношений во взаимосвязи, обеспечивающих владение способностью и готовность студента к выполнению функций социальной активности. При этом каждая из компетенций социальной активности является интеграцией основных характеристик социальной активности: самодетерминированности, включенности в деятельность и социального взаимодействия. Е.М. Харланова в компетентностной модели социальной активности студента рассматривает четыре основные компетенции: способность определять с учетом социальных ценностей и норм свои приоритеты в учебно-профессиональной деятельности; способность к постановке целей учебно-профессиональной деятельности, направленных на обеспечение социально и субъектно значимых приоритетов; готовность к осуществлению самоуправления при достижении социально приемлемыми способами цели учебно-профессиональной деятельности в сотрудничестве и взаимодействии с различными субъектами; способность к осуществлению рефлексии результатов, связанных с проявлением социальной активности, рассматривая соответствие ее ценностям и цели социума и личности.

В ходе исследования нами были раскрыты, что социальная активность студента педагогического вуза как будущего учителя есть характеристика личности, интегрирующая социально-политические, экономические, этические знания, личный социальный опыт, самостоятельность, ответственность и инициативность, что обеспечивает ей успешную социализацию и гармонию отношений с окружающей средой.

Таким образом, социальная активность в качестве системного свойства самоорганизующейся системы может проявляться во взаимосвязи компетенций, которые обеспечивают возникновение внутренней энергии и самодетерминированность в ходе социального взаимодействия студента с образовательной средой. Для социальной активности существенными характеристиками выступают включенность во взаимодействие и самодетерминированность.

## **KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING OG'ZAKI NUTQIDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

**Abidova.N.Z. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish modeli va tabaqalashtirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar mazmuni yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'rish nuqsoni, nutq, nutq kamchiliklari, model, texnologiya, tiflopedagog, logoped, korreksiya.



**СПОСОБЫ УСТРАНЕНИЯ НЕДОСТАТКОВ В УСТНОЙ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С ДЕФЕКТАМИ ЗРЕНИЯ**

**Абидова.Н.З.** - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

**Аннотация.** В данной статье освещена модель устранения недостатков устной речи у детей с нарушением зрения и содержание дифференцированных коррекционно-развивающих работ. Разработаны научно-методические рекомендации по устранению недостатков в речи детей с нарушениями зрения дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** нарушение зрения, речь, речевые нарушения, модель, технология, тифлопедагог, логопед, коррекция.

**METHODS OF ELIMINATION OF SHORTCOMINGS IN ORAL SPEECH IN CHILDREN WITH VISUAL DEFECTS**

**Abidova. N.Z.** - Lecturer at Tashkent State Pedagogical University, Doctor of Philosophy in Education (PhD)

**Annotation.** In the given article was described the model for correcting deficiencies of oral speech in children with visual impairment and the content of differentiated correctional and developmental works. Developed scientific and methodological recommendations for the development of speech of children with visual impairment of preschool age.

**Key words:** visual impairment, speech, speech disorders, model, technology, tiflopedagog, speech therapist, correction.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi hamda o'qitish texnologiyalari variativ dasturlar, modellar asosida takomillashtirilmoqda. Dakar deklarasiyasi asosida qabul qilingan «Ta'lim hamma uchun» reja-dasturi asosida butun jahonda jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatimizning teng huquqli a'zolari safiga qo'shilishlariga yordam berish, ular ta'limini izchil amalga oshirish, kompleks tadbirlarni kengaytirish dolzarb vazifa qilib qo'yilmoqda.

Dunyoda ko'rishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyatga to'laqonli ijtimoiylashuvi, nutqiy va motor rivojlanishi, bilish jarayonlarining diagnostikasini tizimli tarzda tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, bolalarning bilim, ko'nikma, malakalari va ularning o'sish dinamikasi hamda rivojlanganlik darajasini aniqlash, maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlash jarayonida differensiallashgan ta'limni tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirib borish, bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda bolalarning ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmog'i kengaytirildi, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, normativ huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimi ishlab chiqildi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish asosida ularni intellektual, jismoniy rivojlantirish uchun zamin yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning 4.4 bandida «maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish» ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilgan. Bu esa zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullari asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning boshlang'ich ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga tayyorlash uchun zamin yaratdi. Ko'rishda

nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar nutqiy faoliyati bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganib chiqish shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunga qadar maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning predmetli-amaliy faoliyatining turli shakllari va nutq jarayonlarining o'zaro bog'liqligi muammosi yetarlicha o'rganilmagan. O'tkazilgan tadqiqotlarda ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar nutq faoliyati rivojlanishi jarayonidagi ortda qolishlar, kamchiliklarning sabablari, omillari aniqlangan, ammo ularni bartaraf etish uchun korreksion-pedagogik ishlarning tizimlilikini ta'minlash, maxsus texnologiyalarni ishlab chiqish masalalariga kam e'tibor qaratilgan. N.Kostyuheknining aniqlanishicha, ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar nutqining shakllanishi me'yorda ko'radigan tengdoshlari kabi amalga oshishi, biroq ko'rish idrokining yo'qligi yoki uning pasayishi uchta yetakchi analizatorning (eshitish, kinestetik va ko'rish analizatorlari) o'zaro bog'liq faoliyatini o'zgartirishga olib kelishi qayd etilgan. L.Volkova, L.Drujinina, O.Doroshenko, L.Lixodedova, Ye.Shlay va boshqalarning ishlarida ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarda nutqi akti tizimlari ko'rgazmali obrazlarga yetarli darajada tayanmay shakllanishi, tarbiyalanuvchilarga bevosita abstrakt tajribadan tanish bo'lmagan predmetlarni anglatadigan so'z semantikasi ba'zan nutqda real asosga ega bo'lmasligi hamda shu sababli noto'g'ri ma'noda ishlatilishi, bu esa ko'pincha bilimlarni formal o'zlashtirishga olib kelishi ta'kidlanadi. L.Volkova, A.Lukoshevichene, D.Mallayev, S.Pokupnevalarning ishlarida esa ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi tufayli bog'liq yuz beradigan tizimli buzilishlar (leksik-grammatik, fonetik-fonematik nutq kamchiligi) hamda mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan. A.Litvakning ta'kidlashicha, ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarda nutq kamchiliklari sog'lom tengdoshlariga qaraganda ikki marta ko'proq namoyon bo'ladi. T.Sviridyukning tadqiqot natijalari ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning fonematik idroki, tovushni tahlil qilish va o'qishni o'rganishga oid dastlabki ko'nikmalarni o'zlashtirishda ortda qolishlar kuzatilishini tasdiqlaydi. L.Volkova o'z tadqiqot ishida ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabga tayyorlov guruhi va kichik maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilar nutq kamchiliklarini korreksiyalash ishlarining yetakchi tamoyillar, kompleks va har tomonlama yondashish asosida amalga oshirishning zarurati ko'rsatib o'tilgan. Ushbu tadqiqot natijasida ko'rishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning taxminan 13,4 foizida talaffuz qilishning, 84,6 foizida nutqning tizimli buzilishi holatlari kuzatilishi aniqlangan. Olima nutq kamchiliklarining bartaraf qilinishi umumiy motorika va artikulyatsiya a'zolarining harakatchanligini rivojlantirish hamda fazoviy mo'ljal olish reaksiyalarini takomillashtirish bilan birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. O'quv jarayoni eksperimentining mazmuni va metodikasini ishlab chiqishda mazkur muammoga doir nazariy, metodik va amaliy materiallardan foydalanildi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ko'rishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarning og'zaki nutqi kamchiliklarini bartaraf etish modeli takomillashtirildi. Taklif qilinayotgan model asosida bolalar og'zaki nutqi kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha korreksion-pedagogik ishlar tizimi quyidagi 4 bosqichni qamrab oldi: Tashxis bosqichi: nutq nuqsoni holati va darajasini tashxislash ishlari. Tashkiliy bosqich: tiflopedagog hamda logoped bilan hamkorlik, kasbiy konsilium, pedagogik loyihalash, metodikani asoslash, texnologiyani takomillashtirish. Ta'limiy bosqich: tiflopedagog, logoped hamda ota-onalar bilan hamkorlikdagi ta'limiy korreksion-pedagogik faoliyatni olib borish. Baholovchi bosqich: nutqning rivojlanganligini, o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarini va texnologiya samaradorligini baholash. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan olib boriladigan barcha korreksion ishlar bolalar og'zaki nutqi kamchiliklarini bartaraf qilish, tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirildi. Bunga ta'lim jarayonida logoped, tiflopedagog, tarbiyachining hamkorligi asosida tarbiyalanuvchiga mashg'ulotlar jarayonida kompleks, har tarafdin ta'sir etish asosida erishilishi bu tarbiyalanuvchilar uchun mashg'ulotlarning differensiasiyalangan tizimini ishlab chiqish korreksion-logopedik ishlarning asosiy shartini tashkil qildi. Ta'limiy tajriba-sinov ishlari jarayonida bolalarning nutqiy imkoniyatlari bilan birgalikda, yaqin rivojlanish doirasi ham hisobga olindi. Bunda "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari"ga tayanildi va shu asosda dastur, istiqbol reja, mashg'ulot ishlanmalari hamda interfaol texnologiyalar takomillashtirildi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan katta maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish jarayonida ijobiy holatlarga erishish uchun ota-onalar, tarbiyachi, defektolog, psixolog va tibbiyot xodimlari o'zaro bog'liqlikda ish olib borishi muhimdir. Umuman olganda, logopedning okulist, tiflopedagog, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya bo'yicha pedagog, tarbiyachi va ota-onalar bilan hamkorligi korreksion-logopedik mashg'ulotlarni psixologik, logopedik,

defektologik, tibbiy hamohanglikda olib borishga imkon beradi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan barcha korreksion ishlar bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarini bartaraf etishga, bola shaxsini va bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunga esa ta'lim jarayonida logoped, tiflopedagog, tarbiyachining hamkorligi asosida bolaga turli mashg'ulotlar tizimida kompleks, har taraflama ta'sir etish asosida erishildi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlar:

- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolaning muhim funksional sohalarini rivojlantirish ishlari negizida, parallel ravishda nutq nuqsonlarini korreksiyalash.

- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarning oldini olish bo'yicha korreksion-logopedik ishlar: til tahlilini shakllantirish, grammatik tuzilishdagi buzilishlarni korreksiyalash, lug'atni rivojlantirish, fonetik-fonematik nuqsonlarni bartaraf etish, savod o'rganishga tayyorlash. Tadqiqot jarayonida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan korreksion ishlar individual va guruhli shaklda quyidagi tizimli yo'nalishlarni inobatga olgan holda tashkil qilindi. Jumladan: Korreksion-logopedik mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogik sharoitni yaratish va ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tashkil qilingan korreksion ishlarda individual va guruhli yondashuvning eng maqbul shakllari va yo'llarini ishlab chiqish. Bunda quyidagilar alohida ahamiyatga ega: - korreksion-logopedik mashg'ulotlarni kompleks tarzda amalga oshirish; - korreksion-logopedik ishlarni tashkil etishda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolaga u yoki bu funksiyalarning mavjud emasligi nuqtai nazaridan turib emas, balki unda saqlanib qolgan iqtidor, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, alohida nuqtayi nazardan turib yondashish; ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni asta-sekin turli faoliyat turlari (o'yin, mehnat, bilim olish) bilan uning imkoniyat va individual xususiyatlarini inobatga olib tanishtirish; korreksion-logopedik faoliyatda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda shartli refleksiyaning yuzaga keltirish, o'z-o'zini korreksiya qilishga intilishiga qaratilgan usullarni rejalashtirish va amalga oshirish; korreksion ish jarayonida dasturda ko'zda tutilgan bilimlar hajmini o'zlashtirish bilan birga "L.Blumning sinflar taksonomiyasiga muvofiq rejalashtirilgan intellektual xatti-harakatlarni" ham shakllantirishga qaratilgan bo'lishi; ko'rishida nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarini bartaraf etishda orfoepiya tamoyillari qonuniyatlariga tayanish kabilar ko'zda tutilgan. Differensiallangan logopedik ishlar ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanganlik darajasiga ko'ra tashkil etildi. Nutqiy rivojlanishning IV darajasiga (o'rtadan yuqori) ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlar tovushlar talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etishga qaratildi. Nutqiy rivojlanishning III (o'rta) va II darajalariga (o'rtadan past) ega bo'lgan bolalar bilan nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik tomoni kamchiliklarini korreksiyalash, nutqiy rivojlanishning I darajasiga (past) ega bolalar bilan nutqning barcha tomonlari qo'pol buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks ishlar olib borildi. Korreksion-logopedik ta'lim jarayonida bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish maqsadida polisensor, multimediyali ta'lim vositalaridan, o'yin va boshqa ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik faoliyat tashkil etildi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar bolalar og'zaki nutqi kamchiliklarini bartaraf qilish va tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirildi. Logopedik tekshiruvlar natijalari va rejalashtirilgan korreksion ishlar keyinchalik tarbiyalanuvchilarning ko'rish qobiliyati, nutqining rivojlanganlik holati, idrok qilish usullari, individual ko'rsatkichlarini inobatga olib, differentsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil qilishga imkon yaratdi.

Turli mavzularga oid mashg'ulotlarda bolalarga tanish bo'lgan so'zlarning takrorlanishi va yangilarining kiritilishi hamda o'zlashtirilishiga alohida ahamiyat berildi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda "Denotatga munosabat", "Vaziyatga munosabat", "Taqqoslash", "Namuna bilan solishtirish", "Izoh asosida bilish" kabi texnologiyalardan foydalanildi. Yuqorida nomlari keltirilgan texnologiyalar ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlarini (fiziologik imkoniyatlari, og'zaki nutqi kamchiliklarining xususiyatlari, ko'rish darajasi) hisobga olgan holda takomillashtirildi.

Maktabgacha yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlar natijasida bolalar nutqi rivojlanganligining V darajasi aniqlandi, ya'ni ushbu darajaga ega bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklari to'liq bartaraf etilishiga erishildi. Natijada, bolalarning nutqi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida qayd etilgan 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun indikator ko'rsatkichlariga mos kelishi ta'minlandi. Nazariy tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlarining natijalari quyidagi pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqishga

imkonini berdi:- ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kompleksli logopedik tekshirishning diagnostik asosini tashkil etuvchi metodikaning moslashtirilgan variantidan og'zaki nutq kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etishning ratsional yo'llarini tanlash, nutqiy nuqson xarakterini, uning darajasini hamda bu kamchiliklar nutq komponentlariga ta'sir qilishini aniqlash maqsadida amaliyotga joriy etish- ko'rishida kamchiligi bo'lgan bolalarda og'zaki nutq kamchiliklarini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan korreksion-logopedik ish samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning nutqining rivojlanganlik darajasini har tomonlama tashxislash natijalarini tayanish, ishning maqsad va vazifalarini to'g'ri aniqlash va belgilash, monitoring natijalariga e'tiborga olish muhim. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning fiziologik imkoniyatlari, ko'rish darajasi, og'zaki nutq kamchilik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni bartaraf etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitning yaratilishini ta'minlashda ko'rishini himoyalash, ko'z kasalliklarining oldini olish va ko'rish tasavvurlarini rivojlantirish ishlariga alohida ahamiyat qaratish zarur- ko'rishida kamchiligi bo'lgan bolalar og'zaki nutq kamchiliklarini bartaraf etishda ko'rish qoldig'idan maksimal darajada foydalanish muhim ahamiyat kasb etganligi sababli ularga taqdim etilayotgan ko'rgazmali va tarqatma materiallarning ko'zga tashlanadigan qarama-qarshiligi (kontrast) asosiy fonga nisbatan 60 % dan 100 % gacha bo'lishi, ya'ni och fonda to'q ranglarda berilgan tasvirlarni farqlash, rang bilan to'ldirilgan siluetlarni, rasmlarning konturli tasvirdan foydalanishga erishish lozim.

Uzoqni ko'rishda muammolari bo'lgan bolalar uchun predmetlarni ko'zdan uzoqda joylashuvini har bir bola uchun individual tanlash asosida to'q rangdagi fon (yashil) va och rangdagi tasvir, yaqindan ko'rishda kamchiliklar kuzatilgan bolalarga esa uning aksi bo'lgan tasvirlarni qo'llash lozim. Ko'rishida kamchiligi bo'lgan bolalarda og'zaki nutq kamchiliklarining oldini olish va bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan korreksion-logopedik ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan variativ, muqobil dasturlar hamda tilni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradigan zamonaviy multimediya vositalarini, texnologiyalarni ishlab chiqish, takomillashtirishni amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.

#### **ХОРИЖ ТАЪЛИМ ТАЖРИБАСИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ НУФУЗИНИ АНИҚЛАШ МАСАЛАЛАРИ**

**Муталипова М.Ж. - Тошкент давлат педагогика университети ҳузуридаги ПК МО ва ҚТ тармоқ маркази катта ўқитувчиси**

**Аннотация.** Мазкур мақолада бугунги глобаллашув даврида дунё таълим тизимларининг баъзи жиҳатлари, хусусан олий таълим муассасаларининг нуфузини аниқлаш ҳамда уларни аккредитациядан ўтказиш масалалари кенг ёритилган.

**Калит сўзлар:** жаҳон таълим тажрибалари, жаҳон андозаси, миллий таълим-тарбия, аккредитация, аттестация, лицензия.

#### **ВОПРОСЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРЕСТИЖНОСТИ ВУЗОВ В ЗАРУБЕЖНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ**

**Муталипова М.Ж. - старший преподаватель отраслевого центра повышения квалификации и переподготовки педагогических кадров при Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В этой статье подробно рассматриваются некоторые аспекты мировых систем образования, включая определения престижности и аккредитацию высших учебных заведений в условиях современной глобализации.

**Ключевые слова:** мировой образовательный опыт, мировые стандарты, национальное образование - воспитание, аккредитация, аттестация, лицензирование.

## ISSUES OF DETERMINING THE PRESTIGE OF UNIVERSITIES IN FOREIGN EDUCATIONAL PRACTICE

**Mutalipova M.Zh. - Senior Lecturer, Center for Continuing Education and Retraining of Teachers at Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article discusses in detail some aspects of world education systems, including the definition of prestige and the accreditation of higher education institutions in the context of modern globalization.

**Key words:** world educational experience, world standards, national education - upbringing, accreditation, certification, licensing.

Юртимиз келажаги миллий таълим-тарбия тизимини жаҳон андозалари асосида такомиллаштиришга, унинг миллий заминини мустаҳкамлашга боғлиқ. Миллий таълим-тарбия тизимини жаҳон андозалари асосида такомиллаштиришнинг муҳим шартларидан бири эса чет эл таълим тизими тажрибаларини ўрганишни тақозо этади.

Турли давлатлар таълим тизимини ўрганиш орқали юртимиз таълим тизимига миллий менталитет хусусиятларини эътиборга олган ҳолда янгиликлар киритишда қўшимча бой манбаларга ҳам эга бўламиз. Зеро, бугунги глобаллашув даврида дунё таълим тизимларининг кўп жиҳатлари, хусусан олий таълим муассасаларининг нуфузини аниқлаш масалалари универсал бўлиб бормоқда.

Маълумки, олий таълим муассасаларининг нуфузи нафақат ўз давлати ичида, балки таълим хизматларининг дунё бозорида ўзининг аниқ инновацион сиёсати, концепцияси, стратегияси, вазифалари, тузилмаси, профессор-ўқитувчилар таркиби ва талабалар сонига кўра рақобатбардош бўлишга интилиши билан белгиланади.

Адабиётларни ўрганиш жараёнида ОўЮларининг нуфузини белгиловчи қуйидаги жиҳатлар аниқланди:

- олий таълим муассасаларининг машҳурлиги ва тарихий анъаналари (ташқил топган санаси; тури ва ҳ.); таъсисчилар; аккредитация, аттестация, лицензия; ижтимоий базаси; илмий-тадқиқот ишлари; олий таълим муассасаларининг меъморий услуби (архитектураси); ихтисосликнинг нуфузи; нодирлиги; талабаларни ўқишга қабул қилиш қоидаси; дипломнинг конверсияланиши; кадрлар имкониятлари; талабалар контингенти; чет эл талабалари сони; битирувчиларнинг иш билан таъминланганлиги; машҳур битирувчилар (VIP-шахслар); тўлов-шартнома асосида бир ўқиш жойига абитуриентлар танлови (аризаларга кўра); давлат гранти ва кредитлар, тўлов-шартнома бўйича таҳсил олувчи талабалар сони.

Қуйидаги чизмада дунёдаги етакчи олий таълим муассасаларининг нуфузини ташқил қилувчи жиҳатлари: ташқил топган даври, ихтисослиги, алоҳида хусусиятлари, чет эл талабалари сони ҳақида маълумотлар берилган.

Давлатлар	Олий ўқув юртлари	Ташқил топган йили	Ихтисосликлар, йўналишлар, фанлар	Қисқа маълумотлар
АҚШ	Гарвард университети Harvard University	1636	Ҳуқуқ, тиббиёт, иқтисодиёт, педагогика ва ҳ.	Америкадаги биринчи ОўЮ. Ҳар йили 1600 ўринга дунёнинг 100 та давлатидан ўртача 13000 ариза тушади. 40та мутахассислик бўйича таълим берилди.
ГФР	Иоханнес Гутенберг университети Johannes Gutenberg University	1477	Иқтисодиёт, ҳуқуқ, тиббиёт, табиий фанлар, таржима шунослик, гуманитар фанлар ва ҳ.	Университет фаҳри: Нахриёт санъати Бутунжаҳон музейининг мавжудлиги, ГФР телевидениесининг II канали. Умумий талабалар сони – 28000, чет эллик талабалар сони – 2000 (7%)
Швейцария	Федерал Политехника мактаби Ecole Polytechni	1853	Коммуникация, компьютер фанлари, математика, қурилиш, асбобсозлик,	Талабаларнинг умумий сони – 4500, чет эллик талабалар сони – 1000 (22%). Ўқиш француз тилида олиб борилди.

	qui Federale		қишлоқ хўжалиги, химия, физика, машина созиқ, муҳандислик ва ҳ.	Муҳандис ва (архитектор) меъмор дипломи берилди
Буюк Британия	Единбург университети University Edinburg	1583	Табиий ва ижтимоий фанлар, археология, мусиқа, тарих, қишлоқ хўжалиги, тиббит, филология, ҳуқуқ, фалсафа, ветеринария, теология, меъморчилик ва ҳ.	Европа университетлари билан тарихий алоқада бўлган Шотландия давлат университети. Талабалар умумий сони 16600, чет эллик талабалар сони 1527 (18%)
Япония	Киото университети Kyoto University	1897	Табиий фанлар, техника, қишлоқ хўжалиги, тиббиёт, ҳуқуқшунослик, иқтисодиёт, гуманитар фанлар, фармацевтика умумтаълим факультетлари ва ҳ.	Биринчи давлат ОўЮларининг бири, Япониянинг 9та энг нуфузли ОўЮлари сира сига киради. 10та факультет, 15та факультет миқёсидаги илмий-тадқиқот муассасалари, 21 университет ИТИлари бор. Талабалар сони - 15000

Демак, тарихий анъаналар, олий таълим муассасаларининг машҳурлиги, таъсисчилар, мутахассисликнинг нуфузи, ижтимоий базаси, илмий-тадқиқот ишлари, олий таълим муассасаларининг архитектураси, аттестация ва аккредитациядан ўтганлиги, лицензия мавжудлиги олий таълим муассасалари нуфузини белгилаб берувчи муҳим қирралардир. Масалан, 1912 йил бельгиялик Фарив де Васконселлос Брюсселга яқин бўлган Бьерже шаҳрида ўғил болалар учун мактаб-интернат ташкил қилади. Бу мактабнинг машҳурлиги ва нуфузини Васийлик Кенгашининг таркиби белгилаб берди. Кенгашга О.Декроли, Г.Компейре, А.Ферьер каби таниқли маҳаллий ва чет эл педагоглари, А.Метерлинк, Э.Верхарн каби кўзга кўринган ёзувчилар аъзо эдилар. Мактаб-интернатда 8 ёшдан 18 ёшгача бўлган 25та ўқувчига 17 ўқитувчи сабоқ берар эди.

Германияда университетларга тадқиқот муассасалари сифатида қараш бор. Лабораторияларда иқтидорли талабалар қуршовидаги профессорни кўриш немислар учун идеал ҳисобланади.

Американинг энг зўр университетларида аспирант-докторантлар сони талабалар сонидан кўп бўлиши мумкин ва айнан шу ҳолат университетнинг обрўси ва нуфузини белгилаб беради, таълим илмий тадқиқотлар билан бирга олиб борилиши тушунилади. Масалан, Стенфорд университетида талабалар сони 6500, аспирантлар сони эса 6900ни ташкил этади.

Аккредитацияланган олий таълим муассасалари фан ривожланишига ҳамда кам таъминланган талабаларга стипендиал ёрдам кўрсатиш учун катта маблағга талабгор бўлиб, таълимни ривожлантиришга оид федерал дастурларда иштирок этиш ҳуқуқига эга бўлади ва табиий, бу дастурни қўлга киритиш орқали ОўЮнинг нуфузи ортади.

Олий таълим муассасаларининг *анъанавий аккредитация*сини аниқ ташкилот маълум мезонлар бўйича ўтказди (масалан АҚШда мезонлар сони 400та) ва мезонлар бўйича талаблар қандай бажарилганлиги текширилади. Шу билан бирга АҚШда *муқобил (альтернатив) аккредитация* ҳам юзага келган бўлиб, унинг моҳияти шундан иборатки, ОўЮларининг ўзи стратегик мақсадларни белгилайди ва аккредитация қиладиган уюшма ёрдами ва назорати остида унинг бажарилишига эришади. АҚШ университетлари қошидаги Бизнес - мактаблар ривожланиши бўйича уюшма 1997 йилдан бери турли давлатлардаги 45 та бизнес- мактабни аккредитациядан ўтказди, 80 та чет эл олий таълим муассасалари аккредитациядан ўтиш учун навбат кутиб турибди. Бу уюшма томонидан аккредитация қилинган олий таълим муассасалари нафақат шўҳрат қозонди, балки талабалар қабулини кўпайтириш имконини берувчи нуфузга эга бўлди.

Таълим муассасасининг нодирлиги ҳақида сўз юритилганда фақат унга тегишли бўлган тавсиф, ўзига хослик назарда тутилади. Масалан, АҚШда Джоржтаун университети талабалари АҚШ Конгресси кутубхонасидан фойдаланиш имконига эга. Оригон университетида хорижлик талабаларга инглиз тилининг “америкача” варианты ўргатилади. Буюк Британиянинг Кембридж университетида магистратура ва докторантура “бирга қўшилган”, яъни магистратурани муваффақиятли тугаллагач, докторлик даражасини олиш мумкин. Швейцариядаги Европа университетининг бакалавриат йўналишида таълим француз ва инглиз тилларида, магистратурада эса фақат инглиз тилида олиб борилади.

Мутахассислик нуфузи ҳақида гап кетганда Англиядаги машҳур қонидани эслаш жоиз. Унга кўра “Кембридж университети битирувчилари ўз билимларини кенгайтирадилар, Оксфорд битирувчилари эса давлатни бошқарадилар” дейилади. Бунга сабаб Оксфорд университети асосан ижтимоий-гуманитар йўналишда, Кембридж университети эса асосан табиий-илмий йўналишда мутахассисларни тайёрлашидадир.

Мухтасар қилиб айтганда, юртимиз олий таълим муассасалари ҳам дунё таълим бозорида рақобатбардош бўлишга интилиши лозим, бунинг учун эса олий таълим муассасалари нуфузини белгилаб берувчи муҳим қирраларга катта эътибор берилиши зарурдир.

### **МАСАЛА ВА МАШҚЛАРНИНГ ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДАГИ ЎРНИ**

**Султанова Н.Б. - Тошкент давлат педагогика университети доценти**

**Тошхўжаева Н. Р. - Тошкент давлат педагогика университети магистранти**

**Абдурахмонов М. - Тошкент давлат педагогика университети талабаси**

**Аннотация.** Ушбу мақолада географик мақсадларига эришиш, география таълимнинг самарадорлигини ошириш ва географик билимларни эгаллашда масала ва машқларнинг ўрни ва аҳамияти ёритилган. Унда географик масала ва машқлар мураккаблик даражасига кўра 5 турга ажратилиб, улар мисоллар мисоллар ёрдамида очиқ берилган.

**Калит сўзлар:** география, масала, машқ, мантиқий фикрлаш, амалий кўникма, географик тушунча, географик қонуният, амалий кўникма.

### **ЗНАЧЕНИЕ ЗАДАЧ И УПРАЖНЕНИЙ В ГЕОГРАФИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Султанова Н.Б. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета**

**Ташходжаева Н. Р. - магистр Ташкентского государственного педагогического университета**

**Абдурахманов М. - студент Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** А настоящей статье освещено место и роль задач и упражнений в достижении целей и повышении эффективности географического образования, овладении географическими знаниями. Географические задачи и упражнения рассмотрены разбив на 5 групп, приведены примеры.

**Ключевые слова:** география, задача, упражнение, логическое мышление, практические навыки и умения, географические понятия, географическая закономерность.

### **THE ROLE OF PROBLEMS AND EXERCISES IN GEOGRAPHIC EDUCATION**

**Sultanova N.B. - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University**

**Tashkhodzhaeva N. R. - Master degree student of the Tashkent State Pedagogical University**

**Abdurakhmanov M. - student of the Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** This article is dedicated to the achievement of geographical purposes, to increase the effectiveness of geographical education and the importance of tasks and exercises in mastering geographical knowledge. It includes geographical tasks and exercises, which are divided into five types according to complicity and they are revealed by exercises.

**Key words:** geography, task, exercise, logical thinking, practical skills, geographical concepts, geographical regularity.

Таълим тизимида ўқувчилар томонидан ўқув фанини ўзлаштирилганлик даражасини нафақат назарий билимлар билан, балки олинган билимларни турли хил шароитларда қўллай олиши орқали ҳам белгиланади. Агар ўқувчи математикадан теорема ва қонунларни билса-ю, аммо масала ечишни

билмаса, бу уни математикани билмаслигини кўрсатади. Афсуски, кўпчилик ўқитувчилар бу география фанлари учун ҳам тааллуқли эканлигини билмайди. Чунки географиядан ҳам худди математика, физика, кимё ва биология фанлари каби кўплаб масала ва машқлардан фойдаланиш имконияти катта<sup>1</sup>.

Шу сабабли ҳам ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган билимлар фақат улардан кўп талаб қилинадиган географик атамалар билан белгиламай, балки уларни муаммоли вазиятларда қўллай олишини ҳам ҳисобга олиш зарур. Таълим жараёнида ўқувчилар томонидан географик билимларни эгаллашларида энг самарали усулларида бири масала ва машқлардан фойдаланган ҳолда мавзу мазмунини ёритиб беришдир. Ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини, мантиқий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришда масала ва машқларнинг амалий аҳамияти муҳим саналади. Шунингдек, масала ва машқлар география таълимининг самарадорлигини ошириш ва ўқувчи маълум даражада ўз олдига қўйган географик мақсадларига эришишда, географик, шунингдек, математик компетенцияларни амалга оширишда ўзига хос ўрин эгаллайди. Масала – муаммоли саволлардан иборат бўлиб, маълум бир географик воқеа ва ҳодисалар ечимига қаратилган бўлади. Масала географик кўникма ва малакаларни шакллантиради. Масалада саволлардан фойдаланишнинг асосий мақсади географик тушунчаларни ўзаро боғлаш, аниқлик киритиш ва англаб етишдир. Масала саволлари географик тил ва белгиларни ўзлаштиришда ҳам муҳимдир. Таълим жараёнида исбот талаб қиладиган машқлар, жумладан, тушириб қолдирилган сўзларни тўлдириш, матндаги хатоликларни топишга қаратилган машқлар аниқ исботлашга мисолдир. Бундай кўринишдаги машқларни Табиий география бошланғич курси ва Материклар ва океанлар табиий географияси дарсларида қўллаш юқори самара беради. Машқ-ўқувчиларда малака ва кўникма ҳосил қилишда амалиёт билан боғланган энг самарали методдир. Машқ – инсон олдига қўйган мақсадни амалга ошириш, ижобий натижага эга бўлиш учун қилинган машаққатли меҳнатдир. Машқ қилиш орқали ўқувчи ўқув ва амалий кўникма ва малакага эга бўлади, аввал ўзлаштирилган билимларини ёдга солади. Машқ қилмай ўқув ва амалий кўникма ва малакага эга бўлинмайди. Масала ва машқларнинг бирдан-бир энг муҳим томони ўқувчиларнинг дарс давомида ижодий фикрлаш фаолиятини фаоллаштиришдан иборат. Ўқувчиларнинг фикрлаш фаолиятини фаоллаштиришда географик масалалар ечишда улар нафақат географик воқеа ва ҳодисалар, балки уларнинг келиб чиқиш сабаблари ҳамда хусусиятларини эса сақлаб қолишга, ривожланиш қонуниятлари ва оқибатлари ҳақида фикрлаш, баён этишга, маълумотларни таққослашга, уларни ўхшашлик ва фарқли томонларини аниқлашга, тўғри хулосалар чиқаришга ўргатади. География таълимида фойдаланиладиган масала ва машқларни мураккаблик даражаси, шакли ва маъносига қараб классификация қилиш мумкин. Ўқувчиларга таклиф этилаётган масалалар (у дарсда ёки дарсдан ташқари ўтказиладиган олимпиада, билимлар синовида бўлсин)ни мураккаблик даражага қараб 5 турга ажратишимиз мумкин. Уларни билимларни ўзлаштириш даражаси билан чалкаштирмаслик керак. Дидактика билимларни ўзлаштиришни уч гуруҳга бўлиши маълум, яъни репродуктив ўзлаштириш, стандарт масалаларни ечиш ва ижодий масалаларни ечишни билишдир.

Мураккаблик даражаларига кўра масала ва машқлар қуйидагича:

➤ Биринчи даражали масалалар. Оддий билимларни такрорлаш ва таққослаш билан боғлиқ бўлиши мумкин. Бундай масалалар кўпроқ ўқувчиларнинг хотирасини текшириш учун қўлай. Масалан, мактабга 45<sup>0</sup> азимут билан борсангиз, уйга қайси азимут ва уфқ томони билан қайтиб келасиз?

➤ Иккинчи даражали мураккабликка эга бўлган масалалар. Уларни ечишда айрим географик қонунларни тадбиқ эта олишни ва айрим ҳодисаларни таққослаш талаб этилади. Шунингдек, ушбу даражадаги масалалар ўқувчиларидан бошқа фанлардан олган билимларини ҳам уларнинг ечимини топиш учун сафарбар этади. Масалан, денгиз сатҳида ҳаво ҳарорати +26<sup>0</sup>С бўлса, 4800 метр баландликдаги ҳаво ҳароратини неча даражага тенг бўлади.

➤ Географиядан учинчи даражали масала ва машқларни ечишда бир неча амалларни бажариш, объектнинг табиатдаги ва инсон ҳаётидаги аҳамиятини билиш талаб этилади. Фанлараро

<sup>1</sup> Баратов П., Султанова Н. Умумий ер билими. – Т.: INFO CAPITAL GROUP, 2018.



боғланишни амалга ошира олишни, ўзлаштирилган билимлардан фойдаланиб масала ечимини топишга ҳаракат қилиш керак бўлади. Масалан, Амударё ўз оқими давомида 100 000 дан 500 000 гача қайси аҳоли манзилгоҳлари яқинидан, яъни, шаҳарлардан оқиб ўтади? Шаҳарларни манбаидан мансабига томон кетма-кетликда жойлаштиринг ва нима сабабдан ушбу шаҳарларда аҳоли кўп яшашини таҳлил қилинг.

Ечиш: Бунда дастлаб сиёсий картадан Амударё қирғоқларида жой-лашган шаҳарлар топиб олинади. Сўнгра карта легендасидан фойдаланиб аҳоли сони бўйича шаҳарлар ажратиб олинади ва уларни манбаидан мансабига томон кетма кетликда ёзиб чиқилади. Нима сабабдан аҳоли кўп яшашини таҳлил қилинади.

Жавоб : Термиз, Нукус, Туркманобод ва ҳ.к

Юқоридаги учинчи даражали масалани тўртинчи даражали масала кўринишига ўтказишимиз ҳам мумкин. Бунинг учун масала шартига бир нечта ўзгартиришлар киритишимиз керак бўлади, яъни, аҳолиси 100 000 дан 500 000 гача бўлган шаҳарлар рўйхатини айнан текислик ҳудудида жойлашганларини белгиланг, ёки фақат Ўзбекистон ҳудудида жойлашганларини белгиланг.

➤ Тўртинчи даражали мураккабликка эга бўлган масала ҳамда машқларга жавоб беришда ўқувчилар бошқа фанлардан олган билимларини ҳам сафарбар этишни билишлари керак. Шунингдек, бир неча босқичда масала ечиш кўникмаларига эга бўлиши керак. Масалан, Тошкентда минтақа вақти билан соат кундузи 12 бўлса, Тошкент ва Нукусда маҳаллий вақт билан соат неча бўлади?

Ечиш: Маълумки, бир меридиан доирасидаги вақт қуйидаги формула ёрдамида топилади.

$$m = M - N + f$$

Бу ерда, M - минтақа вақти, N - соат минтақаси рақами, m - маҳаллий вақт, f – жойнинг географик узунлиги.

Тошкент 4-соат минтақасида жойлашган. Унинг географик узунлиги вақт ҳисобида қуйидагича аниқланади:

$$\begin{aligned} 69^\circ : 15^\circ &= 4,6 \\ 1 \text{ соат} - 60 \text{ минут} \\ 0,6 - x \end{aligned} \quad x = \frac{0,6 \times 60}{1} = 36$$

Демак, Тошкентнинг маҳаллий вақт ҳисобидаги узунлиги 4 соат- у 36 минутга тенг.

Бир соат минтақасидаги вақт  $M = N + m - f$  формуласи ёрдамида ҳисоблаб топилади. Бунда M- минтақа вақти, N- соат минтақаси рақами, m- маҳаллий вақт, f – жойнинг географик узунлиги.

Юқоридаги маълумот асосида формула ёрдамида Тошкентдаги маҳаллий вақтни топамиз.

$$m = M - N + f = 12^\circ - 4 + 4, 36 = 12,36$$

Жавоб: Тошкентда минтақа вақти билан соат кундузи 12 бўлганда, маҳаллий вақт билан кундузи 12,36 бўлади. Шу тартибда Нукус шаҳрининг ҳам маҳаллий вақти топилади.

➤ Географияга оид бешинчи даражали масала ва машқларда бир вақтнинг ўзида бир нечта ҳисоблаш ишларини амалга ошириш билан бир қаторда объектларни бир-бирига таққослаш, улар орасидаги ўхшашлик ва фарқларнинг сабабларини аниқлаш, масалалар ечимини топишда географик қонуният ва назарияларни тадбиқ этиш талаб этилади. Масалан, Каспий денгизи сув сатҳида сув энг зич бўлган ҳолатда Ботир тоғининг энг баланд нуқтасида ҳаво ҳарорати қандай?

Ечиш: Биринчи босқич: Бунда мутлоқ баландликларни билиш ва уларнинг қийматини топиш керак.

Каспий денгизи -28 м, Ботир тоғининг энг баланд нуқтаси 132 м ташкил этади.  $27 \text{ м} + 132 \text{ м} = 159 \text{ м}$

Иккинчи босқич. Бунда топилиши керак бўлган ўлчов сув энг зич бўлган ҳарорат. Сув қиздирилганда  $+4^\circ\text{C}$  да энг зич бўлади. Сув ҳароарти  $+4^\circ\text{C}$  дан ошганда ҳам камайганда ҳам унинг зичлиги ўзгаради.

Учинчи босқичда юқорига кўтарилган сари ҳар 100 метрда ҳароарт 0,6 даражага камайиб бориши қонуниятидан фойдаланиб, 159 метр баландликдаги ҳароратни топиш керак.

$$100 \text{ м} - 0,6^\circ\text{C}$$

$$x = 159 : 100 = 1,59$$

$$1,59 \times 0,6 = 0,95, \text{ ушбу сонни яхлитласак } 1^\circ\text{C}.$$

Тўртинчи босқичда масаладаги муаммо ўз ечимини, яъни, баландликдаги ҳароратни топиши керак:  $4 - 1 = 3$  Жавоб:  $3^{\circ}\text{C}$ .

Масала қанчалик юқори даражали бўлса ўқувчидан шунчалик кўпроқ фикрлашни ва мураккаб мантиқий амалларни бажаришни талаб этади<sup>1</sup>.

География фанларида ҳам математика, физика, кимё, биология ва иқтисод фанлари сингари рақамлар, статистик маълумотлар, фактлар билан ишлаш орқали географик тушунча ва бил имлар ҳосил қилинади. Географдан ана шу рақамлар, статистик маълумотлар, фактлар билан ишлаш билиш, қўйган мақсадга кўра улар асосида ҳисоб-китоб, математик амаллар, кузатишларни амалга ошириш, уларнинг динамикасидаги ўзгаришлар асосида хулосалар чиқариш, қарор қабул қилиш кўникмасига эга бўлиш талаб этилади. Бу ўз навбатида география фанлари тизимини чуқур ўрганиш, имкон қадар реал воқеликка яқин тажрибалар ўтказиш, назарий қонун-қоидаларни синаб кўришни зарур қилиб қўяди.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, география фанларининг хусусиятларидан келиб чиқиб, уларни ўрганишда марказий ўринни масала, машқ ечиш эгаллайди. Сабаби:

Биринчидан, масала ва машқ ечиш фанни ўрганишнинг бош мақсади – олинган билимни амалиётга қўллаш имконини таъминлайди.

Иккинчидан, масала ва машқ ечиш орқали талабаларнинг билим олишдаги фаоллиги ортади.

Учинчидан, масала талабани фикрлаш ва хулоса чиқаришга ўргатади.

Шунинг учун ҳам масала сўзига фақат ҳисоб-китоб асосида топшириқни бажариш, жавобни аниқлаш эмас, балки фикр юритиш объекти сифатида қаралиши лозим. Географик масалалар ўқувчилар фикрини уйғотиши, уларни китоб билан ишлашга ўргатиши, ривожлантириши, шакллантиришга қаратилиши керак.

## МАТЕМАТИК MODELASHTIRISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

**O'rinboyeva L.O'. - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi  
Eshpo'latov N. – pedagogika fanlari nomzodi**

**Аннотатсия.** Мақоллада математик моделасhtirish асосида о'қувчиларнинг иqtisodiy tafakkurini rivojlantirish yo'llari va аhamiyati iqtisodiy masalalarning matematik modelini yaratish hamda yechish usullari orqali ochib berilgan.

**Калит сўзлар:** model, manba, matematik model, modelashtirish, matematik modelashtirish, miqdoriy munosabatlar, narsa va hodisalarning matematik ifodalari, moddiy va ideal modelashtirishlar, matematik modelashtirishning strukturaviy tuzilishi, iqtisodiy ekstremal masalalar.

## РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧЕНИКОВ НА ОСНОВЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ

**Уринбоева Л.У. – старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Эшпулатов Н. – кандидат педагогических наук**

**Аннотация.** В статье раскрыты пути и значения развития экономического мышления учеников на основе математического моделирования путем разработки и решения математических моделей экономических задач.

**Ключевые слова:** модель, источник, математическое моделирование, моделирование, количественные отношения, математические представления объектов и событий, материальное и

<sup>1</sup> Шахмурова Г., Азимов И., Рахматов У. Биологиядан масалалар ва машқлар ечиш. – Т.: Сано-стандарт, 2017

идеальное моделирование, структура математического моделирования, экстремальные экономические проблемы.

#### THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC THINKING OF STUDENTS BASED ON MATHEMATICAL MODELING

Urinboeva L.U. - Senior Lecturer, Tashkent state pedagogical university

Eshpulatov N. - candidate of pedagogical sciences

**Annotation.** In the given article was described the ways and means of developing students' economic thinking based on mathematical modeling by developing and solving mathematical models of economic problems.

**Key words:** model, source, mathematical modeling, modeling, mathematical modeling, quantitative relations, mathematical representations of objects and events, material and ideal modeling, structure of mathematical modeling, extreme economic problems.

Matematika o'zining tarixiy rivojlanish jarayonida tabiatda uchraydigan narsa-hodisalarning shakli, ko'rinishi, o'lchamlari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlar hamda ulardan kelib chiqadigan qonun, qoida, xossalarni o'rganib kelmoqda va o'rganadi. Shuning uchun ham matematika tabiatda uchraydigan miqdoriy munosabatlar, narsa va hodisalarni ularning matematik ifodalari orqali o'rganishga va ulardan kishilik jamiyati tomonidan o'rganilmagan yangi xossa, qonuniyatlarni keltirib chiqarishga, jamiyatni, tabiatni o'rganish tajribasini boyitishga harakat qiladi. Shu bois matematikada ko'p uchraydigan tushuncha "model" so'zi bo'lib, uni umumta'lim maktablarida ko'proq masala shartiga ko'ra tenglama, tengsizlik, funksiya tuzamiz so'zlari bilan almashtirib kelinadi. Tabiatda uchraydigan narsa va hodisalarining matematik (agar uni tuzish mumkin bo'lsa) ifodasi, uning matematik modeli deb qaraladi va o'rganiladi. Model so'zini har doim ishlatamiz va uni nima ekanigini tasavvurimizga ham keltiramiz hamda aviamodel, kiyimlar modeli (andazasi), avtomobil modeli kabi tushunchalar orqali fikr yuritamiz. Fan va texnikada model, modellashtirish tushunchalaridan keng foydalanilgan holda modelni tahlil, tadqiq qilish natijasida modellar bloki (majmuasi), modelning strukturasi kabi tushunchalar fanlar (fizika, ximiya, biologiya, tibbiyot, sotsiologiya, iqtisod va boshqalar)ning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi va bo'lmoqda. Shuning uchun model atamasidan har bir fanda uning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli maqsadlarni amalga oshirish mumkin. Sodda qilib aytganda, bu tushunchaning imkoniyatlari keng, uning qat'iy chegarasi aniqlanmagan, lekin har bir aniq model uchun ma'lum chegaraviy shartlar qo'yish mumkin, bu izlanishning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham bizning maqolamizda "model", "modellashtirish", "matematik modellashtirish" kabi tushunchalar ko'p uchraydi. Chunki, matematik modellashtirishda fikr qaysi manbani—obyektni modellashtirilganiga yo'naltiriladi. Shu bois ikki tushuncha - "model" va "manba" tushunchasi matematik modellashtirishning asosini tashkil etadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, model bilan manba orasida dialektik bog'lanish doim mavjud bo'lib kelgan, shu bois uni quyidagi matematik jumlada ko'rish mumkin: Bizga A va B manbalar berilgan bo'lib, X shu manbalarning elementlari orasidagi munosabatlar to'plami bo'lsin, Y esa X dan farqli o'laroq faqat A manba elementlari orasidagi munosabatlar to'plami bo'lsin deylik, Z esa X dan farqli bo'lgan B manba tegishli bo'lgan munosabatlar to'plami bo'lsin. Agar hosil qilingan X, Y, Z lar uchun  $X \Delta Y \Rightarrow Z$  munosabati o'rinli bo'lsa u holda A har doim B manbaning modeli yoki B esa A modelning originali deb qaraladi.

Keltirilgan mantiqiy mulohazadan ko'rinib turibdiki, manbani o'rganish uchun uning modelini atroflicha o'rganish bevosita manbani modellashtirish metodi tushunchasini keltirib chiqaradiki, bu metod keyingi yillarda ilmiy-texnika taraqqiyotining asosidan muhim o'rinni egallab kelmoqda.

Modellashtirish tushunchasining ham psixologik, ham falsafiy tomonlari atroflicha bir guruh olimlar tomonidan chuqur talqin qilingan umumlashtiruvchi yaxlitlikka keltiruvchi shunday o'ziga xos yo'nalishki, bundan faqat fanlar rivojlanadi. Jumladan, faylasuf olim, akademik J.Tulenovning ta'kidlashicha: "Modellashtirish borliqni bilvosita o'rganishga asoslangan ilmiy usuldir. Modellashtirish asosida tadqiq

<sup>1</sup> Мышкис А.Д. Элементы теории математических моделей. М.: Ком Книга, 2007, 192 стр.

qilinayotgan manba bilan uning modeli o'rtasida o'xshashlik, muvofiqlik yotadi. Modellashtirish usuli ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi ba'zi hollarda murakkab obyektlarni o'rganishning yagona vositasi hisoblanadi<sup>1</sup>.

Modellashtirish jarayonining qiyinlik darajasi har xil bo'lishi mumkin, masalan 2-sinf o'quvchisi bir masalaning tenglamasini (modelini) tuzishda qiynalsa, 3-sinf o'quvchisi shu masalaning tenglamasini juda oson va tez tuzishi mumkin. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh harakati modelini tuzishda yo to'rt o'lchovli, yo olti o'lchovli, yo uch o'lchovli fazoda qaralishiga mos ravishda uning murakkabligini tassvur qilish qiyin emas. Shuning uchun, qanday predmet va hodisalar yoki qanday ko'rinishdagi masalalarga model yaratish ustida fikr borishiga bog'liq. Demak, model deb shunday moddiy (predmetli) yoki xayoldagi (ideal) ko'z oldimizga keltiriladigan obyektga aytiladiki, u tadqiqot jarayonida asl obyektни almashtiradi. Ko'pincha biror obyektни original holda o'rganishdan ko'ra uning modelini tekshirish, tadqiq qilish ancha qulay va oson bo'ladi.

Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, model so'zi o'zining tuzilmaviy jihatidan ko'p qiymatli bo'lib, ular orasidagi bog'lanishlar ham har hil darajada amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Shu bois ham "model bilan uning asli orasidagi bog'lanishlarning ichidan noqulay qiymatlarni chiqarib tashlash, izomorfizm darajasini saqlovchi qonuniyatlar va nazariy manbalarni qoldirish kerak".

Narsa va hodisalar, har xil masalalardagi yangi ma'lumotlar asosida asl obyektning tom ma'nodagi modelini yaratishga harakat qilish mumkin, aks holda modelni yanada takomillashtirish zarur bo'ladi. Modellar berilishi jihatidan ikki xil: moddiy (predmetli) va xayoliy bo'lishi mumkin. Moddiy narsalardan yasalgan modellar moddiy modellar deyiladi. Xayoliy modellar (ideal) g'oyalar yig'indisi shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Modellashtirish deganda – bu asl obyektning modelini qurish (yaratish), uni o'rganish (tadqiq qilish) va joriy etish jarayonidan iborat. Modellashtirishning muhim xususiyati shundaki, u asl obyektни bevosita o'rganmasdan turib, uni yordamchi obyektlar asosida o'rganish metodidir. Ma'lumki, obyektlarni bilvosita o'rganish zaruriyati ba'zi obyektlarni bevosita o'rganish mumkin emasligidan kelib chiqadi. Masalan, yer ekvatorining uzunligini, koinotning sirlarini, iqtisodiyotning kelajakdagi holatini, jamiyatning kelajakdagi talab va ehtiyojlari va hokazolarni obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra to'laqonli va atroflicha o'rganish mumkin bo'lavermaydi. Shuning uchun ham modellashtirish jarayonida asosan subyekt (tadqiqotchi), tadqiqot obyekti va asl obyekt modeli qatnashadi va bu jarayon o'zining strukturasi nisbatan bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, qaralayotgan obyektning ilmiy asoslangan interpretatsiyasini (andozasini) tasavvurga keltirishga yordam beradi. Modellashtirish hozirgi davrda har bir fan rivojida uchraganligi va uning rivojiga o'zining ma'suliyatli hissasini qo'shayotganligini e'tiborga olsak, u holda iqtisodiyotdagi modellashtirishning, ayniqsa, matematik modellashtirishning muhim ahamiyatga ega bo'lgan metod bu modellashtirish bo'lib, u asosan ikki guruhga bo'linadi: moddiy va ideal modellashtirishlar.

Moddiy modellashtirishning fazoviy, fizik va o'xshash turlari mavjud bo'lib, fazoviy modellashtirishlarda shunday modellar ko'riladiki, ular o'zlarida o'rganilayotgan obyektlarning fazoviy xossalarni mujassamlashtirgan bo'ladilar. Obyektlarning turli xil maketlari bunga misol bo'la oladi.

Fizik modellashtirishda shunday modellar ko'riladiki, bu modellar yordamida o'rganilayotgan obyektidagi jarayonlarning dinamikasi ya'ni vaqt o'tishi bilan o'zgarishini texnikada jumladan, radioelektronika yo'nalishida juda keng tarqalgan metoddir.


O'xshatib modellashtirish keng tarqalgan metod bo'lib, u model va obyektning moddiy (predmetlik) tavsifidagi o'xshashlikka asoslangan bo'ladi.

Ideal modellashtirish moddiy modellashtirishdan keskin farq qilgan holda, u model bilan asl obyekt orasidagi ideal (xayoliy) bog'lanishlarga asoslanadi. Shu bois uni ikki guruhga: rasmiylashtirilgan va rasmiylashtirilmagan modellashtirishlarga ajratiladi. Rasmiylashtirilgan modellashtirishga model tarkibida asosiy sifatlar, belgilar, obrazlar tizimi kiradi. Bu belgilar, obrazlar yordamida ularni almashtirish imkoniyati hamda ular ustida bajariladigan amallarning qonun va qoidalari beriladi.

Agar model faqat belgilar tizimidan iborat bo'lsa, u holda bunday modellashtirish belgili modellashtirish deyiladi. Belgili tizimlarga chizmalar, grafiklar, sxemalar, formulalar misol bo'la oladi. Belgili (simvulli) modellashtirishning eng muhim turi bu matematik modellashtirishdir.

<sup>1</sup> J. Tulenov. Dialektika nazariyasi. T.: O'zbekiston, 2001.

Matematik modellashtirish o'zining strukturaviy tuzilishi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: moddiy-matematik, mantiqiy-matematik, umumlashtirilgan-matematik, interpretatsiya, o'xshatib modellashtirishlarga ajraladi. Matematik modellashtirishda modellar asosan matematik belgilar, chizmalar, formulalar majmuasi ko'rinishida tasvirlanadi. Formulalarni almashtirish esa mantiq va matematika qoidalariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Matematik modellashtirish har bir fanda va uning tadbirlarida katta ahamiyat kasb etadi. Rasmiylashtirilgan modellashtirish turlaridan biri – bu obrazli modellashtirish bo'lib, unda modellar fikran tahlil qilinadi. Obrazlar orasidagi munosabat qoidalari aniq ifodalangan bo'ladi. Rasmiylashtirilmagan modellashtirishda modellar ta'riflanmaydi, ya'ni rasmiylashtirilmaydi. Matematikaning boshqa biror fan rivojiga ta'sirini o'rganar ekanmiz, biz o'sha fanda albatta matematika o'zining u yoki bu turdagi modeli bilan qatnashayotganining guvohi bo'lamiz.



Matematikaning jamiyatimizda hozirgi kunda bo'layotgan iqtisodiy sharoitlarga taqbiqini tahlil qilsak, bunda bir tomondan o'quvchilar bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy tushunchalar bilan matematik tushunchalar orasidagi munosabat, qoida, qonunlar bilan tanishtirilsa, ikkinchi tomondan sanoat, qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaligi, mulkchilikning turlari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy tushunchalar bilan matematik tushunchalar orasidagi bog'lanish qonun, qoidalarini o'rganadilar. Agarda biz bu tizimdagi bog'lanish, qonun, qoidalarini o'quvchilarga muntazam ravishda tushuntirib, o'rgatib borsak, ularda sekinalik bilan iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham, har bir iqtisodiy sharoit yoki masalarning yechimini topish uchun o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatamiz. Bunda o'quvchilar har bir iqtisodiy sharoit yoki masalani bo'laklarga ajratib tahlil qiladi. Masala shartida qatnashayotgan noma'lum kattaliklar bilan ma'lum kattaliklar orasidagi bog'lanish qonuniyatlarini topadi. Shu asosda ularni bog'lash yoki sintez qilish natijasida muayyan iqtisodiy sharoit yoki masalaning matematik ifodasi, modeli (tenglama, tengsizligi, tenglamalari yoki tengsizliklar sistemasi, funksiyasi ko'rinishida) yuzaga keladi. So'ngra, topilgan ifoda (model) unda qatnashayotgan noma'lumga nisbatan o'rganilsa, masala sharti va talabi bo'yicha qanoatlantiruvchi javob izlanadi, hamda topiladi.

Ma'lumki, iqtisodiy masalaga matematik model yaratish – bu iqtisodiy masala tarkibida qatnashayotgan iqtisodiy komponentlar orasidagi iqtisodiy bog'lanish qonuniyatlarini matematika qonuniyatlari bilan teng kuchli tarzda almashtirish natijasida hosil bo'lgan matematik formula (tenglama, tengsizlik, funksiya) hisoblanadi.

Quyida bir nechta iqtisodiy masalalarning matematik modelini yaratish metodikasini ko'rsatishga harakat qilamiz.

**1-masala.** Og'irligi 32 kg bo'lgan qum va sement aralashmasining 55% i sement bo'lsa, unga necha kilogramm sement qo'shilsa, tarkibning 60% ini sement tashkil qiladi?

Avvalo, bu masalaning matematik modelini quramiz. Modelni yaratish uchun mavjud holatni, ya'ni masala shartini tahlil qilamiz. Agar aralashmaga qo'shiladigan sement miqdorini  $x$  deb belgilasak, ya'ni hosil qilingan arashma og'irligi  $(32+x)$  kg bo'lib tarkibining 60% i sement va 40% i qumdan iborat bo'lishi lozim. Demak, dastlabki aralashmadagi qum miqdorini saqlagan holda sement qo'shish kerakligini bildiruvchi model tuzish lozim. Buning uchun dastlabki aralashmadagi qum miqdori  $32 \cdot 0,45$  kg. ekanidan keyin

aralashmada o'zgarmaganligini e'tiborga olgan holda  $32 \cdot 0,45 = 0,4(32+x)$  kg. tenglik hosil bo'ladi. Hosil qilingan chiziqli tenglama berilgan masalaning matematik modeli hisoblanadi. Agar bu tenglamani yechsak,  $x=4$ kg ekanligi kelib chiqadi.

2-masala. Bahosi 250 so'm bo'lgan mahsulotning narxi ikki marta ketma-ket bir xil foizga arzonlashtirilgandan keyin 200 so'm 25 tiyin bo'lgan. Mahsulot narxi har gal necha foizga arzonlashgan?

Masalaning matematik modelini tuzamiz. Masala shartiga ko'ra, mahsulot narxi har gal bir xil foizga arzonlashgani uchun uni  $x\%$  deb belgilasak, u holda birinchi arzonlashtirishdan keyin  $250(1 - \frac{x}{100})$  so'm, ikkinchi arzonlashtirishdan keyin esa

$$250(1 - \frac{x}{100}) - 250(1 - \frac{x}{100}) \cdot \frac{x}{100} = 250(1 - \frac{x}{100})^2 = 200,25 \text{ so'm hosil bo'ladi. Demak,}$$

berilgan iqtisodiy masalaning matematik modeli  $250(1 - \frac{x}{100})^2 = 200,25$  dan iborat bo'lar ekan.

Masalaning matematik modeli yaratilganidan so'ng uni yechish algoritmini topish o'quvchidan mahorat talab qiladi.

3-masala. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonining eni 4 metr uzaytirilib, bo'yi esa 2 metr kamaytirilsa, uning yuzi  $8 \text{ m}^2$  ga ortadi. Agar eni 3 metr kamaytirilib va bo'yi 1 metr uzaytirilsa, uning yuzi  $23 \text{ m}^2$  ga kamayadi. Maydonning o'lchamlarini toping.

Masala shartiga ko'ra, maydon to'g'ri to'rtburchakdan iborat. Uning enini  $x$  va bo'yini  $y$  deb belgilasak, yuzasi  $S=x \cdot y$  bo'ladi

Bu formuladagi  $x$ ,  $y$  va  $S$  miqdorlarning masala shartiga ko'ra o'zgarishlarini hisobga olsak,  $(x+4)(y-2)=x \cdot y+8$  va  $(x-3)(y+1)=x \cdot y-23$  ko'rinishidagi tenglamalarni hosil qilamiz. Natijada, masala talabiga asosan, uning ushbu tenglamalar sistemasi

$$\begin{cases} (x+4)(y-2)=x \cdot y+8 \\ (x-3)(y+1)=x \cdot y-23 \end{cases}$$

ko'rinishidagi matematik modelini tuzib olamiz. U ikki noma'lumli ikkita tenglamalar sistemasidan iborat.

Iqtisodiy masalalarni protsent, tenglama, tengsizlik va ularning sistemalari orqali yechishdan tashqari, ekstremal masalalarga olib kelish orqali yechish yo'li ham mavjuddir. Iqtisodiy ekstremal masalalar odatda, eng yaxshi, eng qulay (optimal) yechimlarni topishga mo'ljallangan bo'ladi. Ularda bor imkoniyatlardan foydalanib maqsadga muvofiq yechimni topish talab qilinadi, masalan, eng kam xarajat qilib, eng ko'p foyda olish; ma'lum miqdordagi xom-ashyodan eng ko'p sifatli mahsulot ishlab chiqarish; ma'lum miqdordagi mahsulotni bir necha iste'molchilarga optimal ravishda taqsimlash; yo'lovchilarni tashishda transportlar qatnovining optimal jadvalini tuzish yoki yo'nalishlarni aniqlash kabi masalalarni keltirish mumkin

Iqtisodiyot bilan shug'ullanayotgan har bir inson o'zining faoliyatida iloji boricha kam sarf-xarajat tufayli ko'proq daromad olish yo'l-yo'riqlarini izlaydi, mavjudlarini takomillashtirishga harakat qiladi. Shu bois ham, ekstremal masalalarni o'quvchilar bilan birgalikda yechish yoki o'quvchilarni ekstremal masalami yechishga o'rgatish haqiqiy iqtisodchini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, qaysi sohani olib qaramaylik, u sohaning iqtisodiyot tomoniga tegishli bo'lgan muammolarini o'rganadigan bo'lsak, albatta, ekstremal masalalar yuzaga keladi. Bu masalalarni modellashtirish jarayoni ham iqtisodiy, ham matematik, ham psixologik jihatidan qiziqarli va o'quvchilarni har doim biror narsaga, ya'ni, iqtisod qilishning yangi ko'rinishga yoki matematik masalani yechishni yangi bir yechish metodikasi bilan tanishtirish bilan ham muhimdir.

Masalan, juda ko'plab tarixiy masalalar borki, bunday ko'rinishdagi masalalar ham meros bilan bog'liq bo'ladi: berilgan  $2p$  uzunlikdagi devor bilan yuzi eng katta bo'ladigan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonini o'rab olish zarur bo'lsin.

Agar bu to'g'ri to'rtburchak ko'rinishidagi yer maydonining bir tomoni  $x$  bilan belgilansa, u holda ikkinchi tomoni  $(p-x)$  ga teng bo'ladi. Yuza tushunchasiga asosan,  $S(x)=x(p-x)$ ,  $x \in (0;p)$  ko'rinishdagi formula kelib chiqadi. Masala shartiga ko'ra,  $S(x)=x(p-x)$  max,  $0 \leq x \leq p$  ko'rinishida yoziladi.

Ekstremal masalalarni yechishda geometrik, tengsizliklar, pozinomlar, hosila, chiziqli programmalash usullari mavjudki, bu usullar o'quvchilarning bir tomondan, matematik fikrlashini kengaytirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan iqtisodiy masalalarni yechishga o'rgatib, ularning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi masalalarning matematik modelini yaratishning o'zi ham o'quvchilardan ma'lum ma'noda matematikani yaxshi, chuqur o'zlashtirgan bo'lishligi bilan birgalikda, uning iqtisodiyotga tadbqiqini ham bilishi muhim ahamiyatga egadir.

#### **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH KASBIY TAYYORGARLIK DARAJALARINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA**

**Mannonov J.A. - Namangan muhandislik qurilish instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, ularning metodik kompetentligini rivojlantirishda tarkibiy elementlarning o'zaro aloqadorligi hamda metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning mezonlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar ta'limi o'qituvchisi, talaba, metodik bilimlar, kasbiy tayyorgarlik, metodik kompetentsiya, metodik faoliyat.

#### **РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ - КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ**

**Маннонов Ю.А. – преподаватель Наманганского инженерно-строительного института**

**Аннотация.** В данной статье анализируется взаимосвязь между компонентами профессионального развития с составными элементами развития методической компетенции будущих учителей, развитием методической компетенции и развитием методологической компетенции.

**Ключевые слова:** учитель профессиональной подготовки, студент, методические знания, профессиональная подготовка, методическая компетентность, методическая деятельность.

#### **FACTORS FOR IMPROVING VOCATIONAL TRAINING FOR THE DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS**

**Mannonov Yu.A. - Lecturer at the Namangan Civil Engineering Institute**

**Annotation:** In the given article was described the relationship between the components of the professional development of future teachers, the development of methodological competence and the development of methodological competencies.

**Key words:** teacher of vocational training, student, methodical knowledge, vocational training, methodological competence, methodical activity.

Hozirda bo'lajak kasb ta'limi oqituvchilarining kasbiy va metodik tayyorgarligi muammosiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davrda metodik o'qitishning maqsadi metodik bilimlarni berish va metodik ko'nikmalarni shakllantirish edi, hozirgi kunda talabalarning pedagogik jarayonni amalga oshirishga kasbiy-metodik tayyorgarligi ancha kengroq tushuniladi va bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining metodik kompetentlilik darajasi sifatida izohlanadi. Metodik kompetentlik mutaxassis o'z faoliyatining maqsadlarini belgilaydi, ularga erishish usullari va yo'llarini aniqlaydi, ularni amalga oshirish uchun izlanadi. U butun pedagogik faoliyatni boshqaradi, ko'p qirrali amaliy vaziyatlarda obyektivligini saqlaydi va qiziqtiradi, hamda uni o'zgartirish va rivojlantirishga harakat qiladi.

Ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishi o'qitish jarayonida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq, chunki zamonaviy sharoitda bilimlarni

shakllantirish ta'limning asosiy maqsadidir. Ta'lim natijalarining birligi sifatida bilim va ko'nikmalar zarur, ammo bitiruvchiga zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyat qozonish uchun etarli bo'lmaydi. Bo'lajak o'qituvchi uchun ensiklopedik savodxonlik emas, haqiqiy hayotda yuzaga keladigan muammolarni hal qila oladigan, vaziyatlardan chiqib oladigan va umumlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni qo'llay oladigan qobiliyatni shakllantirish kerak bo'ladi.

Hozirgi vaqtda kompetentsiya tushunchasi ta'lim natijasini talqin qilishga imkon beradigan toifalardan biridir va kompetentsiya kelajakdagi kasbiy faoliyat sohasi mazmuni bilan bog'liq tushuncha sifatida qaraladi.

V.I. Baidenkoning ta'kidlashicha, "kompetentsiya" atamasi bitiruvchilarni tayyorlash sifatining yaxlit xususiyatlarini belgilash uchun foydalaniladi, o'quv jarayoni natijalari toifasi sifatida tushuniladi. U g'arb o'quv (pedagogik) va ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarida qo'llaniladi. Kompetensiyalar - bu ta'lim tizimini loyihalashda maqsadlarni belgilashning yangi turidir. Bu mohiyatan, aniq baholashning akademik me'yorlaridan bitiruvchilarning kasbiy va ijtimoiy tayyorgarligini aniqlaydi. Mehnat bozori va ijtimoiy sheriklikning voqealari nafaqat ilmiy darajalarga, balki kompetensiyalarga bo'lgan e'tiborga qaraydi.

Metodik kompetentligi rivojlangan bitiruvchilarning o'z faoliyatini amalga oshirishda kasbiy tayyorgarlik asosiy mezonlardan biridir. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining metodik kompetentligini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

1. O'qitish va o'qitishning yangi usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish qobiliyati;
2. Muayyan o'quv dasturini amalga oshirish uchun tashkiliy va uslubiy yordam ko'rsatish imkoniyati;
3. Ilmiy tajribalar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish qobiliyati va tayyorligi;
4. Ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish va tanqidiy umumlashtirish qobiliyati;
5. Uslubiy ish natijalarini formatlash, taqdim etish va hisobot berish qobiliyati;
6. Kasbiy muammolarni yechishda modellashtirish va statistik ishlov berish usullarini qo'llash qobiliyati;
7. Ijtimoiy ahamiyatga ega voqealar va tendensiyalarni tahlil qilish, ijtimoiy bilimlarni kasbiy va ijodiy faoliyatda qo'llash qobiliyati;
8. Shaxsan muhim muammolarni tushunish va tahlil qilish qobiliyati, kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish zaruriyati.

Amalda, kompetentlik tarkibi ikkita blokdan iborat: shaxsiy va faollik.

Shuning uchun biz ushbu ikkita parametr asosida metodologik kompetensiyani shakllantirishning asosiy mezonlarini aniqlaymiz. Har bir mezon empirik ko'rsatkichlar tizimini ochib beradi:

- metodik faoliyatga ega bo'lish - metodik faoliyat uchun maqsadlarni rejalashtirish va belgilash, maqsadga erishish uchun motivning mavjudligi, ilg'or malaka oshirish, bilim, ijod uchun qobiliyatlarning mavjudligi;

- fanlararo aloqalarni amalga oshirish, darsning maqbul shakllari va vositalarini tanlash, metodik fikrlashning moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligi, ijodiy qobiliyatlarning mavjudligini bilish, metodik faoliyatda ijodiy faoliyat dinamikasini oshirish;

- o'qituvchining mahorat darajasi, o'zini tanqid qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi anglash darajasini tahlil qilish va uslubiy aks ettirish.

Ta'lim sohasida malakali mutaxassisni tayyorlash mustaqil bilim olish uchun sharoit yaratishni va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishni ta'minlaydigan shaxsni aks ettiruvchi jarayondir. O'quv jarayoniga qo'shilgan va unga parallel ravishda olib boriladigan talabalarning ilmiy faoliyati muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining metodik kompetentligining rivojlanganligi - talabani tizimli fikrlashga o'rgatish demakdir. O'zi uchun yangi vaziyatda muammoni mustaqil ravishda ko'ra olish va aniqlash, uni muntazam ravishda ko'rib chiqish, o'z farazlarini ilgari surish, ularni asoslash va samarali yechimni taklif qilish. Ilmiy-tadqiqot faoliyati ijodiy izlanish topshirig'iga javob izlash bilan bog'liq faoliyatni anglatadi. Tadqiqot faoliyati ijodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, atrof-muhitni o'rganish va o'zgartirishga yo'naltirilgan subyektning faol harakatlarini, uning atrofidagi obyektlar va hodisalarga, hissiy munosabatiga, o'z faoliyatini o'z maqsadlariga muvofiq mustaqil ravishda qurishga va natijani baholashga



qaratilgan. Bunday faoliyat birinchi navbatda shaxsning ichki rivojlanishini, uning fikrlashi, qiziqishi va his-tuyg'ularini nazarda tutadi.

Shunday qilib, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishi oliy kasbiy ta'limdagi shunday tashkiliy shakl bo'lib, uning davomida bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish mumkin bo'ladi. Aynan shu erda amaliy faoliyatda o'qituvchi-tadqiqotchi tajribasini o'rganish mumkin.

Innovatsion tadqiqot texnologiyalarining markazida oddiydan murakkabgacha bo'lgan tamoyil yotadi. Inson ongi va ruhiyatining zaxira qobiliyatlari juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va assimilyatsiya qilish jarayonida namoyon bo'ladi va faollashadi. "Amaliyotdan bilimgacha" izlanishlar ketma-ketligi innovatsiyaning samarali asosidir. O'qitish va tadqiqotning uyg'unligi qo'shimcha qiziqish uyg'otadi va yangi g'oyalar va amaliy ishlanmalarning yangi materiallariga moslashish sifatini oshiradi.

### KIMYO FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Kultayev K.K. –Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada didaktik o'yinli texnologiyalarning xillari va ularning dars jarayoniga tatbig'i misollarda ifodalandi. Buning uchun 9-sinfda Anorganik kimyo fanidan o'tiladigan "II asosiy guruh elementlari" mavzusi tanlandi. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar bilim darajasining ortishidagi ahamiyati ifodalandi.

**Kalit so'zlar:** kimyoviy piramida, kimyoviy chaynvord, uchinchisini va to'rtinchisini topish kerak, raqamlar bilan o'yin, kimyoviy rebus, kimyoviy krossvord, kim chaqqon, kalsid, angidrid, gips, apatit.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР ПРИ ИЗУЧЕНИИ ХИМИИ

**Култаев К.К. – доцент Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье приведены примеры использования технологии дидактических игр в учебном процессе. Для этого выбрана тема "Основные элементы II группы" из курса неорганической химии. Показано значение дидактических игр в повышении знаний учеников.

**Ключевые слова:** химическая пирамида, химический чайнворд, определение третьего и четвертого, игра с числами, химический ребус, химический кроссворд, кто ловчее и быстрее, кальцид, ангидрид, гипс, апатит.

### THE INTERDISCIPLINARY STUDYING THE PHYSICAL AND CHEMICAL PROPERTIES OF THE IRON ELEMENT

**Kultaev K.K. - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** In the given article was described examples of the using of technology of didactic games in the educational process. For this purpose, the theme "Basic elements of group II" was chose from the course of inorganic chemistry. The value of didactic games is show when increasing student's knowledge.

**Key words:** chemical pyramid, chemical chainvord, definition of the third and fourth, game with numbers, chemical rebourse, chemical crossword, who is more agile and faster, calsid, anhydride, plaster, apatite.


**Annotation.** This is a data structure for recommendations for friends data, such as an electronic data sheet.

**Key words:** advanced technologies, information technologies, professional activities, religious information and communication technology, design, interactive multimedia object.

Chet tilni bilish jahon madaniyati yutuqlaridan va axborot resurslari imkoniyatlaridan bahramand bo'lish, dunyo miqyosida muloqot qilish va xalqaro hamkorlikni o'rnatishga yo'l ochadi. Shubhasiz, til o'rganishda maktab ta'limi asosiy o'rin tutadi, aynan shu davrda bola asosiy bilimlarni, grammatika qoidalarini o'zlashtiradi. Bugun yurtimizda chet tillar, xususan, ingliz tilida o'z fikrini bemalol ifodalab, erkin so'zlasha oladigan, kelajakda xalqaro hamkorlik va muloqotni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shadigan yosh avlod ulg'aymoqda. Nutqni egallashda tilning egiluvchanligi, ya'ni moslasha olishi bola uchun ma'lum sharoitda chet tilni egallashga imkon beradi.

Yoshi ulg'aygan sari o'z tiliga moslasha boshlaydi. Shuning uchun katta yoshdagi bolalarga ikkinchi chet tilni o'rgatish odatda qator qiyinchiliklar bilan kechadi. Shu o'rinda savol tug'iladi, chet tilni necha yoshdan o'rgangan ma'qul? Chet tilni o'rgatish bo'yicha turli usul va shakllar mavjud bo'lsa-da, 1- sinflarda bu jarayon qiyinroq kechishi mumkin. Ularning tez charchashi, diqqatining ixtiyorsizligi, eslab qolish darajasi hali yetarli darajada rivojlanmagani yoshi va ruhiyatiga xosdir. Mutaxassislarining fikricha, chet tilni besh yoshdan boshlab o'rganish kerak. To'rt yoshlilarni o'rgatish mumkin, biroq bu samarasizroqdir. 5-7 yoshgacha bolalarga chet tilni o'rgatishda o'yinning imkoniyatlari keng bo'lib, belgilangan mavzu bo'yicha talab etilayotgan bilim, malaka va ko'nikmaga erishishning oson yo'lidir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning yoshi va dunyoqarashiga mos ravishda chet tillar o'yin tarzida, og'zaki nutq shaklida, multimedia texnologiyalari va interfaol usullardan foydalanilgan holda o'rgatilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi videodasturlar, multafilmlar, rang-barang rasmlar, qo'shiq va she'rlar bolalarda tilni o'rganish uchun katta qiziqish tug'diradi. Rasmlarni tanlashda tasvirlangan jismlarning soni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki birdan ortiq jism yoki faoliyat tasviri bolaning chalg'ishiga sabab bo'ladi. Natijada, bog'cha yoshidagi bolajonlar chet tilda bemalol sanashni, o'zini tanishtirish, hafta kunlari va yil fasllari kabi boshlang'ich bilimga ega bo'ladilar. Ma'lumki, ota-onalar farzandlarini erta yoshidan turli qo'shimcha mashg'ulotlar va to'garaklar bilan band qiladilar. Ko'pincha, ular barcha sohalarda keng tarqalgan va ommabop ingliz tilini ma'qul ko'radilar. Bundan tashqari bu til bolalar orasida ham juda mashhur. Inglizcha tez aytilishlar, she'rlar, ertak va multfilm qahramonlari, jozibali ohangdagi tovushlar bolalarni befarq qoldirmaydi. Demak, ingliz tili asosiy chet til sifatida dunyo bo'ylab e'tirof etilmoqda. Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rgatib kelinmoqda. Chet til bilan shug'ullana boshlagan maktabgacha yoshdagi bola ilk daqiqalardan o'zga tilda gapirishga katta ishtiyoqni his qiladi. Til o'rganishga motivatsiyani saqlab qolish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasasida chet tilni kundalik hayotga tatbiq qilish lozim. Til maktabgacha yoshdagi bolalarning rang-barang hayotiga tabiiy ravishda bog'lansa, ular buni o'yinda, atrofdagilar bilan muloqotda qo'llay boshlaydilar. Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rgatishda o'yin usulidan foydalanish samarali bo'lib, bunda o'quvchining kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi. O'yin alohida tashkil etilgan mashg'ulot bo'lib, bunda bolaning emotsional his-tuyg'ular va aqliy imkoniyatlarining safarbar etilishini, biror-bir qaror qabul qilish –

qanday yo'l tutish, fikr bildirish, qanday qilib yutuqqa erishish kabi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish bolaning fikrlash qobiliyatini jadallashtiradi. Agar bola chet tilda gapirsa, bu ta'limiy imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Bolalar o'zlari o'ylamagan tarzda chet tilni o'rgana boshlaydilar. O'yin bolalar uchun juda qiziqarli mashg'ulot bo'lib, bunda a'lochi o'quvchi ham, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi ham teng ishtirok etadi. Bundan tashqari, chet tilni sust o'zlashtirgan o'quvchi o'yinda birinchi bo'lishi mumkin, hamma bilan tengligini his qilish, quvonch va zavq muhiti, vazifalarni bajarishdagi osonlik – bularning hammasi nutqda notanish tilda so'zlashishdagi tortinchoqlikni yengishga yordam beradi hamda ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir o'tkazadi. O'yin mashqlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dars samaradorligini oshiradi, darslik majmualaridagi materiallarning o'quvchilar tomonidan tez va oson o'zlashtirilishiga yordam beradi, chunki o'yinlar 6-8 yoshli bolalar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Shu bilan birga, chet tilga oid material oson o'zlashtirilib, bolada "men boshqalar qatorida chet tilda gapira olaman", degan qoniqish hissi paydo bo'ladi. O'yinlar orqali o'quvchilarning lug'at boyligi oshiriladi, ijodiy tashabbuskorlik hamda ko'nikma va malakalar paydo bo'la boshlaydi. Psixologik o'yin mashqlari va treninglar o'quvchilardagi ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat turi bilan almashtiradi. Idrok, sezgi, mantiqiy tafakkur hamda ko'rish, eshitish va tez esda saqlab qolish kabi xotira turlari rivojlanadi. Jumladan, kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda qo'shiqlardan foydalanish mumkin. Qo'shiqlarning nima haqida ekanligi o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, yod olganda ular yangi ma'lumotlarga ega bo'lishadi va bilish faoliyati kuchayadi. Qo'shiqlardan foydalanish talaffuz ko'nikmalarini takomillashtirishga, artikulyatsiya (talaffuzda, so'zlashda, nutq a'zolarining holati, harakati, ishi), ritmika va intonatsiyada aniqlikka erishish, ingliz tili bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, so'z boyligini oshirishga yordam beradi, monologik va dialogik tarzda fikr bildirishga o'rgatadi, tayyor va spontan (o'z-o'zidan paydo bo'lgan) nutqni rivojlantiradi. Bundan tashqari, qo'shiq til o'rganish jarayoniga bayramona ruh, noan'anaviy yondashuvni olib kirib, o'quvchilarning emotsional sohasiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, chet til bo'yicha maxsus mashqlarni 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'rgatish ijobiy natija beradi. Chet tilni o'rgatishning boshlang'ich davrida darsda turli raqs harakatlaridan iborat bo'lgan jismoniy mashqlardan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar oldiga bu harakatlarning nomini eslab qolish maqsadi qo'yilishi kerak. O'quvchilar o'zlarini erkin tutishlari, o'qituvchi bilan birga darsni qiziqarli o'tishiga harakat qilishlari kerak, chunki ularning ingliz tilida muloqot qilishga tayyorligi va o'z istaklarini bildirishi ushbu tildagi muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, o'quv materialini yetkazib berish ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashg'ulotlarni yana-da sermazmun o'tkazishga yordam beradigan zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalari yangi bilimlarni yaxshi eslab qolish va o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, "Do you want to be healthy?" (Sog'lom bo'lishni xohlaysizmi?) darsida elektron o'qituvchilar Dik va Djeynning tushuntirishlari, shuningdek, bolalarga dastlab eshitish orqali yangi so'zlar, suhbat va ashulalarni yod olish imkonini beradigan elektron dasturdan foydalanish eng samarali usullardan hisoblanadi. Bu borada ko'rgazmali vositalar, proyektordan ham foydalanish bolalarga ingliz tilida hikoyalar tuzishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar orqali ingliz tilini o'rgatish ko'rgazmalilikni oshiradi. Ko'rgazmalilik ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa – 25 foizni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularning bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi. Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Chet tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni, ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash lozim.

Bu jarayonda ota-onalarning ko'magi muhim ahamiyatga ega. Bolalarning chet tillarni o'zlashtirishida ota-onalarga quyidagicha tavsiyalar beriladi:

- bola bilan muntazam shug'ullanib, muloqotda bo'lish;
- uyga berilgan topshiriqlarni birgalikda bajarish;
- bolalar so'z boyligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida ular uchun berib boriladigan chet tildagi ko'rsatuvlarni birgalikda tomosha qilish;
- bolaning chet til fani o'qituvchisi bilan doimo hamkorlikda ish olib borish;

- uning psixik bilish jarayonlari (xotira, idrok, tafakkur, xayol, sezgi) va nutqida salbiy o'zgarishlar yuz bergan holatlarda maktab amaliyotchi psixologlari bilan hamkorlikda ish olib borish;
- uy sharoitida inglizcha so'zlarni takrorlash muhitini yaratib berish (har xil o'yinchoqlar, hayvonlarning rasmlari va haykallar nomlarini inglizcha talaffuz qilinishini ta'minlash).

Televideniye orqali xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlarni, ingliz tilidagi ilmiy-ommabop va multiplikatsion filmlarning o'zbek tilidagi subtitr yordamida ko'rsatilayotganligini ota-onalar farzandlari bilan tomosha qilishlari, bolalarning chet tildagi bilimlarini amaliy jihatdan boyitishiga turtki bo'ladi. Bu orqali nafaqat bolalar, balki ularning ota-onalari ham o'z bilimlarini shakllantirib, mustahkamlab borishlari mumkin. Shunday qilib, chet tillarni o'rganish zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu dunyo sivilizatsiya yutuqlarini o'rganish imkonini beradi, kelajakda keng imkoniyatlar yaratadi va dunyoqarashini kengaytiradi. Chet tillarni o'rganish yoshlarning kelajakda yetuk mutaxassis sifatida shakllanib, hayotda o'z o'rnini topishiga yordam beruvchi omillardan biri sanaladi

### **ТАЛАБАЛАР ЎРТАСИДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МОДЕЛИ**

**Зокирова Д.С. – Фарғона давлат университети катта ўқитувчиси**

**Аннотация.** Ушбу мақолада олий ўқув юртлари талабалари ўртасида миллатлараро муносабатлар маданиятини шакллантириш назарияси ва амалиёти, унинг асосий омиллари, таркиби ва технологиялари ҳақида сўз юритилган. Унда олий ўқув юртларида талабалар ўртасида миллатлараро тотувлик маданиятини ривожлантириш механизмларини такомиллаштиришнинг назарий модели таклиф этилган.

**Калит сўзлар:** Миллатлараро ҳамкорлик, ижтимоий ҳаёт, кўпмиллатли давлат, миллатлараро тотувлик, дўстона муносабат, умуминсоний қадриятлар, инсон цивилизацияси.

### **ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ СРЕДИ СТУДЕНТОВ**

**Закирова Д.С. – старший преподаватель Ферганского государственного университета**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теория и практика формирования культуры межнациональных отношений между студентами вуза, ее ключевые факторы, содержание и технологии. Представлена теоретическая модель совершенствования механизмов развития культуры межнационального согласия среди студентов высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** межнациональное сотрудничество, общественная жизнь, многонациональное государство, межнациональная гармония, дружба, общечеловеческие ценности, человеческая цивилизация.

### **A THEORETICAL MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF INTERETHNIC CULTURE AMONG STUDENTS**

**Zakirova D.S. - Senior Lecturer, Ferghana State University**

**Annotation.** In the given article was described the theory and practice of creating a culture of interethnic relations between university students, its key factors, content and technology. A theoretical model of improving the mechanisms for the development of interethnic culture among university students is presented.

**Key words:** interethnic cooperation, social life, multinational state, interethnic harmony, friendship, universal values, human civilization.



Миллатлараро ҳамкорлик маданияти ижтимоий-психологик кескинликларни бартараф этишда катта аҳамиятга эга. Бу индивидуал одамлар, турли миллат вакиллари ўртасида, яъни шахс даражасида миллатлараро муносабатларни уйғунлаштиришни характерлайди ва умумий маданий меъёрлар, муносабат ва инсон хатти-ҳаракати кўникмаларининг тизимини белгилайди.

Ўзига хос мазмун ва кўп босқичли таълим даражасининг комплекс хусусиятларини ифодаловчи шахснинг кўп қиррали ижтимоий-психологик хусусияти сифатида миллатлараро ўзаро таъсир миллатлараро маданиятни билдиради.

Миллатлараро мулоқот маданиятининг вазифалари биз ўрганган хусусиятларимиз, шартларимиз, воситаларимиз ва ушбу жараёни шакллантириш омилларининг мазмунига тўлиқ мос келади.

Биринчидан, у ижтимоий ҳаётнинг муайян соҳаларида шахснинг дунёқараш маданияти (онги, миллий ўз-ўзини англаш фаолияти)ни ривожлантириш даражасининг мезонларидан бири, шунингдек, жамият томонидан эришилган ижтимоий ва маданий ривожланиш босқичининг кўрсаткичидир.

Иккинчидан, одамлар бир-бирининг чуқур билим эгаси бўлишига ҳисса қўшади ва шунинг учун улар ўртасида ўзаро тушунишни кучайтиради.

Учинчидан, халқларнинг яқинлашуви ва ҳамкорлик омили муносабатларни тартибга солувчи алоқа усуллари ва шакллари белгилайди, турли миллат ва элатлар вакиллариининг ўзаро муносабатлари ва бевосита мулоқот (мафкуравий-сиёсий, ахлоқий, маданий-маиший) нормалари мажмуасини ифодалайди.

Тўртинчидан, миллатлар ва уларнинг вакиллариининг умумий маданиятини оширишга ёрдам беради. Бу шахснинг маънавий-психологик ва руҳий-ахлоқий фазилатлари орқали амалга ошириладиган, маданиятнинг ўзига хос томонидир.

Бешинчидан, у ижтимоийлашув воситасидир. У жамиятда ҳар қандай миллат вакиллари манфаати учун миллатлараро ижобий муносабатлар шакллариини бойитишга имкон берувчи қадриятларни тарғиб этади. Бошқа томондан, миллатлараро ҳамкорлик маданияти миллатидан қатъи назар, инсоннинг ўзлигини англашига ёрдам беради.

Олтинчидан, бу инсоннинг жамият, миллатнинг маданий муҳитига таъсир қилиш воситасидир.

Юқорида айтилганларнинг барчасига, хусусан, олий таълим муассасаси талабаларида миллатлараро ҳамкорлик маданиятини шакллантириш жараёнида шахснинг ижодий салоҳияти ортиб бориши жараёнида эришилишини таъкидлаш лозим.

Ижтимоий ҳаётга кириш, авлодлар ўртасидаги узлуксизликни амалга ошириш, жамиятнинг ва ҳар бир шахснинг ривожланишини таъминлаш учун зарур шарт-шароит яратиш сифатида аждодлар ижтимоий тажрибасининг янги авлод томонидан мажбурий ассимиляция қилиш қонуни мавжуд.

Миллатлараро ҳамкорлик маданияти ёш авлодга кўпмиллатли таълимнинг асосий мақсади бўлган маданиятлараро ваколатни ривожлантиришга ёрдам беради.

Ривожланган мамлакатларда таълим жараёнини ташкиллаштиришда кўп миллатли давлатнинг тарихи, адабиёти, санъати, маданияти ушбу давлатни ташкил этувчи турли миллий жамоалар нуқтаи назаридан кўриб чиқилади ва таълим дастурлари ҳар бир этник жамоанинг замонавий маданияти ва тарихий тажрибаси асосидаги мавзуларни ўз ичига қамраб олади.

Ушбу модел кўпмиллатли жамиятни тушунишга ёрдам беради, уни ташкил этувчи турли маданиятлар ва халқларга ижобий муносабатда бўлади. Ушбу моделни қўллаш, бир томондан, миллий ўз-ўзини англашни ривожлантиришга, бошқа томондан, бошқа миллий маданиятларга нисбатан сезгирликни ривожлантиришга қаратилган. Бунга параллел равишда шахснинг кимлиги (бир кишини бошқасидан фарқлаш имконини берувчи муайян маданий хусусиятларнинг мавжудлиги), унинг хусусиятлари — ижтимоий муносабатлар, дунёқараш, этник келиб чиқиши, жинси, таълим, дин, урф-одатлар, тил, нутқ, жисмоний ва ақлий ривожланиш, фуқаролик ва ташқи жисмоний маълумотлар даҳлсиздир. Миллатлараро ҳамкорлик маданияти ҳақида гапирганда ҳар бир инсон кўплаб маданиятларнинг кесишишига гувоҳ бўлишини ва шунинг учун инсоннинг бир нечта идентификаторлари борлиги ҳақида гапириш жуда муҳимдир, деган муҳим методологик

принципга асосланган бўлиши керак. Ёшлар ўртасида миллатлараро ҳамкорлик маданиятини шакллантириш ўсиш, миллий ўзликни англаш, сиёсий маданиятни тарбиялаш зарурати билан долзарб аҳамият касб этади. Демократия ва фуқароликни ривожлантириш, ҳуқуқий давлатни шакллантириш, миллий менталитетни тиклаш турли миллат вакиллари бўлган талаба-ёшларнинг йўналиш ва эҳтиёжларини билиш зарурлигига асосланган бўлиши керак. Сўнгги йилларда миллий ва миллатлараро муносабатларнинг умумбашарий масалаларини ўрганишда миллатлараро ҳамкорлик маданияти муаммолари алоҳида олимлар томонидан ўрганилмоқда.

Инсон агар у ўз халқининг тарихидан хабардор бўлмаса, қайси миллатга тегишли бўлмасин, бошқа халқларнинг маданияти, тарихи, урф-одатларини қадрлашни ва тушунишни ўргана олмайди, маданиятини билмайди ва уни қадрламайди. Миллий ўз-ўзини англашсиз миллатлараро ҳамкорлик маданиятини шакллантириш мумкин эмас. Талабалар — зиёлилар вакиллари, яъни жамиятда, умуман олганда, маданиятнинг ривожланишига ва миллий маданиятга боғлиқ бўлган ҳар қандай миллат аҳолисининг ижтимоий гуруҳи, хусусан, улар миллатлараро муносабатлар маданиятини шакллантиришнинг асосий механизмларига айланганда, улар бир вақтнинг ўзида миллатлараро муносабатларнинг субъектлари ва объектлари бўлиб, ўз тажрибаларини илм-фан хазинасига айлантирадilar, улар эркин сиёсий, маданий мулоқот иштирокчилари бўлиб, жамият ва давлатнинг сиёсий, умуман олганда, Ўзбекистоннинг маънавий, маданий ҳаётини ривожлантирадilar. Шуниси эътиборга лойиқки, собиқ иттифоқ даврида публицистик илмий адабиётларда “миллатлараро мулоқот маданияти” тушунчаси собиқ иттифоқ шаклланишининг 1982 йилдаги юбилейи муносабати билан ҳисоботларда пайдо бўлган ва асосан шундан сўнггина қўлланила бошланган. Биз олий ўқув юртида назарий ва амалий жиҳатдан талабалар ўртасида миллатлараро ҳамкорлик маданиятини шакллантиришнинг асосий омиллари, мазмуни ва технологиясини ўрганиб чиқдик ва таҳлил қилдик ва ушбу муаммонинг ҳолати жуда мураккаб ва келгусида чуқур илмий-тадқиқот ишларини талаб қилади, натижалари амалда тезкорлик билан амалга оширилиши керак, чунки улар ўзларининг долзарблиги ва самарадорлигини йўқотмасликлари даркор. Педагогик омил ўқув жараёнини педагогик асоснинг асосий элементи сифатида ривожлантиришни назарда тутди. Ушбу жараёнига янгича ёндашувларнинг услубий ва назарий асосланиши, ОТМда илмий-тадқиқот ва ўқув-методик ишларни мувофиқлаштириш ОТМ талабасига қандай миллатга мансуб бўлишидан қатъи назар, бошқа халқларнинг маданияти, тарихи, анъаналарини қадрлашни ва тушунишни ўрганишга ёрдам берадиган педагогик асос бўлиб хизмат қилади, шунинг учун у талабанинг ўз-ўзини англашига ёрдам берадиган миллатлараро маданиятни шакллантиради. Илмий адабиётларни таҳлил қилиш ва психодрамани инновацион технология сифатида қўллаган ҳолда экспериментал ишларни амалга ошириш асосида биз талабаларнинг миллатлараро ўзаро ҳамкорлиги маданиятини ривожлантиришнинг назарий моделини ишлаб чиқдик. Зарур-мотивацион, фаол-конфессияли, интеллектуал-ҳиссий, ахлоқий ва дунёқараш характерларининг миллатлараро ўзаро таъсири маданиятини ривожлантиришнинг ташқи ва ички белгилари психодрамани инновацион технология сифатида қўллаш орқали эксперимент ўтказиш учун илмий асосни олдиндан белгилаб берди. Аниқланган функционал элементлар — маданият, алоқа, шарт-шароитлар ва йўналишларнинг ташкилий-педагогик комплекси — таълимнинг анъанавий мазмуни ва технологияларини модернизация қилиш, инновация, психодрама элементлари талабалар ўртасида миллатлараро ҳамкорлик маданиятини шакллантиришнинг асосий мазмунини ташкил этади. Улар талабалар ўртасида мафкуравий, ахлоқий, маданий-маиший турмуш ва хулқ-атвор меъёрларини ривожлантиришда, турли миллат вакиллари билан бевосита мулоқотда намоён бўлиб, инсонпарварлик, интернационализм, ўзаро ҳурмат ва ишонч, дўстлик ва ўзаро ёрдам тамойилларига асосланган ҳолда, биргалиқда миллатлараро ҳамкорлик маданиятининг юқори даражасига кўтарилишида муҳим рол ўйнайди. Экспериментал тадқиқотлар давомида психодраманинг параметрлари миллатлараро ўзаро ҳамкорлик маданиятини шакллантиришнинг инновацион технологияси — коммуникатив, таълимий, янгилик сифатида аниқланди. Психодрамадан фойдаланган ҳолда амалий машғулотлар миллатлараро ўзаро муносабатлар маданиятини шакллантириш жараёнини рағбатлантиради, ўзаро алоқалар вазифасини бажаради, фанлараро

алоқаларнинг тизимли элементи бўлиб, талабаларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам берадиган индивидуал психологик жиҳатни амалга оширади.

Илмий адабиётлар таҳлили асосида биз талабаларда миллатлараро тотувлик маданиятини ривожлантириш механизмларини такомиллаштиришнинг назарий моделини яратдик:

1. Бошқа халқларнинг маданияти, тарихи, адабиёти, илм-фанига қизиқиш.
2. Бошқа халқнинг тили, тарихи, адабиёти, маданияти, илм-фанини ўрганишга бўлган эҳтиёж.
3. Бошқа миллат вакиллари билан дўстона муносабатларни ривожлантириш.
4. Кўп миллатли Ўзбекистон халқига ҳурмат ва Ватанга муҳаббат.
5. Умуминсоний қадриятларга, инсон цивилизациясининг энг яхши ютуқларига йўналтирилган умуминсоний халқлараро тан олинган қадриятларга сўяниш.
6. Одамларнинг миллий қадр-қиммати ва ҳис-туйғуларига мурожаат қилиш, халқаро ва дунёвий қадриятларни тан олишни тарбиялаш.
7. Тактиканинг намоеён бўлиши, инсондаги сезгирлик хусусиятини такомиллаштириш. Хушмуомалалик ва сезгирлик улар учун мавжуд бўлмаган тушунчаларни шакллантириш.
8. Одамларнинг хоҳиш-истакларини, уларнинг ниятларини тушуниш, эмпатия қилишга тайёрлик.
9. Можароларни бартараф этиш қобилиятини шакллантириш, муаммоларга ижобий ечим топа олиш фазилатларини шакллантириш.
10. Турли миллат вакиллари ўртасидаги муносабатлар мавжуд ва бу муносабатларни доимий тарзда инсонпарварлаштириш ва мақсадлар муштараклигига эришиш.
11. Бошқа миллатдаги одамларнинг муваффақиятларига қойил қолиш қобилияти.
12. Миллий ғурурнинг олижаноб туйғусини ривожлантириш.
13. Турли миллатларнинг биргаликдаги ҳаётини тушуниш.
14. Шовинизм, миллатчилик ва ирқчилик намоишига нисбатан муросасиз муносабат.
15. Умуминсоний, ахлоқий қадриятларга, инсон цивилизациясининг энг яхши ютуқларига хайрихоҳлик.
16. Дунёдаги барча халқларга, уларнинг этник хусусиятларига чуқур ҳурмат.
17. Одамларнинг диний ҳис-туйғуларига бағрикенглик руҳи, турли динларнинг бирлашмасида юзага келадиган низоларни тинч йўл билан ҳал қилишни таъминлашга хайрихоҳлик истаги.
18. Бошқа миллат вакилларига иш, ўқиш, кундалик ҳаётда ижобий муносабат. Иш, ўқиш, кундалик ҳаётда бошқа миллат вакиллари билан муваффақиятини беғараз тан олишга ўргатиш.
19. Бошқа миллатдаги одамларнинг қарашлари, эътиқодлари, идеалларига ижобий муносабат.
20. Ички баҳолаш мезонлари ва одамлар ҳақида шаклланган фикрларни инсонпарварлаштириш.

Биз томонимиздан ишлаб чиқилган ёшларнинг миллатлараро ўзаро ҳамкорлиги маданиятини ривожлантиришнинг назарий модели талабаларда ушбу ҳодисани шакллантириш амалиёти ҳолатини ўрганишга ўтиш имконини беради.

#### GEOMETRIYA FANIDA TOPOLOGIYA KURSINING BA'ZI MAVZULARINI O'QITISHDA GEOMETRIK FIGURALARNING HOSIL BO'LISH JARAYONINI O'QITISH METODI

**Rahmatullayev A. X. – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini melioratsiyalash muhandislari instituti dotsenti**

**Annotatsiya.** Maqolada, dastlab, topologik fazo tushunchasi, uning ta'rifi keltiriladi. Topografik fazodagi akslantirishlar yordamida geometrik figuralarning topologik fazodagi timsollarini hosil qilish metodi bayon qilingan. Natijada geometriya fanida sirkul va chizg'ich yordamida yasash mumkin bo'lmagan figuralarning hosil qilinish jarayoni metodik jihatdan topologik tushunchalar yordamida asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** To'plam, to'plamosti, fazo, topologiya, topologik struktura, sistema, subyektiv akslantirish, uzluksizlik, juftlik, Evklid fazosi, proyektiv fazo, silindr, Myo'bius yaprogi.

## МЕТОД СОЗДАНИЯ МЕТОДОВ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ НЕКОТОРЫХ ТЕМ ТОПОЛОГИЧЕСКОГО КУРСА В ГЕОМЕТРИИ

Рахматуллаев А.Х. - доцент Ташкентского института инженеров ирригации и мелиорации сельского хозяйства

**Аннотация.** В статье впервые вводится понятие топологического пространства и его определение. Описан метод формирования топологических пространственных изображений геометрических фигур с использованием топографических отражений. В результате в геометрии процесс формирования фигур, которые невозможно выполнить с помощью циркуля и компаса, основан на методологических топологических концепциях.

**Ключевые слова:** коллекция, упаковка, пространство, топология, топологическая структура, система, субъективное отражение, непрерывность, пара, евклидово пространство, проекционное пространство, цилиндр, лист Мёбиуса.

## METHOD FOR CREATING METHODS OF GEOMETRIC DESIGN IN TEACHING SOME TOPOLOGICAL COURSES IN GEOMETRY

Rakhmatullaev A.Kh. - Associate Professor, Tashkent Institute of Irrigation and Land Reclamation Engineers

**Annotation.** The concept of a topological space and its definition are introduced for the first time in the article. The method of forming topological spatial images of geometric figures using topographic reflections is described. As a result, in geometry, the process of forming figures that cannot be performed using a compass and compass is based on methodological topological concepts.

**Key words:** collection, packaging, space, topology, topological structure, system, subjective reflection, continuity, pair, Euclidean space, projection space, cylinder, Mobius strip.

Mamlakatimizda qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelidagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PK-2909-son qarori hamda 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-son farmoni 4-bandi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" qismining 4.4-kichik bandi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" da belgilangan yo'nalishlaridan biri uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos salohiyatli, iqtidorli va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish masalasini asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Bu maqolada biz geometriya fanining topologiya modulida bayon qilinadigan faktor fazo mavzusini talqin qilishda bizga ma'lum ko'pgina geometrik figuralarning qismlarini va o'zining qurilish jarayonini ko'rsatishda talabning geometrik figura haqidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirishni maqsad qildik. Topologik struktura tushunchasi mavzuyimizda muhim o'rin egallaydi. Topologiya kursini o'rganishda, uni o'qitishda topologik strukturalar, to'plamlar ularning to'plamostilari, to'plamostilar majmuasiga qo'yiladigan talablar, hamda bu talablarning tub mohiyatini tushunish, talabalarning bu haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish metodik nuqtayi nazardan ma'lum tushunchalar ketma-ketligini bog'liq ravishda bayon etishni taqozo etadi. Bunday mantiqdan kelib chiqqan holda, dastlab, topologik struktura tushunchasiga to'xtalamiz.

Topologik struktura tushunchasi quyidagicha kiritiladi: Bo'sh bo'lmagan, ixtiyoriy tabiatli  $X$  to'plam berilgan bo'lsin. Bu  $X$  to'plamning to'plamostilaridan tashkil topgan quyidagi sistemani olaylik:

$$\tau = \{X_\alpha : X_\alpha \subseteq X, \quad \alpha \in A\}$$

Bu  $\tau$ - sistema (to'plamostilar oilasi) uchun quyidagi shartlar o'rinli bo'lsin:

$$1) \quad \emptyset \in \tau, X \in \tau;$$

- 2)  $\forall \alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_i, \alpha_i \in A, X_{\alpha_i} \in \tau \Rightarrow \bigcap_{i=1}^s X_{\alpha_i} \in \tau;$   
 3)  $\forall A' \subseteq A, X_{\alpha'} \in \tau \Rightarrow \bigcup_{\alpha' \in A'} X_{\alpha'} \in \tau.$

Yuqoridagi shartlar o'rinli bo'lganda  $\tau$  sistema berilgan  $X$  to'plamda topologiya tashkil qiladi, deyiladi. 1)-3) shartlar topologiya aksiomalari va hammasi birgalikda topologik struktura deb ataladi. Topologik struktura aniqlangan  $X$  ni, ya'ni  $(X, \tau)$  juftlikni topologik fazo deb yuritiladi.  $\tau$  topologiya elementlari esa ochiq to'plamlar deb e'lon qilinadi. Yuqoridagilardan  $(X, \tau)$  topologik fazoda  $\emptyset$  va  $X$  lar har doim ochiq to'plam bo'lishi kelib chiqadi. (2) va (3) shartlardan ko'rinadiki, chekli sondagi ochiq to'plamlar kesishmasi va ixtiyoriy sondagi ochiq to'plamlar birlashmasi ochiq to'plamdir. Faraz qilaylik  $f: X \rightarrow Y$  syur'ektiv akslantirish berilgan bo'lib,  $X$  to'plamda birorta topologiya yoki topologik struktura aniqlangan bo'lsin. Muammo:  $Y$  to'plamda shunday  $\tau_f(Y)$  topologik strukturani aniqlangki, natijada berilgan  $f$  akslantirish uzluksiz bo'lsin.

Yana bir akslantirish uzluksizligi tushunchasi keyingi mulohazalar uchun kerak bo'ladi.  $X$  va  $Y$  lar topologik fazolar bo'lsin. Agar  $f(x_0) = y_0$  bo'lib,  $y_0$  nuqtaning ixtiyoriy  $O(y_0)$  ochiq atrofi uchun  $x_0$  nuqtaning shunday  $O(x_0)$  atrofi topilsaki, bu atrof uchun  $f(O(x_0)) \subset O(y_0)$  munosabat o'rinli bo'lsa,  $f: X \rightarrow Y$  akslantirish  $X$  ning  $x_0$  nuqtasida uzluksiz deyiladi. Agar  $f$  akslantirish  $X$  ning barcha nuqtalarida uzluksiz bo'lsa, u holda  $f$  akslantirish  $X$  fazoda uzluksiz deyiladi. Uzluksiz akslantirishlar butun matematikaning asosiy tushunchasi bo'lib, unda quyidagi fakt doimo o'rinli bo'ladi.

**Teorema.**  $f: X \rightarrow Y$  akslantirish uzluksiz bo'lishi uchun ixtiyoriy  $A \subset Y$  ochiq to'plam asli  $f^{-1}(A)$  to'plam  $X$  fazoda ochiq to'plam bo'lishi zarur va yetarli.

Endi biz yuqoridagi muammoni yechishning bir usulini qaraymiz:

Buning  $Y$  uchun to'plamdagi ochiq to'plamlar sistemasini quyidagicha tuzamiz:

$\tau_f(Y) = \{U \subset Y, U \text{ -ochiq: agar } f^{-1}(U) \subset X \text{ to'plam } X \text{ topologik fazoda ochiq to'plam bo'lsa}\}$  sistemani olaylik. Bu  $\tau_f(Y)$  sistema  $Y$  to'plamda topologiya tashkil qiladi. Hamda  $\emptyset \in \tau_f(Y), Y \in \tau_f(Y)$  lar o'rinlidir. Topologik fazo ta'rifining boshqa shartlarini esa  $f^{-1}(u_1 \cap u_2) = f^{-1}(u_1) \cap f^{-1}(u_2)$  va  $f^{-1}(\bigcup_{\alpha \in A} U_\alpha) = \bigcup_{\alpha \in A} f^{-1}(U_\alpha)$  tengliklardan keltirib chiqarish mumkin.

Demak,  $\tau_f(Y)$  sistema  $Y$  to'plamda topologiya tashkil qiladi, ya'ni  $\tau_f(Y)$  oila  $Y$  to'plamda topologik struktura tashkil qilar ekan. Topologik fazoda aniqlangan uzluksiz akslantirishning zaruriy va yetarlilik shartlaridan kelib chiqadiki, bu yuqoridagicha aniqlangan  $f: X \rightarrow Y$  akslantirish uzluksiz bo'ladi. Demak,  $(Y, \tau_f(Y))$  juftlik topologik fazo bo'lib, bu fazoga faktor fazo deb aytiladi. Bunday aniqlangan  $\tau_f(Y)$  topologiyaga  $Y$  dagi faktor topologiya deb yuritiladi. Ma'lum bo'lmoqdaki,  $f: X \rightarrow Y$  akslantirish syur'ektiv akslantirish bo'lsa, hamda to'plamda birorta topologik struktura bo'lsa, u holda  $Y$  to'plamda topologiyani akslantirishni uzluksiz bo'ladigan qilib aniqlash mumkin ekan.

Endi biz  $(n + 1)$  o'lchamli  $R^{n+1}$  yevklid fazoda markazi koordinata boshida bo'lgan  $S^n$  sferani olaylik.  $S^n$  sferaning tartiblanmagan  $x \in S^n$  shartdagi  $RP^n = \{\{x, -x\}; x \in S^n\}$  nuqtalari

to'plamini olaylik, bu yerda  $x$  va  $-x$  nuqtalar  $S^n$  ning koordinata boshiga nisbatan diametrial qarama-qarshi nuqtalaridir va bu ikki nuqtani "bir nuqta" deb qaraymiz.

Ma'lum bo'ladiki,  $\pi(x) = \{x, -x\}$  orqali  $\pi: S^n \rightarrow RP^n$  syur'ektiv akslantirish aniqlandi.

$RP^n$  to'plamda  $\pi$  akslantirish aniqlangan faktor topologiyani olsak, u  $RP^n$  to'plamda  $n$  -o'lchamli proyektiv fazo deb yuritiladi.

Yana bir muhim quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

Berilgan (1-rasm)  $C = \{(x, y, z) \in R^3: x^2 + y^2 = 1, |z| \leq 1\}$  silindrni  $R^3$  fazoda indutsirlangan (singdirilgan) topologiyada qaraylik. Endi berilgan  $C$  to'plamda tartiblanmagan ko'rinishlardagi  $\{p, -p\}$  juftliklardan iborat bo'lgan  $M = \{\{p, -p\}: p \in C\}$  to'plamni olasak. Tabiiy  $f: C \rightarrow M$  syur'ektiv akslantirish aniqlanadi. Agar biz shu to'plamda faktor topologiyani qarasaq, bu  $M$  to'plam Miyobius bargidan iborat bo'ladi.

Endi biz  $\{p, -p\} \rightarrow \{(x^2 - y^2)(2 + xz), 2xy(2 + xz), yz\}$  ko'rinishda berilgan  $f: M \rightarrow R^3$  akslantirishni olaylik, bu yerda  $p = (x, y, z) \in C \subset R^3$ . Tekshirib ko'rish mumkinki, bu  $f(x, y, z) = \{(x^2 - y^2)(2 + xz), 2xy(2 + xz), yz\}$  akslantirish in'ektivdir. Shu bilan birga  $M$  va  $f(M)$  lar gomeomorfdir.

Keltirilgan misoldan, proyektiv fazolar andozasini bu faktor akslantirish yordamida hosil qilish mumkin ekanligi ma'lum bo'ladi. So'ngra Miyobius yaprog'ini (lentasini) hosil qilish jarayonini qaraydigan bo'lsak, bu figurani sirkul va chizg'ich yordamida yasash mumkin emasligini tushunamiz. Faktor akslantirishni zamonaviy fanda yelimplash (skleyka) amali deb yuritiladi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi keltirilgan mashqlardan ma'lum bo'ladiki, sirkul va chizg'ich yordami talab qilinmaydigan geometrik masalalarda figuralarni qurish jarayonini faktor topologiya ko'rgazmali amalga oshirar yekan.

## ЁШЛАРДА ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Собирова М.** – Тошкент давлат педагогика университети доценти, фалсафа фанлари номзоди

**Аннотация.** Ushbu maqolada balog'atga etmagan yoshlar tomonidan huquqbuzarliklarni sodir etishning oldini olish, huquqbuzar bolalarning boshqa o'smirlarga salbiy ta'sirini bartaraf etish masalalari to'g'risida so'z yuritiladi.

**Калит so'zlar:** yuridik asos, huquqiy savodxonlik, demokratik jamiyat, ijtimoiy hayot, bilim va ko'nikmalar, YUNISEF, oilaviy ta'lim, harakatlar strategiyasi.

## ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У МОЛОДЕЖИ

**Сабирова М.** – доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат философских наук

**Аннотация.** В этой рассматривается вопросы предотвращения преступлений, совершенных несовершеннолетними правонарушителями, и устранения неблагоприятных последствий правонарушителей для других подростков.

<sup>1</sup> Т.Ф.Жо'раев "Топологياجга kirish. Funktorlar. O'lchamlar. Chiziqalar." Toshkent, 2012, 240b.  
Т.Ф.Жо'раев "Геометриядан tanlangan boblari." Toshkent, 2017, 302b.

**Ключевые слова:** правовая основа, правовая грамотность, демократическое общество, социальная жизнь, знания и навыки, ЮНИСЕФ, семейное образование, стратегия действий.

### PECULIARITIES OF IMPROVING SOCIAL ACTIVITY IN YOUTH

**Sabirova M. - Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University, candidate of philosophy**

**Annotation.** In the given article was described the prevention of crimes committed by juvenile offenders and the elimination of the adverse effects of offenders on other adolescents.

**Key words:** Legal framework, legal literacy, democratic society, social life, knowledge and skills, UNICEF, family education, strategy of action.

Инсоният тарихий тараққиётининг қайси бир даврига назар ташламасак, энг долзарб ва энг машаққатли масала – ёшлар масаласи бўлиб келганлигига гувоҳ бўламиз. Қадимдан қайси бир мамлакатда тарбия билан боғлиқ муаммолар энг долзарб муаммо сифатида қайд этилган ва ҳал этишга ҳаракат қилинган бўлса, ўша жойда ривожланиш бўлган. Ёшлар тарбиясига эътиборсизлик бўлган жойда инқироз ва ўпирилишлар содир бўлган. Бунга сабаб ҳар бир даврга бирдек тааллуқли бўлган ҳақиқат борки, бу ҳам бўлса, ёшлар – ҳар бир мамлакат келажагининг эгалари. Аслида ҳам шундай. Ёшлар мамлакат таянчи, халқнинг ишонган кучи, миллатнинг давомчиларидир. Шу боисдан бугун юртимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг мазмуни кўп жиҳатдан, эртанги кунимизнинг ҳақиқий эгаларининг ҳар томонлама етук бўлишларини ифодамоқда ва мамлакатимиз раҳбари деярли ҳар бир чиқишида бу масалага куюнчаклик билан алоҳида эътибор қаратмоқда. Жумладан, Президентимиз бир маърузасида, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келганлигини, аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бораётганлигини таъкидлаб, таълим ва тарбияга масъул бўлган ҳар бир инсонни ўйғоқликка чорласа, бошқа бир нутқида сайёрамизнинг эртанги кўни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқлиги, бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоен қилиши учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси “вируси” тарқалишининг олдини олиш эканлиги ҳақида дунё ҳамжамиятини огоҳ этмоқда<sup>1</sup>. Ҳақиқатан ҳам шиддат билан кечаётган ҳозирги глобаллашув даври ҳар бир ўсиб келаётган ёш авлоддан замон талабларига мос бўлишни ҳамда ижтимоий фаолликни талаб қилмоқда. Шу ўринда савол туғилиши табиий: нима учун ёшлардан айнан ижтимоий фаоллик талаб қилиняпти? Жавоб унча мураккаб эмас. Чунки, ижтимоий фаоллик инсон шахс сифатидаги даражасининг асосий ифодаси, унинг айнан сифат кўрсаткичидир. Демак, ижтимоий фаоллик шахснинг муҳим сифати. Ижтимоий фаол инсон атрофида бўлаётган воқеа ҳодисаларга бефарқ қарамайди, мавжуд ютуқ ва муаммоларга ўзини дахлдор деб ҳис этади, оиласи, маҳалласи, юрти шаънини асрашга ўзида куч ва ирода топа олади. Ватани, халқи учун керак бўлса, жонини фидо қилишга шай туриш – буюк инсоний фазилат эканлигини англаб етади. Айнан шундай ёшлар билан жамият, мамлакат ва халқ фаровонлигини таъмин этилади. Айнан шу боисдан ҳам бугун ёшларда маънавий қадриятлар ва ахлоқ нормалари замирида айнан ижтимоий фаоллик сифатини шакллантириш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Чунки, маънавий қадриятлар ва ахлоқ нормаларининг бузилиши жамият барқарорлигига путур етказди. Шу маънода қадимги юнон мутафаккири Арастуниинг “табиат инсонга жисмоний ва интеллектуал куч-қудрат берган. Аммо инсон бу қудратдан ғайриинсоний мақсадларда ҳам фойдаланиши мумкин. Шунинг учун фаолияти ахлоқий кафолатланмаган инсон энг пасткаш ва ёввойи мавжудотдир<sup>2</sup>”, деган фикрлари ўз даврида қанчалик муҳим аҳамият касб этган бўлса, бугун ҳам ўз долзарблигини йўқотган эмас. Шу ўринда буюк юнон мутафаккирининг ушбу фикрларини келтириб ўтишимиз бежиз эмас. Афсуски, бугун орамизда “ахлоқий кафолатланмаган” категориясига кириши эҳтимолдан холи бўлмаган ёшлар ҳам талайгина. Айни пайтда бундай ёшларни жамиятнинг уюшмаган ёшлари сафига қўшяпмиз. Хўш, уюшмаган ёшлар ўзи кимлар? Уюшмаган ёшлар – қандайдир сабаблар билан фаол

<sup>1</sup> Аристотель. Политика. Соч. Т. 4. – М.: Мысл, 1983. – С. 467.

ижтимоий ҳаёт ва турмушдан четда қолаётган ўғил-қизлардир. Бу каби ёшлар категориясининг юзага келишига бир қатор сабаблар мавжуд. Ана шундай сабаблардан бири афсуски, бугунги кунга қадар кўпроқ фаол, кўзга кўринган, иқтидорли ёшлар билан иш олиб борилиб, қолганлари эсдан чиқариб келинди. Шунингдек, аслида иқтидори бўлган, бироқ, мамлакатимизнинг чекка ҳудудларида, олис қишлоқларида яшаётган айрим ёшлар ҳам эътиборсиз қолдирилди. Бундан ташқари, кўпроқ таълимга эътибор қаратилиб, тарбия бироз ёддан кўтарилди. Шу тўғрисида уюшмаган йигит-қизлар сони кундан-кунга кўпайиб борди. Шу ўринда эътибор қаратиш керак бўлган бир жиҳат борки, акарият ҳолларда айнан шундай категориядаги ёшлар барча норозилик ва кўнгилсизликларнинг асосий қўзғатувчилари бўлиб қолмоқда. Бундай ёшларнинг сони, таркиби бўйича аниқ маълумот йўқ. Шуниси равшанки, республикада 700 минг нафарга яқин ишсиз йигит-қизлар мавжуд. Биз Низомий номидаги ТДПУ да бажарилаётган “Ўзбекистон уюшмаган ёшларида мафкуравий иммунитетни такомиллаштиришнинг илмий-амалий асослари” номли амалий лойиҳамиз доирасида Бухоро, Фарғона, Қашқадарё ва Тошкент вилоятидаги ҳозирга кунда бирор бир фаол машғулот турига эга бўлмаган турли тоифадаги ёшлар билан учрашганимизда, уларнинг орасида олий маълумотга эга бўлган, ҳатто икки ёки ундан ортиқ тилни эгаллаган ёшларнинг борлигига ҳам гувоҳ бўлдик. Улар билан ўтказилган суҳбатлар давомида ишонч ҳосил қилдикки, бу тоифадаги ёшларга озгина ишонч, озгина далда ва бироз эътибор зарур. Мамлакатимиз раҳбари ўринли тарзда таъкидлаганидек, ёшлар, энг аввало бизнинг бугунимиз, эртаимиз, бу ҳақида вақтида қайғурмасак, эртага кеч бўлади. Чунки, бугунги тез ўзгараётган дунё ёшлар олдида янги-янги, буюк имкониятлар эшигини очиш билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор бўлиш хавфини келтириб чиқармоқда. Ҳатто айрим ғаразли кучлар содда ва ёғир болаларни ўз ота-онасига, ўз юртига қарши қайраб солиш орқали уларнинг ҳаётига зомин бўлиш ҳоллари кўпайиб бормоқда. Бундай кескин ва таҳликали шароитда ёшларнинг турли экстремистик оқимлар таъсирига тушиб қолмаслиги учун мафкуравий хуружлардан ҳимоя қилиш воситаларини ишлаб чиқиш, биз ота-оналар, устоз-мураббийлар, жамоатчилик, маҳалла-куй уюшмаган ёшлар билан кўпроқ гаплашиш, уларнинг қалбига қуроқ тутиш, дардини билиш, муаммоларини ечиш учун амалий кўмак беришни талаб этмоқда.

Шу ўринда яна бир гап. Эндигина олий даргоҳни тамомлаб, қўлига диплом олиб қайтган ёшларнинг аксариятида ҳам иккиланиш, катта ҳаёт бўсағасида хавотирланиш мавжуд. Шунинг учун ҳам бу каби ёшлар билан маҳаллаларда учрашувлар ўтказиш, уларга ишонч билдириш, бу ёшларни ижтимоий фаолликка жалб қилиб бориш ижобий самара беради. Қолаверса, мамлакатимизда ёшлар учун яратиб берилаётган имкониятлар ҳақида ёшларга мунтазам ахборот бериб бориш, уюшмаган ёшларнинг хабардорлик даражасини ошириб бориш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Акс ҳолда уюшмаган, яъни, ишламайдиган, ўқимайдиган, тайинли бир машғулотга эга бўлмаган, салбий таъсирларга берилувчи ёшлар сони ортиб бориши мумкин.

Шу ўринда яна бир масалани ҳам эътибордан четда қолдирмаслик зарур. Яъни, баъзи мутахассислар қайд этишаётганидек, фан ва техника жадал ривожланаётган ҳозирги шароитда, аксари ёшлар олдида турли муаммоларнинг пайдо бўлиши, биринчи навбатда, уларнинг дунёқараши тамомила ўзгарганида. Шундай экан бугун ота-она, маҳала-куй, устоз-мураббийлар энг аввало ёшларнинг кўнглига йўл топишга, қалбига яқин бўлишга, уларнинг энг яқин инсонига айланишга ҳаракат қилиши зарур. Бу жараёнда фарзандларимизга ундай қилма, ёмон, бундай қилма, бу яхши эмас демаслик учун уларга бугун нима учун яшаётганини, қандай мақсад сари интилиши ва бунинг учун нималар қилиши лозимлигини, тирикликнинг асл мақсадини англатишимиз керак. Албатта бу осонликча бўлмайди, бунинг биз катталардан ирода, матонат, билим ва энг муҳими, шахсий ибрат талаб қилинади.

Уюшмаган ёки шу категорияга мойиллиги бўлган ёшларни ижтимоий фаолликка жалб қилишимизнинг яна бир ўзига хос хусусияти шундаки, биз ўзимизнинг саъй-ҳаракатларимиз билан буюк маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний ният қилгандек, тарбияни ҳам ҳаёт, ҳам нажот, ҳам саодатга айлантираемиз.



**МУСИҚА ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР**

**Бойчаева Н. - Жиззах давлат педагогика институти катта ўқитувчиси**

**Аннотация.** Ушбу мақолада ёшларни комил инсон сифатида тарбиялашда жараёнида мусиқа санъатининг ўрни ва ўзбекона урф-одатлар, миллий анъаналар, азалий қадриятлар, комил инсон, миллий қадриятлар, миллий ўзлик, мусиқа маданияти, ашула тўгараклари, ижодий фикрлаш, изланиш тушунчалари ва мусиқа дарсларини ташкиллаштиришга инновацион ғояларни татбиқ этиш ҳақидаги фикрлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** ўзбекона урф-одатлар, миллий анъаналар, азалий қадриятлар, комил инсон, миллий қадриятлар, миллий ўзлик, мусиқа маданияти, ашула тўгараклари, ижодий фикрлаш.

**ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В ОРГАНИЗАЦИИ УРОКИ МУЗЫКИ**

**Бойчаева Н. – старший преподаватель Джизакского государственного педагогического института**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль музыки в воспитании молодежи как личности и применение инновационных идей в организации узбекских обычаев, национальных традиций, древних ценностей, совершенного человека, национальных ценностей, национальной идентичности, музыкальной культуры, певческих кружков, творческого мышления, исследований и уроков музыки.

**Ключевые слова:** узбекские обычаи, национальные традиции, древние ценности, национальные ценности, национальная идентичность, музыкальная культура, певческие кружки, творческое мышление.

**INNOVATIVE IDEAS IN MUSIC ORGANIZATION**

**Boychaeva N. - Senior Lecturer, Jizzakh State Pedagogical Institute**

**Annotation.** In the given article was described the role of music in the process of educating young people and the concept of Uzbek customs, national traditions, ancient values, perfect people, national values, national identity, musical culture, singing circles, creative thinking, research. There are ideas for implementing innovative ideas in organizing music lessons.

**Key words:** Uzbek customs, national traditions, ancient values, national values, national identity, musical culture, singing circles, creative thinking.

Ёш авлодни ўзбекона урф-одатлар, миллий анъаналар, азалий қадриятлар асосида тарбиялаш ва уларда ушбу қадриятларни шакллантиришда мусиқа санъати, хусусан, театрлашган мусиқа санъатининг ўрни беқиёс.

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган мусиқа маданияти дарслари, синфдан ташқари олиб бориладиган театрлашган тўгараклар, маънавий-маърифий тадбирлар ўсиб келаётган ёш авлодга таълим-тарбия бериш жараёнида ўқувчиларда миллий қадриятларни шакллантириш воситаси ва уларни мустақил ҳаётга тайёрлашнинг асоси ҳисобланади. Чунки мамлакатнинг тақдири келажагимиз вориси бўлган ана шу ёшларнинг ҳаётга қай даражада тайёр эканлиги ва маънавиятининг юксалганлигига боғлиқдир. Инсоният ўз тараққиёти даврида ҳамма вақт миллий қадриятларга таяниб келган. Шунинг учун халқ орасида ота-боболаримизнинг буюк маънавияти, миллий қадриятлари ўлмас бўлиб келмоқда. Мактаб ўқувчиларини комил инсон даражасида тарбиялаш уларни ҳозирги куннинг энг илғор, замонавий фан-техника бўйича билимлар билан қуроллантириш бугунги куннинг долзарб вазифаси ҳисобланади. Бундай долзарб муаммони ҳал этишни миллий-маънавий қадриятларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Бу борада Шарқнинг буюк алломалари, мутафаккирлари ўзларининг илмий, бадиий асарларида миллий қадриятларнинг

аҳамияти, уларнинг муқаддаслигини улуғлаб, бой мерос қолдирганлар. Бола тарбиясида ақл-заковат, зукколик, билимдонлик юқори поғонани эгаллаши зарур. Шунинг учун ҳам қомусий ва диний илм соҳиблари илмий мерослари ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришда муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Миллий фахримизга айланган шоир-у фузалолар ўз асарларида комил инсон тарбияси муаммоларига катта эътибор берган.

Аввало миллий қадриятлар тушунчасига ойдинлик киритамиз. Хўш, миллий қадриятлар ўзи нима? Унинг мазмун-моҳияти нимадан иборат?

Миллий қадриятлар – мураккаб ижтимоий – руҳий ҳодиса бўлиб, миллатнинг тили, маданияти, тарихи, урф-одатлари, анъаналарини, жамики моддий ва маънавий бойликларни, иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча томонларидир. Миллий қадриятлар – муайян бирор бир халққа тааллуқли бўлган урф-одатлар ва анъаналар, барча халққа тегишли бўлган маънавий бойликлар мажмуидир. Миллий қадриятлар – муайян бир миллат, элат ва халқ ҳаёти, турмуш тарзи, уларнинг ўтмиши, келажаги ва яшаётган ижтимоий муҳити билан боғлиқдир, - деб қомусий луғатда таъриф бериб ўтилган. Бу соҳада педагог олимлар кўп йиллик илмий изланишлари натижасида миллий қадриятлар ўзбек халқининг маънавий сифатлари, моддий бойликларини ҳамда ижтимоий-сиёсий анъаналарини қамраб олади деган хулосага келади. Бунинг учун аввало ўқувчиларда миллий онг, миллий тафаккур тушунчаларини шакллантириб олиш керак. Ўқувчи-ёшлар тафаккурини миллий қадриятлар асосида шакллантириш жараёни қуйидаги вазифаларни амалга оширишни тақозо этади:

-миллий ўзлиқни англаш учун миллий қадриятлар, қадимги урф-одат ва анъаналарга оид манбаларни доимий ўрганиб бориши;

-муסיқа маданияти дарсларида ва дарсдан ташқари вақтларда миллий қадриятлардан унумли фойдаланиш;

- ҳозирги кун талабларидан келиб чиқиб ўқувчилар ўртасида китобхонликни ташкил этиш;

-муסיқа маданияти фан дастурларига миллий қадриятларни ифода этувчи материаллар, халқ қўшиқлари бўйича мавзулар киритиш;

- аждодлар меросига ҳурмат, садоқат руҳида тарбиялаш;

-ўқувчиларни миллий қадриятлар асосида Ватанга садоқат руҳида тарбиялаш.

Кўриниб турибдики, умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларни миллий қадриятлар асосида тарбиялашда ташкил қилинадиган ашула тўғарақларининг имкониятлари кенг. Шу маънода мактаб ўқувчиларини комил инсонлар этиб тарбиялаш доимий равишда таълим муассасалари олдида турган долзарб масалалардан бири ҳисобланиб келган. Ўқувчиларда миллий қадриятларни шакллантириш таълим ва тарбия жараёнини амалга оширишга кўмак берадиган воситалар билан боғлиқ. Ўқувчиларда миллий қадриятларни шакллантиришда урф-одат, анъана ва маросимлар, маънавий-маърифий тадбирлар, театрлаштирилган тўғарақлар катта аҳамиятга эга.

Ўқувчиларга миллий қадриятларни сингдириш муסיқа маданияти ўқитувчисидан чуқур билим, юксак маҳорат ва педагогик салоҳиятга эга бўлишни тақозо этади.

Олимларнинг қарашларида муסיқа санъатининг ўқувчи шахсини шакллантиришдаги ўрни ва аҳамиятининг катталиги кўплаб далиллар ёрдамида кўрсатиб берилган. Манбаларда таъкидланишича, ўқувчи шахсининг камол топишида унинг дунёқараши, маънавияти, ахлоқи, маданиятлилик даражаси ва муסיқа маданияти дарслари алоҳида ўрин тутаяди.

Айтиш мумкинки, ўқувчи шахсини миллий тарбиялаш муסיқа санъати, унинг шарқона жанри бўлган театрлаштирилган халқ қўшиқлари орқали муваффақиятли амалга оширилади.

Миллий тарбиялаш меъёрларни ўқувчи ёшларга сингдириш учун уларни миллий тарбиянинг мазмун-моҳияти билан таништириш лозим бўлади.

Педагог олимларнинг фикрига таяниб, маънавий-ахлоқий тушунчаларни қуйидаги уч гуруҳга бўлиш мумкин:

1) миллий-тарбиянинг тушунчаларини баён қилиш;

2) миллий тарбия тушунчалари ва унинг мазмун-моҳияти бўйича фикр юритиш;

3) миллий тарбия тушунчалари бўйича хулосалар чиқариш ва бу хислатларни одат тусига киритиш.

Ўқувчилар миллий тарбия асосида миллий онг, миллий тафаккур, миллий ғоя, миллий ғурур, миллий руҳ, миллий менталитет каби тушунчаларнинг мазмунини билиб олади ва ўз фаолиятида бу тушунчаларни шакллантириб боради.

Миллий тарбиянинг мазмун-моҳиятини аниқ ҳис қилиш учун у ёки бу ҳолатда барча унга амал қилиши ҳамда унинг натижаси қандай яқун топганлигини синчковлик билан кузатиб, фикр юритиши ва ўзининг шахсий ҳулосасини чиқариб олиши лозим.

In order to characterize it at a time when a new bourgeois culture began to form, concepts of humanization and restoration were usually used. Humanism, that is, the concept of humanity, proves that in the center of a new culture divinity does not stand, and it is testified by the standing of a person's personality. He must be beautiful, both in soul and body. A person can become the creator of all values and his own happiness in case he thanks to his mind, strength, confidence in success, activity, willpower. At the same time, humanists did not openly oppose the church. They looked at God as a great creator. Secular liberty, standing against scholastic and spiritual domination of the church has a narrow meaning in the XIII-XVI centuries, that is, the Renaissance. In several countries in Western Europe, humanism was a progressive movement in the field of social thought, directed against Catholicism in literature, art and science, and the slavery of a person. Supporters of humanism were civilized forces of their time. They fought for Human Rights and noble qualities, for the Enlightenment and honor, for the free development of people in all respects<sup>2</sup>. Outstanding manifestations of humanism were F. Petrarca, J. Bocaccio, Leonardo da Vinci, J. Bruno, Italian T. Campanella, M. Monten, French F. Rable, T. Moore, England F. Bacon, Dutch E. Rotterdamski, Polish N. Copernicus and others. Many of the humanists of the XIV-XVI centuries themselves became pedagogical or resorted to pedagogical theory. The idea of humanism began in pedagogy as an example from these periods. The famous Italian educator-humanist Vittorino de Genotre, who lived during the Renaissance, that is, 1378-1446 years, promoted the ideas of social humanism. For the first time, his ideas of social humanism were connected with the creation of a boarding school called "House of Joy" Vittorino de Genotre. So, during this period, religion, pedagogy and social pedagogy are inextricably developed. In religious views, the main emphasis is on universal values. In religious narratives, in sacred books, verses, there has been a lot of talk about moral advice, human relations, care for relatives and children. On this basis, many generations have been brought up, and in this regard, in Europe, the church has long been the "patron of disabled children". It was asked not only for spiritual help, but also for medical, material assistance, seeking protection from injustice. In this regard, there have been rich traditions of religious organizations all over the world. In Europe, for example, since ancient times, children who remained without parents were released to the door of the temples. According to sources, the first raising houses for children left without parents appeared in the IV century on the initiative of Bishop Vasily Caesarea in the city of Caesarea. In 787 such an institution also appeared in the Cathedral in Milan. For a long time, it remained the only organization in Europe, and only by the XIV century, the number of upbringing houses increased by thirty. It is interesting that now only the teaching was not engaged in it, practical work was also carried out with the following content:

- mothers are helped; children were given to the families; the upbringing of children was controlled.

Even later, the children's houses were ruled by priests. The House of upbringing, founded by the priest Vincent de Paul in Paris in 1640 year, was very popular. He achieved the financing of the House of upbringing by King Ludovico XIV. Associations with kindness-large church organizations have also begun to be established. For the next centuries, humanitarian ideas have evolved under the name of humanism. For the first time, this term began to be used in science at the beginning of the XIX century and until the middle of the XX century it was aimed at criticizing injustice, inequality in society. After the Second World War, serious steps were taken towards real humanism, giving away radical changes in World Development. This can be seen in the declaration and documents of international, regional and interstate organizations such as the UNO, UNESCO. Humanism is becoming one of the life rules of every legal, democratic state.

Uzbekistan is taking its policy on the basis of humanitarian conditions, requirements, rules, the most advanced experiences of the Eastern and Western countries.

The first President Islam Karimov was a person who made a special contribution to the concept of humanism since the first days of independence. At the center of his policies, only the human and human factor were standing. For example, in his work "The way of independence and development of Uzbekistan" we can see in the following spiritual and moral foundations that will be the basis for our country:

<sup>1</sup> National Encyclopedia of Uzbekistan, Letter Z, page 141, www.ziyouz.com Library

<sup>2</sup> National Encyclopedia of Uzbekistan, Letter G, page 497, www.ziyouz.com Library

- 1) Loyalty to universal values
- 2) Strengthening and developing the spiritual heritage of the nations
- 3) The free manifestation of man's opportunities
- 4) Patriotism (associated with such concepts as self-sacrifice, courage, entrepreneurship).

Or, the sayings such as “reform should be for man, not for reform”, the saying “In the holy homeland, the person is” has become one of the main principles of the process of improvement of social life.

In fact, man is the most valuable being in the world, that the whole being, and creature serves man and his happiness. This fact is reflected precisely in humanism. Caring about the fate of man, people's interests, people of the country are fundamental matters of humanism.

The virtues of such a noble as tolerance that a person lives in harmony with a person, the people's society, the manifestation of generosity to the orphan, widowed-poor, the disabled, which were absorbed into the spiritual world of our people have been glorified during the period of 27 years, independent development of Uzbekistan.

Decree of the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev Miromonovich “On measures for further improvement of interethnic relations and friendship relations with foreign countries” №19.05.2017 № PO-5046, as well as on the basis of the decree of the committee “On interethnic relations and friendly relations with foreign countries”, in 23.05 2017, 110-, number-2993, on the basis of the National relations on the basis of the Council of relations societies, the Committee on interethnic relations and friendly relations with foreign countries under the authority of the Ministers of the Republic of Uzbekistan were once again proof of the above-mentioned thoughts, tolerance, interethnic harmony, the prosperity of nations, if necessary to sacrifice life, were the noble qualities inherent in the Uzbek people of an independent country.

As they have such features, Uzbekistan has acquired its place all over the world today<sup>1</sup>. Such great humanism, characteristic of our people, is an example of high spiritual courage, which is perfected in the process of Education.

Therefore, the spiritual and moral image of the teacher plays a leading role in the transformation of humanization of the educational process into a component of pedagogical education. Consequently, this direction of the activity of the teacher is in harmony with his pedagogical knowledge and skills.

Therefore, the content of training teachers is inevitably linked with their professional culture. What is needed for the teacher is a pedagogical culture. This understanding explains the essence and attention of the cooperation between the teacher and the reader. Accordingly, the issue of humanization of education plays a decisive role in this matter.

In conclusion, in the course, which meets the pedagogical requirements, teachers and students achieve interpersonal communication and establishing relationships, mutual respect and trust cooperation. Although this process is considered an easy way, but a teacher who works on the basis of this method seeks to adapt the content and quality of education to science without his desire.

The didactic cooperation of teachers and students is also evident. During the lesson, moral qualities are formed through the content and form of education. The cultural, willpower qualities are brought up in students. In interdisciplinary communication, psychological culture is also close in meaning to pedagogical culture. The content of this concept determines the basis of the formation and development of the personality of the pupil and the teacher.

This educational process is carried out in its manifestations in the following way:

- “ Human – person - development”;
- “person-society”;
- “person-profession”;
- “person-skill-creativity”.

<sup>1</sup> website: <http://iscience.in.ua> Actual scientific research in the modern world. May 2018 Issue 5 (37) Part 6, page 39



## OVOZLI AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA O'QITISH USULLARI

Mirzahmedova N.D. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Mirzahmedov SH.D. – Toshkent kimyo-texnologiya instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada ovozli axborotlarni kompyuterda kodlash tamoyillari, ovozning muhim xususiyatlari va umumiy jihatlari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** tovush, ovoz, kvantlash amplitudasi, raqamli ekvivalent, saralash intervali, amplituda, konverter, analogli – raqamli ovoz xususiyatlari, ovoz jihatlari, elektron tizim.

## МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ОБРАБОТКИ ГОЛОСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ

Мирзахмедова Н.Д. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

Мирзахмедов Ш.Д. - преподаватель Ташкентского химико-технологического института

**Аннотация.** В статье рассматривается осмысление и усвоение принципов двоичного кодирования при оцифровке звука. Показаны важные особенности звука и его общие аспекты.

**Ключевые слова:** звук, голос, квантовая амплитуда, цифровой, эквивалент, интервал квалификационный, конвертер, аналоговый, звуковые свойства, звуковые аспекты, электронная система.

## VOICE PROCESSING TRAINING METHODS

Mirzahmedova N.D. - Teacher of the Tashkent State Pedagogical University

Mirzahmedov SH.D. - Teacher of the Tashkent chemical-technological institute

**Annotation.** In the given article was described awareness and learning the principles of binary coding for digitizing sound. Important sound features and its general aspects are shown.

**Key words:** sound, vote, quantum amplitude, digital, equivalent, qualifying interval, a mplitude, converter, analog, digital, sound properties, sound aspects, electronic system.

Ta'lim tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklab, ularni puxta o'zlashtirishni talab etmoqda. Bu mamlakatimizda o'z yo'nalishi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan yetuk kadrlarni tayyorlash davr talabi bilan bog'liq bo'lib turibdi. Ta'lim hamma vaqt rivojlanuvchi ta'lim talablariga mos bo'lishi kerak. Ta'lim olish jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qo'llash bilan bir qatorda interfaol metodlardan foydalansh yuqori natija beradi. Informatika fanini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari, axborotning turlari va ko'rinishlari, axborotli jarayonlar, kompyuter axborotga ishlov berish kabi haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'quvchilar axborot haqidagi bilimlarni mustahkamlashda kompyuter yordamida axborotga qanday ishlov berish usullarini bilib olish kerak. Axborotga ishlov berish texnologiyalari bugungi kunda hayotimizning hamma sohalarini qamrab olgan. Informatikaning asosiy resursi – *axborotdir*. Azaldan axborot deganda atrof-muhitdagi obyektlar va hodisalar, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi. Keng ma'noda axborot – insonlar o'rtasida ma'lumotlar ayirboshlash, odamlar va sun'iy qurilmalar o'rtasida signallar ayirboshlashni ifoda etadigan umummilliy tushunchadir.

Tabiatni kuzata turib, insonlar bilan muloqotda bo'lib, kitob va gazetalar o'qib, televizion ko'rsatuvlar ko'rib biz axborot olamiz. Biz axborotlarni turli-tuman signallar holatida qabul qilamiz. Signallarning turli-tumanligi axborotlarni qayta ishlash jarayonini murakkablashtiradi. Shuning uchun ham axborotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlashni osonlashtirish maqsadida ular bir xil shaklga keltiriladi, ya'ni qayta ishlash uchun qulay bo'lgan belgilar bilan almashtiriladi. Bu jarayon axborotlarni kodlash deyiladi.

O'qitish tizimida ma'lumot tiplarini bir–biri bilan farqlarini quyida tushintirib o'tamiz:

Matn	Tasvir yoki rasmlar	Audio va ovoz	Video yoki harakatlanuvchi tasvir
Shu maqoladagi ixtiyoriy bir abzas matndir	O'zingizning (oq-qora yoki rangli) rasingiz tasvirli ma'lumotga kiradi. Tasvirli ma'lumotlarga xarita, barmoq izlari, turli chizmalar, rentgen nurlari orqali hosil qilingan tasvirlarni misol qilishimiz mumkin. Bu tasvirlarning umumiy xususiyati barchasining ikki o'lchovli obyektligidir.	So'zlashuv, qo'shiq, telefonda gaplashish, ko'chadagi shovqinlar va boshqalar. Audio va ovozlarning xususiyati shundaki, ular to'lqin ko'rinishida bo'ladi, ularning amplitudasi vaqt va havodagi bosimga bog'liq ravishda o'zgarib turadi, to'lqin qulog'imizga kirganida bizga ovoz eshitiladi.	1 soniyada 30 dan 60 tagacha tezlikda kadrlarning (bir biridan biroz farqlanuvchi) ko'rsatilganida ko'z o'ngimiimzda harakat illyuziyasi (ko'zning aldanishi) yuz beradi. Masalan, 1930-yillardagi bosh rolni Charli Chaplin ijro etgan mashhur ovozsiz kinolar videofilimga misol bo'ladi. Kompyuter o'yinlarida qo'llaniluvchi animatsiyalar boshqa turdagi misol bo'ladi. Odatda video ovoz bilan birga ijro etilsa, uning samarasi oshadi, bunga kompyuter o'yinlaridagi sinxronlashtirilgan tasvirlar yoki hozirgi kinoteatrlarni (dastlab, kinolarda birinchi bor ovozdan foydalanilganda, ular "ovozli kino" deb yuritilgan) misol qilish mumkin.

Quyida ovozli axborotlarga to'xtalib o'tamiz. Ovozli ma'lumotlarning ko'p tiplari mavjud, masalan, so'zlashuv, musiqa, turli shovqinlar va hokazo. Ularning har biri o'zining muhim xususiyatlariga ega. Ovozlar vaqtning uzluksiz funksiyasi sifatida qaralishi ularning umumiy jihatiga kiradi. Bu esa statistik ma'lumotlar sifatida qaraluvchi tasvirli ma'lumotlarning vaqt o'zgarishiga bog'liq bo'lmaslik jihatlariga ziddir. Ikkinchi tomondan, harakatlanuvchi tasvirlar vaqtning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Biz quyida vaqtning uzluksiz funksiyasi bo'lgan audio ma'lumotlarni qabul qilish, ularni raqamlashtirish va kompyuterda saqlash jarayonlarini ko'rib chiqamiz. Ovozli ma'lumotlarni kompyuter yordamida qayta ishlash uchun ular bitlar ketma-ketligiga o'tkazilishi lozim, zero kompyuterlar faqat raqamli ma'lumotlarning ustida ish olib boradi.

Uzluksiz signal ko'rinishidagi ma'lumotlarni raqamli ekvivalentlarga qanday o'tkazish mumkin? Bu jarayon uzluksiz (analogli) ma'lumotni raqamliga o'tkazuvchi elektron tizim (qoidaga ko'ra, integral tizimlar majmuyi) yordamida bajariladi. Bu tizim qisqacha A/R deb yuritilishi mumkin. Uzluksiz signalni raqamliga o'tkazish uchun oddiy 0s, 1s, 2s, 3s, 4s, ..., ns ko'rinishida vaqt olinadi, bu yerda s saralash vaqti intervali. Bu tanlangan 0s, 1s, 2s, 3s, 4s, ..., ns saralash intervallidagi kuchlanishlar qiymatlari jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval.

Vaqt	0	s	2s	3s	4s	5s	...	ns
Kuchlanish	$v_0$	$v_1$	$v_2$	$v_3$	$v_4$	$v_5$	...	$v_n$

$v_0, v_1, v_2, \dots, v_n$  kuchlanishlar qiymatlari ikkilik sanoq tizimida ifodalanadi va kompyuter xotirasida saqlanadi. Uzluksiz ma'lumotlarni raqamli ko'rinishga o'tkazishda quyidagi ikki savol yuzaga keladi:

1. *Bir soniyali saralash intervali qanday bo'lishi lozim?* Agar s saralash intervali juda kichik bo'lsa, jadval o'lchami juda katta bo'ladi. Agar s saralash intervali juda katta bo'lsa, u holda jadvalda aks ettiriluvchi

ba'zi avj signalga mos qiymatlar tushirilib qoldirilishi mumkin, bunda axborotni yo'qotish yuz beradi. Hosil bo'lgan  $v(t)$  jadvali boshlang'ich signalni aniq ifodalay olmaydi. Quyidagi rasmdagi saralash intervali  $2s$  deb olinsa,  $v_1$  kuchlanishning qiymati saqlanmaydi, oraliqda avj signalning borligi bilinmaydi, qayta tiklanganda boshlang'ich signallarni shakllantirish imkoni bo'lmaydi. Saralash intervali  $s$  ni shunday tanlash lozimki, toki u  $v(t)$  jadvalda minimal namunalar orqali to'liq axborotni qamrabolsin. Eng optimal saralash vaqti intervalini qanday tanlash mumkinligiga keyingi bo'limda to'xtalamiz.

2.  $v_0, v_1, v_2, \dots, v_n$  amplitudalarni ifodalash uchun qancha bitlar kerak bo'ladi? Ushbu savolning javobi insonning ovoz balandligini hamda ularni uzatishda ilova tomonidan yuborilishi mumkin bo'lgan xato (farq)larni eshitish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Agar 256 darajali  $v$  amplitudalarni ifodalashda 16 bit foydalanilsa, aksariyat ilovalarda ovozni taqdim etishdagi xatolik  $1/256 = 0,4\%$  ni tashkil etadi. 65536 darajali  $v$  amplitudalarni ifodalashda 16 bit foydalanilsa, xatolik ancha kamayadi, ya'ni  $0,0015\%$  ga teng bo'ladi. Bu vaqt diapazoni ovozni inson qulog'i eshitishi uchun yetarlidir. Uzluksiz ma'lumotni raqamli ekvivalentga o'tkazishda qo'llaniluvchi  $V(t)$  amplituda qiymatlari *kvantlash amplitudasi* deb yuritiladi<sup>1</sup>.

Ovozli ma'lumotlar quyidagi rasmda ko'rsatilgan tizimda qabul qilinadi va saqlanadi. Audio ma'lumotlarni chiqarish moslamalari mavjud. Bu signallar ma'lumot shaklini o'zgartiruvchi (analogli/raqamli) A/R konverterga beriladi. Agar biz telefon so'zlashuvini raqamlashtirmoqchi bo'lsak, soniyasiga 6700ta signal namunalar kiruvchi, raqamli chiqishi 8 bitli bo'lgan A/R konverterdan foydalanamiz. Agar tovushni yuqori aniqlikda raqamlashtirish lozim bo'lsa, raqamli chiqishi 16 bitli bo'lgan A/R konverterdan foydalanishimiz mumkin. Bunda 1 soniyadagi signallar namunalarining soni 44100 ta bo'ladi. A/R konverter shakllantirgan raqamli ma'lumotlar xotirada saqlanadi. Ushbu xotiraning hajmi raqamlashtirilib saqlanuvchi audio ma'lumot tipi va uning davomiyligiga bog'liq. Telefon so'zlashuvini raqamlashtirib xotirada saqlash uchun 1 daqiqasiga = 392 KB joy zarur. Ushbu katta bo'lmagan va yarim o'tkazgichli saqlash birligi samaralidir. Musiqani yuqori aniqlikda ijro etiladigan qilib saqlash uchun uning 1 daqiqasiga = 10,1 MB joy talab qilinadi. Musiqalar telefon so'zlashuviga qaraganda uzoqroq davom etadi. 60 daqiqali musiqiy ma'lumotni saqlash uchun xotiradan  $60 \cdot 10,1 \text{ MB} = 606 \text{ MB}$  joy talab qilinadi. Buni saqlash uchun qattiq disk yoki CD – ROMdan foydalanishimiz lozim. SHKga o'rnatilgan qattiq disksig'impligi taxminan 800 Gb va CD – ROM sig'impligi taxminan 700 MBga teng<sup>2</sup>.

Ovozli ma'lumotlarni raqamlashtirish uchun A/R konverterlar deb yuritiluvchi elektron tizimlardan foydalanishimiz haqida aytgan edik. Bunday tizim SHKning ona platasidagi elektron tizimga to'ldiruvchi karta sifatida joylashtiriladi va ovozli karta deb yuritiladi. Audiodiskdagi musiqani raqamli ko'rinishga o'tkazish uchun diskli qurilmaning mos ulagichini ovozli kartaga kirish porti (гнездо) orqali ulanadi. Bu esa kompyuterdagi ovozli ma'lumotni qabul qiluvchi dasturni ishga tushiradi. Dastur ovozli kartadan foydalanib kiruvchi ovozli ma'lumotni raqamli ko'rinishga o'tkazish va qattiq diskda fayl sifatida saqlash amalini bajaradi. Multimediali SHKlarda yaxshi sifatidagi dinamiklar ham ulangan bo'ladi. Raqamlashtirilgan ovozli ma'lumotlarni ovozli karta yordamida chiqarish mumkin. Kartada *analogli – raqamli A/R konverter* deb nomlanuvchi elektron tizimlari mavjud bo'lib, to'liqlikda saqlanuvchi bitlar ketma-ketligini o'qiydi, ularni uzluksiz o'zgaruvchi analogli signal ko'rinishiga o'tkazadi, bu tovushni kuchaytiradi va tovush chiqaruvchi orqali uzatadi. Dinamikalarning balandligini boshqaruvchi regulyator orqali tovushning past-balandligi boshqariladi. Birinchi inson qo'ng'iroq qilganida xotiraning 1-qismida saqlangan raqamli ma'lumot analogli – raqamli A/R konvertor orqali uzluksiz analogli ko'rinishga o'tkaziladi va telefon tarmog'i orqali ikkinchi inson telefon apparatiga uzatiladi va eshittiriladi. Demak, ovozli ma'lumotning matnli va tasvirli ma'lumotlardan asosiy farqi – u vaqtning uzluksiz funksiyasi bo'lib, bu ma'lumotlar analogli signallar deb yuritilar ekan. Analogli signallar esa (A/R) deb yuritiluvchi elektron sxemalar orqali raqamlashtiriladi. Raqamlashtirilgan audio ma'lumotlar esa boshqa raqamli – analogli (R/A) elektron sxemalar orqali uzluksiz analogli signal ko'rinishiga o'tkaziladi.

Boshlang'ich ma'lumotlarga asosan, yuqoridagi metodlardan foydalangan holda o'qitish tizimida berilgan usul va vositalar bilan o'qitilsa maqsadli hisoblanadi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda ovozli masalalarni kodlash uchun pedagog kadrlarning umumiy kompetensiyasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup>V. RAJARAMAN. Introduction to information technology. – Delhi: 110091. 2014. 175-176.

<sup>2</sup>Audio axborotlarni kodlash. www.vizualdars.uz

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALARNI YECHISHGA INNOVATSION YONDASHUV**

**Mahmudova O. – Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Ahmedova G. – Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Egasheva H. – Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Tojiboyeva M. - Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinfda masala yechishga o'rgatish, uning umumiy masalalari, to'g'risida so'z yuritilgan. Masalalarni yechishning yangi usullari taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** topshiriq, matematika, o'qitish usullari, topshiriq matnlari, sonlardagi faktlar, topshiriqlarni yechish usullari.

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К РЕШЕНИЮ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Махмудова О. - преподаватель Кокандского государственного педагогического института**

**Ахмедова Г. - преподаватель Кокандского государственного педагогического института**

**Егашева Х. - преподаватель Кокандского государственного педагогического института**

**Тожибоева М. - преподаватель Кокандского государственного педагогического института**

**Аннотация.** Эта статья посвящена вопросам решения математических задач в начальных классах. Представлены новые способы решения задач.

**Ключевые слова:** Задача, математика, методы преподавания, тексты задач, факты в номерах, решение задачи, методика.

**INNOVATIVE APPROACH TO SOLVING MATHEMATICAL PROBLEMS IN INITIAL CLASSES**

**Makhmudova O. - Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute**

**Akhmedova G. - Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute**

**Egasheva Kh. - Lecturer, Kokand State Pedagogical Institute**

**Tozhiboeva M. - teacher of the Kokand State Pedagogical Institute**

**Annotation.** This article focuses on how to teach problem solving in primary school, its general issues and how it works. New ways to solve problems are presented.

**Key words:** problem, mathematics, teaching methods, task texts, facts in numbers, problem solving methodology.

Masalani yechish - bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni ochib berish va bu asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish, demakdir.<sup>1</sup>

Masala yechish bu masalada bevosita va bilvosita mavjud bo'lgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallarning mantiqan to'g'ri ketma-ketligi orqali masalaning talabini bajarish demakdir.<sup>2</sup>

Masala yechish bolalarda tafakkurni o'stiradi. "Tafakkur esa - inson ongida obyektiv olamning aktiv aks etishi demakdir"<sup>3</sup>

1-sinf matematika darsligida jami 151 ta masala berilgan bo'lib, shulardan 34%i, 2-sinf matematika darsligida 352 masala, shundan 14%i, 3-sinfda jami 371 ta masala bo'lib 10%i, 4-sinf darsligida esa jami 373 ta masala bo'lib, 0,02%ini rasm asosidagi masalalar tashkil etadi. Istalgan masala uch komponentdan iborat

<sup>1</sup> Xalilloyev A, Xudoynazarov E. Boshlang'ich sinflarda masala yechishga o'rgatish metodikasi -U.: 2010. –6 b.

<sup>2</sup> Курманнилова Ш. Методика преподавания математики в начальных классах. Астана 2011. 92-с

<sup>3</sup> Kulanov I.B.Multimedial o'qitish tizimlarini yaratish texnologiyasiga bo'lgan talablar. "Fizika, matematika va informatika" jurnali. 2009. -№2.

bo'ladi: a) masalaning matni, b) masaladagi sonli faktlar, v) masalaning savoli. Bu uchala komponent oldida malum talablar ham yotadi. A) Masalaning matni: qisqa, ravon va tushunarli bo'lishi kerak. B) Sonli faktlari: hayotiy, taraqqiyot dinamikamizni ochib beruvchi mantiqan to'g'ri tanlangan, imkoniyat chegarasidan chiqmagan bo'lishi kerak. D) Matn oxirida so'roq gap tariqasida yozilgan aniq savol bo'lishi kerak. Bizga ma'lumki, hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab, sodda va murakkab masalalarga bo'linadi. Yechilishi uchun bitta arifmetik amal bajarilishi zarur bo'lgan masala sodda masala deyiladi. Yechilishi uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta (ular bir xil yoki har xil amal bo'lishlaridan qat'iy nazar) amalni bajarish zarur bo'lgan masala murakkab masala deyiladi. Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilishi davomida shakllantiriladigan tushunchalarga bog'liq ravishda turlarga ajratish mumkin. Murakkab masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma'lum gruppalariga klassifikatsiyalashning yagona asosi yo'q. Biroq metodik mulohazalar bo'yicha turli-tuman murakkab masalalar majmuasidan ba'zi gruppalarni yo matematik strukturasiga qarab (masalan, yig'indini songa bo'lish lozim bo'lgan masalalar) yoki yechish usuliga qarab (masalan, o'z garmasmiqdoming qiymatini topish usuli bilan yechiladigan masalalar), yoki konkret mazmuniga qarab (masalan, harakat bilan bog'liq bo'lgan masalalar) ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Matematikaning boshlang'ich kursida sodda masalalar va asosan 2-4 amalli murakkab masalalar o'rgatiladi. Zero, murakkab masalalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.<sup>1</sup> O'quvchilarda masalalar yechish usullarini umumlashtirish va ularni yechishga ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantirishda masalalar tuzish va ularning ko'rinishini almashtirishga doir mashqlar muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlarning ba'zi turlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin.

Matematikani o'qitish sistemasida sodda masalalar juda muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf matematika darsliklarini tahlil qilar ekanmiz sodda masalalarni quyidagi 5 guruhga ajratdik:

1) Ikki sonning yig'indisini topish.

Tomda 8 ta kaptar bor edi. Yana 5 ta kaptar ular yoniga kelib qo'shildi. Hamma kaptarlar nechta? (21- bet, 2- masala, 2-sinf)

2) Qoldiqni topish.

O'quvchilar 5 ta qush ini yasadi. Uchta inni daraxtga ilib qo'ydi. Ular yana nechta inni daraxtga ilishi kerak?

3) Bir xil qo'shiluvchilarning yigindisini (ko'paytmasini) topish.

Nodir likopchanning har biriga 3 tadan olma qo'ydi. Agar to'rtta likopchaga olma qo'ygan bo'lsa, hammasi bo'lib nechta olma qo'ygan?

4) Teng bo'laklarga ajratish.

6 ta olma ikkita savatga teng qilib solindi. Har bir savatda nechtadan olma bo'ldi?

5) Mazmuni bo'yicha bo'lish.

O'quvchilarning har bir guruhi 8 tupdan olcha ko'chatini tagini yumshatdi, jami 32 tup olma ko'chatining tagi yumshatildi. Bu ishni o'quvchilarning nechta guruhi bajargan?

Boshlang'ich sinf matematika kitoblarini tahlil qilib chiqqanimizda darsliklardagi masalalar mavzularini quyidagilarga ajratdik:

1. Maktab, sinf, oila hayotiga oid masalalar.

2. O'quvchilar mehnati va o'yinlariga oid masalalar.

3. Sinf jamoasining hayotiga oid masalalar.

<sup>1</sup> Qosimov F Masala yechishda yo'l qo'yiladigan ayrim xatolar va ularni bartaraf etish choralari // I Международная научно- практическая интернет- конференция. –Пряяслав- Хмельницкий, 2015.– Б. 224-228.

4. O'quvchining o'z uyi, yashab turgan ko'chasi hayotiga oid masalalar.
5. O'quvchining ota-onasi mehnat qilayotgan jamoa xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotiga oid masalalar (qishloq maktablari uchun).
6. O'quvchining jonajon shahri ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar (shahar maktablari uchun):
7. O'quvchi yashab turgan yaqin – qo'shni jamoa xo'jaligi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar (qishloq maktablari uchun).
8. O'quvchi yashab turgan tuman (shahar) ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar.
9. Qo'shni tuman (shahar) ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar.
10. O'quvchining yashab turgan, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar.

Bizga ma'lumki, masala sharti murakkab bo'lgan holda, berilganlar orasidagi munosabatlarni tushunib olish qiyin bo'lgan hollarda, shuningdek, yangi xil masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining analizi ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Haqiqatan ham masala shartining qisqa yozuvi o'quvchilar xotirasiga tayanch bo'lib, son ma'lumotlarni tushunish va ajratish imkonini beradi, shu bilan birga ularning ratsional yozilishi masalada nima berilgan va nimani izlash kerakligini aniq tushuntirish imkonini yaratadi. Tajribadan maktablarda shuni kuzatdikki, masalaning qisqacha shartini tuzish jaryonida ba'zi pedagoglar xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday kamchiliklarga yo'l qo'yilishining asosiy sabablaridan biri o'qituvchilar tomonidan matnli masalalar ustida ishlash metodiga rioya qilinmasligidir. Masala matni bilan dastlabki tanishtirishda, masalaning qisqacha shartini ifodalashda, masala muhokamasida, masala yechilishini yozishda, yechilgan masala ustida ishlash kabi bosqichlarida ayrim xatoliklarni kuzatish mumkin. Ularning asosiy kamchiligi masalaning qisqacha shartini tuzishda ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalaga doir qisqa shart tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak.

1. Qisqa shart masala mazmuni bilan tanishilgandan keyin tuziladi va yechish yo'llarini izlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilar qisqa yozuvga asoslanib, o'qituvchi boshchiligida masalani tahlil qilishadi.

2. Qisqa shart ixcham, aniq bo'lishi va miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni aynan aks ettirishi kerak. U har xil shaklda, ya'ni jadval tarzida, chizma, rasm, sxema, qisqa yozuv, diagramma ko'rinishida va hokazo tasvirlanishi mumkin.

3. Qisqa shartning har bir yangi ko'rinishini o'quvchilar o'qituvchi boshchiligida bajaradi.

4. Darsning maqsadlari va masalaning qiyinlik darajasiga qarab qisqa shartni o'qituvchi yoki o'qituvchi boshchiligidagi o'quvchi doskada bajarishi mumkin. Istalgan masalada qisqacha shart masala shartidan kelib chiqqan ko'rgazma quroldir.

Boshlang'ich sinf matematika dars jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan va samarali usullardan biri multimediali proyektlar orqali turli tasvirlarni namoyish etishdir. Slayd-proyektorlari. Slayd-proyektorlaridan fotoplenkadagi tasvirni proyeksiyalashda foydalaniladi. Markerli doskalar. Bular oq magnitli doskalar bo'lib, maxsus markerlar yordamida yoziladigan va yengilgina maxsus quruq gubka yordamida o'chirib tashlash imkoniyatiga ega moslama. Markerli doskalar yuzasining toifasiga qarab, Standart va Delux toifaga bo'linadi. Istomina N.B, Gorina O.P va boshqalar "Metodicheskiy rekamindasiyie k uchebnike dlya 4-klasa" kitobida Projektorni 4 guruhga ajratadi.<sup>1</sup> Nusxa ko'chiruvchi doskalar. Nusxa

<sup>1</sup>Multimedia tizimlarini o'rganish va qo'llash uchun uslubiy ko'rsatma. Namangan, 2006.

ko'chiruvchi doskalar ma'ruza, seminar, kengash vaqtida doskadagi barcha yozuvlar va suratlarni xotirasida saqlab qolish imkoniyatiga ega. Hujjat-kameralari. Hujjat-kameralari – uncha katta bo'lmagan predmet, vizual tasvirni yoritib beruvchi fotosurat, slaydlar, hujjatlarni asl nusxasini elektron tasvirini tez fursat ichida namoyon qilib beruvchi oddiy qurilma. Hujjatli videokamerlar. Stol tizimidagi videokonferens-aloqaning dasturiy ta'minotga asoslangan birgalikda ishlash vositasi. Sanoqli daqiqalar ichida turli xonalardagi abonent nuqtalarini videokonferensiya o'tkazish uchun mos qurilmalar bilan jihozlab beruvchi ixcham tizimlar. Asosan bunday qurilmalar televizion monitor tepasiga o'rnatiladi. Shuning uchun uni televizion pristavka deb yuritiladi".<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, masala yechish jarayonida o'qituvchi nafaqat uning mohiyatini to'laqonli anglab uni o'quvchilarga yetkaza olishi, qolaversa, metod, usul va vosita tanlashdan oldin darsning o'quv -tarbiyaviy maqsadlarini aniqlab olish, o'quv materialini mazmunini konkretlashtirib olish, unda asosiylarini ajratib bilish, uni mantiqan tugallangan elementlarga ajratish kerakligini bilib, dars jarayonida natijaviy o'qitishni yo'lga qo'ya olishi zarur.

#### **MAKTABGACHA TA'LIM METODOLOGIYASIDA STEM (STEAM) TA'LIM TIZIMI TAMOYILLARIGA ASOSAN KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

**Ashurova S.Yu. – pedagogika fganlari nomzodi, professor**  
**Muminova D.R. – tadqiqotchi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada STEM tizimini maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab tadbir etish ahamiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, uni MTM faoliyatiga kitobxonlik orqali kiritish mexanizmlari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** STEM ta'limi, MTT metodologiyasi, kitobxonlik.

#### **МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КНИГОЧТЕНИЯ, ОСНОВАННЫХ НА ПРИНЦИПАХ РАЗВИТИЯ STEM (STEAM) ОБРАЗОВАНИЯ В МЕТОДОЛОГИИ ДОШКОЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИИ**

**Ашурова С.Ю. - кандидат педагогических наук, профессор**  
**Муминова Д.Р. - исследователь**

**Аннотация.** В этой статье автор показывает необходимость в развитии STEM образования начатия с дошкольных образовательных учреждений. А также автором предлагаются механизмы внедрения STEM сообразования в систему ДОО посредством книгочтения.

**Ключевые слова:** STEM образование, методология дошкольного образования, книгочтение.

#### **MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF BOOK READING BASED ON THE PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF STEM (STEAM) EDUCATION IN THE METHODOLOGY OF PRESCHOOL INSTITUTIONS**

**Ashurova S.Yu. - candidate of pedagogical sciences, professor**  
**Muminova D.R. - researcher**

**Annotation.** Today, in accordance with the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan, major reforms and changes are being carried out in the field of education. In particular, measures are being taken to organize education at the level of international standards. In this sense, special attention is paid to the development of education in the country based on the STEM system. In this article, the author shows the need for the development of STEM education starting from preschool educational institutions. The

<sup>8</sup>Umarov L.M. Innovatsion texnologiyalaridan foydalanib o'qitish samaradorligini oshirish. Mag.disser.-Q.: 2012.-15-19 b.

author also proposes mechanisms for introducing STEM education in the system of preschool education through children's books.

**Key words:** STEM education, preschool education methodology, early book reading.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. "Zamonaviy maktablarni tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori, "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori va boshqa ko'plab respublikamizdagi ta'lim tizimini dunyodagi yetuk ta'lim tizimlariga tenglashtirish borasidagi islohotlarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu maqsadlarni bajarish uchun 2016-yildan boshlab milliy ta'lim tizimida STEM paydo bo'lishi haqida so'z yuritilmoqda.

Hozirgi kunda STEM ta'lim tizimi dunyo miqyosida keng tan olinmoqda. Ba'zi mamlakatlarda ushbu ta'lim tizimi milliy ta'lim tizimi etib tayinlangan.

2016-yil natijasiga ko'ra STEM ta'lim tizimi bo'yicha maktabni tamomlaganlar taqsimotiga ko'ra yuqori texnologiyalar bo'yicha jadal tarzda rivojlanib borayotgan Xitoy birinchi o'rinni, AQSH va Rossiya munosib ravishda 3 va 4 o'rinni egalladi.<sup>1</sup>

STEM ta'limi nima degani?

STEM so'zi ingliz 4 so'zning bosh harflaridan tashkil topgan abreviatura bo'lib, unda:

S – Science – Fan

T – Technology – Texnologiya

E – Engineering – Injinerlik

M – Mathematics – Matematika

Yaqin kunlarda ushbu abreviaturaga A – Art – San'at bo'limi ham qo'shilgan<sup>2</sup>.

Ya'ni STEM tizimida ta'lim ushbu 4 yo'nalishga urg'u bergan holda, undan tashqari ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatgan holda olib boriladi. Globallashuv davridagi texnologik o'zgarishlarni ortidan qolib ketmaslik maqsadida, yangi texnologiyalar, bazalar shakllanishi, sun'iy aql kabi trend texnologiyalarni bilish, ularga muvofiq ta'lim berish hozirgi zamon pedagoglarning, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

STEM bizning kundalik hayotimizdagi innovatsiyalarni ta'lim tizimiga kiritib beradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, STEM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qunt, qiziquvchilik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat - muammoni hal qilish (problem-solving skills) qobiliyati shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida STEM ta'lim tizimini davlat ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha o'tgan 2 yil mobaynida ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin xususiy maktablarda buning imkonini osonroq bo'lsa, umumiy ta'lim tizimiga STEM ta'lim tizimini kiritishda bir qator muammolar borligi ta'kidlanmoqda.<sup>3</sup> 2019-yilning dekabr oyida Xalq ta'limi vazirligi Xitoyda bo'lib o'tgan Shanghai International STEM Education Expo (STEAMEX) ko'rgazmasida ishtirok etdi.

O'zbekistonda STEM ta'lim tizimini umumiy xalq ta'limiga tadbiriq etish borasida AQSH mutaxassis jalb qilindi.<sup>4</sup> Undan tashqari Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tashabbuslari bilan yurtimizda tashkil etilgan prezident maktablarida STEM ta'lim tizimi orqali ta'lim beriladi.

Zamonaviy tadqiqotlar STEM tizimi maktab ta'lim tizimiga oid bo'lgani bilan, uni eng kichik yoshdan, maktabgacha davrdan boshlab tadbiriq etish muhim ekanligini ta'kidlamoqda. Bolaning eng kichik yoshidan boshlab STEM tizimiga olib kirishning ahamiyati, muvaffaqiyat ildizidir.

Aslida STEM fikrlash bolalikdan boshlanadi. Bola yurishni bilmagan paytida ham jarayonlarning bog'liqligi, ketma-ketligi va ehtimollikni tushuna oladi. Ushbu xususiyatlar har tomonlama rag'batlantirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim tizimida STEM tizimi bo'yicha faoliyat kundalik ish rejasi asosida olib borilishi

<sup>1</sup> Veb-sahifa: <https://www.statista.com/chart/7913/the-countries-with-the-most-stem-graduates/> (tashrif buyurilgan sana 2.01.2020y.)

<sup>2</sup> Mamlakatimizdagi ushbu sohada islohotlar asosan STEM shakliga qaratilgan.

<sup>3</sup> A. Yengalichev. STEM obrazovanie: vnedrenie mirovyykh standartov Institut strategicheskikh i mezhregionalnykh issledovaniy pri Prezidente Respubliki Uzbekistan, veb-sahifa: [ma'rifa.t.uz](http://ma'rifa.t.uz) (tashrif buyurgan sana: 24.12.2019)

<sup>4</sup> Veb-sahifa: <https://uzedu.uz/Xtv/IndexBatafsil/71?ID1=1668> (tashrif buyurilgan sana: 3.01.2020y.)



mumkin. STEM ta'lim tamoyillarga asoslanadigan faoliyatlarni ishlab chiqish va amalga tadbqiq etish muhim hisoblanadi. STEM ta'lim tizimini kitoblar orqali kichik yoshdagi bolaning hayotiga olib kirish samarali mexanizmlardan biri hisoblanadi. Kitob bolani STEM tizimiga olib kirishda kuchli tramplin bo'la oladi.<sup>1</sup> Kitob bola uchun faoliyat va jarayon orasidagi bog'lovchi vosita bo'ladi. Misol uchun kitobdagi baliqcha haqida bolalar bilan suhbat qurib, bog'chadagi akvariumda yashovchi baliqlarni o'rgansa bo'ladi. Kitob bolani yoshligidan ilm-fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, kitob orqali bolada fanga oid so'z boyligi ortadi. Bu yerda muhim jihat STEM tamoyillariga asoslangan kitobni ensiklopediya kitoblari bilan adashtirmaslik. Kichik yoshdagi bolalar uchun tayyorlanadigan kitoblarni STEM ta'lim tizimi doirasida qanday strukturalashtirish mumkin:

#### S-Science

Kichik yoshdagi bolalarni fan olamiga olib kirishda hayvonot olami, dengiz hayvonlari, o'simlik va hashoratlar haqidagi kitoblardan foydalansa bo'ladi.

#### T-Technology

Atrofimizda, bolalar xonasida, kundalik faoliyatimizda uchraydigan texnologiya buyumlari aks etgan qiziqarli kitoblar bolani texnologiya olamiga olib kiradi. Qaychi, g'ildirak, mashina, oyisining kir yuvish mashinasi, telefon va hokazolarni kitobda ichini ko'rsatgan holda namoyon qilish, buyumlar haqida hikoyalar o'qish mumkin. Qiziqarli hikoya bilan namoyon bo'lgan texnologik buyumlar illyustrasiyasi bolani miyasida savollar paydo bo'lishiga, tahliliy o'ylashiga turtki bo'lishi mumkin.

#### E-Engineering

Injinerlik sohasiga bolalarni olib kirishni shakllarni o'rganishdan boshlasa bo'ladi. Shakllar, ulaming atrofimizdagi buyumlarda aksi, shakllarning bir-biri bilan munosabatini haqidagi biron shaklga ega bo'lgan kitob foydali vosita bo'ladi.

#### A - Art<sup>2</sup>

Bolani san'at olamiga olib kirishni bolaligidan boshlash zarur. Milliy va dunyo miqyosida buyuk san'at arboblari asarlari, san'at namunalaridan tashkil topgan kitoblar, bolalar ko'ziga yosh psixologiyasini inobatga olgan illyustrasiyalar STEM ta'limi tamoyiliga munosib bo'ladi. Malevichning "Qora kvadrat" rasmi orqali shaklni ko'rsatish, Moonkning "Qo'rquv" asari orqali hissiyotlarni namoyon qilish kabi faoliyatlar bolalarni qiziqтира oladi.

#### M – Math

Kichik yoshdagi o'qishni bilmaydigan bolalarga ham sanash asoslarini o'rgatish mumkin. Faqat bu 1+1 kabi zerikarli, bolaning neyrofiziologik rivojlanishiga to'g'ri kelmaydigan ta'lim bo'lmay, balki interaktiv innovatsion yondashuvga ega ta'limini qo'llashdir. Kitob illyustrasiyadagi hayvonlar soni, barmoqlar soni, yuzagi a'zolarining yonida "1" (og'zi bitta) yoki "2" (ko'zi ikkita) sonlarining namoyon bo'lishi bolada matematika asoslarini shakllanishida va sonlarga qiziqishi uyg'onishiga yordam beradi.

Eng muhimi, bolaga STEM tizimiga oid kitob tanlayotganda u zerikarli bo'lmasligi va bolaning yosh psixologiyasiga munosib bo'lishini ta'minlaydi.

Ushbu kitoblar bolaning e'tiborini jalb qila oladigan, kichik yoshdagi bolalar psixologiyasiga mos keladigan, ularning yoshiga yarasha ma'lumotni taqdim eta oladigan va shu bilan bir qatorda STEM ta'limiga asoslangan illyustrasiyalardan iborat.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni Prezidentimiz oldimizga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqqan holda har tomonlama yetuk va hozirgi zamon talablariga mos ravishda rivojlanishida STEM tizimini asoslarini shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- MTM ni kitob bilan ta'minoti jarayonida kitoblarni STEM tamoyillariga asoslanganligiga qarab tanlash;
- MTM tizimining ish rejasiga STEM tamoyillariga asoslangan kitoblar bilan ish faoliyatni yurgazish mexanizmlarini kiritish;
- Kichik yoshdagi bolalar so'z boyligini STEM kitoblari yordamida ko'paytirish;

<sup>1</sup> Understanding STEAM and how children use it. National Centre of Early Childhood development. Teaching and Learning. 2019

<sup>2</sup> Hozirda STEM abreviaturaga A xarfi, Art-Madaniyat ma'nosida qo'shilgan.

- Kichik yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan, innovatsion texnologiyalardan tashkil topgan STEM kitoblarini ishlab chiqarilishini rag'batlantirish;
- MTM pedagoglarini STEM ta'lim tizimi bilan tanishtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

### ПЕДАГОГИК ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИДА МУСТАҚИЛ ИШЛАШ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ - КАСБИЙ МАҲОРАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

**Якубжанова Д. – Тошкент давлат педагогика университети таянч докторанти**

**Аннотация.** Ушбу мақолада талабаларнинг мустақил илмий фаолиятини юзага келтириш вазифасининг долзарблиги ва уни амалга оширишнинг бошланғич босқичлари ҳамда таълим жараёнида талабалар билан ҳамкорлик методикасини қўллаш орқали эришиш мумкин бўлган натижалар тўғрисидаги фикрлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** мустақил илмий фаолият, педагогик алоқа, касбий маданият, ижтимоий талаб, шахсининг субъективлиги, компетентлик, психологик неоплазма, ўзгарувчанлик.

### РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ РАБОТ У СТУДЕНТОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА

**Якубжанова Д. – базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** В данной статье раскрывается актуальность задачи создания самостоятельной студенческой исследовательской деятельности и ранних этапов ее реализации. А так же, изложены результаты, которые могут быть достигнуты путем использования методов сотрудничества со студентами в процессе обучения.

**Ключевые слова:** самостоятельная научная деятельность, педагогическое общение, профессиональная культура, социальный спрос, субъективная личность, компетентность, психологическое новообразование, изменчивость, учебник, учебные материалы.

### DEVELOPMENT OF INDEPENDENT WORK SKILLS AT STUDENTS OF A PEDAGOGICAL UNIVERSITY AS A FACTOR OF PROFESSIONALISM

**Yakubzhanova D. - basic doctoral student at Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** In the given article was described the relevance of the task of creating independent student research activities and the early stages of its implementation. And also, the results are stated that can be achieved by using methods of cooperation with students in the process of studying.

**Key words:** independent scientific activity, pedagogical communication, professional culture, social demand, subjective personality, competence, psychological neoplasm, variability, textbook, training materials.

Ўқитиш ва таълимнинг барча босқичларида талабаларнинг мустақил илмий фаолияти педагогик алоқанинг касбий маданиятини ривожлантиришнинг фаол шакли сифатида янгиланмоқда. Дунё илм-фанида олиб борилган тадқиқотлар натижаларига кўра, бугунги кунда педагогика йўналишидаги ОТМларидаги ўқув жараёнини ташкил этишга бўлган ёндашувни янгилаш зарурати ортиб бормоқда. Бўлажак педагог-ҳодимларнинг касбий фаолияти хусусиятлари, ёш авлодни тарбиялаш, уларни ҳар томонлама ривожлантириш ва ўқитиш учун ижтимоий талабга жавоб бера оладиган аниқ мақсад ва вазифаларни қайта кўриб чиқиш масалалари кўтарилмоқда. Бунда

таълимни инсонпарварлаштириш шароитида шахснинг субъективлиги, компетентлиги ва бошқа шахсий фазилатларини ошириш борасида турли фикрлар илгари сурилмоқда.

Бу борада мамлакатимизда ҳам талай ислохотлар олиб борилмоқдаки, булар Президентимиз томонидан чиқарилган бир қанча фармон ва қарорларда ҳам ўз аксини топган<sup>1</sup>.

Умуман олганда, талабалар кўпинча репродуктив фикрлашни машқ қилади, маърузалар ва дарсликлардаги мавжуд ғоялар ва баҳоларнинг шубҳасизлиги ва асослилигига шубҳа қилмайди, маълумотларни аксиоматик равишда қабул қилади. Бу шуни англатадики, талабаларда ташаббускорлик, изланиш нисбатан суст ёки етарли эмас. Бу ҳолатда таълим олувчини кучли маҳоратга эга, доимий равишда мустақил таълим олади, ўз устида изланади, - дея олмаймиз.

Ваҳоланки, мамлакатимизда таълим тизими ва ёш авлодни тарбиялаш жараёнига қўйилган биринчи вазифалардан бири таълим олувчининг мустақил фикрлайдиган, ўзининг қатъий кучли позициясига эга бўлган шахс сифатида шаклланишидир. Мазкур вазифани ижодий бўлмаган муҳитда, таълим олувчи ва таълим берувчининг тўла мустақилликка эга бўлмаган шароитида амалга ошириш мумкин эмас.

Аслида, олий таълимдаги ўқиш жараёни қизғин профессионал изланиш ва мустақил тарзда турли кашфиётларни яратиш жараёни бўлиши керак. Шу муносабат билан талабалар - бўлғуси ўқитувчиларни замонавий шароитларни ҳисобга олган ҳолда сифат жиҳатдан янги босқичда тайёрлаш муаммоси психологик-педагогик фанлар ва олий таълим учун яққол муаммолардан бири сифатида намоён бўлмоқда.

Бу борада педагогика йўналишидаги ОТМнинг ҳар бир ўқитувчиси бўлажак мутахассисларнинг ҳар бирининг потенциал имкониятлари ва ўзига хослигини англашга, инсон шахсини шакллантиришга йўналтирилган ўзининг таълим ва тарбия жараёнини ташкил қилиш усул ҳамда услубларига эга бўлиши талаб этилади. Бунда ОТМда ўқитиш усуллари танлашда, хусусан, ўқитувчиларнинг иш сифати ҳамда натижадорлигини оширишда бир қанча ўзгаришларни амалга ошириш кўзда тутилади, психологик, педагогик, лингвистик йўналишдаги фанларни ўқитишда психика ва онгни ривожлантиришга, онг ва фаолиятнинг бирлигига, фаол ижтимоий муҳит ва одамлар билан ўзаро муносабатларга асосланган психологик неоплазмаларга оид асосий қоидалар ҳисобга олинади. Мазкур жараён ўқувчиларнинг когнитив фаоллигини рағбатлантирадиган ўқитиш усулларида фойдаланиш зарурлигини кўрсатади. ОТМ ижтимоий ҳаётини демократлаштиришнинг янги шароитларида талаба ўзининг ички мотивациясига, когнитив фаолиятига бўлган эҳтиёжни яратади, инсонпарварлик принципларига асосланган ўқув жараёнидаги ўзгарувчанлик ва бошқа турли позициялар бўйича изланишлар олиб боради. Шу тарзда, инсон шахсини ривожлантиришда омиллар учлигини (биологикдастур, ижтимоий рағбатлантириш ва ички импульслар, чуқур эҳтиёжлар ва қизиқишларни рағбатлантириш) амалга ошириш учун шароитлар яратилади. Бу, айниқса, янги авлоднинг келажаги боғлиқ бўлган ўқитувчиларни тайёрлаш жараёни учун муҳим жараён ҳисобланади.

Талабалар семинарларда, психотехника машқларида, дидактик ўйинлар жараёнида мактабдаги педагогик вазиятларни ҳал қилишда "Агар мен ўқитувчи бўлганимда, унда ...", "Агар мен мактаб раҳбари бўлганимда, унда ...", "Агар мен мактабда тарбиячи бўлганимда, унда ..." каби ўйинлардан фойдаланилади.

Бунда фаол ўқитиш усуллари орқали қуйидаги долзарб вазифалар мавжуд:

- талабани трансформацион, мазмунли фаолият соҳасига киритиш (ва кўпайтирмаслик);
- когнитив фаолиятнинг хилма-хил турлари билан танишиш;

<sup>1</sup> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОНИ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ 2030 ЙИЛГАЧА РИВОЖЛАНТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДА. 2019 йил 8 октябрь, ПФ-5847-сон <https://lex.uz/docs/4545884>  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ. ОЛИЙ МАЪЛУМОТЛИ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШ СИФАТИНИ ОШИРИШДА ИҚТИСОДИЁТ СОҲАЛАРИ ВА ТАРМОҚЛАРИНИНГ ИШТИРОКИНИ ЯНАДА КЕНГАЙТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА. 2017 йил 27 июль, ПҚ-3151-сон. <https://lex.uz/docs/3286194>  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРНИНГ МАМЛАКАТДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН КЕНГ ҚАМРОВЛИ ИСЛОХОТЛАРДА ФАОЛ ИШТИРОКИНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ҚЎШИМЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА. 2018 йил 5 июнь, ПҚ-3775-сон. <https://lex.uz/docs/3765586>

- Бўлажак ўқитувчилар томонидан ўзларининг фаолиятини бошқариш ва ҳамкорлик қилишга тайёрлигини ўзлаштириш.

Бундай муаммоларни муваффақиятли ҳал этиш натижасида талабаларни касбий фаолиятга жалб қилиш жараёни кучайиб боради, бунинг натижасида бўлажак мутахассис юзага келадиган таълим ва ҳаёт муаммоларини ижодий ҳал этиш, ўқитувчининг ташкилотчилик роли билан ҳақиқий когнитив фаолиятга қўшилиш имкониятига эга бўлди.

Фаол усуллар орасида машғулотнинг муаммоли ва интерфаол (коммуникатив) шакллари - эвристик суҳбат, гуруҳли мунозаралар, мунозара саволлари билан маърузалар, ақлий ҳужум (мия ҳужуми), рол ўйнаш ва бизнес ўйинлари, маъруза ва суҳбат каби алоҳида ҳолда кўзда тутилади. Ўқитишнинг интерфаол шаклларида тингловчилар учун маъқул келадиган модификациялардан фойдаланилади. Унда талабалар ҳамкорлик методологиясини амалга оширадilar ва ўқув жараёни давомида ўқув ва ривожланаётган кадрлар тайёрлаш муаммолари ҳал қилинади. Ўқитиш фаол ва шахсий ёндашиш тамойилларига асосланади, яъни тайёр билимларни ўқитувчи тақдим этмайди, талаба мустақил фаолият жараёнида ўрганади, пассив маълумот истеъмолчиси сифатида эмас, балки билимларни ишлаб чиқаришда ва фикрларни шакллантиришда фаол шерик сифатида ҳаракат қилади.

Лекин жараёнда таълим берувчининг вазифалари, масъулияти барибир аниқ режалаштирилган ва тизимлаштирилган бўлиши лозим.

Бунда ўқитувчи материални тақдим этиш, маърузалар ва мунозаралар жараёнларида тингловчиларга тезкор ва қисқа жавобларни талаб қиладиган шахсий саволлар билан мурожаат қилиши, улардан мавзунини кенгайтириш жараёнида бир неча бор фойдаланиши лозим.

Тажриба шуни кўрсатадики, ҳар қандай маъруза ҳам мунозарага айланмайди. Аммо маърузанинг тўғри танланиши ва таълим олувчига етарлича тушунтириб берилиши талабаларнинг турли-туман фикрларини қўзғатади, фронтал фикрлаш муҳитини яратади, маъруза шаклида монологларни - ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги тўсиқни мулоқотга айлантиради, бу эса уларнинг фаол ўзаро таъсирига ҳисса қўшади. Шунингдек тингловчиларнинг маърузачини тинглашга тайёрлиги ҳам маъруза давомида билимларни талқин қилишга, идрок этишга, кўра олишга, илгари билдирилган ғоялар билан таққослашга олиб келади.

Масалан, "Ота-оналар психологияси" мавзуси очилишидан олдин, ўқувчиларда савол туғилади: сизнингча, нимага таъсир қилиш қийинроқ - ўқув жараёнига ёки ота-она билан суҳбат жараёнига? Нега шундай деб ўйлайсиз? Бошқа вариантлар борми? ва ҳоказо. Бундай саволлар ўқувчиларни когнитив фаолиятга фаол жалб қилишни рағбатлантиради. Бундан ташқари, талабаларга қуйидаги савол туғилади: Сиз инсон фаолиятининг барча соҳалари орасида энг қийини таълим соҳаси деган фикрга қўшиласизми? Таълим назариясида шахсий мулоқот маҳоратига қандай ўрин берилган? Гапми?

Кўпгина саволларга жавоблар олинадилар, лекин уларнинг ҳаммаси ҳам муҳокама қилинмайди. Талабалар маъруза режасининг саволларини, масалан, одамнинг коммуникатив фазилатларини тарбиялаш усуллари, шакллари ва воситаларининг психологик асослари каби мавзуларни очиб беришга ўтадилар. Оила тарбияси анъаналари, мулоқот маданияти ва ўқув юртларида ўқувчиларни мулоқот маданияти бўйича билимларини ошириш бўйича тадбирларни муҳокама қилгандан сўнг, талабаларга мунозара саволлари таклиф этилади: ўқитувчи фаолиятининг самарадорлигини нима аниқлайди? Болалар ва катталарда нутқ маданиятини энг муваффақиятли тарбиялаш учун қандай педагогик шароитлар зарур?

Бундан ташқари, ўқувчилар таклифларига асл ёки анъанавий, баъзан эса муваффақиятсиз бўлган ҳолда, улар ўқитувчининг маълумотларини талабалар таклифлари билан тўлдиришга интилишади. Кейин ўқитувчилар ва талабаларнинг самарали ўзаро таъсири учун психологик механизмлар ва шарт-шароитлар тўғрисида хулосалар чиқарилади. Хулосалар қуйидагича бўлиши мумкин:

- таълим берувчи - нуфузли шахс бўлиб, у ота-она, ўқитувчи сўзининг психоген омилдир; унда ўз хатти-ҳаракатлари билан сўзнинг бирлиги ҳамиша устувор бўлиши лозим;

- нутқнинг эмоционаллиги ўнинг таъсирчанлигини ошириш ва бажарилаётган ишнинг педагогик аҳамиятини оширади, таъсир кучини кенгайтиради;
- педагогик мақсад ва вазифалар билан белгиланадиган билимларнинг мақсадга мослиги ўқитувчи ишини енгиллаштиради;
- боланинг эҳтиёжларининг ўқитувчининг мақсадларига мувофиқлиги фаоллик ва ҳаракатларнинг мустақил ҳамда ихтиёрий бажарилишини таъминлайди; ҳар қандай фаолиятда (ўйин, таълим, меҳнат, суҳбат ва бошқалар) ўз-ўзини тарбиялашга эришилади;
- педагогикада умумий қабул қилинган категория ва буйруқ принципларидан воз кечган ҳолда самарали ишлай олади, аксарият ҳолларда кучли тарбиявий ҳамда таълимий таъсир кучига эга бўлади.

Бу натижаларнинг ҳаммасига жараёнда ўқитувчи томонидан муайян вазиятда ҳолатга мос иш услублари ва усулларини танлай олиш маҳоратига эга бўлган ҳолдагина эришилади.

Тажрибалар шуни кўрсатмоқдаки, бунда таълим жараёнининг ўзига хос функциялари тобора ойдинлашиб боради, талабаларни ахборотга йўналтирилиши, ишонтирилиши, уларни шунчаки тингловчидан фаол изланувчига айланиши рўёбга чиқади.

Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини ривожлантириш ишларида ўз-ўзини ўқишга тайёрлашга катта эътибор берилади. Талабаларни дарслик, дарслик материаллари ва бошқа маълумот манбалари билан мустақил ишлаш методикаси билан таништириш, семинар, амалий ва лаборатория машғулотларига тайёргарлик кўриш жараёнида касбий таълимда ўқув материалларини ўзлаштиришда мустақил ишнинг самарали имкониятларига эътибор қаратилади.

#### UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA UMUMIY FIZIKA KURSLARIDA "QATTIQ JISMLARDAGI O'TA O'TKAZUVCHANLIK HODISASI" NI O'RGANISH

**Qalandarov E.Q. - Qori-Niyoziy nomli O'zPFITI doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada uzuksiz ta'lim tizimida - umumiy o'rta ta'lim maktablari va pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'ta o'tkazuvchanlik hodisasining o'rganilish holati hamda metodik tavsiyalar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada o'ta o'tkazuvchanlikning hosil bo'lish shartlari, turlari va bu hodisaning fan-texnikadagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'ta o'tkazuvchanlik, o'tkazgich, fan, texnika, qattiq jism, temperatura, simob, metall, elektr qarshilik, effect.

#### ИЗУЧЕНИЕ ЯВЛЕНИЯ "СВЕРХПРОВОДИМОСТЬ В ТВЕРДЫХ ТЕЛАХ" В КУРСЕ ОБЩЕЙ ФИЗИКИ СИСТЕМЫ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Каландаров Э.К.- докторант УзНИИПН им.Кары-Ниязи**

**Аннотация.** В данной статье даны рекомендации по изучению явления сверхпроводимости в системе общего, среднего и высшего педагогического образования. В статье также приводится информация об условиях, типах сверхпроводимости и важности этого явления в науке и технике.

**Ключевые слова:** сверхпроводимость, проводник, наука, техника, твердое тело, температура, ртуть, металл, электрическое сопротивление.

#### STUDYING THE PHASE "SUPERCONDUCTIVITY IN SOLID BODIES" IN THE COURSE OF GENERAL PHYSICS OF THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION

**Qalandarov E.Q. - doctoral student Uzbek Research Institute of Pedagogical Sciences named after Kari-Niyazi**

**Annotation.** In the given article was described recommendations for studying the phenomenon of superconductivity in the system of general, secondary and higher pedagogical education. The article also provides information on the conditions, types of superconductivity and the importance of this phenomenon in science and technology.

**Key words:** superconductivity, conductor, science, technology, solid body, temperature, mercury, metal, electrical resistance.

Hozirgi zamonda fan va texnikaning jadal rivojlanishi dunyo olimlari oldiga juda katta muammolar qo'ymoqdaki, yuqori temperaturadagi o'ta o'tkazgichlarni o'rganish va yaratish, hamda ularni o'quvchi va talabalar ongiga singdirish, shu muammolardan biridir. Shunday ekan yuqori temperaturali o'ta o'tkazuvchanlik hodisasini o'rganish insoniyatni juda ko'plab muammolardan xolis qilib qolmasdan balki ularni yangidan yangi marralarni zabt etishiga keng yo'l ochadi.

Bu hodisani o'rganish orqali o'quvchi va talabalarda quyidagi fizik tushunchalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

- O'ta o'tkazuvchanlik hodisasi va uning fan va texnikadagi ahamiyati
- O'ta o'tkazuvchanlik hodisasini o'rganish orqali qattiq jismlarda elektr tokiga oid tushunchalar o'quvchi va talabalar ongida shakllantiriladi
- Mazkur hodisani o'rganishda elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligi, moddaning tuzilishiga, uni o'rab turgan muxit va uning fizik parametrlariga bog'liqligiga
- O'ta o'tkazuvchanlik hodisasi va uning fizikasini o'rganish orqali kvant hodisalar va kvant fizikasi tushunchalari yanada shakllantirib rivojlantiriladi
- Bu hodisani o'rganishda qattiq jismlarning magnit xossalari haqida tushunchalar yanada rivojlantiriladi.

Afsuski o'rta umum ta'lim maktablarida "O'ta o'tkazuvchanlik hodisasi" mavzusiga dars vaqti ajratilmagan. Shuning uchun bu mavzuni "Turli muhitlarda elektr toki" bo'limida yoki metallarda elektr toki mavzusini o'quvchilarga tushuntirish hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda tanishtirib o'tish foydadan holi bo'lmaydi. Hozirgi paytda fiziklar bu hodisaga juda katta e'tibor bermoqdalar. Chunki o'ta o'tkazuvchanlik hodisalarining chuqur o'rganilishi, faqat olam sirini bilishdagina emas, shu bilan birga amaliy sohada ham juda jiddiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligini isbotlangan. Yigirmanchi asr boshlarida niderland fizigi X.Kamerling – Onnes o'ta o'tkazuvchanlik hodisasini kashf qildi. Ammo 1957-yilga kelibgina Amerikalik olimlar J.Bardin, L.Kuper va Shrifferlar tomonidan ishlab chiqilgan (B.K.Sh nazariyasi) va H. Bogolyubov takomillashtirgan. Eksperimental kashfiyot va uning nazariyasi orasida shunchalik katta vaqt o'tishi hozirgi zamon fizikasida deyarli yagona misoldir. Simobning elektr qarshiligini o'ta past haroratlarda tekshirgan Kamerling Onnes avvaliga haroratni pasayishiga mos ravishda silliq holda simobni elektr qarshiligini kamayib borishini qayd qildi. Lekin harorat 4,15 K ga yetganda mo'jiza yuz berdi. Elektr qarshilik birdan yo'qolib, nolga teng bo'lib qoldi<sup>1</sup>. Bu grafikni o'quvchi va talabalarga tushuntirishda innovatsion hamda kompyuter texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish katta samara beradi. Chunki elektr qarshiligining vujudga kelishi yoki zaryadlarning atomlar orasida potensial maydondagi tartibli harakatining temperaturaga bog'liqligini kompyuterdan foydalanib harakatli slaydlar yoki filmlar orqali ko'rish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilar bu slaydlar orqali qattiq jismlarning molekulyar tuzilishi va ularning elektr o'tkazuvchanligini takrorlab olish imkoniyatigi ega bo'lishadi. O'quvchilarda tabiiy savollar tug'iladi, ya'ni bu hodisani o'rganish nimaga kerak?, insoniyatning o'ta o'tkazuvchanlik hodisasini to'liq o'rganishi nimalarga olib keladi? Va boshqa savollarga quyidagicha javob qaytarish zarur ya'ni, (kelajak transportlari haqida aytib berish zarur). Kelajakda avtomobillar hatto poezdlar ham muallaq havoda harakatlanishi mumkin. Bu ertak emas, hozirgi zamon olimlari tomonidan nazariy jihatdan isbotlangan hodisalardir. Buning uchun normal temperaturada o'zining o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatini yo'qotmaydigan moddalarni aniqlash zarur. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi umumiy fizika va nazariy fizika bo'limlarida juda qisqa ma'lumotlar berilsada, tanlov fanida ya'ni "Qattiq jismlar fizikasi" fanida chuqurroq o'rganiladi. Mazkur fanni talabalar o'qish davrining oxirgi bosqichida, ya'ni 8 – semestrda o'rganishadi. Bu

<sup>1</sup> В.В.Шмидт Введение в теорию сверхпроводников Москва – 1982 - Ст 78.

vaqtda talabalar umumiy fizika va nazariy fizika qonunlari bilan tanish bo'lganliklari uchun, o'ta o'tkazuvchanlik hodisasining fizikasini yaxshi o'zlashtirib olishadi. Olimlarning o'ta o'tkazuvchanlik sohasidagi olib borayotgan izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'ta o'tkazuvchanlik namoyon bo'lishi uchun muayyan sharoitlar bo'lishi kerak. Masalan, atom hajmi muhim rol o'ynashi mumkin. Metalning har atomiga to'g'ri kelgan hajm uning atom hajmi deyiladi. Agar atom hajmini davriy sistemadagi elementlarni tartib nomeri (3) ga bog'liqligini chizsak, deyarli barcha o'ta o'tkazgichlarni atom hajmlari kichik bo'ladi. bu juda qiziq. Lekin bu haqda aniq bir tushuncha yo'q. Haqiqatan ham o'ta o'tkazuvchanlikni atom hajmiga bog'liqligi haqida aniq bir tasavvur yo'q. O'ta o'tkazuvchanlik va o'tish temperaturasini qiymatlarini oldindan aytib berishga Amerikalik fizik Mattiasning empirik qoidasi mavjud. Mattias qoidasiga ko'ra, u yoki bu moddani o'ta o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lishi valentli elektronlarning o'rtacha soniga bog'liq. Qotishma yoki metall o'ta o'tkazgich holatiga o'tishi uchun har bir atom ikkidandan to sakkiztagacha elektronga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, atomdagi valentli elektronlar soni o'rtacha 4,7 yoki 6,4 ta bo'lganda kritik temperatura katta qiymatga ega bo'ladi. Atomdagi valent elektronlarning soni shu ko'rsatilgan chegarada bo'lganda qotishmani tashkil qilgan komponentalarini o'zi ham o'ta o'tkazgich bo'lsa, bu qotishmalarda o'ta o'tkazgich xossasi kuzatiladi. Ayniqsa, bu sonlar 2,4 yoki 5,6 bo'lganda kritik temperatura juda kichkina, hatto absolyut nolga ham teng bo'lishi mumkin. 2-rasmda o'ta o'tkazuvchanlik holatlar uchun o'tish temperaturasini valentli elektronlar soniga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Hozirgi zamon fizik olimlarning ta'kidlashicha o'ta o'tkazuvchanlik ikki turga bo'linadi. Sof metallarda ro'y beradigan o'ta o'tkazuvchanlikni birinchi turdagi o'ta o'tkazgichlar deyiladi. Ayni vaqtda Mendeleev davriy sistemasidagi 40 dan ortiq elementlarning o'ta o'tkazuvchanlik xossasiga ega ekanligi ma'lum. Qizig'i shundaki, xona haroratida yaxshi o'tkazgich deb hisoblangan oltin, kumush va misda o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi kuzatilmagan. Shuningdek, o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi ferromagnitlarda ham kuzatilmagan. Lekin nazariy jihatdan qaraganda, bu metallarda ham o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi ro'y berishiga hech qanday to'siq yo'q. Bu metallarda o'ta o'tkazuvchanlik xodisasini kuzatilmaganligining sababi, balki ularning etarli darajada sof holatda emasligida degan farazlar mavjud. Balki shundaydir, lekin ko'pgina metallarda o'ta o'tkazuvchanlik holatiga o'tishda ularda har xil kirishmalar bilan ifloslanishi xalal bermaganligi ham ma'lum<sup>1</sup>. O'ta o'tkazuvchanlik holatiga o'tish harorati faqat moddaning kimyoviy tarkibiga emas, balki kristallning strukturasi ham bog'liq. Ko'pgina moddalarning kristallari turlicha modifikatsiyada bo'lishi mumkin. Bu modifikatsiyalar o'zining fizik xossalari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, vismutning modifikatsiyalaridan bittasi hatto juda past haroratlarda ham o'ta o'tkazuvchanlik holatiga kelmaydi. Lekin, boshqa modifikatsiyalari esa o'ta o'tkazuvchanlik xossasiga egadir. Berilliy metalli esa faqat yupqa parda shaklida tayyorlangan paytdagina o'ta o'tkazuvchanlik holatini namoyon qiladi. Ayrim elementlarning o'ta o'tkazuvchanlik holatiga kelishi uchun katta bosim berish kerak bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, anchagina muammolar borki, qiziqsangiz sizga ham yechishga etadi. Ikkinchi turdagi o'ta o'tkazgichlarga kimyoviy birikmalar va qotishmalar kiradi. Hozirgi vaqtda 2 mingdan ortiq qotishma va birikmalarning o'ta o'tkazuvchanligi aniqlangan. Masalan, NbSr, CuS, NiBi kabi qotishmalar ikkinchi turdagi o'ta o'tkazuvchanliklar guruhiga kiradi. Bulardan tashqari o'ta o'tkazgichlarning tashqi magnit maydon bilan o'zaro ta'sirini o'rganish talabalarida juda qiziqish uyg'otadi. O'ta o'tkazuvchanlikning muhim alomati tashqi magnit maydonni o'ta o'tkazuvchanlik modda tomonidan itarilishidir. Bunday magnit nootkazuvchan ideal o'tkazuvchanlikka sabab emasdir. Normal o'tkazgichdan o'tayotgan o'zgarma tokni tavsiflash uchun Om qonunidan  $I=U/R$  yoki uning differensial ko'rinishidagi 
$$\vec{j} = \frac{\vec{E}}{\rho}$$
 formulasidan foydalaniladi. Ravshanki, ushbu formulalar o'ta o'tkazgichlar uchun o'z ma'nosini

yo'qotadi, chunki,  $R = \rho = 0$ . Bunday holatni tushuntirishda o'ta o'tkazgichlar uchun tok zichligini elektr yoki magnit maydonga bog'lanish tenglamasi aka-uka Londonlar formulasining fizik ma'nosini anglash yetarli bo'ladi. Ushbu holatni Meysner effekti deyiladi. Ideal o'tkazgichlardan farqli ravishda o'ta o'tkazgichlar magnit maydonni o'zlarini ichiga kirishga yo'l qo'ymadi. Meysner effektining tajribasi quyidagicha: o'ta o'tkazgichni (silindri) tashqi magnit maydonga joylaylik. Ushbu magnit maydon ta'sirida unda o'zgarma tok hosil bo'ladi va u o'z navbatida o'zining xususiy magnit maydonini vujudga keltiradi. Lens qoidasiga binoan xususiy magnit maydon yo'nalishi tashqi magnit maydon yo'nalishiga teskari bo'ladi.

<sup>1</sup> E.N. Rasulov U.Sh.Begimqulov "Kvant fizikasi" Toshkent – 2009 - 300 b.

magnit maydon 3-rasmda ko'rsatilgani kabi o'ta o'tkazgich tashqarisida taqsimlanadi. Meysner effektidan foydalanib fazoda muallaq turuvchi yoki harakatlanuvchi jismlarni yaratish mumkin. Buni birinchi bo'lib rus olimi V.K.Arkadev tajribada isbotlagan. Arkadev eksperimentiga asosan qo'rg'oshin palastinkasida yotgan doimiy magnit shar plastinkadan so'nmovchi o'ta o'tkazuvchan tok o'tganda bir qancha masofa balandlikka ko'tarilib, muallaq turgan. Shunday qilib, magnit maydon uchun o'ta o'tkazgich o'tib bo'lmaydigan to'siq, yassi ko'zgdan yorug'lik nuri qanday qaytsa, magnit maydon o'ta o'tkazgichdan shunday qaytadi. Diamagnit itarishish effektidan foydalanib. «o'ta o'tkazuvchanlik» temir yo'llar qurilish loyihalari ishlangan. Past temperaturaga ega bo'lgan poezd vagonlari magnit «yostiqlarda» 500 km/soat tezlik bilan harakatlanishi mumkin<sup>1</sup>. Bunday fizik hodisalarni o'quvchi va talabalarga tushuntirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki amaliy dasturlar orqali har xil turdagi o'ta o'tkazuvchan moddalarning taxminiy fizik va kimyoviy tuzilishini, ulardan elektr toki oqishini, Meysner effektini va boshqalarni harakatli slaydlar orqali tasvirlash mumkin bo'ladi. O'ta o'tkazuvchanlik hodisasini o'rganishda har doim yoki har yili o'quv materiallarini yangilab turish zarur. Chunki bu hodisaga qiziqish juda katta bo'lganligi uchun o'ta o'tkazuvchanlikning yangidan yangi qirralari ochilmoqda. Masalan: Sankt-Peterburglik olimlar tomonidan xona temperaturasiga yaqin xaroratdagi o'ta o'tkazgichni aniqlashdi. Faqat buning uchun juda katta bosimlarni hosil qilish kerak. Yaqinda AQShlik va Polshalik fiziklar tomonidan -23°C da o'zining o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatini yo'qotmaydigan moddani kashf etishganini e'lon qilishdi. Ammo ularning nazariyasi va amaliyotga tatbiqlari noaniqligicha qolmoqda. Hozirgi vaqtda o'ta o'tkazgichlardan ilmiy laboratoriyalarda unumli foydalanilmoqda. Misol uchun dunyoning eng ulkan ilmiy laboratoriyasi bo'lgan "Katta adron kollayderida" protonlar dastasining korreksiyasini ushlab turish va fokuslash uchun 1624 ta o'ta o'tkazuvchan magnitdan foydalanilyapti, faqat buning uchun temperaturani eng past darajada ushlab turishga juda katta energiya sarf qilinmoqda. Yana shuni ta'kidlash kerakki, agarda normal temperaturada yoki yuqori temperaturadagi o'ta o'tkazgichlar kashf qilinib ularni amaliyotga tatbiq qilinsa, insoniyat energiya muammosidan qisman bo'lsada qutular edi.

Bu hodisani o'rganish o'quvchi va talabalarda fizik va politexnik bilimlarini oshiribgina qolmasdan balki, ularning ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

## TALABALARDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

**Mirzayeva N.A – o'qituvchi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti**  
**Amanxodjayev Z.A. – tadqiqotchi**

**Annotatsiya.** Maqolada asosiy e'tibor dunyodagi ekologik muvozanatning buzilishi bilan bog'liq holda atrof-muhit, tabiat va jamiyat o'rtasida sodir bo'layotgan ekologik tanglikning oldini olishning ilmiy yechimi sifatida ekologik kompetentlikning rivojlantirilishiga qaratilgan. Ta'lim tizimi — umummilliy masalalami yechish jarayonida eng yaxshi ijrochi hisoblanadi va aynan ta'lim tizimi orqali butun jahon uchun xavf solayotgan ekologik xavf-xatarni kamaytirishga erishish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ekologik muvozanat, atrof-muhit, ekologik ta'lim, ekologik kompetentlik, ekologik xavf-xatar.

## ЗНАЧЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

**Мирзаева Н.А. –преподаватель Ташкентского областного Чирчикского государственного педагогического института**  
**Аманходжаев З.А. - соискатель**

<sup>1</sup> Н.М.Плакида «Высокотемпературные сверхпроводники» Междуна родная программа образования Москва -1999 - Ст.117.



**Аннотация.** Статья посвящена развитию экологической компетентности как научного решения экологической напряженности между природой и обществом в связи с экологическим дисбалансом в мире. Система образования является лучшим руководителем в общенациональном процессе, и это может быть достигнуто путем минимизации экологических рисков, создаваемых всей системой образования.

**Ключевые слова:** экологическое равновесие, окружающая среда, экологическое образование, экологическая компетентность, экологические опасности.

## THE IMPORTANCE AND ACTUALITY OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF STUDENTS

**Mirzaeva N.A. – Lecturer, Tashkent Region Chirchik State Pedagogical Institute**  
**Amanxodjayev Z.A. - researcher**

**Annotation.** The article is devoted to the development of environmental competence as a scientific solution of environmental tensions between the environment, nature and society in connection with the environmental imbalance in the world. The education system is the best leader in the nationwide process, and this can be achieved by minimizing the environmental risks posed by the entire education system.

**Key words:** ecological balance, environment, ecological education, ecological competence, environmental hazards.

Dunyoda zamonaviy globallashuv jarayoni tez sur'atlar bilan jadallashib borayotgan bugungi kunda, insoniyat salomatligi uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo'layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va shaxsni himoya qilishga qaratilgan milliy strategiyani shakllantirish hamda bu xavflarning yechimimni topish uchun atrof-muhit va inson salomatligi muhofazasini takomillashtirish dolzarbdur<sup>1</sup>.

O'zbekistong Respublikasida 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarining asosini sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshlardagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish, biologik xilmaxillik va ekotizimlarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari ustuvor etib belgilandi<sup>2</sup>.

Jamiyat ekologik muammolarni ekologik-ijtimoiy ta'lim tizimi orqali hal etishi mumkin. Har sohaga to'liq kirib borayotgan zamonaviy ekologiya kasbiy faoliyati va xususiyatidan kelib chiqib, inson hayotiy ehtiyojlarini qondirishida ekologik bilimlarning tanlangan kasbiy faoliyatidan qat'i nazar barcha tarmoqlar ichida keng qamrovli ekanidan dalolat bermoqda. Jahondagi ko'p davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi — umummilliy masalalarni yechish jarayonida eng yaxshi ijrochi hisoblanadi... Ta'lim orqali bolalar, kattalar, ular yashayotgan o'lka va butun jahon uchun xavf solayotgan ekologik xavf-xatarni kamaytirishga erishish mumkin. Ta'limning yangi qiyofasini ijtimoiy va ekologik qatlamdagi muammolarni yaxlit ko'ra oluvchi va tahlil etuvchi, tizimli va ijodiy fikrlovchi, kompetent malakali mutaxassislar tashkil etadi. Bu esa talabalar ekologik kompetentligi tuzilishini ilmiy o'rganish, uning pedagogik vositalari, uslub va shakllarini aniqlash hamda ekologik tayyorgarlikning pedagogik modelini yaratish zaruriyatini dolzarbligini taqozo etadi. "Ta'lim to'g'risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga binoan uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirish va ekologik ta'limni yuqori bosqich larga olib chiqish "O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish" konsepsiyasining asosi sifatida belgilab berildi. Oliy ta'lim sohasiga qo'yiladigan vazifalardan biri yuksak ekologik kompetent shaxsni tarbiyalashning zarurligi, nafaqat keskin o'zgaruvchi atrof-muhitga moslashish, balki o'z ekologik kompetentligi orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashdir.

<sup>1</sup> X.Аъзамов. экологик муаммолар инсониятни хавотирга солмоқда. (2013) 30.04.2015. ziyouz.uz

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида, 2018.20.10, 814-сон.

Hozirgi kunning ekologik muammolari murakkab, ko'p qirrali va qarama-qarshi kuchlardan, yo'nalishlardan iborat bo'lib, umuminsoniyat talabiga javob bera oladigan ekologik strategiya, xulqiy va yangi ilmiy tadqiqot natijalari asosidagina hal qilinadi. Shuning uchun maxsus va chuqur ekologik bilimlarga ega bo'lgan yuksak qobiliyatli mutaxassislar kerak.<sup>3</sup> Yer yuzi tabiatining barqarorligi, turg'unligi va uning o'ziga xos qonunlari insoniyat tomonidan buzilishining asosiy sababchilaridan biri kishilar uchun atrof-muhit muhofazasi haqidagi bilimlarning yetishmasligi hamda tabiatning kelajagi, ekologik holatini ko'ra bilmalikdandir. Mana shu holatlar tanlangan mavzuning nechog'lik dolzarb ekanligini ko'rsatib beradi.

2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, Respublika hududidagi ekologik masalalarni jamlagan holda ta'lim tizimi orqali yosh avlodning ekologikong va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va O'zbekiston ekologik harakati negizida O'zbekiston ekologik partiyasi tashkil etilishi atrof-muhit muhofazasi va barqaror taraqqiyotning asosli va qonun himosida rivojlanishiga turtki bo'ladi<sup>4</sup>.

Jamiyat va tabiatning zamonaviy holati tashqi muhit yashash chegaralari sifatining buzilishi, biologik xilma-xillik va barqarorlikning izdan chiqishi, biosferaga tartibsiz ko'rsatilayotgan ta'sirlar natijasida falokatli holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti. Ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyasining nomukammalligi, tabiatga nisbatan iste'molchilik an'analari — bularning barchasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqasidagi ziddiyatlar keskinlashuvining bosh sababidir.

Dunyo davlatlarining ekologik barqarorligi ulardagi ikki asosiy mezon: ekologik salomatligi va ekotizimlar yashovchanligi hamda 24 ko'rsatkich orqali har yili aniqlab boriladi. Ekologik rivojlanishlar va jarayonlarni chuqur tahlil qilish dunyo siyosatini olib borishda yordam beradi. Bu borada EPI — xalqaro ekologik ko'rsatkichlar darajasi tashkil etilgan bo'lib, unda 180 davlat doimiy baholalanib boriladi. 180 davlatlar ichida O'zbekiston 118-o'rinni egallab turganligi, reyting ballar miqyosida solishtirish tahlili olib borilganda esa, 50, 67 ballni to'plagandan darak beradi. Ishlab chiqarish va texnologiyalarning pastligi, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning sekin rivojlanishi yurtimizda ekologik savodxonlik va kompetentlikni chuqur rivojlantirish lozimligidan darak beradi.

O'zbekistonning ekologik musaffoligi dunyo tahlili natijasida 2018-yilgi ko'rsatkichlarda quyidagicha baholandi: ekologik samaradorlik darajasi bo'yicha 136-o'rinda, avvalgi holat esa 158-o'rin edi; o'rmonlar va ular muhofazasi bo'yicha 180 davlat ichidan 130 davlatlardagina o'rmonlarning mavjudligi, O'zbekistonning esa 12-o'rinni egallab turishi o'lkamiz tabiatning bebaholigidan darak beradi. Ayniqsa, bu ko'rsatkich keskin darajada ijobiy tomonga o'zgarayotganini qayd etish yanada respublikada olib borilayotgan tabiatni muhofaza qilish tizimining rivojlanayotganidan yaqqol darak beradi.

Inson—tabiat—jamiyat tizimida mukammal ekologik tafakkur va tabiatga nisbatan oqilona fikr yurita olish, ekologik kompetensiya (layoqat)gina kelajak biosferani saqlab qolishi mumkin. Atrof-muhitning keskin tus olishi Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan bo'lg'usi mutaxassislarning nafaqat kasbiy kompetensiyasini, balki tabiat va uning ne'matlarini muhofaza eta oladigan ekologik kompetensiyani talab etadi.

Belgilangan dastur va qarorlarni ta'lim tizimida a'lo darajada bajarilishiga O'zbekiston ekologiya fanining rivojiga E.O.Turdiqulov, B.Ziyomammedov, H.Tursunov, A.Nig'matov, T.Ergashev, A. Ergashevlar, D.Yormatovalarning ekologiya sohadagi harakatlari tahsinga loyiqdir.

"XXI asr kun tartibi" — kelgusi yuzyillikka mo'ljallangan, Rio-de-Janeyro shahrida 170 dan ortiq davlat vakillarining umumiy kelishuvi asosida qabul qilingan ulkan dastur hisoblanadi. Barcha davlatlar tomonidan qabul qilinadigan, kelajakda atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qarorlari Rio deklaratsiyasida mustahkamlangan asosiy tamoyillarga asoslanishi shart.

Tez rivojlanayotgan zamonaviy iqtisodiyotning asosi yuqori malakali va muloqotchan inson kapitali asosiy zahira bo'lib sanalmoqda. Dunyo hamjamiyati keskin axborot va kommunikatsiya rivoji davrida turgan bir vaqtda, faqat bilim, ko'nikma va malaka bilan chegaralanadigan mutaxassis o'z faoliyat sohasida to'liq o'zligini namoyon qila olmaydi.

<sup>3</sup> Аҳматқул Эргашев, Темур Эргашев. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш, дарслик, Тошкент — 2005, Янги аср авлоди.

<sup>4</sup> Eсо.uz, Ўзбекистон экологик партияси таъсис съезди бўлиб ўтди. 08.01.2019.

Ekologik kompetentlik bu mutaxassislikka qo'yilgan talablar ichidagi zaruriy jihatlardan biri. Bo'lg'usi mutaxassis o'z kasbining yetuk egasi bo'lish uchun unda tayanch kompetentsiyalar bilan birga umumiy (predmetli) va xususiy (biologik-ekologik) kompetentlik talab qilanadi. Kompetent yondashuv natijasida talabning qanchalik ko'p bilim egallashi emas, balki o'zlashtirilgan va egallangan bilimdan amaliyotda foydalana olishlik talab etiladi. Kompetentsiyaviy ta'lim talabalarni zamonaviy dunyoning asosiy muammolarini anglashga va ular yechimini topishga o'rgatadi. Inson bilvosita yoki bevosita tabiiy muhit omillari bilan muloqatga kirishadi. Demak har bir kasbiy kompetentlik negizida ekologik kompetentlik nazarda tutilar ekan. Ekologik kompetentlik hususiy kompetentlik darajasidan yuqorilab umumiy va eng asosiy tayanch kompetentsiyalarga ham kirib boradi.

Ekologik kompetentsiya - ekologik ta'lim-tarbiya darajasidan kelib chiqib, talabalarda ekologik tafakkur, ong, dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan ekologik bilim, ko'nikma, malakalarini umumiy ekologik xavfli vaziyatlarni oldini olishga yoki to'xtatishga yo'naltira olishdir.

Shaxsga yo'naltirilgan va kasbiy faoliyatga oid ekologik kompetentlikni ongli faoliyat tarzida tushunish, talabning shaxsiy imkoniyatlari, tajribalari murakkab bo'lgan ekologik hususiyat kasb etgan vaziyatlar orqali, hayotning quyidagi tarmoqlarida:

1. Bilish dunyosi. Bu qatlamda ekologik kompetentlik tashqi muhitni turli manbalar orqali o'rganish, ekologik tajribalar o'tqazish, ekologik muammoli vaziyatlarda to'g'ri hal etuvchi yechimlarga kelish orqali hosil qilanadi.

2. Fuqorolik-jamiyat qatlami. Bu qatlamda ekologik kompetentlik tashqi muhit bilan bog'liq fuqorolik burch va majburiyatlarni bajararish orqali, tabiiy resurslardan iste'molchi sifatida foydalanish orqali, ekologik aksiyalar o'tqazish hamda tabiatni muhofaza qilish jamoaviy tadbirlari orqali yuzaga keladi.

3. Ijtimoiy-mehnat qatlamida ekologik kompetentlik ekologiya ixtisosligiga mos kasb va ish egallash orqali sodir bo'ladi.

4. Maishiy hayot qatlami. Bu qatlamda ekologik kompetentlik turli zararli odatlardan holi sog'lom turmush tarziga qaratilgan bo'lib, tabiiy zahira boyliklarini tejamkoroni ishlatishga va maishiy hayotda ekologik xavfsizlikka rioya etishga qaratilgan.

5. Madaniy - ma'rifiy qatlam. Tabiat qo'ynida shakllanib, shaxsni ma'daniy-ma'rifiy, ruhiy oziqlantiradigan usullarni, tadbirlarni tanlash orqali yuzaga keladi.

Ilmiy - pedagogik jarayonlardagi tajriba va diagnostik tekshiruvlar natijasida talabalarning ekologik kompetentligini shakllantiruvchi ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta'limidan quyidagi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bo'laklarni jamlagan kontseptsiyani ishlab chiqishga erishildi:

Metodologik - tadqiqotning tayanch tuzilmasini aks etuvchi tizimli, sinergetik, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan va amaliy xarakterda bo'lgan qismi; nazariy, tadqiqotdagi tushunish va bilish tizimidagi asosiy g'oyalar va asos o'rganildi; shakily - asosiy tuzilish shakllarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga: talabalardagi ekologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli-vazifaviy modelni, fazoviy-vaqt modelini vazifaviy hamda omillarni o'zida namoyon qiluvchi modellarni aks etadi, texnologik talabalardagi ekologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni loyihalash asosida faollashtiruvchi qism xamda tahliliy - natijaviy, ishlab chiqilgan nazariya va kontseptsiyaning tajribaviy tekshiruv va haqqoniyligini namoyon etildi.

## **ТАЛАБАЛАРДА ҒОЯВИЙ-МАҒКУРАВИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ СИФАТИДА**

**Хўжаев М.О. - Тошкент давлат педагогика университети таянч докторанти**

**Аннотация.** Мақолада педагогика олий таълим муассасалари талабаларида ғоявий-мағкуравий компетентликни ривожлантириш масаласи ёритилган. Бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида касбий компетентлик билан бир қаторда уларда айнан ғоявий-мағкуравий компетентликни шакллантириш зарурияти очиб берилган.

**Калит сўзлар:** компетентлик, талабаларида ғоявий-мафкуравий компетентлик, таълим, ривожланиш, шаклланиш.

## РАЗВИТИЕ ИДЕЙНОЙ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

**Ходжаев М.О.** – докторант Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье освещены вопросы развития идейно-идеологической компетентности студентов педагогических высших учебных заведений. Выявлено, что наряду с профессиональной компетентностью в процессе подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности, необходимо сформировать в них идейно-идеологическую компетентность.

**Ключевые слова:** компетентность, идейно-идеологическая компетентность студентов, образование, развитие, формирование.

## DEVELOPMENT OF IDEOLOGICAL MORAL COMPETENCE OF STUDENTS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Khodjayev M.O.** - Doctoral candidate of Tashkent state pedagogical university

**Annotation.** In the given article was described the development of ideological moral competence of students of pedagogical higher education institutions. It has been revealed that along with professional competence in the process of preparing future teachers for professional activity requires the formation of ideological moral competence at students.

**Key words:** competence, ideological moral competence at students, education, development, formation.

Бугунги кунда мамлакатимизда ёшлар тарбияси давлат сиёсати даражасига кўтарилган экан, бунинг негизида келажакимиз бунёдкорлари бўлган ёшларни инсон қалби ва онгини эгаллаш учун, турли мафкуралар ўртасидаги кураш асрида турли хил ёшлар ва тажовузлардан асраб қолиш мақсади ҳам мужассам. Зотан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаётганидек, "...ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масалага ҳақиқатдан ҳам ҳаёт – мамонт масаласига айланиб бормоқда"<sup>1</sup>.

Глобаллашув асри деб аталаётган бугунги кунда ёшларни тажовузкор ғоялардан асраб қолишда педагогик таълим омили муҳим аҳамият касб этади. Зеро азалдан эзгу мақсадлар йўлида амалга оширилаётган тарбия доимо ўзининг ижобий натижаларини кўрсатиб келган. Халқимиз тарбия босқичларида танаффус бўлмаслигини доимо айтиб, тушунтириб келганлар. Чунки ҳамма даврларда ҳам тарбия босқичида беқарорлик, сусткашлик эътиборсизлик, лоқайдлик тарбиянинг моҳиятини тушуна олмаслик ва ҳуқуқий билимни эгалламаганлик турли салбий ҳолатларга сабаб бўлган. Ана шу машаққатли ва шарафли йўлда эришган барча ютуқларимизни, энг аввало, Конституциямиз билан боғлашимиз, албатта, бежиз эмас. Нега деганда, Асосий қонунимиз халқимиз узоқ йиллар орзу қилган миллий мустақиллигимиз ва ривожланиш йўлимиз, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатларини белгилаб берди.

Тўла ишонч билан айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси халқимиз сиёсий-ҳуқуқий тафаккурининг юсак намунасидир. У ҳеч кимга қарам бўлмасдан, эркин ва озод, тинч ва осойишта, фаровон яшашнинг қонуний кафолати бўлиб келмоқда. Бозор муносабатларига

<sup>1</sup> Ш. Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент Ўзбекистон, 2017 й (504-505).

асосланган ҳуқуқий демократик давлат, кучли фуқаролик жамияти барпо этиш борасида мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилмоқда.<sup>1</sup>

Шу боисдан мамлакатимиз раҳбари педагогик таълим ва тарбия асрлар давомида халқимиз томонидан улуғлаб келинганлигини қайд этар экан, донишмандларнинг “тарбия қанча мукамал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди” деган қарашларига таяниш муҳимлигини инобатга олиб, “Тарбия мукамал бўлиши учун эса бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди”<sup>2</sup> деган фикрни алоҳида таъкидлаб ўтади.

Ҳуқуқий билим ва тарбиянинг мукамал бўлиши учун таълим сифати ва самарадорлигини ошириш муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Таълим сифати ва самарадорлигини оширишда шубҳасиз педагогик маҳорат муҳим аҳамият касб этади. Шу ўринда касбий педагогик компетентлилик педагогик маҳоратнинг асоси эканлигини унутмаслик керак. Соҳанинг етакчи олимлари қайд этаётганларидек, касбий компетентлик – мутахассис томонидан касбий фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган билим, кўникма ва малакаларнинг эгалланиши ва уларни амалда юқори даражада қўллаш олинишидир.

Ўз ўрнида касбий компетентлик негизида қуйидаги сифатлар акс этади:

1. Ижтимоий компетентлик – ижтимоий муносабатларда фаоллик кўрсатиш кўникма, малакаларига эгалик, касбий фаолиятда субъектлар билан мулоқотга кириша олиш.

2. Махсус компетентлик – касбий-педагогик фаолиятни ташкил этишга тайёрланиш, касбий-педагогик вазифаларни оқилона ҳал қилиш, фаолияти натижаларини реал баҳолашни изчил ривожлантириб бориш бўлиб, ушбу компетентлик негизида психологик, методик, инфорацион, креатив, инновацион ва коммуникатив компетентлик кўзга ташланади.

Шу боисдан ҳам кейинги йилларда касбий педагогик компетентлилик педагогик маҳоратнинг янги категорияси ва энг асосийси сифатида тан олинмоқда. Ушбу категориянинг ўзига ҳос жиҳатлари айниқса педагогика фанлари доктори, профессор Н.Н.Азизходжаеванинг илмий ишларида аниқ ва раван тарзда ёритиб берилганлиги таъкидлаш зарур. Унинг таъкидлашича, педагогик компетентлилик - бу қабул қилинган меъёрлар, стандартлар ва талабларга мос тарзда педагогик функцияларни бажаришга қобилияти ва тайёргарлигини белгиловчи ўқитувчининг шахсий ва касбий тавсифидир<sup>3</sup>.

Педагогика Энциклопедиясида компетенция тушунчачига қуйидагича таъриф берилган. Компетенция (лот. compete-эришяпман, муносибман, лойиқман) - 1) муайян давлат органи (маҳаллий ўзини-ўзи бошқариш органи) ёки мансабдор шахснинг қонун, устав ёки бошқа ҳужжат билан белгиланган ваколатлари, ҳуқуқ ва бурчлари доираси; 2) у ёки бу соҳадаги билимлар, тажрибалар; 3) шахснинг бирор бир соҳадан ҳабардорлиги, шу соҳани билиш даражаси.<sup>4</sup>

Бу фикрлар бўлажак мутахассисларда касбий педагогик компетентлиликни шакллантириш нечоғлик зарурлигини, бу борадаги фаолиятни янада такомиллаштириш, ҳуқуқий маданиятни ошириш лозимлигини кўрсатмоқда. Бироқ, назаримизда бугунги ахборот ва информация асрида ёшларни мафкуравий хуружлардан асраб қолиш учун биргина шу компетентлик етарли эмас. Ўз ўрнида тобора шиддат билан давом этаётган бугунги глобализация жараёнларида касбий педагогик компетентлилик билан бир қаторда бўлажак мутахассисларда ғоявий-мафкуравий компетентлиликни шакллантириб бориш ҳам муҳим аҳамият касб этишини унутмаслигимиз керак.

Бўлажак мутахассисларда ғоявий-мафкуравий компетентлиликни шакллантириб бориш ва ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш энг аввало уларни миллий ғоя руҳида тарбиялаш билан чамбарчас боғлиқ. Миллий ғояни фан сифатида ўрганишнинг сабабларини мамлакатимиз Биринчи Президенти Ислон Каримов қуйидагича таъкидлаган эди: “Олдимизга қўйган олижаноб мақсад-муддаоларимизга етиш, эски мафкуравий асоратлардан батамом халос бўлиш, ғоявий бўшлиқ пайдо бўлишига йўл қўймаслик, бегона ва ёт ғояларнинг хуружидан ҳимояланиш, бундай тажовузларга

1 Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси

2 Ш.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент Ўзбекистон, 2017.

3 К.Курбаниязова, Т.Т.Ўтебаев, Ж.Утепбергенов Педагогик маҳорат: ўқитиш, ўргатиш ва шакллантириш: Нукус – 2008. 12-13.

4 (Педагогика Энциклопедия II жилд Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. Тошкент-2015, 184-б.

қарши тура оладиган ҳар томонлама баркамол инсонларни вояга етказиш зарурати халқимиз ва жамиятимиз манфаатларига мос янги мафқурани шакллантиришни тақозо этмоқда”<sup>1</sup>.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида қайд этилганидек, “олдимизга қўйган улкан вазифаларни амалга оширишда биз учун куч-қудрат манбаи бўладиган миллий ғояни ривожлантиришимиз зарур”. Олий Мажлисга мурожаат қилиш жараёнида бу фикрлар бежизга таъкидланмади. Чунки, ҳозирги кунда дунё цивилизациясида ғоявий таҳдидлар ва мафқуравий ҳуружлар кучайиб бораётган даврда мамлакатимиз ёшларини турли хавф-хатарлардан асраб қолишда айнан миллий ғоянинг ривожлантирилиши, ёвуз ғояларга қарши ёшларда мафқуравий иммунитетини шакллантирилиши зарур. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.Каримов таъкидлаб ўтганидек “ бу дунёда табиатда ҳам, жамиятда ҳам бўшлиқ бўлмайди. Қаердадир бўшлиқ пайдо бўлдими, ҳеч шубҳасиз, уни албатта кимдир тўлдиришга ҳаракат қилади.”<sup>2</sup> Педагогика фанлари доктори, профессор М.Қуронов томонидан тадқиқ этилган ёшлар дунёқарashiда соғлом эътиқод, ишонч ва миллий кадрларнинг ёт мафқураларга қарши иммунитетни тарбиялашда қуйидаги жиҳатларга узлуксиз таълим тизимида таълим-тарбия жараёнларини ташкил этиш ва бошқаришда алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- 1) талаба-ёшларни миллий истиқлол ғоялари билан қуроллантириш;
- 2) ҳаёт ҳодисаларини дунёвийлик, илмийлик тамойили асосида таҳлил қилиш ва баҳолашга одатлантириш;
- 3) ўз қарашларини ҳимоя қилишга ўргатиш;
- 4) бузғунчи мафқураларга ҳар доим, ҳамма жойда муросасиз бўлишга тайёр бўлишлари зарур.<sup>3</sup>

Олим томонидан ишлаб чиқилган узлуксиз таълим тизимида талаба-ёшларнинг ғоявий-мафқуравий иммунитетини ривожлантиришда қуйидаги тўртта фаолият диагностикасининг асосини ташкил этиш мақсадга мувофиқ:

- 1) талаба-ёшларда миллий ғоянинг мазмун-моҳияти билан яқиндан таништириш;
- 2) тушунчаси бор, лекин чуқур англамаган;
- 3) билимлар мавжуд, аммо назарий бўлиб, ёшларнинг уларни амалиётда қўллаш дарадаси етарли эмас;
- 4) ёшлар миллий ғоя ва мафқурани ўз эътиқодига айлантириши, амалиётга тадбиқ этиши, ёт ғоя ва мафқураларга қарши тура олиши ва атрофдагиларни ҳам шунга даъват эта олиши.

Ёшларда мафқуравий иммунитетини шакллантириш орқали ҳуқуқий маданиятни таркиб топтириш учун мафқуравий профилактикани тўғри олиб бориш лозим. Мафқуравий профилактика – турли хил ижтимоий институтлар томонидан амалга ошириладиган турли шакллардаги ғоявий, тарбиявий, маънавий, мафқуравий ишларнинг мажмуи бўлиб бу муҳим жараён бугунги куннинг ғоявий тарбия тизимини ўз ичига олади. Бугунги кунда мамлакатимиз ёшларининг катта фоизини таълим тизими ўз ичига қамраб олгани учун ҳам педагогларнинг улар фаолиятининг олдига кўпроқ вазифалар қўйилмоқда чунки таълим бериш жараёнида ишларнинг кучайтириб бориш юзага келиши мумкин бўлган ғоявий бўлиқнинг олдини олишга ҳамда жамият ҳаётининг издан чиқишга сабаб бўладиган мафқуравий парокандаликнинг олдини олишда ҳамда ўқувчи ва талаба-ёшларда мафқуравий иммунитетни шакллантиришга хизмат қилади. Мафқуравий профилактикани амалга оширишда хилма хил усуллар ва воситалардан фойдаланишнинг аҳамияти беқиёс. Ёшларни мафқуравий ҳуружлардан сақлаб қолишга хизмат қиладиган профилактика ишларини турли хил суратларда ҳамда босқичма босқич амалга ошириш зарур. Педагогик таълим муассасаларида профилактик ишлар доимий тарзда ва сабит қадамлик билан олиб борилса кўпроқ ижобий натижа беради ва бундай ёшларда мафқуравий компетентликни кучайиб боради. Мафқуравий компетентликни ривожлантириш технологияларини ишлаб чиқиш ва уни такомиллаштириб бориш ёт ғояларнинг олдини олишга ва уларни йўқотишга замин ҳозирлайди. Таълим ва тарбия тизимида

<sup>1</sup> И.Каримов Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001, 221-222.

<sup>2</sup> И.Каримов Юксак маънавият - енгилмас куч. Тошкент: “Маънавият” - 2008 (3. 10).

<sup>3</sup> М.Қуронов Мафқуравий таҳдидлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Академия, 2008.- 8-9-б.

турли хил технологиялардан фойдаланган ҳолда олиб борилган мафкуравий профилактика ишлари ёшларнинг руҳиятига тасаввурларига ва дунё қарашига катта таъсир ўтказди. Бугунги кунда турли ёт кучлар ўзларининг зарарли ғояларини ёшларга сингдириб, уларни ўз таъсирига олиш фаолиятини кучайтиришга интилмоқдалар. Энг ачинарлиси бунинг учун мавжуд бўлган барча имкониятлардан фойдаланишга ҳаракат қилмоқдалар. Шундай хуружлардан бири ахборот хуружларидир. Ахборот хуружлари - техник тараққиётнинг имкониятлари ва улардан фойдаланишга бўлаётган кучли интилишлар педагогик таълим муассасалари олдига янада кўпроқ вазифаларни қўймоқда. Чунки бугунги кун ёшларининг барчасини техно тараққиётнинг махсули хисобланадиган замонавий телефонлар хусусий компьютер, интернет манбаларидан фойдаланиш имкониятларига эгадирлар. Ёвуз мафкуралар эса ўз мақсади йўлида мана шундай имкониятлардан фойдаланишга интилмоқдалар. Юртимизда ижтимоий-маънавий муҳитни яхшилаш ёшларни ғоявий тажовуз ва мафкуравий хуружлардан асраб-қолиш масаласи жамият олдига турган асосий вазифалардан эканлигини қайд этиш баробарида Президентимиз Ш.Мирзиёев қўйидаги фикрларни таъкидламоқда: “Шу маънода, бугунги кунда юртимизда таборо кенг тарқалиб бораётган “Ўз болангни ўзинг асра” деган дават фақат қуруқ ишлар бўлиб қолмасдан, хар бир ота-она, хар бир фуқаронинг қалбига, юрагига чуқур кириб бориши, амалий ҳаракатга айланиши зарур”.<sup>1</sup>

Талаба-ёшларни турли хил мафкуравий таҳдидларга алданиб қолишининг олдини олиш мақсадида уларда ғоявий-мафкуравий компетентликни янада ривожлантириш ахборот хуружларининг олдини олишга хизмат қилади.

Шу ўринда ахборот хуружининг олдини олишнинг қўйидаги йўлларини келтириб ўтишимиз жоиз:

- ёшларда ташқи таҳдидлар, бузғунчи таъсирларга қарши ўз вақтида тўғри муносабатни шакллантириш;

- ёшларнинг билимини ошириш уларда воқеа-ходисалар моҳиятини таҳлил қилиш малакасини шакллантириш. Токи, ёш авлодоқни қорадан ажратиш олиш имкониятига эга бўлсин;

- ахборот оқимида маҳаллий ахборотларнинг ёшларга тез етиб бориши ва ишончли бўлишини таъминлаш. Агар бу вазифа амалга оширилса, ташқаридаги ғаразли ахборотларнинг ёшлар онига таъсир кучи кескин камайиб кетади.<sup>2</sup>

Таълим ва тарбия ёшлар дунёқарашини ва хулқ атворини шакллантирувчи муҳим жараён бўлганлиги учун ҳам бу борада хар бир педагог қадрдан энг таъсирчан технологияларни излаб топишда ва ундан фойдаланишда таълим муассасасининг имкониятларини инобатга олиш зарурдир.

Ватан халқ манфаатларини, дўстлик ва биродарликни ўзаро хурматни тарғиб этувчи маънавий-маърифий мерослардан фойдаланиш шу билан бирга турли мавзуларда маънавий-маърифий тадбирларни мунтазам ўтказиб борилиши ёшларда мафкуравий иммунитетни янада ривожлантириб боришга хизмат қилади. Ёшларда ғоявий-мафкуравий компетентликни ривожлантириш учун педагогик таълим муассасаларида юрт тинчлиги, ватан равнақи, халқ фаровонлиги, комил инсон, миллатлараро тотувлик, динлараро бағрикенглик, ижтимоий ҳамкорлик ғояларининг мазмун-моҳиятига бағишлаб соҳа мутахассислари иштирокида маънавий-маърифий ва профилактик тадбирлар ўтказиб бориш талаб этилади. Зеро, ўз даврида улуғ аллома Абу Наср Форобий таъкидлаганидек: “Инсоннинг моҳияти ҳақиқий бахт-саодатга эришув экан, инсон бу мақсадни ўзининг олий ғояси ва истагига айлантириб, бу йўлда барча имкониятлардан фойдаланса, у бахт-саодатга эришади”<sup>3</sup>.

Хулоса қилиб айтганда, бугунги кун ёшларида ғоявий-мафкуравий компетентликни ривожлантириш кечиктириб бўлмайдиган вазифадир. Президентимиз Шавкат Мирзиёев бот-бот таъкидлаётганидек, фарзандларимизнинг турли радикал ва зарарли ғоялар таъсирига тушиб

<sup>1</sup> Ш. Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимининг қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент: “Ўзбекистон” - 2017. -531-532-б.

<sup>2</sup> Мухаммад Амин Яҳё. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2016. -405-б.

<sup>3</sup> И. Каримов Ватан равнақи учун хар биримиз маъсулмиз. Т.9. -Т.: «Ўзбекистон», 2001, 41-б.

қолишига йўл қўймаслик – асосий вазифамиздир. Бу борадаги ишларни янгича ёндашувлар билан давом эттиришимиз керак.

#### BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA LINGVO-DIDAKTIK QOBILIYAT TUSHUNCHASINI ANIQLASH

**Baymanova N.A. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Yangi avlodning oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlarini joriy etish bosqichida xorijiy til o'qituvchilarini o'qitishning dolzarb muammolari ta'kidlab o'tildi. Chet tillarini o'rganish bo'yicha mutaxassisning asosiy va qo'shimcha vakolatlari asosida shakllantirilgan mavzu va kasbiy fazilatlarini o'z ichiga olgan integral bir shaxs sifatida pedagoglik qobiliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Pedagoglik qobiliyati bir nechta tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: motivatsion malaka, kognitiv qobiliyat, diagnostik qobiliyat, dizayn qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, tashkilotning vakolatlari, ijodiy qobiliyat, refleks qobiliyat.

**Kalit so'zlar:** chet tili o'qituvchisi, malaka va ko'nikma, pedagogik shart-sharoit, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash.

#### ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ АНГЛИСКОГО ЯЗЫКА

**Байманова Н.А. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Освещаются актуальные проблемы подготовки учителей иностранного языка на этапе внедрения образовательного стандарта высшего профессионального образования нового поколения. Особая роль отводится развитию лингводидактической компетенции как интегративной характеристики личности, включающей субъектные и профессиональные качества, формирующиеся на основе главных и дополнительных компетенций специалиста иноязычного образования. Лингводидактическая компетенция включает в себя ряд компонентов: мотивационная компетенция, когнитивная компетенция, диагностическая компетенция, проектировочная компетенция, коммуникативная компетенция, организаторская компетенция, креативная компетенция, рефлексивная компетенция.

**Ключевые слова:** компетентность, педагогическая условия, подготовка будущих учителей.

#### DEFINING THE NOTION OF LINGUO-DIDACTIC COMPETENCE OF THE FUTURE TEACHER OF ENGLISH LANGUAGE

**Baymanova N.A. - Lecturer at Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** The urgent problems of training of foreign language teachers in the implementation phase of the Federal state educational standard of higher education of the new generation are considered. The specific role is given to the development of lingvodidactic competence as integrative personality characteristics, including subjectivity and professional qualities, formed on the basis of the main and additional specialist competencies of foreign language education. The lingvodidactic competence includes a number of components: motivational competence, cognitive competence, diagnostic competence, design competence, communicative competence, organizational competence, creative competence, reflective competence.

**Key words:** competence, pedagogical conditions, training of future teachers.



In the conditions of development of modern society, the role of a foreign language in the system education is constantly increasing. The intercultural issue comes to the relations, involving knowledge of foreign languages. So, one of the central problems of linguodidactics and methods of teaching foreign languages are becoming the formation of a multilingual and multicultural linguistic personality, which causes the need to master a certain level of development of communicative competence. This competency is considered as "leading and core" competence. multilingual and multicultural personality, providing the opportunity to participate in intercultural communication, which is especially important when training future teacher's foreign languages. Following K.E. By Bezukladnikov, we understand professional competence as integrated resource of the person, which provides the ability to effectively interaction with the outside world in one or another professional sphere and which depends on the necessary set of professional competences for this<sup>1</sup>. Data competences provide an opportunity for the subject to set himself significant goals, take risks, flexibly, creatively approach the solution of the problem and get the result. Appeal to intercultural communication entailed significant changes in the understanding of the process of mastering a foreign language, and hence the learning of this language. The quality indicator of the training of specialists in foreign language communication. Thus, it becomes a certain resource of the personality of the future teacher of a foreign language, providing the possibility of his full participation in intercultural communication. The goal of mastering the intercultural communication of the future specialist in the field of education foreign languages<sup>2</sup> "are to achieve such a quality of language personality of the future a foreign language teacher that will allow her to go beyond her own cultures and acquire the qualities of a mediator of cultures without losing their own cultural identity". The concept of "linguistic personality" is explored in the works of G.I. Goddess, V.V. Vinogradova, Yu.N. Karaulov, A.A. Shansky Under the linguistic personality of Yu.N. Karaulov understands "a multi-layered and multi-component set of linguistic abilities, skills, readiness for speech actions of varying degrees of complexity, actions that are classified, on the one hand, by types of speech activity, and on the other, by language levels, that is, phonetics, grammar and vocabulary". The concept of "linguistic personality" has a level organization. It shows that a person, developing verbally, gradually moves from a lower level to higher, that is, from the verbal-semantic level (zero level or the level of proficiency in everyday language) to the logical cognitive level (first level or personality thesaurus) and the level of activity-communication needs (second level or personality pragmatics)<sup>3</sup>. The concept of "linguistic identity" became central to the description of the model of "assignment" non-native language and possession of it. Based on the analysis of the portrait of the language identity of a native speaker, a multilingual and multicultural language personality is formed the future teacher of a foreign language, which in its formation and functioning is located at the intersection of several languages and cultures. The condition for the formation of a multilingual and multicultural personality is mastering a certain level of communicative competence. Level of development communicative competence means the degree to which a multicultural personality ready and able to carry out intercultural communication. Communicative competence is a person's ability to understand and generate foreign-language statements in a variety of socially determined situations. When considering the concept of communicative competence, most researchers recognize the complexity of its structure. It combines a number of competencies: linguistic, speech, compensatory, educational, cognitive and sociocultural, which includes the sociolinguistic structure, subject-specific, general cultural and regional geographic competence, which are pervasive for the entire communicative competence of the future teacher of foreign languages<sup>4</sup>. In addition, as part of communicative competence emit linguistic, speech, sociocultural observation, the ability to generalize, speech contact, speech observation and resourcefulness, speech imagery, sociocultural susceptibility, sociocultural impartiality, propensity to multilingual and multicultural education. Today, both in a number of domestic concepts and programs in foreign languages, and in the pan-European documents defining international policy in the field of language education, the development

<sup>1</sup>Bezukladnikov K.E. Formation of future teacher's linguistic competencies

foreign language: concept and methodology: dissertation dis. ....D-raped.Sciences [Text] / K.E. Bezukladnikov - Nizhny Novgorod, 2009. 39s.

<sup>2</sup>Galskova, N.D. Theory of teaching foreign languages: linguodidactics and methods [Text] / N.D. Galskova, N.I. Gez. - M.: Academy, 2005. - 336 p.

<sup>3</sup>Karaulov, Yu.N. Russian language and language personality [Text] / Yu.N. Guard - M.: Science, 1987. - 261s.

<sup>4</sup>Safonova, V.V. Communicative concept: modern approaches to multi-level description for methodological purposes [Text] / V.V. Safonov. - M.: Publishing House of the Scientific and Technical Center "Evroshkola", 2004. - 236 p.

of communicative competence is proclaimed the goal multilingual and multicultural student-centered education. The problem of the formation of communicative competence began to be considered in domestic and foreign methodological science since the second half of the last century, however, the issues of the formation of other types of competence and competencies in higher foreign language education receive their consideration only now. Modern methodically competent foreign language teacher should be ready to effectively implement the goals of teaching a foreign language, consisting in the formation of foreign language communicative competence, education, education and development of students by means of the subject "Foreign language". In this regard, the composition of the professional competence of a foreign language teacher, first of all, should be characterized by the presence of formed linguodidactic competence corresponding to the Professional standard of the teacher, deep pedagogical and socio-psychological training<sup>1</sup>. Like any competence, which we consider as a whole as the ability and willingness to carry out effective activities in a particular area using the accumulated competencies and the activation of internal and external resources of the individual in the process of solving professional problems, professional competence of a foreign language teacher is an integrative property of the individual and, according to O. E. Lomakina, K. S. Makhmuryan, E. N. Solovova is realized through communicative, linguistic, psychopedagogic, social, methodological, compensatory and General cultural competence, pedagogical and linguistic thinking, personal qualities. Our research is focused on checking the formation of linguistic and didactic competence, by which we understand the leading component of the professional competence of the future teacher for personal professional growth, assuming his ability and willingness to apply theoretical knowledge, practical skills in the field of foreign language and methods of teaching for setting and solving professional problems, based on the integrity of its linguistic and methodological training. It is obvious that this competence is laid at the stage of training in a higher educational institution of pedagogical orientation, at the end of which it is assumed that the future specialist is ready to demonstrate not so much "encyclopedic literacy", as productive adaptation in a rapidly changing world, to apply generalized knowledge and skills to solve problem situations arising in real pedagogical activity, to list and describe that is not possible because of their diversity and multiplicity. Competence – a property of the individual, possessing multilateral knowledge in a particular area and judgment, which for any reason is considered significant, influential. Professional competence of the teacher is a manifestation of personal desire in the pursuit of teaching, his approach to business in this area, personal and moral qualities, as well as the desire to learn something new, creative understanding of their work and the importance of the transfer of their knowledge, skills for the younger generation<sup>2</sup>. The quality of education is the main part of the life of society, which gives an understanding of the state of society, shows the results of the educational process, the level of compliance with its needs, as well as the expectations of society, different groups, in terms of development and creation of civil, professional competencies of a person as a person. Such concepts as quality of life, education, social success are increasingly considered by modern pedagogy and are one of the most important. Improving the quality of education is one of the main tasks declared by the Concept of modernization of education in Uzbekistan. Of course, without the introduction of innovative technologies, modern teaching tools, improving the teaching profession, identify and disseminate best teaching experience this is impossible to achieve, as it is impossible to achieve without improving the professionalism of each teacher. In order to achieve good results, it is necessary to constantly study yourself, your strengths and weaknesses, gradually form in yourself the inner core on which will be built not only professional but also personal development. The more you achieve in professional development, the more you develop as a person. However, the profession of a teacher has its own specifics: he works with a person, which means that his own personality is a powerful working tool. And the more perfect this tool, the more successful the professional result. It is in the teaching profession that personal growth is an indispensable condition for achieving professionalism. The unity of theoretical and practical readiness of the teacher to perform his professional functions is characterized by his competence, that is, awareness and authority in a particular

<sup>1</sup>Artemova, L. V. Theatrical games of preschool children [Text]: a book for a kindergarten teacher. – Moscow: Education, 1991. - 127 p.

<sup>2</sup>Migunova, E. V. Organization of theatrical activities in kindergarten [Text]: studies. -method.aid; NovSU named after Yaroslav the Wise. – Veliky Novgorod, 2006. - 126s.

field of his activity. Communication is the process of mutual information exchange between communication partners. It includes: transfer and reception of knowledge, ideas, opinions, feelings. Communication is a complex, multi-faceted process of establishing and developing contacts and connections between people, generated by the needs of joint activities and includes the exchange of information and the development of common strategies for interaction. These two concepts do not exist without speech. It is thanks to speech that the accumulated experience and knowledge are transmitted from adult to child, which means that its development takes place. After all, speech is associated with thinking, the richer and more diverse it is, the more active it is, the more the child learns and discovers. Recently, researchers have not only noted the importance of forming communicative competence of the multilingual and multicultural personality of the future teachers of foreign languages, but also indicate the need to use it as the basis for the formation of professional competencies and competencies. The term "professional competence" is widely used when considering the problems of modernizing education and determining the requirements for university graduates. The A concept is defined as the willingness and ability of a specialist to make effective decisions in the exercise of professional activity. Professional Competence "is generally characterized by a set of integrated knowledge, skills and experience, as well as personal qualities that enable a person to effectively design and carry out professional activities in collaboration with the outside world"<sup>1</sup>. It is known that traditional cognitively oriented education solves, basically, the task of forming knowledge and skills, and the development and upbringing of students is considered as a "by-product" of the learning process. Such training is aimed at training a specialist, not a professional. The above description of key competencies and the analysis of scientific literature allows us to distinguish between these two concepts. A specialist is an employee with the knowledge and skills necessary for a given qualification. A professional is a socially and professionally competent employee with well-defined professionally important qualities and competencies, distinguished by an individual style of activity. Modern production and society requires professionals. In the logic of the competence approach to the multilingual and multicultural training the future teacher of foreign languages we are considering forming linguodidactic competencies (professional competencies of a foreign teacher language). These competencies are formed at the student (the future teacher of a foreign language) as the development of foreign language education programs that provide personal development as a whole, with an emphasis on intellectual, personal, emotional and social development through mastering all areas of knowledge. Under the linguodidactic competence of the future teacher of a foreign language, we understand psychological neoplasm formed by the disciplines of the subject and psychological-pedagogical unit in the process of language pedagogical education, including along with the cognitive and behavioral aspects of the long-term readiness to professional activity of a foreign language teacher as an integrative property of a person.

Comprehensive development of professionally competent multicultural, multilingual the linguistic personality of the future teacher of a foreign language and the preparation of an active citizen, ready to take on responsibility, through the dynamic combination of knowledge, skills and abilities, the development of critical and creative thinking, becomes the main the principle of training future teachers in higher education. In this linguodidactic competences become a key component uniting all foreign language education programs.

#### **PEDAGOGIKA TARIXI VOSITASIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH**

**Matyakubov I.B. – Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi yoshlar – shogirdlar oradan besh-o'n yil o'tib, ustozlik martabasiga yetishishlari borasida so'z boradi. Unutmaslik kerakki, ustozning shogirdga birinchi galda

---

<sup>1</sup>Mukhina, V. S. Age psychology: phenomenon of development, childhood adolescence[Text]: studies. benefits for students. higher. studies'. institutions/V. S. Mukhina - 4th ed., erased. - M.: Published. center "Academy", 2006. - 456s.

o'rgatadigan xulqi - kamtarlik bo'lmog'i shart. Muallim - faqat harf o'rgatuvchi emas, balki bo'lajak musiqa o'qituvchilarini fikrlashga o'rgatuvchi tabarruk zot. Pedagog nima uchun bu kasbni tanlaganini teran anglamog'i, insonlarni qanday tarbiyalash kerakligini tushunib yetmog'i kerak. Darhaqiqat, jamiyat va inson hayotini biror soniyaga bo'lsa-da o'qituvchisiz, o'qituvchi faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, muallim, ustoz, shogird, ma'naviyat, an'ana, kompetensiya, ko'nikma, tajriba, san'at, kashfiyot.

#### РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ НА ОСНОВЕ ИСТОРИИ ПЕДАГОГИКИ

**Матякубов И.Б.** – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В этой статье идет речь о том, как сегодняшние молодые студенты спустя пять-десять лет становятся достойными почетному званию учителя. Не следует забывать, что первым шагом, которому обучается студент, является скромный курс смирения. Учитель является наставником, который обучает и готовит к жизни будущих учителей музыки. Учитель должен понимать, почему он выбрал эту профессию, и он должен понимать, как обучать людей. Действительно, трудно представить себе жизнь общества и человеческую жизнь без учителя.

**Ключевые слова:** мышления, педагог, учитель, ученик, духовность, традиция, компетенция, способность, опыт, искусство, открытие.

#### DEVELOPMENT OF PRACTICAL COMPETENCES OF FUTURE MUSICAL TEACHERS BASED ON THE HISTORY OF PEDAGOGY

**Matyakubiv I.B.** - Lecturer at Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** This article tells you that today's youth students will become mentors after five to ten years. It should be remembered that the first thing that a teacher should teach of his student is modesty. The teacher is not only a letter tutor, but also a teacher who trains future music teachers to thinking. The teacher should understand why he chose this profession, and he should understand how to train people. Indeed, it is difficult to imagine the life of society and human life without a teacher.

**Key words:** thought, teacher, master, student, spirituality, tradition, competere, habit, practice, art, discoveries.

Milliy o'zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda, shajaramiz ulug'ligi va pokligini bilishda, dono xalqimizning jahon xalqlari orasida tutgan o'rniga baho berishda, uning boy hayotiy tajribalaridan kengroq foydalanishda, xalqimizning oliyanob, hurriyatparvar va erkparvar an'alarini izchil o'rganish va uni yanada boyitishda, xullas, barkamol, haqiqiy inson shaxsini yaratishda Vatan tarixining va shu jumladan, o'tmishimizni minglab kishilar ongiga yetkazishda ustozlarning o'rni ham benihoya katta ekanligini unutmasligimiz lozimdir. Vatan tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnasha oladigan, idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, vataniga, ona xalqiga cheksiz mehr-muhabbat his-tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqloq tafakkuri va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish qurolidir.

Ilmning mavqe – martabasi Sharqda g'oyat baland bo'lganligi barchamizga ma'lum. Hadisi sharifda "Olimlar payg'ambarlar vorisidir", deyiladi. Xalqimizda "Olim bo'lsang, olamseniki", degan naql bor. Bu gap bugun paydo bo'lgan emas. Dunyoga yuzlab ilm-fan dohiylarini hadya etgan bu millat olimlikning shuhrati bilan birga, igna bilan quduq qazimoqdek zahmatini ham juda yaxshi bilgan. Ilm o'rgatmoqning sharaf va ma'suliyatini esa yanada balandroq tutgan. Ustoz otangdan ulug'dir, degan naqlni har birimiz juda ko'p marotaba eshitganmiz. Bu gap bejizga aytilmagan, chunki ota farzandni osmondan yerga tushiradi, ustoz

esa shogirdni yerdan osmonga ko'taradi. Shu o'rinda, bir ibratli hikoyatga e'tiborimizni qaratsak: "Aleksandr Makedonskiyning Arastu (Aristotel) ismli ustozini bor edi. U bilan bemaslahat ish qilmasdi. Ustozni saroyga kirib kelsa, o'rnidan turib, izzat bilan kutib olardi. Hatto uni o'z otasidan ham ortiqroq ko'rardi. Bir kuni Aleksandrdan: "Nechun Arastuni otangizdan ortiq izzat qilasiz?" deb so'radilar. Ul dediki: "Otam go'yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko'tardi" (Ya'ni otam meni dunyoga kelmog'imga sabab bo'ldi. Ustozim ilm va odob o'rgatib, martaba va izzatimning ortmog'iga sabab bo'ldi)". Shu hikoyat bahonasida ikki mazmun anglatuvchi bir maqolga izoh berib o'tsak. Ustozlarning mavqeyi haqida gap ketganda, ayrimlar bu maqolni "Ustoz otangdan ulug'" tarzida, boshqalar esa "Ustoz otangdek ulug'" shaklida bayon qiladilar. Qaysi biri to'g'ri? Farzand uchun odamlar orasida otaning mavqeyidan baland zot yo'q.

Respublikamiz istiqloqligga erishgach, 1-oktyabr sanasi o'qituvchilar va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami, deb e'lon qilindi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday ta'kidlaydi: "Bu bayram, avvalo, o'zining bilim va tajribasi, iste'dod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'ri, butun borlig'ini ayamasdan, ma'rifat yo'lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga nisbatan xalqimizning azaliy hurmat-ehtiromining yaqqol namunasidir."<sup>1</sup>

Muallim – faqat harf o'rgatuvchi emas, balki bo'lajak musiqa o'qituvchilarini fikrlashga o'rgatuvchi tabarruk zot. Darhaqiqat, jamiyat va inson hayotini biror soniya bo'lsa-da, o'qituvchisiz, o'qituvchi faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki ularning mehnati natijasida fan, san'at, adabiyot, ixtirolar va kashfiyotlar yaratiladi, avlodlar o'rtasidagi doimiy vorislik ta'minlanadi, ya'ni ustoz – shogird an'analari asosida yangi avlod voyaga yetadi.

Dastlabgi maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda paydo bo'lib, ularda bo'lajak musiqa o'qituvchilariga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. "Akademiya" so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bo'lajak musiqa o'qituvchilarilarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan. Jamiyatning tabaqalanishi natijasida quldorlik tuzumida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular "pedagog" deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi "bolalarni yetaklovchi" demakdir. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilariga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar. Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga, dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan. O'rta asrlar davrida Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular "Donishmandlar uyi" (IX asr, Bag'dod), "Ma'mun akademiyasi" (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli tarmoqlar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar. Jamiyat tomonidan o'qituvchi

<sup>1</sup> Каримов И. «Юксак маънавият – енгилмас куч». Тошкент: «Маънавият» -2008. 55-б.

shaxsiga qo'yilayotgan talablar o'z davrida Sharq mutafakirlari hamda g'arb ma'rifatparvarlarining asarlarida o'z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o'qituvchining ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukbo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya'ni u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bo'lajak musiqa o'qituvchilariga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- Bo'lajak musiqa o'qituvchilari bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- Berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- Ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- Talabani xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- Fanga qiziqтира olish;
- Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- Bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- Har bir so'zning o'quvchilar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishga erishish.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, tamagirlik va johillikni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, "mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va qavqo yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa... Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir."

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Uning ishi odam qo'ldan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bo'lajak musiqa o'qituvchilarini saqlashga o'z qiziq qilardi, u esa bir to'da bo'lajak musiqa o'qituvchilariga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim, bunga nima yetsin.

Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bo'lajak musiqa o'qituvchilarilarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi." Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning "diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa" ekanligini ta'kidlab, "fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur", – deydi. Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bo'lajak musiqa o'qituvchilari dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o'qituvchilik "yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb" ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur.

Y.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: "vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodli inson bo'lishi zarur" – deydi.<sup>1</sup>

Bugungi yoshlar – shogirdlar oradan besh-o'n yil o'tib, ustozlik martabasiga yetadilar. Unutmaslik kerakki, ustozning shogirdga birinchi galda o'rgatadigan xulqi – kamtarlik bo'lmog'i shart. Bu xulqni shogirdga singdirishda o'z xulqi bilan namuna bo'lmog'i talab etiladi. Chunki kibrli ustozning shogirdi

<sup>1</sup> М.Тожиев, М.Ўролова, Н.Ашуров, Г.Баҳодирова "Педагогик технология ва педагогик маҳорат" фани ўқув машғулотларининг лойиҳалари, Т – 2010. 66-бет.

kamtarinlik shohsupasiga ko'tarilganligini hali tarix ko'rgan emas. Pedagogik faoliyatda ikkinchi darajali narsaning o'zi yo'q, unda hamma narsa, hatto eng arziymasdek tuyulgan tafsilotlar ham muhim. Pedagog, avvalo, nima uchun bu kasbni tanlaganini teran anglamog'i, insonlarni qanday tarbiyalash kerakligini tushunib yetmog'i kerak. Shuning uchun ham bugungi kunda Respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayoniga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Barkamol avlodni shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xulosa qilib aytganda, yoshlar muammolarini hal etish Vatan taraqqiyoti va xavfsizligining kafolati ekan, milliy taraqqiyotning muhim vazifalarini hal etishda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida barcha zaruriy sharoitlarni yaratish, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashishga qodir yoshlarni tarbiyalash, yosh avlodni buyuk bobokalonlarimizning munosib vorislari bo'lib voyaga yetishishlari uchun, biz – ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ko'p sonli professor-o'qituvchilar, ustoz-murabbiylar, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining oldida turgan o'ta muhim va sharaflil vazifalardandir.

Dunyodagi barcha davlatlar singari "Musika ta'limi" yo'nalishida yakka amaliy darslar tashkil etilsa, har bir talaba malakali kadr bo'lib yetishishi uchun odilona qo'yilgan qadam bo'lar edi. Chunki musiqa sohasidagi "Dirijyorlik", "Vokal", "Cholg'u o'rganish", "Qo'shimcha cholg'u", "An'anaviy xonandalik" kabi fanlardan yakka amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirilsa, kelajagimizni sifatli kadrlar bilan ta'minlar edik va davlatimiz rahbari oldimizga qo'ygan vazifalarni sifatli, sidqidildan bajargan bo'lar edik.

### ПЕДАГОГИК ТАШХИСЛАШ – ТАЪЛИМ СИФАТИНИ АНИҚЛОВЧИ УСУЛ

**Инназаров М. - Бош илмий методик марказ бўлим бошлиғи**

**Аннотация.** Рақобатбардош кадрларни тайёрлашга бўлган ижтимоий эҳтиёжни қондириш жараёнида таълим сифатини аниқлаш ва баҳолаш муҳим аҳамиятга эга. Педагогик ташхис ана шу мақсад учун хизмат қилади. Мақолада педагогик ташхислаш (диагностика)нинг назарий асослари, амалий жиҳати, мақсади, вазифалари, устувор тамойиллари, уни самарали ташкил этиш шартлари, самарадорлигини оширишга таъсир этувчи омиллар тўғрисида сўз юритилади. Асосий эътибор таянч тушунчаларнинг шарҳланишига қаратилган.

**Калит сўзлар:** педагогик ташхислаш, педагогик ташхислаш мақсади, педагогик ташхислашнинг устувор тамойиллари, педагогик характердаги ташхислаш турлари.

### ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА - МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

**Инназаров М. - начальник отдела главного научно-методического центра**

**Аннотация.** В процессе удовлетворения социальной необходимости в подготовке конкурентноспособных кадров важное значение имеет определение и оценка качества образования. В данном случае педагогический диагноз служит этой цели. В статье рассматриваются теоретические основы, практическая значимость, цели, задачи, приоритеты педагогической диагностики, условия ее эффективной организации, а также факторы, влияющие на ее эффективность. Особое внимание уделяется на интерпретации ключевых понятий.

**Ключевые слова:** педагогическая диагностика, цель педагогической диагностики, приоритетные принципы педагогической диагностики, виды диагностики педагогического характера.

### PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS - METHOD FOR DETERMINING EDUCATION QUALITY

**Innazarov M. - head of department of the main scientific and methodological center**

Annotation. In the process of satisfying the social need for preparing competitive personnel the definition and assessment of the quality of education is important. In this case the pedagogical diagnosis serves this purpose. The article discusses the theoretical foundations, practical relevance, goals, objectives,

priorities of pedagogical diagnostics, conditions for its effective organization as well as factors that influence its effectiveness.

**Key words:** pedagogical diagnostics, the aim of pedagogical diagnostics, priority principles of pedagogical diagnostics, types of diagnostics of pedagogical character.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида” ги (2019 йил 27 август) Фармони<sup>1</sup>га кўра, раҳбар ва педагог кадрларнинг малакасини ошириш тизимини янги босқичга кўтариш, уларнинг касбий малакасини оширишнинг замонавий шаклларини ҳамда илмий ва илмий-педагогик фаолият натижаларини инobatга оладиган табақалаштирилган ва муқобил узлуксиз малака ошириш тизимини амалиётга кенг жорий этиш мақсадга мувофиқ деб топилди. Сўнгги йилларда ОТМ раҳбар ва педагог кадрларининг касбий билим, малака ва касбий компетентлигини ривожлантириш йўлида самарали ишлар амалга оширилди. Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари ўқув жараёнига ўқитишнинг замонавий шакл, метод, восита ва технологиялари (жумладан, масофавий таълим, вебинар технологиялари, автоматлашган мониторинг, электрон портфолио каби ахборот тизимлари) жорий этилди. Раҳбар ва педагог кадрлар малакасини оширишнинг амалдаги тартиби самарадорлигининг паст эканлиги, малака ошириш тизимида фаолият юритаётган педагогларнинг сони, сарфланаётган моддий ресурсларнинг миқдор жиҳатдан кўплиги, қолаверса, замонавий талаблардан келиб чиққан ҳолда мазкур жараёнга инновацион ёндашувни жорий этиш, тингловчиларнинг касбий компетентлигини доимий ривожлантириш механизмлари такомиллаштирилиб, узлуксиз малака ошириш тизими жорий этилди.

Сўнгги ярим аср мобайнида ривожланган давлатларда кадрларнинг салоҳияти улар томонидан ташкил этилган фаолият самарадорлиги билан белгиланар экан, уни белгиловчи энг муҳим омил компетентлик дея эътироф этилмоқда. Шунга кўра, ОТМ педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимида тингловчиларнинг касбий компетентлик сифатларини эгаллигини ташхислаш ва баҳолаш уларнинг потенциалига таянган ҳолда малакали, рақобатбардош мутахассисларни тайёрлашнинг асосий шартларидан бири эканлиги англанади. Бугунги кунда ўқитувчи касбий фаолиятининг муҳим таркибий қисмига айланиб бораётган “Педагогик диагностика” нинг тарихида немис олими Карлхайнц Ингенкампнинг алоҳида ўрни бор. Чунки айнан Карлхайнц Ингенкамп 1968 йилда таълим соҳасида “педагогик диагностика”<sup>2</sup> тушунчасини қўллаш таклифини илгари сурди. Муаллиф ташхисга асосланувчи педагогик фаолият негизида сифатнинг зарур илмий мезонларини сақлаб қолган ҳолда ўқитувчи томонидан ўқувчилар фаолиятини анкета ёрдамида кузатиш, назорат ва сўровлар натижаларини қайта ишлаш орқали хатти-ҳаракатлари моҳиятидан уларни хабардор қилиш, натижалар учун негиз бўлган сабабларни ёритиш ва истиқболни изоҳлаш жараёнини тушунган эди. Педагогик ташхислаш (диагностика) – аниқ мақсаддан келиб чиққан ҳолда муайян ҳолат (фазилат, билимларни ўзлаштириш) бўйича ўрганилувчи шахс фаолиятини кузатиш, текшириш ва баҳолашга оид статистик маълумотларни йиғиш, уларни таҳлил қилиш, динамик ривожланишни аниқлашга қаратилган назорат ёки мониторингнинг таркибий қисми. Ўз моҳиятига кўра маълум жараён, ҳодиса ёки объект бўйича педагогик ташхис қўйишга қаратилган фаолият эса педагогик ташхислаш саналади. Чунки ташхислаш негизида шахс ёки автоматик қурилма томонидан амалга ошириладиган реал ҳаракат ётади. Педагогик ташхислашнинг асосий мақсадини педагогик жараённи коррекциялаш учун ташхис объекти (педагогнинг маълум сифати, касбий малакаси, компетенцияси, ўзлаштириш даражаси, тажрибаси) ни белгиловчи реал кўрсаткич ва ўзгариш аънаналари тўғрисидаги тезкор ахборотга эга бўлиш ташкил этади. Ташхислашда энг муҳим омил муддатнинг белгиланишидир. Яъни: ташхисланадиган ҳар қандай ҳолат маълум вақт оралиғидагина ўрганилади. Зеро, ана шу вақт оралиғи ўрганилаётган ҳолат тўғрисида реал, объектив маълумотларни қўлга киритиш имконини беради. Ташхислашда кузатув муддатлар турлича бўлиши мумкин. Масалан, 2 соат, 1 ҳафта, икки ҳафта, 1 ой, 6 ой, 1 йил, 3 йил ёки 5 йил. Н.В.Кузьмина

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида” ги (2019 йил 27 август) Фармони // <http://lex.uz/docs/4490760>.

<sup>2</sup> Дудина М.М., Хаматнуров Ф.Т. Основы психолого-педагогической диагностики // Учеб. пособие. – Екатеринбург: Изд-во РГПУ, 2016. – С. 16-17.



талабалар мисолида педагогик ташхислашни қўйидаги изчилликка мувофиқ амалга оширишни мақсадга мувофиқ деб топади: 1) ташхислаш мақсадининг аниқлаш; 2) вазиятли моделнинг таҳлили; 3) ташхислашнинг шакл, метод ва воситаларини танлаш; 4) ўқитувчи ва талабанинг ташхислаш жараёнидаги ўзаро алоқасининг аниқлаш; 5) талабалар фаолиятини назорат ва баҳолаш; 6) ўқитувчи педагогик фаолиятининг ташхисли тадқиқот натижалар бўйича таҳлил қилиш; 7) талабалар билиш фаолиятини изланиш натижалари бўйича таҳлил қилиш; 8) эталон (меъёрий кўрсаткичлар)дан оғиш сабаблари ва даражасини аниқлаш; 9) коррекцияловчи фаолиятнинг белгилаш<sup>1</sup>.

М.Е.Иньков касбий-педагогик компетенцияларни ташхислашнинг тизимли моделини таклиф этган. Унинг асосий таркибий қисмлари қўйидагилардан иборат: а) тегишли фан соҳаси бўйича эга бўлинган махсус ва касбий компетентлик; б) ўқувчиларда билим, кўникмаларни шакллантириш усуллари ўзлаштиришга оид методик компетентлик; в) ўзаро мулоқот жараёнини самарали ташкил этиш учун зарур бўлган ижтимоий-психологик компетентлик; г) ўқувчиларнинг ўқув-билиш мотивлари, қобилиятларини аниқлашга қаратилган табақалаштирилган психологик компетентлик; д) шахснинг индивидуал фаолиятидаги ютуқлар ва камчиликларни баҳолашга доир аутопсихологик компетентлик<sup>2</sup>.

Тадқиқот объекти сифатида малака ошириш тизимида педагогларнинг касбий компетентлигини ташхислаш қўйидагилар асосида амалга оширилади: педагогнинг касбий фаолиятда эришган ютуқлари тўғрисида маълумот берувчи портфолио; ўқув модуллари бўйича ташкил этилган синов (тест, реферат, лойиҳа ва бошқа)ларнинг натижавий кўрсаткичлари; йўналишлар бўйича ташкил этиладиган кириш ҳамда чиқиш тестларининг натижалари; битирув ишининг сифати ва уни самарали ҳимояга қилганлик тўғрисидаги маълумотлар. Малака талабларини инобатга олиш асосида малака ошириш тизимида А.К.Маркованинг ёндашувига таянган ҳолда тингловчилар ОТМнинг педагог кадрлари сифатида ижтимоий, махсус (ёки касбий; психологик, методик, ахборот, креатив, инновацион ҳамда коммуникатив компетентлик), индивидуал ва шахсий компетентликка эга бўлишлари мақсадга мувофиқ деб топилди. Таълим жараёнини ва тингловчилар фаолиятини кузатиш (бирламчи ўрганиш) асосида уларда етарлича ривожланмаган касбий компетентлик сифатларини, уларни ўзлаштириш йўлидаги қийинчиликлар аниқланди. Бунда тингловчиларнинг кириш тести, ўқув модуллари бўйича машғулотлардаги иштироки инобатга олинди. Бирламчи ўрганиш натижалари тингловчиларнинг етарли даражада ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатлари (компетенциялар)га эга эмаслигини кўрсатди. Дастлабки натижаларга кўра, ташхис мақсади малака ошириш курсларининг тингловчиларида ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатлари (компетенциялар)ни ривожлантиришдан иборат этиб белгиланди. Шунингдек, малака ошириш курсларида амалга ошириладиган педагогик ташхиснинг шакл, метод, восита ва технологияларини танлаш ёки асослаш орқали махсус методика ишлаб чиқилди. Махсус методика қўйидагиларга асосланди:

1) ташхис шакли – электрон портфолио, назорат иши, масофавий таълим, педагогик амалиёт, автоматлашган мониторинг, аттестация;

2) ташхис методлари – ностандарт тестлар, электрон тақдимот, лойиҳа методи, Э.П.Торренснинг “Тугалланмаган расмлар” тести, рейтинг тизими;

3) ташхис воситалари – ўқув модули бўйича адабиётлар (ўқув режаси, ўқув модули дастури, ўқув-методик мажмуалар, педагогик луғатлар), техник воситалар ва ахборот технологиялари (компьютер, электрон доска, Интернеттармоғи), тарқатма материаллар (анкеталар, тестлар, назорат топшириқлари, натижаларни тезкор ҳисобга олишни таъминловчи схема, харита ёки жадвал), методик кўрсатмалар (йўриқнома, эслатма ва кўрсатмалар), ўқув қуроллари (маркер, ёзув доскаси), иш ҳужжатлари (гурӯх журналлари, баҳо қайдномалари), қўшимча материаллар (ОАВ, хусусан,

<sup>1</sup> Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Педагогика, 1990. – С. 29.

<sup>2</sup> Иньков М.Е. Диагностика профессиональной компетентности учителя в условиях повышения квалификации: Автореф.... канд. пед. наук. – Ростов-на-Дону: 2009. – С. 11-12. 25-с.

Интернет материаллари); ташхис технологиялари – кейс, ассесмент ва “Педагогик интеллект” (Векслер шкаласи бўйича модификацияланган) технологиялар).

Алоҳида эътибор махсус методикани амалиётга татбиқ этишга қаратилди. Мазкур жараёнда тингловчиларни эътиборига ўқув ва ташхисловчи махсус тестлар, креатив характердаги ўқув топшириқларни ҳавола этиш асосида уларда ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатлари (компетенциялар)ни ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар яратилди. Малака ошириш курслари тингловчиларнинг ўқув-билиш фаолиятини назорат қилиш (иккиламчи ўрганиш) орқали уларда ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатларининг ривожланганлик даражасини ташхислаш ва баҳолаш, тингловчиларда ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатларининг ривожланганлик даражаси ташхисланди. Тингловчиларнинг баҳо кўрсаткичларини инobatга олган ҳолда уларда ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатларининг ривожланиш динамикаси таҳлил қилинди. Бунда тингловчиларга қўйилган баҳо кўрсаткичлари асосида уларда кузатилган ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатларининг ривожланишида меъёрий кўрсаткичлардан оғиш сабаблари ва даражасини аниқлашга алоҳида эътибор қаратилди. Тадқиқотни олиб бориш даврида малака ошириш курсларининг тингловчиларида ахборот, инновацион, технологик, креативлик, шахсий компетентлик сифатларининг етарлича ривожланмаслигига олиб келувчи сабабларни бартараф этиш, коррекциялаш чораларини белгилашга ҳам муҳим вазифалардан бири сифатида қаралди. Ана шу вазифанинг ҳал этилиши учун тингловчиларга ўз устида индивидуал ишлаш учун методик тавсиялар берилди. ОТМ педагог кадрлари касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш технологияларини такомиллаштириш малака ошириш тизимига электрон портфолио (electronic portfolio). масофавий таълим (distance learning), автоматлашган мониторинг (automated monitoring) кабиларнинг жорий этиш асосида такомиллаштирилган; малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолашда яна самарадорликка эришишни таъминловчи илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Шундай қилиб, юқори даражада касбий компетентликка эга бўлган педагогларнинг самарали фаолияти рақобатбардош, етук, салоҳиятли мутахассисларни тайёрлаш жараёнига таъсир кўрсатувчи омиллардан биридир. Мавзуга доир мавжуд илмий-тадқиқотларнинг натижалари педагог шахсида намоён бўладиган касбий компетентлик сифатларини аниқлаб, уларнинг орқасида энг муҳимларини танлаб олиш имкониятини таъминлади. Танлаб олинган касбий компетентлик сифатлари (методик, ахборот, креатив, инновацион, коммуникатив, технологик компетентлик) малака ошириш тизимида педагог кадрлар касбий компетентлигини ташхислаш ва баҳолаш учун асос бўлиб хизмат қилди. Педагогик ташхислаш педагог кадрларнинг касбий компетентлик сифатларига эгаллик даражасини белгиловчи реал кўрсаткичларга тезкор эга бўлиш орқали тингловчиларда етарлича ривожланмаган касбий компетентлик сифатларини, уларни ўзлаштиришдаги қийинчиликларни аниқлаш асосида коррекциялаш чораларини белгилашдан иборат мақсаднинг амалий натижаланишини таъминлашга хизмат қилади.

### **БЎЛАЖАК ҲАРБИЙ ОФИЦЕРЛАР КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Умаров Ф.У. - Ўзбекистон Республикаси олий ҳарбий авиация билим юрти кафедра бошлиғи, подполковник**

**Аннотация.** Мазкур мақола бўлажак ҳарбий офицерлар касбий компетентлигининг педагогик масалаларига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида бўлажак офицерлардаги касбий компетентлик хусусиятини тушунтирувчи педагогик жиҳатлар, яъни кўникма ва малакалар, қобилият кўринишлари, интеллект даражаси, муваффақият мотивларининг мазмун моҳияти кенг тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** ҳарбий хизмат, ҳарбий ўқув муассасаси, офицер, касбий тайёргарлик, асосий компетенция, ҳарбий педагогика, касбий маҳорат.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ВОЕННЫХ ОФИЦЕРОВ

**Умаров Ф.У. – начальник кафедры высшего военного авиационного училища Республики Узбекистан, подполковник**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические вопросы профессиональной компетентности будущих военных офицеров. В статье также исследуется путь и содержание педагогических аспектов, объясняющих профессиональную компетентность будущих офицеров, таких как навыки и умения, уровень интеллекта и мотивация к успеху.

**Ключевые слова:** военная служба, военное учебное заведение, офицер, профессиональная подготовка, базовые компетенции, военная педагогика, профессиональные навыки.

### PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MILITARY OFFICERS

**Umarov F.U. - Higher military aviation of the Republic of Uzbekistan head of department, lieutenant colonel**

**Annotation.** In the given article was described the pedagogical issues of professional competence of future officers. The article also explores the importance of pedagogical aspects that explain the professional competence of future officers, such as skills and abilities, skills, intelligence and motivation for success.

**Key words:** military service, military educational institution, officer, professional training, basic competencies, military pedagogy, professional skills.

Маълумки, Ватанни ҳимоя қилишдек улуғ, олижаноб ва шарафли касб йўқ. Юртимизнинг гуллаб яшнаши, барча соҳаларда қўлга киритилаётган муваффақиятларимиз, истиқлол ғояларининг юксалиб бориши албатта тинчлик туфайлидир. Юртимиз тинчлиги йўлида фидокорона хизмат қилаётган ҳарбий хизматчилар, офицер ходимлар, ҳарбий педагог мутахассисларнинг хизматлари таҳсинга лойиқдир. Бугунги кунга келиб республикамизда қатор ҳарбий таълим муассасалари, ҳарбий лицейлар, сержантларни тайёрлаш мактаби ҳамда республикамизда ягона бўлган Олий ҳарбий академия фаолият юритмоқда. Ҳарбий соҳада амалга оширилаётган туб ислохотларнинг асосий мақсади, дунё ҳамжамиятида рақобатбардош, ҳам куч-қудрат жиҳатдан кучли интеллектаул салоҳиятга эга бўлган миллий армиямизни шакллантиришдан иборатдир. Бундай ислохотлар ўз-ўзидан ҳар бир ҳарбий таълим муассасалари ва унинг офицер педагог ходимлари ва курсантлари олдида долзарб вазифалар юклайди. Чунки бўлажак офицер кадрлардаги касбий компетентлик, касбий билимдонлик, техник ва тактик жиҳатдан тайёргарлик, махсус қобилиятлар, касбий маъсулият каби сифатларнинг илмий жиҳатдан ўрганилиши ўта аҳамиятли ишлар туркумидан саналади. Айниқса, ушбу масалаларнинг ечимини педагогика фани орқали тадқиқ этиш, касбий компетенция муаммоси борасидаги айрим долзарб масалаларнинг илғор ечимларини ҳал этиш ҳам ҳисобланади. Ҳозирги кунда ҳар бир олий ҳарбий таълим муассасаси битирувчи курсантларига ўта юқори талаблар қўймоқда. Энди бугунги кун курсантлари нафақат техник ва тактик тайёргарликка балки, юқори касбий компетентликка, касбий маҳоратга, касбий рефлексияга, юқори махсус қобилиятга эга бўлишлари шарт ҳисобланади. Бу ҳолат муаммони тадқиқ этишнинг ўзига хос педагогик жиҳатларини ўрганишни юзага келтиради. Яъни олий ҳарбий таълим муассасалари курсантларида касбий маҳоратни шакллантиришни педагогик ҳодиса сифатида

ўрганишни назарда тутати. Бўлажак офицерларда касбий компетентликни шакллантириш жараёнини педагогик жиҳатдан тадқиқ этишнинг уч муҳим жиҳати фарқланади<sup>1</sup>, яъни:

1. Олий ҳарбий таълим муассасаси битирувчи курсантининг келгусидаги касбий фаолиятининг асосий вазифалари;

2. Касбий яроқлилиқ, ёки шахснинг турли хил шароитларда мураккаб ишларни бажариш қобилияти;

3. Олий ҳарбий таълим муассасаси битирувчисининг келгусидаги мансаб ваколати билан белгиланадиган касбий тайёргарлик хусусиятлари.

Таъкид жоизки, битирувчи курсантларнинг яъни бўлажак офицерларнинг касбий компетентлиги билан боғлиқ қатор масалалар - ҳарбий хизматнинг мақсади, вазифалари ва унинг натижалари, унинг ўзига хос хусусиятлари каби масалаларнинг мазмун моҳиятини ҳам қамраб олади. Бу ҳолат муаммонинг бошқа илмий педагогик жиҳатларини ҳам таҳлил этишни тақозо этади.

Ҳозирга қадар бўлғуси офицерлардаги касбий компетентлик, касбий тайёргарлик ҳамда ҳарбий малакалар каби масалаларнинг илмий концептуал асослари қатор хориж педагог ва психолог олимлари А.В.Барабанщиков, В.И.Вдовюк, И.М.Викторов, А.М.Герасимов, М.И.Дяченко, Н.Ф.Ильин, Л.А.Кандибович, Ф.В.Ковалевский, П.А.Корчемный, Б.Ф.Ломов, В.П.Петров, К.К.Платонов, Б.М.Теплов кабилар томонидан кенг тадқиқ этилган. Юқорида қайд этилган тадқиқотчилар муаммонинг психологик механизмларига, ҳарбий таълим муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этишнинг мазмун моҳиятига кўпроқ эътибор қаратганлар. Юртимиз олимларидан С.Ю.Аҳроров, И.Ю.Иноятов, А.М.Қамбаров, С.О.Отамуродов, Р.С.Самаров, А.Сотиволдиев, У.С.Темирова Н.Ж.Эшнаев кабилар муаммонинг файласафий, ҳуқуқий, социологик жиҳатларига эътибор қаратиб, ўзига хос илмий мактаб яратганлар. Бироқ муаммонинг педагогик жиҳатлари ҳали-ҳануз янги тадқиқотларга зарурат сезмоқда. Замонавий педагогика фанининг истиқболли соҳаларидан саналган ҳарбий педагогикада профессионаллик деганда, ҳарбий хизматчиларнинг касбий маҳорат даражаси тушунилади. Ва бу касб эгасига хос ривожланган малаканинг мутахассисликка оид юқори кўриниши билан ҳам тавсифланади. Касбий маҳорат касбий компетентлик моҳиятини очувчи педагогик категориялардан бири бўлиб, у педагогик жиҳатдан шахсга хос қўйидаги соҳаларини қамраб олади. Айрим замонавий педагогик тадқиқотлар шахсдаги касбий компетентлик хусусиятини ўзига хос тадқиқ этиб, унинг тавсифи борасида ўта муҳим педагогик жиҳатларни эътиборга олишни таъкидлайди. Унга кўра, касбий компетентлик хусусиятини тушунишда аввало, компетентлик тушунчаси мазмунини аниқлаб олиш зарур. Компетентликни таҳлил этишда икки педагогик жиҳат ажратилади<sup>2</sup>:

- Шахснинг белгиланган стандартларга мувофиқ ҳаракат қилиш қобилияти;

- Ишда юқори натижаларга эришишга имкон берувчи индивидуал хусусиятлар.

Демак, юқорида келтирилган таснифга кўра, икки туркумдаги ажратилган муҳим хусусиятлар, шахснинг танлаган соҳасидаги муваффақиятли ҳаракатлари натижасидир.

Айрим тадқиқотчилар компетентлик тушунчасини ўрганишда функционал ва шахслик ёндошуви мавжудлигини таъкидлайдилар. Функционал ёндошувга кўра, компетентлик фаолиятнинг вазифалари ва натижаларига асосланади. Шахслик ёндошувида эса, компетентлик касбий фаолиятда шахс муваффақиятини таъминлайдиган ижобий фазилатларга асосланади.

Буюк Британиялик етакчи педагог олимларнинг асарларида касбий компетентлик тушунчаси моҳиятини тушунтирувчи қўйидаги асосларни учратиш мумкин<sup>3</sup>:

- Касбга оид юқори малака ва маҳсус қобилият;

- Юқори жисмоний ёки интеллектуал фазилатлар;

- Малакали бўлиш қобилияти;

- Берилган топшириқларни назарий ва амалий жиҳатдан яхши бажариш қобилияти;

- Билим, кўникма, хулқ-атвори қамраб олган бирор вазифани бажара олиш қобилияти ва ҳоказо.

<sup>1</sup> Ефремов О.Ю. Педагогическая диагностика в высшей военной школе. СПб.: ВУС, 2000.

<sup>2</sup> Барабанщиков А.В., Дерюгин П. П. Военно-педагогическая диагностика. М.: ВУ, 1995.

<sup>3</sup> Барабанщиков А. В., Дерюгин П. П. Военно-педагогическая диагностика. М.: ВУ, 1995. 147-б.

Юқоридаги таҳлиллардан кўринадики, бўлғуси офицерлар нафақат жисмоний жиҳатдан, балки интеллектуал жиҳатдан етук, ўз касбий соҳасига доир илғор билимларни эгаллаган, руҳий-маънавий жиҳатдан етук шахс бўлмоғи муҳим ҳисобланади.

Баъзи психологик ва педагогик адабиётларда касбий компетенциянинг икки тури фарқланади<sup>1</sup>:

1. Оддий компетенция – билим, кўникма ва қобилиятлар асосида осонгина шаклланади ва у муайян фаолият турларида намоён бўлади.

2. Асосий компетенция – шахснинг дунёқараши, маънавий дунёси, касбий фаолиятининг муҳим жиҳатлари орқали шаклланади.

Юқоридаги таснифдан кўринадики, бўлажак офицерлар ҳам асосий компетентликка тўлиқ эга бўлишлари шарт саналади. Шунингдек, мазкур компетентлик уларнинг келгусидаги хизмат фаолиятининг муваффақиятини таъминловчи педагогик шарт-шароитидир. Тадқиқотчи А.К.Маркова касбий компетентликнинг қуйидаги турларини ажратади<sup>2</sup>:

- Махсус компетенция - жуда юқори даражада касбий профессионалликка эга бўлиш, яъни кейинги касбий истиқболни кўра олиш қобилияти. Бундан ташқари ушбу компетенция шахснинг ишлаб чиқариш жараёнидаги режалаштириш қобилиятини, компьютер билан ишлаш, техник ҳужжатларни юқори савияда ўқиш қобилиятларини ҳам қамраб олади;

- Ижтимоий компетенция - биргаликдаги касбий фаолият, ҳамкорликка, гуруҳий ишлашга устунлик, шунингдек, касбий фаолият натижалари учун юқори ижтимоий жавобгарликка эга бўлиш;

- Шахсий компетенция - касбий фаолиятда ўзини намоён қилиш ва ўзини ўзи ривожлантиришга эгаллик. Шунингдек, ушбу компетенция шахсдаги ўз ишини режалаштириш, уни бошқариш ва тартибга солиш, мустақил равишда қарор қабул қилиш қобилияти, инновацион ечимларни топиш қобилияти назарий ва амалий фикрлаш, муаммоларни кўриш қобилияти кабиларни ҳам қамраб олади.

- Индивидуал компетенция – касбий фаолиятда шахснинг ўзини ўзи англаши ва ривожланиши, касбий ўсишга тайёрлик, ўз-ўзига ишонч, юқори мотивация, ўзини ҳимоя қилиш қобилияти, вақтни ва кучни тўғри тақсимлай олиш, фидокорона ишлашга асосланган қобилият.

А.К.Маркова хулосасига кўра, юқоридаги компетентлик турлари инсоннинг тўсатдан мураккаб шароитлардаги ишлаш фаолиятида ва уни бажариши жараёнида намоён бўлади. Айниқса, бу ҳолат бўлажак офицерларнинг келгусидаги хизмат фаолиятида яққол намоён бўлади. Бу эса, ўз-ўзидан касбий компетентлик тушунчасини ўқитувчилик касби орқали тадқиқ этиш заруратини ҳам юзага келтиради. Тадқиқотчилардан С.Э.Шишов, А.В.Хуторской, В.Г.Суходолский, В.А.Калнейларнинг фикрига кўра, касбий компетенция - бу ўқитувчининг малакали ва қобилиятли эканлигини намойиш этувчи билим, кўникма, тажриба ва шахсий фазилатларнинг интеграцияси. Ўқитувчининг касбий компетенцияси - бу педагогик фаолият муаммоларининг энг яхши ечими учун ўқитувчида мавжуд бўлган назарий ва амалий тажрибалар ёки билим ва кўникмаларининг комбинациясидир<sup>3</sup>.

Демак, ҳар бир олий ҳарбий таълим муассасасида қуйидаги қобилият турлари<sup>4</sup>га кенг эътибор қаратмоқ лозим:

-Экспрессив қобилият –сўзларни оғзаки ва оғзаки бўлмаган воситалардан фойдаланган ҳолда образли ва раван ифода этиш қобилияти;

-Дидактик қобилият - материални тақдим эта олиш қобилияти;

-Ўзлаштириш қобилияти - ўқув жараёнини самарали ўзлаштириш қобилияти;

-Авторитар қобилият - кучли ирода таъсирида тез ҳурмат қозониш ва кейинчалик юқори обрўга эга бўлиш қобилияти;

-Илмий ва педагогик қобилият - педагогик характердаги тадқиқот ишларида қатнашиш қобилияти, янги нарсаларга доимий интилиш, ижодий ишлаш, тажриба ўтказиш, ҳамкасблар адабиёти ва тажрибасини мунтазам ўрганиш;

<sup>1</sup> Военно-педагогическая диагностика: теория и практика // Краткий курс лекций по социальной педагогике. М.: ВУ, 1996. 114-б.

<sup>2</sup> Военная психология и педагогика. Под ред. В.Ф.Кулакова. – М., 1998. 9-б.

<sup>3</sup> Шишов, С.Е., Кальней В.А. Структура и содержание проектной деятельности. Стандарты и мониторинг. – 2005. – №2. С.33-37.

<sup>4</sup> Военная психология и педагогика. Под ред. В.Ф.Кулакова. – М., 1998. 115-б.

-Перцептив қобилият - бу шахсинг ички дунёсини идрок этиш, ҳар дақиқада унинг руҳий ҳолатини ҳис қилиш, дарсларга бўлган муносабатини очиб бериш қобилияти;

-Коммуникатив қобилият - бошқа одамлар билан, айниқса хизматдошлар билан осонгина алоқа ўрнатиш ва улар билан тўғри муносабатни давом эттириш қобилияти;

-Ташкилий кўникмалар - ҳар қандай дарс, дарс соати, дам олиш оқшоми, ота-оналар йиғилиши, музейга экскурсия, пиёда саёҳат ва ҳоказоларни аниқ тайёрлаш қобилияти;

-Асосий қобилиятлар - бу шахсинг очиклиги ва ҳазил-мутойиба соҳаси бўлиб, у ўқув жараёнини фаоллаштиришга, ҳар қандай иш ва дам олишга, мураккаб тўқнашувнинг олдини олишга ёки оғриқсиз равишда бартараф этишга ёрдам беради;

-Фараз қилиш қобилият - бу объектларни, ҳодисаларни тез ва аниқ таниб олиш, уларни таҳлил қилиш ва акс эттирилган тасвирлар билан муваффақиятли ишлаш қобилияти;

-Конструктив қобилият - шахс томонидан ўз келажагини режалаштириш, ўз ишининг натижаларини олдиндан билиши ва ҳоказолар.

Хулоса қилиб айтганда, бўлғуси офицерларда касбий компитентликни шакллантиришнинг илмий педагогик жиҳатлари ўрганилиш жиҳатдан ўта аҳамиятли саналади. Чунки биргина касбий компитентлик тушунчаси замирида бўлғуси офицер шахсининг бутун бир касбий яроқлилик сифатлари мужжасам бўлиб, уларни педагогика фани нуқтаи-назаридан тадқиқ этиш жамият ва давлат учун ўта аҳамиятли саналади. Тинч-тотув ҳаёт доим жамият тараққиётининг гарови саналади. Тинч-тотув ва фаровон ҳаётни доимо таъминлаш эса, ҳарбий хизматчилар томонидан амалга оширилиши табиийдир. Шундай экан, бугунги кун курсанти ва офицери ақлан етук, жисмонан бақувват, маънавий-руҳий жиҳатдан баркамол, касбий етук ҳамда фидоийлик каби сифатларга эга бўлишлари лозим саналади. Ана шундай сифатларни педагогик жиҳатдан тадқиқ этиш, касбий компитентлик тушунчаси мазмунини тадқиқ этиш ҳам саналади.

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH

**Primov Sh. – Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirish masalalari to'g'risida so'z yuritilgan. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, kasbiy kommunikativ ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetentlik, kommunikativ ko'nikmalar, o'z-o'zini rivojlantirish, motivatsiya, verbal va noverbal muloqot malakalari, ijodiy tafakkur, refleksiya.

## КОММУНИКАТИВНОЕ САМОРАЗВИТИЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация.** В данной статье речь идет о вопросах коммуникативного саморазвития у будущих учителей. Освещены пути развития коммуникативной компетентности студентов, формирования профессиональных коммуникативных навыков и навыков.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, коммуникативные навыки, саморазвитие, мотивация, вербальные и невербальные навыки общения, творческое мышление, рефлексия.

## COMMUNICATIVE SELF-DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS

**Primov Sh. - teacher of the Jizzakh State Pedagogical Institute**

**Annotation.** In this article we are talking about communication issues in the self-development of future teachers. The ways of development of students' communicative competence, formation of professional communication skills are highlighted.

**Key words:** communicative competence, communication skills, self-development, motivation, verbal and nonverbal communication skills, creative thinking, reflection.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning shakllari an'anaviy ravishda ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar hisoblanadi. Ularning barchasi qator afzallik va kamchiliklarga egadir. Masalan, zamonaviy ma'ruza katta miqdordagi axborot vazifalarni yechishga imkon beradi va bu bilan talaba bevosita pedagogik faoliyatda duch kelishiga to'g'ri keladigan muammolar doirasi va ish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ma'ruzaga munozara elementlarini kiritish talabani passiv qabul qiluvchi va so'ngra o'quv axborotini mexanik ifodalovchi vaziyatini ma'ruza jarayonining faolishtirokchisiga o'zgartirishga imkon beradi. O'zining nuqtai nazarini sharhlash zarurati talabani faol mustaqil o'qishga, o'rganilayotgan muammo bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni izlashga undaydi. Ammo ma'ruzada talabalar sonining ko'pligi barchaga ma'ruzaning faol ishtirokchisi bo'lishlariga imkon bermaydi, amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishiga ko'maklashmaydi. Ammo bu ma'ruza mashg'ulotlarini qisqartirish va amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim oliy ta'lim muassasalarida yuzaga kelgan tendensiyalar mavjuddir.

OTMda ma'ruza mashg'ulotlari juda ham zarurdir. Aynan ma'ruzada bo'lajak o'qituvchi o'rganilayotgan masalaning butun ko'lamini, uni kursning boshqa muammolari bilan o'zaro aloqadorligini ko'ra olishi, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasini his qilishi mumkin. Shuning uchun yangicha tashkil etilgan ma'ruza jarayoni talabaga kasbiy (jumladan, kommunikativ) shakllanishida yo'nalishni ko'rsatadi, unga o'zining kasbiy o'sishining yo'llarini ko'rish va uning usullari to'g'risida o'ylashga imkon beradi, kasbiy va kommunikativ o'z-o'zini takomillashtirish ehtiyojini ishlab chiqishga ko'maklashadi. Shu tariqa, ma'ruza mashg'ulotlari bo'lajak o'qituvchining kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantirishda ahamiyatli imkoniyatga ega bo'ladi.

Ammo, kommunikativ kompetentlik bevosita pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladi va u o'qituvchining ma'lum kommunikativ ko'nikma va malakalarining mavjudligini nazarda tutadi. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida amaliy mashg'ulotlar, treninglarni o'tkazish zarurati yuzaga keladi. Bo'lajak o'qituvchiga o'zining xususiyatlari bilan tanishish imkonini berish va bunga mos ravishda talabaga faqat unga xos bo'lgan takrorlanmas verbal va nonverbal kommunikatsiya uslubini qurishga yordam berish to'g'risida boradi. Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchi uchun OTMda o'qish davri – bu aynan uning o'z kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirish bilan faol shug'ullanishiga imkon beradigan va ko'maklashadigan vaqt bo'lib, u boshqa komponentlar bilan bir qatorda yosh pedagogning muvaffaqiyatli o'z-o'zini rivojlantirishini ham ko'zda tutadi. Mazkur mashg'ulotlar bilan bog'liq boshqa masala talabani motivatsiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Kommunikativ o'z-o'zini takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo'lishi mumkin. Insonparvar yo'nalgan o'qituvchi uchun kommunikativ o'z-o'zini takomillashtirish nafaqat o'zi uchun o'z-o'zini yaxshilashda, balki samarali o'zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo'lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o'zigaxosliklarini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar ham katta ahamiyatga egadir. «O'qituvchining kommunikativ kompetentligi» maxsus kursi bo'yicha mashg'ulotlar uchun ularning o'zigaxosligidan kelib chiqqan holda, ularning ma'lum strukturasi ishlab chiqildi va u kommunikativ kompetentlikning strukturasi asoslanadi. O'qituvchi kommunikativ kompetentligining yetarlicha yuqori darajasi uchun unda ma'lum bilimlar (konseptual, amaliy-texnologik), ko'nikmalar (harakatni samarali amalga oshirish imkoniyati) va shaxsiylashtirish (olingan bilim va ko'nikmalarning o'z xususiyatlariga, o'zining shaxsiy uslubiga moslashtirish) xosdir. Bizning fikrimizcha, o'quv mashg'ulotini u uchta blokdan iborat bo'ladigan tarzda qurish maqsadga muvofiqdir: axborot, o'z-o'zini anglash va amaliy blok.

1. Axborot bloki. Mazkur blokda bayon etiladigan axborot fanlararo xususiyatga egadir, chunki falsafa, pedagogika, psixologiya sohasidagi fundamental, metodologik tadqiqotlarsiz bugungi kunda insonlarning o'zaro aloqalarining mohiyatini, pedagogik faoliyatning insonparvarlik tabiatini, muloqot mexanizmlarini tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur blokda axborot uch ko'rinishdagi bilimlarni kiritishi mumkin: konseptual, daliliy, amaliy-texnologik.

Konseptual bilimlar talabalarning yetakchi pedagogik g'oyalarni, insonparvarlikning mohiyati va tabiatini, muloqotning umumiy nazariyasini, insonparvarlik muloqot prinsiplarini bilishlarini ko'zda

tutadi. Dalillarga quyidagilar kiradi: talaba o'quvchilarning jinsi, yoshi va individual xususiyatlariga ko'ra muloqot xususiyatlarini bilishi; muloqot mexanizmlarini, muloqot to'siqlarini bilishi va tushunishi; axloq qoidalarini bilishi kiritiladi.

Amaliy-texnologik bilimlar: idrok etish mexanizmlarini, refleksif tinglash qoidalarini, ratsional va emotsional o'zaro aloqalar usullarini, munozara jarayonini, diqqatni jalb etib turish usullarini, o'z-o'zini boshqarish usullarini bilishni qamrab oladi. Axborot blokini bunday qurish maxsus kursni o'rganish 3-kursning ikkinchi yarim yilligiga to'g'ri kelishi tufayli mumkin bo'ladi va bu vaqtgacha psixologiya va pedagogika bo'yicha asosiy kurslar o'rganilgan bo'ladi hamda maxsus kurs egallangan bilimlarni to'plash rolini ijro etadi. Bundan tashqari, talaba tomonidan avval egallangan bilimlar o'z o'rniga qo'yib chiqiladigandek: pedagogika bo'yicha bilimlar alohida, psixologiya bo'yicha bilimlar alohida.

Maxsus kurs mazkur bilimlarni o'zaro bog'lashga, ularning bolalar bilan muloqotdagi o'zaro aloqadorligini va pedagogik faoliyatdagi o'zaro ta'sirini ko'ra olish imkoniyatini beradi. Buning uchun axborot blokining asosiy maqsadi o'rgatish, "bilimlarni taqdim" etish emas, balki bo'lajak o'qituvchining ularning qadr-qimmatini, o'qituvchining harakatlari va so'zlari bilan bog'lagan holda o'z harakatlari va so'zlarining ma'nosini anglashiga, munosabatlarning uyg'unlashishiga, muloqotning mazmunligi va samimiyligiga, fikr, nuqtai nazarlarni almashish, o'rganilayotgan hodisalarning ko'p qirraliligini ochishga yordamlashish bo'lishi lozimdir. Bunda ichki dialog, shaxsiy o'z-o'zini aniqlash uchun asoslar yaratiladi va bu bo'lajak o'qituvchi shaxsining o'z-o'zini rivojlantirishi uchun sharoit hisoblanadi.

2. O'z-o'zini anglash bloki. Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda o'z-o'zini anglash muhim muammolardan biri hisoblanadi. Inson mavjudligining har bir onida uning ongi olamga va o'z-o'ziga, ichki dunyosiga yo'naltiriladi. Ammo boshqalarni baholashdan ko'ra o'zini tushuna olish ko'pincha qiyinroq bo'ladi. Psixologlar tadqiqotlarida aniqlangan ta'siriga ko'ra insonni qisqa muddat va yaqin aloqalardan ko'ra uzoq vaqt tanish orqali to'g'ri baholash qiyinroqdir. Inson esa aynan o'z-o'zi bilan eng ko'proq tanishdir. Shuning uchun o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga bahosini uzluksiz aniqlash va uning adekvatligi tomon borish zarur bo'lib – bular o'z-o'zini bilish yuzaga keladigan va insonga o'zini "yangidan" ochishga yordam beradigan jarayonlardir. O'z-o'zini bilishni rag'batlantirish talabaning kommunikativ rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Shaxsiy xususiyatlarini bilish, o'z harakatlarining tahlilisi o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun «O'qituvchining kommunikativ kompetentligi» maxsus kursi bo'yicha mashg'ulotlarda o'z-o'zini bilishni rag'batlashtirish uchun refleksiv xususiyatdagi topshiriqlardan foydalaniladi. Chunki pedagogik refleksiya bo'lajak o'qituvchining kasbiy kommunikativ faoliyat sub'ekti sifatida o'ziga munosabatini, o'zini pedagogik faoliyatda oldindan tasavvur qila olishini belgilaydi. O'zini ko'ra olishni o'zaro aloqaning boshqa ishtirokchilarini bahosi bilan taqqoslash qobiliyati talabaga u haqiqatda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishini anglashiga yordam beradi, bu esa shubhasiz o'z-o'zini baholashni uzluksiz aniqlash va uning adekvat bo'lishiga erishishga harakat qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, refleksiya egotsentrik fikrlash faoliyatini, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektni faqatgina bir standart idrok etiladigan tomonidan ko'rib chiqish bartaraf etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ijodiy fikrlashni markazlashtirmaslikni talaba faqatgina u o'z nuqtai nazarini ob'ektiv va chetdan baholay olganida, boshqa insonning nuqtai nazarini qabul qilganda udday oladi. Turli testlarni o'tkazish bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini baholash asosida o'zining shaxsiy kommunikativ xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Mazkur blok talabalarda katta qiziqish uyg'otadi va professional testlar bilan bir qatorda ixtiyoriy testlaridan foydalanishga to'g'ri kelsada, ammo bunda puxta tanlovda ular kommunikativ kompetentlikning alohida tashkil etuvchilarini aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi, talabaning o'zi va boshqalar to'g'risidagi xolis axborotni taqdim etadi va nihoyat samarali o'qitishning muhim tashkil etuvchilarini yaratish uchun – talabalarda zarur emotsional holat, kerakli motivatsiya va ularning shaxsiy va kasbiy o'sishlarini rag'batlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Testlarni tanlashda biz kommunikativ kompetentlik strukturasi tayandik.

Masalan, o'zlarining qadriyatli yo'nalishlarini aniqlash va baholash uchun talabalarga quyidagi testlar taklif etildi: "O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini baholash"; "Pedagogning empatiyaga qobiliyati"; "Shaxslararo munosabatlarni tashhis qilishning T. Liri metodikasi". Bo'lajak o'qituvchining ularning atrofidagi insonlar bilan emotsional-qadriyatli munosabatlar o'rnatish ko'nikmalarini baholash uchun "Siz



asabiy misiz?”, “Siz insonlarga yoqasizmi” va boshqa testlar taklif etildi. Nizoda xulq uslubini aniqlash uchun “Siz nizoli shaxsmisiz?”; “Muloqotda o‘z-o‘zini boshqarishni baholash””; “Nizoda xulqni tavsiflash” testlaridan foydalanildi. Kommunikativ ko‘nikma va malakalarning rivojlanish darajasi quyidagi testlar yordamida aniqlandi: “Siz insonlarni ob‘ektiv baholashni bilasizmi?”; “Siz tinglashni bilasizmi?”; “Siz mimika tilini tushunasizmi?”; “O‘zining tashqi ko‘rinishidan qoniqish darajasi” va boshqalar.

3. Amaliy blok. Maxsus kurs bo‘yicha mashg‘ulotlarda kasbiy kommunikativ ko‘nikma va malakalar to‘liq darajada shakllana olmaydi va bunday bo‘lishi kerak ham emas. Bunda faqatgina bo‘lajak o‘qituvchining bevosita pedagogik faoliyatda ularni kelgusidagi egallashi uchun asos yaratiladi. Amaliy blok metodikasi amaliyotda ayrim talablarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Avvalo – bu talabaning ma‘lum psixologik-emotsional holatini yaratishdir. Bu faqatgina o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlar sharoitida erishilishi mumkin, ammo bunday munosabatlar bo‘lajak mutaxassisning rivojlanuvchi shaxsiga “muvaqqiyatli” ta‘sir etish maqsadida o‘rnatilmaydi, balki uning shaxsiy o‘sishi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishini rag‘batlantirishning shartlaridan biri sifatida o‘rnatiladi. Mashg‘ulotlarning emotsional ko‘rinishi ijobiy tusga ega bo‘lishi, har bir talabaning o‘ziga ishonchi va shaxsiy ahamiyatini ta‘kidlashga ko‘maklashishi kerak. Keyingi talab talabalarga amaliy blokda bajarish uchun taklif etiladigan mashqlarga taalluqlidir. Mimika, imo-ishoralar, ovozdan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyatga egaligi, uning o‘z-o‘zini boshqarishini rivojlantirishga ko‘maklashishi ma‘lumdir. Ammo bo‘lajak o‘qituvchining maxsus mashq qilishi to‘g‘risida emas, balki “o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘z-o‘zini uzluksiz takomillashtirishga qodir bo‘lgan, yuqori ma‘naviy va axloqiy, pedagogik faoliyatning qadriyatli-ratsional munosabatiga yo‘nalgan malakali mutaxassisning shakllanishi” to‘g‘risida gap borganida, bu verbal va noverbal xulqni shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlarni tanlashga o‘zgacha yondashishga undaydi<sup>1</sup>.

Mazkur mashqlar bo‘lajak o‘qituvchiga nafaqat o‘z xarakteri xususiyatlarini, balki uning fikrlash obrazlari, uning turli ijtimoiy qadriyatlarga munosabati (axloqiy, fuqarolik, badiiy), uning o‘quvchilari va boshqa insonlarga munosabati va uni egallagan his-tuyg‘ularni ifodalashiga imkon beradigan kommunikativ ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam berishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchining verbal va noverbal muloqot malakalarini egallaganligi ekspressiyaning taqlidiy harakatlariga ko‘ra juda muhim hisoblanadi. Tushunish jarayoniga beixtiyor taqlidga asoslangan hamdardlik mexanizmi qo‘shiladi, buning natijasida oddiy tushunish emas, balki sodir bo‘layotganni alohida emotsional tushunish yuzaga keladi. O‘qituvchi yorqin, ishontiruvchi, emotsional boy ekspressiyani o‘quvchiga “yuqtiradi”, uni (hamdardlik orqali) rivojlanishning umumiy jarayoniga jalb etadi. Amaliy blokning mashqlarini tanlashga bunday yondashuvda ular talabani o‘zini ifodalashiga, uning muloqot va xatti-harakatlar erkinligi qobiliyatini egallashiga xizmat qiladi. Ammo kommunikativ ko‘nikma va malakalarni samarali egallash faqatgina bo‘lajak o‘qituvchining yetarlicha keng ko‘lamli psixologik-pedagogik tayyorgarligi, chuqur nazariy bilimlari, refleksiv vaziyatni rivojlantirishdagina mumkin ekanligini ta‘kidlash lozim. Shuningdek, mashg‘ulotlarda trening mashqlari o‘tkazilsa-da, ammo ular psixologik treninglarda tubdan farqlanishini inobatga olish lozim.

Agar pedagogik treninglarni o‘tkazish mazmuni va metodikasi, avvalo talabalarning ongiga va ularga o‘zaro munosabatning qonuniyatlari va mexanizmlarini singdirish (shaxslararo munosabatlarda ishtirok etish orqali) yo‘naltirilgan bo‘lsa, pedagogik treningning maqsadi esa bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kommunikativ sifatlarini rivojlantirish (o‘z “Meni”ga va boshqalarning shaxsiy sifatlariga qiziqishni oshirish; refleksiya va empatiyani rivojlantirish; xulq-atvordagi qat‘iylikni yengish; o‘quvchi shaxsini yaxlit, emotsional-qadriyatli idrok etishga yo‘nalganlikni shakllantirish) va ular asosida kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Biz tomonimizdan avval ta‘kidlanganidek, bo‘lajak o‘qituvchi tomonidan kommunikativ kompetentlik maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar tizimidan tashqarida, ommaviy axborot vositalari, kundalik o‘zaro munosabatlar tajribasi, oilaviy tarbiya an‘analari va boshqalarga ko‘ra egallanishi mumkin.

Shuning uchun har bir talaba kommunikativ kompetentlikning ma‘lum darajasiga ega bo‘ladi (beixtiyor, o‘z-o‘zidan egallashda kommunikativ xatti-harakatlarning noadekvat yo‘nalganligi yuzaga kelishi ham mumkin). Mazkur daraja bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoniga

<sup>1</sup> Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога в образовании: Учебное пособие. -М.: Владос,1996. -529 с.

ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, talabaning kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishining samaradorligi qator shartlarga: umummadaniy rivojlanishning avvalgi nisbatan yuqori darajasiga, o'z-o'zini bilishning chuqurligiga, "shaxs kommunikativ yadrosining" shakllanganligiga, maqsadga yo'naltirilgan o'z-o'zini o'zgartirish mavjud tajribasi va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Agar avval mazkur shartlar shakllanmagan bo'lsa, unda talaba shakllanishning murakkabroq sharoitlarida bo'ladi. Ammo uning o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'ladi, u to'silmaydi, balki mazkur shartlarni shakllantirishda kechikadi. Shuning uchun mashg'ulotlarda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish va ularga mos ravishda u bilan o'zaro aloqalarni qurish zarurdir<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, o'qituvchining asosiy vazifasi har bir talabani ma'lum standartga "moslashtirish" emas, balki unga o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglashida uning o'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini boshqarishini rag'batlantirish, o'zining individual muloqot uslubini izlashda qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Maxsus kurs bo'yicha mashg'ulotlarda, bizning fikrimizcha baholash alohida ahamiyat kasb etadi. U "o'rgandi – o'rgana olmadi" prinsipi bo'yicha emas, balki "ko'nikmalarni takomillashtirish yuz berdi yoki yuz bermadi" prinsipi bo'yicha qurilishi lozim.

Bunday yondashuv bo'lajak o'qituvchining kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishi uchun qulay sharoitlarni yaratishga imkon beradi, chunki talaba "rasmiy", baho olish maqsadida bilim, ko'nikma va malakalarni "egallash" uchun qayg'urmaydi, balki ichki o'sish, o'z-o'zini takomillashtirishga qiziqishi yuzaga keladi. Baholashdagi asosiy manfaatdor inson talaba hisoblanganligi sababli, muvaffaqiyatli o'z-o'zini rivojlantirish uchun shartlardan biri sifatida baholash va o'z-o'zini baholashni maksimal darajada yaqinlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa, bo'lajak o'qituvchining kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot – bu alohida, an'anaviy mashg'ulotga o'xshash bo'lmagan mashg'ulotdir.

U o'zining strukturasi quyidagi kabi bloklarni kiritishni talab etadi: axborot (bo'lajak o'qituvchining nazariy tayyorgarligining ma'lum kafolati sifatida xizmat qiluvchi va o'zida ilmiy bilimning turli sohalaridan axborotni jamlovchi bo'lib xizmat qiluvchi), o'z-o'zini anglash (faol o'z-o'zini kuzatishni rag'batlantirishga, adekvat o'z-o'zini baholashni shakllantirishga ko'maklashuvchi), amaliy (bo'lajak o'qituvchiga nafaqat kommunikativ ko'nikma va malakalarni egallashiga, balki uning shaxsiy o'sishini ham rag'batlantirishga imkon beruvchi). Kommunikativ o'z-o'zini rivojlantirishni rag'batlantirishda pedagogik amaliyot katta imkoniyatga ega, chunki u bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy yetuklikka yetishtirishga ko'maklashadi.

### **БЎЛАЖАК ТАРИХ ҲИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ МОСЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**Ярматов.Р.Б. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

**Аннотация.** Ушбу мақолада бўлажак тарих ҳиТУВчиларининг касбий мослаштиришнинг педагогик-психологик жиҳатларини такомиллаштиришга оид масалалар кенгроқ тарзда ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** касбий маҳорат, позиция, идентификациялаш, касбий психология, касбий мослашиш.

### **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ**

**Yarmatov.R.B. - доктор философских наук в области педагогических наук (PhD)**

<sup>1</sup> Ковалев С. В. Подготовка старшеклассников к семейной жизни: тесты, опросники, ролевые игры: Кн для учителей. – М.: Просвещение, 1991.- 143 с

**Аннотация.** В этой статье широко освещаются вопросы, связанными с совершенствованием педагогико-психологических аспектов профессиональной адаптации будущих учителей истории.

**Ключевые слова:** профессиональные навыки, позиция, идентификация, профессиональная психология, профессиональная адаптация.

#### IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF PROFESSIONAL EDUCATION OF FUTURE HISTORY TEACHERS

**Yarmatov.R.B. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)**

**Annotation.** This article details more an the pedagogical and psychological aspect of professional adaptation of future history teachers.

**Key words:** professional skill, position, identification, professional psychology, professional adaptation.

Давлатимиз олиб бораётган сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири айнан ёшларга қаратилгани бежиз эмас. Негаки, навқирон авлод вакиллари ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, маънавий етук, жисмонан соғлом, ватанпарвар ва фидойи этиб тарбиялашга, ҳуқуқ ҳамда манфаатларини ҳимоя қилишга эътибор қанча кучайтирилса, унинг самараси ҳам юқори бўлади. Шу нуқтаи назардан, бугун юксак билимли, замонавий фикрлайдиган, қатъий ҳаётий позицияга эга ёшлар юртимиз равнақида тобора ҳал қилувчи кучга эга бўлиб бормоқда.

Замонавий тараққиёт босқичида бўлажак тарих ўқитувчисини касбий тайёрлашга қўйиладиган юқори талаблар тарих фани мазмунининг ўзига сезиларли ўзгаришлар киритилиши билан ўқув-тарбия жараёнида ўқитувчининг роли ва вазибаларини ўзгариши, ўтмишни ўрганишда назарий, методологик ёндашувларнинг кенгайиши ва бойиши, аввал сир сақланган тарихий манбалар ва маҳаллий ҳамда хорижий тарихчиларнинг ишларининг катта ҳажмининг пайдо бўлиши, тарихий тадқиқоднинг илғор педагогик ва ахборот технологияларининг ишлаб чиқиши билан боғлиқдир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Фарзандларимизнинг мустақил фикрли, замонавий билим ва касб-ҳунарларни эгаллаган, мустаҳкам ҳаётий позицияга эга чинкам ватанпарвар инсонлар сифатида тарбиялаш биз учун долзарб аҳамиятга эга бўлган масала ҳисобланади”, деган фикрлари барчамизга катта масъулият юклайди<sup>1</sup>. Ҳар бир давлатнинг қудрати унда вояга етаётган келажагимиз эгаларининг салоҳияти ва баркамоллиги билан боғлиқлигини бугун барчамиз яхши тушунамиз. Шу маънода ҳаётга изчил татбиқ этилаётган “2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”нинг тўртинчи йўналиши ижтимоий соҳани ривожлантиришга қаратилган.

Фармонда таълим ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш, таълим тизимининг узлуксизлигини такомиллаштириш мақсадида сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини янгича тамойиллар асосида ошириш муҳим вазифа этиб белгиланган<sup>2</sup>.

Дарҳақиқат, касбий мослаштириш-шахс камолотининг муҳим жиҳатларидан бири бўлиб, шахсининг фақатгина меҳнат ва касбий фаолиятни танлаш билан боғлиқ эҳтиёж ва қизиқишларини ифодалайди. Касбий мослаштириш-меҳнат фаолияти ёки касб соҳасининг аниқ турини танлаш билан боғлиқ, аниқ ва онгли равишда қабул қилинадиган қарорнинг ифодаланиши бўлиб, талабалар билан амалга ошириладиган мақсадга йўналтирилган ишлар билан бевосита боғлиқ бўлади. Бўлажак тарих ўқитувчиларни касбий мослаштиришнинг педагогик-психологик жиҳатларини кўриб ўтишдан олдин касб тушунчасига эътибор қаратиш лозим бўлади. Касб тушунчаси-бу махсус тайёргарликни талаб этувчи, инсон доим тажрибадан ўтказувчи ва унга яшаш учун манба бўлиб хизмат қилувчи

<sup>1</sup> “Халқ таълими”. 2018 йил №1-сон. 37-бет

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.-Т.: Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

машғулотдир. Касб бир хил фаолият билан шуғулланувчи кишиларни бирлаштиради ва бу фаолият ичида маълум алоқалар ва ахлоқ нормалари ўрнатилади<sup>1</sup>.

Е.А.Климов тадқиқотларида “Касб-жамият учун зарур ва қадриятли соҳа бўлиб бунда инсондан жисмоний ва руҳий куч талаб этади”, дея таъкидлайди.

В.Г. Макушин эса, касб-бу шундай фаолиятки, унинг ёрдамида шахс жамият ҳаётида иштирок этади ва унинг яшаши учун моддий воситалар асосий манбаи бўлиб хизмат қилади, дея таъкидлайди. Мавжуд таърифларни умумлаштириб, шундай хулосага келишимиз мумкин, касб меҳнат фаолиятининг асосий шакли бўлиб, уни бажариш учун инсон албатта маълум билим, малака ва кўникмаларга, махсус қобилиятлар ва ривожланган касбий сифатларга эга бўлиши керак. Мутахассислик-касбий таълим, тайёргарлик йўли билан ўзлаштирилган иш жараёнидаги махсус билимлар, кўникма ва малакалар мажмуаси бўлиб, улар у ёки бу касб доирасида маълум фаолият турини бажариш учун зарурий ҳисобланади. Ёки ушбу фаолият турига шундай нисбат беришимиз мумкинки, мутахассислик- касб ичидаги касбий фаолият тури бўлиб, у шахсий ютуқларга ёки ўзига хос вазиятлар орқали умумий натижаларга эришишга йўналтирилган бўлади.

Касбий фаолият самарадорлигининг шартларидан бири мутахассиснинг касбий тайёрлиги ҳисобланади. Э.Сейтхалилов, Б.Рахимов ва Н.Азизходжаевалар “касбий тайёргарлик- шахснинг аниқ касбий фаолият тури билан шуғулланишига имкон берувчи назарий билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштириш жараёнидир”, дея изоҳлайдилар.

Р.Ишмухамедов, А.Абдуқодиров ҳамда А.Пардаевлар касбий тайёргарлик негизида “бўлажак мутахассиснинг психологик, психофизиологик, жисмоний ҳамда илмий-назарий ва амалий тайёргарлиги” акс этиши кераклигини таъкидлайдилар<sup>2</sup>.

Маълумки, ҳар бир олий таълим муассасасининг муҳим вазифаларидан бири бу биринчи курс талабаларини ўқитишнинг янги тизимига, янги ижтимоий муносабатларга ижобий мослашувини, талабалик мақомини муваффақиятли ўзлаштиришларини таъминлашдир.

Талабаларни олий таълим муассасаси шароитига мослаштиришда қуйидаги жиҳатларни алоҳида кўрсатиб олиш лозим:

1) талабаларда мослашув жараёнининг кечиси мураккаб динамикликка эга бўлиб, ижтимоий ва шахсий аҳамиятга эга қадриятли тасаввурларни уйғунлашувини талаб этади;

2) талабалар учун ўқишнинг биринчи ва айрим ҳолларда иккинчи йили мураккаб вазиятлар билан бирга кечади;

3) олий таълим муассасасида таҳсил олиш жараёнида талабаларда ўз-ўзини англаш туйғуси ривожланади, атроф-олам ва борлиққа доир қадриятли муносабатлар тизимининг ривожланиши давом этади;

4) талабаларда базавий ўқув установакалари шаклланади;

5) талабалик йиллари ташкилий, методик ва психологик тавсифга эга бўлиб, шахснинг касбий ва шахсий мослашувининг энг муҳим босқичидир<sup>3</sup>.

Дарҳақиқат, касбий мослашув мураккаб ва кўп қиррали жараён ҳисобланиб, унинг негизида муайян касб бўйича муваффақиятли ишлашни таъминловчи имкониятлар, шахснинг йўналганлиги, касбий билим, кўникма, малака ва касбий сифатлар, меҳнат тажрибаси ҳам асосий мезонлар кўринишида намоён бўлади. Шунингдек, касбий фаолиятга йўналтиришда касб танлаш мотивларининг яққолроқ намоён бўлиши кузатилса-да, фақат уларнинг ўзигина касбий тайёргарликнинг шаклланишида етакчи роль ўйнай олмаслигини эътиброга олиш лозим бўлади. Чунки, шахснинг мавжуд жисмоний, руҳий ва маънавий имкониятлари танланган касбий фаолиятнинг шахсга нисбатан қўядиган талаблари даражаси билан мутаносиб бўлиши талабаларнинг касбий фаолият муҳитига нормал мослашишига ва рефлексиянинг ёрдам беради.

<sup>1</sup> Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. -Ростов на-Дону: Феникс. 1996.с-12-14

<sup>2</sup> Ишмухамедов Р., Абдуқодирова, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). -Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. 201-202-б

<sup>3</sup> Эгамбердиева Н.М.ва муаллифлар жамоаси. Юксак маънавиятли шахсни шакллантиришнинг тарбия технологияси. -Т.: “Фан ва технологиялар”, 2012. 201-202-б

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан шундай хулоса қилишимиз мумкинки, одатда бўлажак тарих ўқитувчиларни касбий фаолиятга мослаштиришда уларнинг объектив имкониятларидан келиб чиқиб ёндашиш, танланган касб ва фаолият талабларига шахс имкониятларининг идентификациялашуви мақсадга мувофиқ саналади. Масалан, ўқитувчилик касбини танлашда нафақат бу касбни севиш, болалар билан мулоқотга кириш истаги, балки, касбий фаолиятнинг шахсга нисбатан қўядиган жисмоний, психологик ва ижтимоий талаблар унинг имкониятлари доирасида бўлиши касбий билим, малака ва кўникмаларни ўзлаштиришга ёрдам беради. Шу боис, Бўлажак тарих ўқитувчиларни касбий мослаштиришда масаланинг мазкур жиҳатларини назарий асослаш ва бўлажак мутахассисларнинг касбий имкониятларини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш керак.

### **БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ РЕФЛЕКСИВ МАДАНИЯТИ: РИВОЖЛАНИШ МОҲИЯТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Отажонов Ж.М. – Тошкент давлат педагогика университети таянч докторанти**

**Аннотация:** Ушбу мақолада бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг рефлексив маданияти ҳақида маълумот келтирилган, ҳамда уни ўқитучининг касбий фаолиятидаги ўрни ва вазифалари белгиланган.

**Калит сўзлар:** маданият, ўқитувчи, талаба, мактаб, фаолият, махорат, касбий рефлексия, шахс, ривожланиш, ҳаётий фаолият, жараён, бошланғич таълим.

### **РЕФЛЕКСИВНАЯ КУЛЬТУРА БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ: СУЩНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ**

**Отажанов Ж.М. - докторант Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о рефлексивной культуре будущего учителя начальных классов, определены его роль и задачи в профессиональной деятельности учителя.

**Ключевые слова:** культура, учитель, ученик, школа, деятельность, мастерство, профессиональная рефлексия, личность, развитие, жизнедеятельность, процесс, начальное образование.

### **REFLEXIVE CULTURE OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER: THE ESSENCE AND PROSPECTS OF DEVELOPMENT**

**Otajanov J. M. - doctoral student of Tashkent state pedagogical University**

**Annotation:** This article provides information about the reflexive culture of the future primary school teacher, defines its role and tasks in the professional activity of the teacher.

**Keywords:** culture, teacher, student, school, activity, skill, professional reflection, personality, development, life activity, process, primary education.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган таълим тизимини модернизация қилиш жараёнидан ҳалқ таълими тизми четда қолмади. Ҳозирги замон мактаби олдида ҳар бир ўқувчининг қобилиятларини очиб бериш, унинг билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириш ва юқори технологик даврда яшашга тайёр бўлган рақобатбардош кадрни тарбиялашга ўхшаган қатор долзарб вазифалар қўйилди.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиси дарсни самарали ташкил қилиш учун ўзининг барча ижодкорлик қобилиятларини ишга солиши керак: диққатни жамлаш, синфини ва дарс мазмунини

моделлаштириш, ижодий ва босқичли масалаларни тадбиқ қилиш. Ушбу психологик жараёнларни амалга оширадиган воститалардан бири – рефлексив кўникмалар ҳисобланади.

Хаммамизга маълумки - рефлексиясиз таълим жараёнини самарали амалага ошириш мурракаблашиб кетади, чунки рефлексиясиз бир ҳаракатни кўп мартаба такроран бажарган тақдирда ҳам шахс мукамал кўникма ва малакага эга бўлаолмайди. Касбий педагогик рефлексия деганда ўқитувчи томонидан ўз педагогик фаолиятини хусусиятларини таҳлил қилиш, баҳолаш ва керакли тартибга солиш, ҳамда педагогик жараённи иштирокчилари томонидан уни педагогик фаолиятига танқидий муносабатда бўлишини тўғри қабул қилишини тушуниш мумкин<sup>1</sup>.

Рефлексиянинг педагогик ҳодиса сифатида ўрганиш жараёнида Л.П. Качалова қуйдаги таърифни келтирган «Педагогик рефлексия бу ўқитувчининг ўз хатти-ҳаракатлари ва сўзларига танқидий муносабатда бўлиш, уларни таҳлил қилиш ҳисобланиб, таълим ва тарбия вазифаларини амалга оширишга ёрдам берадиган қобилият саналади»<sup>2</sup>.

Замонавий бошланғич синф ўқитувчининг ижодкорлиги, унинг педагогик фикрлаши, ўз фаолиятини таҳлил қилиш ва тушуниш қобилияти, шунингдек, педагогик муаммоларни хал қилиш воситаси сифатида таълим жараёнида педагогик рефлексиядан фойдаланиш қобилияти билан боғлиқ.

Бошланғич синф ўқитувчиларининг таёрлаш жараёнида, олий таълим муассасаларидаги педагогик маҳоратни ривожлантиришга йўналтирилган махсус фанларга алоҳида эътибор берилаётгани, бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида рефлексив кўникмаларни ривожлантиришга қаратилган ҳаракатларни самарадорлигини таъминлашда асосий ролни бажариши эътибордан четда қолмайди. Чунки айнан рефлексив кўникмалар таълим жараёнига “ўқувчилар нигоҳи” билан ўқитувчи фаолиятига баҳо бериш ва ўқитувчи томонидан ўқувчиларни индивидуал хусусиятларини ҳисобга олаган ҳолда таълим-тарбия жараёнини амалга оширишида кўмаклашади<sup>3</sup>.

Лекнин, хозирда ушбу педагогик маҳорат гуруҳининг имкониятлари тўлиқ ишга солинмаган.

Тўпланган педагогик тажрибалар шуни кўрсатадики, бошланғич синф ўқитувчилари асосан ўқувчиларнинг ҳиссий ҳолатини тушуниш, дарс ёки дарсдан ташқари машғулотлар давомида унинг ривожланиш динамикасини кузатиш учун турли хил рефлексиялаш усулларида фойдаланиладилар. Аксарият ҳолларда педагогик рефлексия орқали ўқув жараёнининг таркибий қисимлари бўлмиш: ўқитувчи шахсини, дарс жараёнини ва ўқув материалларлар сифатини ўқувчи томонидан таҳлил қилинишини ва баҳоланишини ўқитувчилар жиддий қабул қилмайди.

Педагогикада рефлексия – бу педагогик жараёнининг иштирокчилари ҳолатини аниқлаш ва баҳолаш, ҳамда уларни ривожлантириш жараёнини йўлга солиш тизимини ўрганади. Бошланғич таълим тизимида рефлексив жихатлардан фойдаланиш “ўқувчи-ўқитувчи” тизимида самарали ва чинакам субъектив муносабатларни ўрнатишга имкон берди. Ғарб психологлари Д. Боунд ва Р. Кеог ҳақли равишда таққидлаганидек рефлексия бутун таълим жараёни учун асос бўлиб хизмат қилади<sup>4</sup>.

Касбий рефлексия - бу ўзини, ўз ҳаракатларини, умумий ҳолатини, ички ақлий фаолиятни, ўз тажрибасини ва шахсий тузилмасини таҳлил қилиш жараёнининг натижасидир<sup>5</sup>. Касбий аҳамиятга эга бўлган шахсий фазилат сифатида рефлексия педагогик фаолият жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, ўқитувчининг профессионал малакасини оширишнинг энг муҳим шарти ҳисобланади.

Ишонч билан айтиш мумкинки, инсоннинг рефлексив кўникмалари унинг шахсий ривожланишининг омили ва воситаси саналади.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида рефлексив қобилиятларини ривожлантириш

<sup>1</sup>Кульневич, С.В., Лакоценина, Т.П., [Текст] Рефлексивный анализ современного урока. Практическое пособие. /Изда тельство «Учитель», Ростов-на-Дону, 2004. – 68 с.

<sup>2</sup> Качалова Л. Е1. Ожиге сова Н. Ю. Ре флек сия как педагогический феномен: Педагогическая рефлексия // Актуальные проблемы современного образования (методология, теория и технология): Сб. науч. ст. Шадринск, 2006.

<sup>3</sup>Бизяева, А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия [Текст] / А.А. Бизяева. – Псков: ПГПИ, 2004. - 216

<sup>4</sup> Boud, D Enhancing Learning through Self Assessment, Kogan Page, London Boud, D, Keogh, R and Walker, D (eds) Reflection: Turning experience into learning, Kogan Page, London, 1995

<sup>5</sup> Суворова, Н.Г. Интерактивное обучение: новые подходы / Н.Г. Суворова // Учитель (Россия). – 2000. – № 1. – С. 25-27.

жараёни методик воситалар, турли усуллар ва таълим шаклларининг жуда катта захирасини ўз ичига олади.

Ўқитувчини ўз касбий фаолияти билан боғлиқ равишда рефлексив позитцияга йўналтириш учун энг кўп қўлланиладиган мотивацион методлар қуйдагилар:

➤ касбий аҳамиятга эга бўлган ҳолатларда ўз ҳаракатларини (ёки ҳамкасблар хатти-ҳаракатларини) қузатиб бориш, ва кейнчалик олинган натижаларни таҳлилини бажариш;

➤ касбий фаолият воқеа ва ҳодисаларни белгиловчи кундалик тутиш, кейинчалик таҳлилини бажариш;

➤ дарсинг видео ва аудио тасмага тушириш, кейинчалик уни таҳлил ва муҳокамасини бадариш;

➤ моделлаштирилган муаммоли вазиятларни ҳал қилишда ва содир бўлган хатти-ҳаракатларни гуруҳий таҳлил қилишда ўзига ҳос рол ўйнашга асосланган турли ҳил ўйин услубларидан фойдаланиш;

➤ кейс методи – бу миниатюрадаги муаммоли вазиятни ифодаловчи кенг тарқалган интерфаол таълим усуллари билан бири. Бу усул, профессионал фаолиятда учрайдиган реал воқеага асосланган бўлиб, талабаларга таклиф этилаётган муаммони ҳал қилиш учун ечим қидиришни, сўнгра бутун жараённи биргаликда муҳокама қилишни ўз ичига олади<sup>6</sup>.

Умумий маданий ёндашув нуқтаи назаридан рефлексив маданият – бу ўқитувчининг ўз ҳаётий фаолият мазмунини тушуниш ва қайта кўриб чиқишнинг индивидуал ижтимоий жиҳатдан аниқланган усуллар тўплами саналади.

Касбий ва педагогик маданиятнинг энг муҳим таркибий қисми сифатида рефлексив маданият бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг тизмили ва динамик шаклланиши, ўз-ўзини англаш ва касбий малакани ривожлантиришнинг маълум бир даражаси, ижтимоий ва профессионал тарзда аниқланган таълим фаолияти мазмунини англаш ва қайта кўриб чиқиш усуллари тўплами сифатида тавсифланади.

Бошланғич синф ўқитувчисининг рефлексив маданияти қуйдаги хусусиятларга эга:

- ўз вақтида муаммоли вазиятларни англаш ва бартараф этиш;
- ўз фаолияти ва ҳаётига умид билан назар солиш;
- шахслараро муносабатлар йўналишига мослашиш;
- ноодатий вазифаларни ҳал қилиш.

Бошланғич таълим ўқитувчиларининг рефлексив кўникмаларини шакллантиришнинг долзарблиги жамиятнинг рефлексив кўникмаларга эга ўқитувчига эҳтиёжи; бошланғич таълим ўқитувчиларини касбий тайёрлашнинг мавжуд назарий ва амалий имкониятларини умумлаштирувчи ва тизимлаштирувчи комплекс ёндашувнинг зарурати билан боғлиқ.

Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида рефлексив кўникмаларни ривожлантириш, бугунги кунда олий таълим тизминининг долзарб муаммоси саналади. Бунга сабаб, айнан олий таълим босқичи талабаларни ёши рефлексив таҳлил ва ақлий фаолиятни бошқариш воситаларни ўзлаштиришнинг энг қулай даври ҳисобланади.

<sup>6</sup> Метаева, В.А. Рефлексия как метакомпетентность [Текст] / В.А. Метаева // Педагогика. – 2006. – №3. – С. 57–61

**MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Omonov SH.I. – Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola eshitishda nuqsoni bor bolalarning psixologik xususiyatlari haqida boʻlib, unda eshitishda nuqsoni bor bolalarni aqliy, hissiy rivojlantirish yoʻllari haqida soʻz yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** eshitish qobiliyati, oʻyin faoliyati, rivojlantirish faoliyati, shaxsiy rivojlanish, sensor bilish jarayoni, tovush stimulyatsiyasi, nutq.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СО СЛУХОВЫМИ НАРУШЕНИЯМИ****Омонов Ш.И. - преподаватель Ферганского государственного университета**

**Аннотация.** Эта статья посвящена психологическим характеристикам детей с нарушениями слуха, а также психическому и эмоциональному развитию детей с нарушениями слуха.

**Ключевые слова:** слух, игровая активность, развивающая деятельность, личностное развитие, сенсорное распознавание, звуковая стимуляция, речь.

**PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRE-EDUCATIONAL CHILDREN****Omonov Sh.I. - Lecturer at Ferghana State University**

**Annotation.** This article is devoted to the psychological characteristics of children with hearing impairment, as well as the mental and emotional development of children with hearing impairment.

**Key words:** hearing, game activity, development activities, personal development, sensor recognition, sound stimulation, speech.

Borliqni anglash va tushunish sezgi organlari vositasida amalga oshiriladi. Sezgi organlari faoliyatining buzilishi esa tashqi olam bilan shaxs oʻrtasida maʼlum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ammo rivojlanishda davom etayotgan fan va texnika inson omilini birinchi darajaga qoʻygani holda bunday muammolarni bartaraf etish yoʻllarini izlaydi hamda tadqiqotlar ichidan eng maqbulini havola etadi. Shunday ekan, sezgi organlaridan biri boʻlgan eshitishning nuqsonli boʻlishi ham shaxsning rivojlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi eshitish qobiliyati bolaning keyingi rivojlanishiga juda kuchli taʼsir qiladi. Eshitish qobiliyati pasaygan bola rivojlanishining murakkab tuzilishida eshitish analizatorining asosiy kamchiliklari bilan bir qatorda, uning nutqi va boshqa aqliy jarayonlari shakllanishida oʻziga xoslik kuzatiladi. Maktabgacha yoshdagi eshitish qobiliyati buzilgan bolalar aqliy rivojlanishining turli jihatlarini Boscis, G.L.Vigodskiy, A.A.Katayeva, B.D.Korsunskaya, E.I.Leonard, L.P.Noskovoy, T.I.Obuxoviy, T.V.Rozanova, J.I.Schiff kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotlarga asosan, aqliy rivojlanishdagi sezilarli siljishlar maktabgacha yoshda sodir boʻladi, bu esa ongning turli jihatlarini – idrok, fikrlash, eʼtibor, xayol, xotira, aqliy jarayonlarning shakllanishi bilan bogʻliq boʻladi. Maktabgacha yoshda bola faoliyatining shakllanishi uning oʻyin faoliyati, boshlangʻich mehnat faoliyati va nihoyat, oʻqish faoliyatining rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Sensor bilish jarayoni bolalikning maktabgacha yoshida va eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda jadal rivojlanadi. Kognitiv qiziqishlarning rivojlanishi, obyektiv faoliyatning shakllanishi, oʻyinlarning shakllanishi kar va eshitishi qiyin bolalarning hissiy rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, nutq va aloqa vositalarining buzilishi, oʻyin faoliyatining notoʻgʻri tashkil etilishi eshitish qobiliyati zaif bolalarda hissiy rivojlanishning kechikishiga olib keladi. A.A.Katayevaning yozishicha<sup>1</sup>, uch yoshdan besh yoshgacha boʻlgan bolalarda narsalarning xususiyatlari va munosabatlarini idrok etish darajasi shakllanadi. Toʻrt yoshdan besh

<sup>1</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/nervno-psihicheskoe-razvitie-deprivirovannyh-detey-rannego-vozrasta-s-porazheniem-tsentralnoy-nervnoy-sistemy-i-korreksiya-otstavaniy>



yoshgacha bo'lgan bolalar predmetning o'lchamlari, rangi, shakli kabi xususiyatlarni ajratib olishlari mumkin va ular kattalarning harakatlariga taqlid qila olishadi. Bolaning hissiy rivojlanishi bilan idrok qilish usullari yaxshilanadi. Bunda ko'proq sodda usullar (testlar, turli sinovlar)dan foydalanish lozim. Besh yoshdan boshlab hissiy standartlar va ularning tizimlarini yanada assimilyatsiya qilish, idrokning obyektivligini rivojlantirish va obyektning yaxlit qiyofasini shakllantirish jarayoni kechadi. Hissiy rivojlanishda o'yin faoliyatining mohiyati, mehnat faoliyati muhim rol o'ynaydi. Obyektlar va munosabatlarning xususiyatlarini idrok etish jarayonida bolaning tasavvurini sezilarli darajada boyitadigan fazoviy va vaqtinchalik tasvirlar shakllanadi. Shu bilan birga, eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan maktabgacha yoshdagi bolalar tengdoshlari bilan taqqoslanganda, tasvirlarni shakllantirishda katta qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, xususan, so'zda aniqlanmagan standart narsalarning noaniqligi muammosi ham e'tiborga molik jihat sanaladi.

Sekin-asta, obyektning yaxlit tasvirini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi, bu ajratilgan qismli rasmlarni yig'ishda aks etadi. Sensor rivojlanishning xususiyatlari boshqa harakatlardagi obyektning xususiyatlari va munosabatlarini farqlashda qiyinchiliklar shaklida uchraydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar eshitish qobiliyatining rivojlanish darajasi o'quv jarayonida sezilarli o'zgarishlarga uchraydi. Nutqni o'rganishda hissiy tajribani o'zlashtirish imkoniyatlari ko'payadi. Idrokning rivojlanishi hissiy standartlarni o'rnatadigan so'zlarni assimilyatsiya qilish vositasi bo'lib, bu obyektlar haqida yanada aniqroq, farqlangan fikrlarni birlashtirishga yordam beradi. Tizimli o'qitish erta boshlanganida, eshitishda nuqsoni bor maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining tengdoshlari uchun sezgi rivojlanishining yuqori darajasiga erishishlari mumkin.

O'yin faoliyati shakllanishining kechikishi, nutq va og'zaki aloqaning yo'qligi yoki rivojlanmaganligi eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalarda vizual fikrlashni rivojlantirishda ham aks etadi. Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bo'lgan bolalarda vizual-samarali fikrlashni rivojlantirish odatdagi rivojlanayotgan bolalarga nisbatan uning shakllanishidan miqdoriy va sifat jihatidan farq qiladi. Vizual-samarali fikrlash muammoli vaziyatda amaliy muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lib, uni hal qilish uchun ko'pincha yordamchi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Vizual fikrlash darajasini tavsiflash uchun bola foydalanadigan vazifalarni bajarish usullarini hisobga olish kerak. Uchdan to'rt yoshgacha eshitish qobiliyati buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda vazifalarni bajarishning sodda usullari qayd etilgan.

Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bir nechta testlarga murojaat qiladilar, amaliy topshiriqlarni bajarishda ular e'tiborini qanday erishishga emas, asosan, maqsadga qaratadilar. To'rt yoshdan oshgan bolalar vazifalarni bajarishda vizual testlardan foydalanishni boshlaydilar. Vizual-majoziy fikrlashga o'tish vizual yo'naltirish jarayonida shakllangan tasvirlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Shu sababli eshitishda nuqsoni bor bolalarda tafakkurning amaliy tahlil, taqqoslash, sintez qilish imkoniyatlari rivojlanishi tez kechadi. Ammo aniq umumlashtirish va butunlikni sintez qilishni talab qiladigan murakkab jarayonlar sekinroq rivojlanadi. Albatta, vazifalarni berishda ularning yosh xususiyatlari inobatga olinadi. Besh yoshdan oshgan eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun eng oddiy mavzular tasnifini amalga oshirish vazifasi berilishi mumkin: obyektning shakli, rangi, o'lchami bo'yicha guruhlash; qatorlarni tekislash. Bularning barchasi kattalar bilan birgalikda olib borilishi, bunda esa mos keladigan so'zlarning ma'nosini aniqlashtirishni o'rgatish lozim. Intellektual muammolar besh yoshdan katta eshitish qobiliyatida nuqsoni mavjud bolalar tomonidan hal qilinishi mumkin.

Eshitishda nuqsonli bolalarda o'yin shakllanishining xususiyatlari idrok va tafakkur rivojlanishining kechikishi, dunyoni idrok etishni rivojlantiradigan xayolotning yetarli emasligi bilan bog'liq. Og'zaki muloqotning cheklanishi rolli o'yinlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar eshitish qobiliyatiga ega bolalar kabi o'ynashni yaxshi ko'radilar va o'z hayotlarini kuzatish va unda ishtirok etish orqali olgan taassurotlarini o'yinlarda aks ettirishga moyildirlar. Biroq nuqsonli bolalarning taassurot doirasi u ko'rgan narsalar bilan cheklanganligi va hayot haqidagi g'oyalari boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilish, hikoyalar va ertaklarni idrok etish bilan to'ldirilmaganligi sababli, ular, odatda, kundalik o'yinlarda ustunlik qiladi. Bunday bolalarning o'yinlari haddan tashqari tafsilotli ekanligi bilan ajralib turadi: sujetni ishlab chiqish o'rniga, bolalar qoida tariqasida, batafsil asosiy harakatlarni takrorlashga o'tishadi. Ko'pincha ular har kuni bir xil o'yin harakatlarini takrorlashga moyildirlar, ayniqsa, ilgari kattalarga namoyish etilgan bo'lsa, aynan shu o'yinni takrorlashni istaydilar. Bola rolga kirganda, yaqin kattalarga (ona, o'qituvchi) taqlid qilish ko'pincha maqsadga aylanadi. Bolalar imo-ishoralarga taqlid qila

olishadi, ammo boshqalar bilan muloqotdagi munosabatni aks ettirishga harakat qilishmaydi, o'yinda faqat xatti-harakatlarning tashqi tomonini aks ettiradilar. Taqlid qilish elementi uzoq vaqt davomida bolalar o'yinlarining o'ziga xos xususiyati bo'lib qoladi: ular aniq, batafsil tafsilotlar bilan, o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan o'yinlarni takrorlashga harakat qilishadi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida o'yinni almashtirishning qiyinligini olishimiz mumkin. Ya'ni o'yinda kundalik hayotda har xil maqsadda ishlatiladigan narsalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi qiyin kechadi, masalan, tayoqcha – qalam yoki termometr, barg – pul sifatida ishlatiladi. O'yinni almashtirish bolaga so'zning semantik ma'nosini anglashga, aniq ma'nodan uzoqlashishiga olib keladi. Mustaqil o'yinlarda nuqsonli bolalar kamdan kam hollarda obyektlardan boshqa funksiyada foydalanishga murojaat qilishadi. O'yin tarkibidagi narsaning nomini o'zgartirishga rasmiy rozilik bildirsa ham, nuqsonli bolalar uni yangi funksiyada ishlatmaydilar. Uchdan to'rt yoshgacha bo'lgan eshitish qobiliyatli bolalarda rasm chizish, modellashtirish, loyihalashtirishga qiziqish paydo bo'ladi va ayniqsa, katta maktab yoshida tez rivojlanadi. Vizual faoliyatning rivojlanishi obyektiv va o'yin faoliyati rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u idrok etish, g'oyalarni shakllantirishning yuqori darajasini o'z ichiga oladi. Eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar eshitishdan ko'ra chizishni, haykaltaroshlikni yaxshi ko'radilar va diqqatli o'qitish jarayonida samarali faoliyatni o'zlashtirar ekan, rasm chizish eng sevimli mashg'ulotlardan biriga aylanadi. Biroq maxsus rahbarliksiz, eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalar tengdoshlariga qaraganda keyinroq rasm chizadilar. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun uch yoshgacha tematik rasm chizish yoki obyektlarni solishtirishga nisbatan harakat bo'lmaydi.

Eshitish qobiliyati past bolalarda nutqni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi nuqsonli bolalarda nutq ta'limsiz shakllanmaydi. Ba'zi maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining nutq muammolari haqida xabardor bo'lishni istaydi, yangi odamlar bilan muloqot qilishni esa unchalik xohlamaydi. Maktabgacha yoshdagi nuqsonli bolalarning atrofdagi kattalar bilan aloqasi (aksariyat hollarda ota-onalar bilan) obyektiv harakatlar, tabiiy imo-ishoralar, yuz ifodalari va boshqa nutq bo'lmagan vositalar yordamida – ovozli reaksiyalar, aniqlanmagan shovqinlar yordamida amalga oshiriladi. Kichik yoshda kar yoki og'ir eshitish qobiliyatiga ega bolalarning nutqidagi farqlar sezilmaydi, to'rt yildan keyin esa bu sezila boshlaydi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar kar bolalardan farq qiladi, hatto maxsus tayyorgarliksiz ham, eshitish qobiliyatiga ega bolalar ishlatadigan so'zlarga o'xshash bo'lmasa ham, og'zaki so'zlarning soni ularda ancha ko'payadi. Ba'zi bolalar o'z-o'zidan qisqa-qisqa grammatik iboralarni paydo qilishadi. Faqat eshitish qobiliyati zaif bo'lgan ba'zi bolalargina hech bo'lmaganda grammatik buzilgan so'zlarni ishlatishni boshlamaydilar. Eshitish qobiliyati zaif bolalarning so'zlashuv nutqini tushunish ham murakkab jarayondir. Ba'zi bolalar ma'lum bir vaziyatda boshlang'ich suhbatlarni tushunishadi, ba'zilari esa faqat o'rganilgan iboralarni tushunadilar. Muloqotda eshitish qobiliyati zaif bolalar ham obyektlar va obyektiv harakatlar, tabiiy imo-ishoralar va yuz ifodalari bo'yicha ko'rsatmalardan keng foydalanadilar.

Maktabgacha yoshda bola jamiyatda o'zini tutish qoidalarini, axloq normalarini o'rganadi. Ularda o'zini hurmat qilish va o'zini tuta bilish qobiliyati rivojlanadi, hissiyot rivojlanadi, faoliyat uchun motivlar shakllanadi. Bola shaxsini shakllantirishning eng muhim sharti bu kattalar va tengdoshlar bilan aloqalar, bolalarning turli faoliyat turlariga qo'shilishidir.

Bola shaxsining shakllanishi hissiy-ixtiyoriy sohaning shakllanishi bilan bog'liq. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning hissiy rivojlanishi eshitish qobiliyatiga ega bolalarning his-tuyg'ulari va hissiyotlari rivojlanishining asosiy qonunlariga bo'ysunadi, ammo bu ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tovush stimulyatsiyasining yo'qligi bolani "hissiy izolyatsiya" holatiga solib qo'yadi, bu uning aqliy rivojlanishining kechikishiga olib keladi<sup>1</sup>. Axloqiy me'yorlarni qabul qilish, ularning ma'nosini tushunish turli vaziyatlarda kattalar bilan og'zaki aloqa jarayonida, kattalar tomonidan bolaning xatti-harakatlarini ma'qullash yoki tanqid qilish jarayonida yuzaga keladi. Bu borada bolalarning odamlar o'rtasidagi munosabatlarini, jamiyatdagi axloq normalarini tushunadigan o'yin muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kattalar tomonidan ertak, hikoya va she'rlarni o'qish va aytib berish katta ahamiyatga ega. Eshitish qobiliyati buzilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda bu jarayon ancha qiyin kechadi. Ular kattalar va bolalarning harakatlarini kuzatib, ularning ma'nosi va sabablarini tushunmaydilar. Ota-onalar bolaga harakatlarning mohiyatini, xulq-

<sup>1</sup> I.Langmeyer va Mateychik, 1994

atvor normalarini tushuntirishda qiynaladilar. Kundalik hayotda va turli xil faoliyat turlarida bolalar har xil ijtimoiy hodisalar bilan tanishadilar, ularning va boshqa odamlarning harakatlarini tushunishni va tahlil qilishni o'rganadilar. Bu jarayonlar esa xarakterni, faollikni, mustaqillikni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bor bolalar bilan ishlash va ulardagi mavjud qobiliyatlarni yuzaga chiqarish va rivojlantirish eng muhim masalalardan biridir. Shuningdek, nuqsoni mavjud maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, hissiy rivojlanishining eng oson yo'llarini topish zarurati mavjud.

### ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ХАРАКТЕРИНИНГ ИЛМИЙ ТАЛҚИНИ

**Турсунова Г. – Тошкент давлат педагогика университети ўқитувчиси**  
**Токтоганов А. – Кирғизистон миллий университети**

**Аннотация.** Мақолада психологларнинг шахслараро муносабатлар муаммоси бўйича олиб борган тадқиқотларининг назарий таҳлили натижалари келтирилган ва унинг асосий жиҳатлари ҳақида сўз юритилган. Ушбу материаллар талабалараро ўзаро муносабат жараёнида ўқувчиларнинг бир-бирлари ҳақидаги тасаввурларини ўрганиш учун назарий асос бўлиб хизмат қилади.

**Калит сўзлар:** шахслараро муносабатлар, таъсирлар, атроф-муҳит, ўзаро муносабат, шахсият, психологик механизмлар, стратегиялар, ғоялар, полиерминация, алоқа, шахсий идентификация, акс эттириш, ошиб кетиш.

### НАУЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХАРАКТЕРА МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ

**Турсунова Г. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**  
**Токтоганов А. – Национальный университет Киргизии**

**Аннотация.** В статье представлены результаты теоретического анализа исследований отечественных психологов по проблеме межличностных отношений, которые позволяют понять, насколько были отрефлексированы ее основные аспекты. Данные материалы могут составить теоретическую основу для изучения представлений студентов друг о друге в процессе межличностного взаимодействия.

**Ключевые слова:** межличностные отношения, влияния, среда, взаимодействие, личность, психологические механизмы, стратегии, представления, полидетерминация, общение, личностная идентификация, рефлексия, трансцендирование.

### SCIENTIFIC INTERPRETATION OF THE CHARACTER OF INTERPERSONAL RELATIONS

**Tursunova G. - Teacher of the Tashkent State Pedagogical University**  
**Toktaganov A. – national University of Kyrgyzstan**

**Annotation.** In the given article was described the results of a theoretical analysis of research by Russian psychologists on the problem of interpersonal relationships, which allow us to understand how its basic aspects were reflected. These materials can form the theoretical basis for studying students' perceptions of each other in the process of interpersonal interaction.

**Key words:** interpersonal relationships, influences, environment, interaction, personality, psychological mechanisms, strategies, ideas, polytermination, communication, personal identification, reflection, transcending.

Шахслараро муносабатларни ўрганиш уларнинг асосий векторларини аниқлаш имконини беради. Шахслараро муносабатлар кўпинча одамлар ўртасидаги субъектив равишдаги тажрибали

муносабатлар билан белгиланади ва ўзаро таъсирнинг табиати ва усулларида объектив равишда намоён бўлади. Шахслараро муносабатлар тўғрисида объектив муносабат ва турли даражадаги одамлар ўртасидаги муносабат тушунчалари мавжуд. Шахслараро муносабатларнинг шаклланишига атроф-муҳитнинг таъсири катта. Г.Андреевнинг фикрларига кўра, муайян шароитларда шахснинг ўзига хослиги асосан "атроф-муҳит" га мослашади. Яъни, нафақат шахслараро ўзаро таъсир ўтказиш стратегияларини, балки асосий усулларни, шунингдек, инсон фаолиятининг психологик механизмларини аниқлайдиган атроф-муҳитнинг аҳамияти, унинг психологик хусусиятлари тушунилади. Психологияда шахслараро муносабатлар ўзаро таъсирли одамларнинг турли хил ҳиссий ҳолатларига асосланганлиги тушунчаси мавжуд. Расмий равишда ўрнатилиши ёки бўшашиши мумкин бўлган ишбилармонлик (инструментал) муносабатлардан фарқли ўлароқ, шахслараро муносабатлар баъзан уларнинг ҳиссий таркибини таъкидлаб экспрессив деб аталади. Шахслараро муносабатлар атамаси нафақат муносабатлар объекти бошқа шахс эканлигини англатади, балки муносабатларнинг ўзаро йўналишини ҳам акс эттиради. Бу шахслараро муносабатларнинг ўзаро муносабатлар, нарсаларга бўлган муносабатлар ва гуруҳлараро муносабатлардан ажратиб олишга имкон беради. Б.Г.Ананев, М.М.Бахтин, В.М.Бектерев, А.А.Одалев, Л.С.Виготский, А.Н.Леонтиев, В.Н.Мясищев, С.Л.Рубинштейн ва бошқа психологлар шахслараро ўзаро муносабатларни инсоннинг ақлий ривожланиши, унинг ижтимоийлашиши ва шахсиятининг шаклланишининг муҳим шарти деб ҳисоблашган<sup>1</sup>. Уларнинг тадқиқотлари шуни кўрсатдики, одамлар ўртасидаги шахслараро муносабатларнинг ўзаро таъсири жараёнида шахснинг атроф-муҳит ва жамиятга бўлган муносабати шаклланади. Шахсларнинг ўзаро муносабатлари жараёнида уларнинг бир-бирлари ҳақидаги фикрлари шакллантирилади, алоқа кўлами ривожланади ва муносабатлар юзага келади, ўзаро фаолият алмашинуви, қизиқишлар, ҳис-туйғулар бўйича қизиқишлар ортади.

Инсоннинг ўз-ўзига баҳо бериш жараёни натижасида шахсиятни ривожлантиришнинг энг муҳим томонлари юзага келади. У шахслараро муносабатларни гуруҳ аъзоларининг бир-бирига нисбатан муносабатлари, йўналишлари ва умидлари тизими сифатида белгилаб беради, улар биргаликда фаолиятнинг мазмуни ва ташкил этилиши ва одамлар мулоқот қиладиган қадриятлар билан белгиланади. "Мен"нинг акс эттириш хусусиятларини очиш ва "Сиз" тоифасининг пайдо бўлиши учун "акс эттириш" ва ошиб кетиш каби тушунчалар қўлланилади. Кўзгу инсоннинг ички дунёсига чўмишни ўз ичига олади. Кўтарилиш инсоннинг ички дунёсидан ташқарида "ўзидан" чиқиб кетишини англатади, бу унинг атрофини ва унинг ичидаги нарсаларни билиш учун ўзини узоқлаштиришга имкон беради.

Тадқиқотлар натижасида, ҳар бир инсоннинг ички дунёсини яратиш бошқа одамлар билан ижтимоий ўзаро боғлиқлик, шахсий ва ижтимоий идентификация механизмларини ишлаб чиқиш билан, бошқаларнинг, гуруҳ имиджини яратишнинг ўзига хос хусусиятлари билан чамбарчас боғлиқлиги аниқ бўлди. Шунингдек, инсон онгидаги бу тасвирлар "Мен" имиджига органик тарзда боғланган ва шунинг учун унинг ҳаракатларини тартибга солади. Шахслараро муносабатларнинг вужудга келадиган сифати маълум ўзгарувчанлик билан тавсифланади.

Уларнинг хилма-хиллигини очиб беришга ҳаракат қилиб, Н.Н.Транспортс ижобий ва салбий ҳиссий ҳолатини, таъкидлаб, уларнинг ораси алоқаларнинг мустаҳкамлиги, ҳамкорликнинг давомийлиги билан боғлиқ<sup>2</sup>, - деб кўрсатади.

Тадқиқотлар шахслараро муносабатларнинг полимодал аниқланишини тушунишга имкон берди. Буларга қуйидагилар кириши мумкин: қизиқиш, ўзаро таъсир, ҳамкорлик, алоқа, бир-бирини тушуниш. Шахслараро муносабатларнинг ҳақиқий мавжудлиги учун ўзаро муносабат субъектлари хатти-ҳаракатлар ва ўзаро таъсирнинг маълум стратегияларини, коммуникатив дизайнни, ҳаракатлар тизимини амалга оширишни, оғзаки ва оғзаки бўлмаган жавобларни, ҳиссий ва ихтиёрий равишда намоён бўлишни, бошқаларни етарлича идрок этиш ва тушунишни, ўз-ўзини назорат қилишни ва қийин вазиятларда ёрдам беришни талаб қилади.

<sup>1</sup> Куницына В.Н., Казаринова .В., Погольша В.М. Межличностное общение. Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2001. - 544 с.

<sup>2</sup> Бодалев А.А. Психология общения: Избранные психологические труды. 2-е изд. - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО «МО-ДЭК», 2002. - 256 с.

Шахслараро муносабатлар бир-биридан фарқ қилади ва ўзаро муносабат жараёнига кирган шахслар учун муносабатнинг турига қараб турли оқибатларга олиб келиши ёки янги имкониятларини очиши мумкин. Бу шахсий ривожланиш учун маконни белгилайдиган шахслараро муносабатлардир.

Шахслараро муносабатлар мураккаб тузилишга эга. Улар одатда қуйидаги субструкцияларни ўз ичига олади: хулқ-атвор (хулқ-атвор стратегиялари, оғзаки ва новербал алоқа воситаларининг комбинатсияси), аффектив (ўз-ўзини англаш) ва когнитив (идрок соҳасининг хусусиятлари, когнитив тактиканинг табиати, айниқса билим маълумотларини қайта ишлаш).

Кўрсатилган таркибий элементларнинг ҳар бири шахслараро муносабатларнинг сифатига, шу жумладан уларнинг барқарорлигига таъсир қилади. Шахслараро муносабатларнинг сифати уларнинг субъектларига нисбатан ташқи ва ички омиллар билан белгиланади. Бугунги кунга келиб, ушбу омиллар тўғрисида етарлича бой маълумотлар тўпланган.

Л.С.Виготскийнинг таъкидлашича<sup>1</sup>, шахслараро муносабатларнинг сифати маънога, яъни алоқа субъектлари алоқа ҳолатининг бир хил тушунишга боғлиқ. Бундай имконият фақат алоқа умумий фаолият тизимига киритилган тақдирдагина амалга оширилади. Шахслараро муносабатларнинг муваффақияти одамларнинг бир-бирини тушуниши билан боғлиқ.

Шахслараро ўзаро муносабатларнинг сифати инсоннинг ўз-ўзини баҳолаши ва унинг хатти-ҳаракатларини тартибга солиш қобилияти билан боғлиқ. Бу қобилият, ўз талқинида, инсоннинг болалик давридаги тажрибасига боғлиқ.

Шахслараро муносабатларнинг маълум даражада бузилиши, амалга оширилган алоқа босқичини ҳисобга олишнинг йўқлиги билан боғлиқ, чунки уларнинг ҳар бири ўз муаммоларини ҳал қилгач, алоқа таркиби ва шаклини қайта тузилади. Шахслараро муносабатларнинг сифатини кўриб чиқишда ўзаро муносабатлар тизимини ташкил этувчи ролларнинг таркибий қисмига алоҳида эътибор берилади.

---

<sup>1</sup> Виготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 1. Вопросы теории и истории РАН. М., 1992. - № 4.

**ҚАДИМГИ БАҚТРИЯ ДАВЛАТИ ВА УНИНГ МИЛ.АВВ. VIII-VI АСРЛАРДАГИ ҲУДУДИЙ ТУЗИЛМАСИ  
ТАҲЛИЛИ**

**Эгамбердиева Н.А.** - Тошкент давлат педагогика университети доценти, тарих фанлари номзоди

**Аннотация.** Қадимги Бақтрия давлати мил.авв. VIII-VI асрларда қадимги дунёнинг ривожланган давлатлари қаторида бўлган. “Авесто”да берилган ҳудудий тузулманинг мавжудлиги археологик тадқиқотлар натижасида аниқланган. Давлатнинг ҳудудий тузилмаси деҳқончилик воҳаларида жойлашган қўрғонлар, қишлоқлар, йирик қалъа, шаҳар ва пойтахт мақомига эга бўлган ёдгорликлар таҳлили асосида аниқланган. Деҳқончилик воҳалари йирик марказга эга бўлиб, дарёларнинг ўзанлари ва каналларнинг атрофида шаклланган. Деҳқончилик воҳаси “занту”- қабилаларга тегишли бўлган бўлиши мумкин.

**Калит сўзлар:** Қадимги Бақтрия, Авесто, археология, деҳқончилик воҳаси, “занту”, қабила, илк темир, Ёзтепа, Кучуктепа, Қизилтепа.

**ДРЕВНЕ БАКТРИЙСКОЕ ГОСУДАРСТВО И АНАЛИЗ ЕГО ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ  
СТРУКТУР В VIII-VI ВВ. ДО Н.Э.**

**Эгамбердиева Н.А.** - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат исторических наук

**Аннотация.** В VIII-VI вв. до н.э. Древнебактрийское государство было в числе развитых государств древнего мира. На основе археологических исследований выявлено территориальные структуры государства, которые были описаны в “Авесте”. Территориальная структура выявлено на основе анализов усадеб, поселения, крепости, города и памятников, имевших статус столицы, расположенных на земледельческих оазисах. Земледельческий оазис имел крупный центр, возник вдоль речных русел и каналов. Земледельческий оазис могло принадлежать “занту”- племенам.

**Ключевые слова:** Древняя Бактрия, Авесто, археология, земледельческий оазис, “занту”, племена, раннежелезный, Язтепе, Кучуктепе, Кизилтепе.

**THE ANCIENT STATE OF BACTRIA AND ITS ANALYSIS OF TERRITORIAL STRUCTURES  
IN VIII-VI CENTURIES BC**

**Egamberdieva N.A.** - Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University, candidate of historical sciences

**Annotation.** In VIII-VI centuries to BC the state of Ancient Bactria was number of the developed states of the ancient world. On the basis of archaeological researches it is revealed territorial structures of the state which were described in "Avesta". Territorial structure it is revealed on the basis of analyses farmstead, settlement, a fortress, a city and monuments which were the status of the capital, located agricultural oases. The agricultural oasis had the large center, has arisen along river pools and channels. An agricultural oasis could have belonged “zantu” - to tribes.

**Key words:** Ancient Bactria, Avesta, archeology, an agricultural oasis, “zantu”, tribes, early iron, Jaztepe, Kuchuktepe, Kiziltepe.

Қадимги Бақтрия давлати мил.авв. VIII-VI асрларда дунёнинг ривожланган давлатлари қаторида бўлган. Шу боис Ўрта Осиё ҳудудидаги бошқа давлатларга нисбатан қадимги Бақтрия ҳақида ёзма манбаларда маълумотлар кўп. Ёзма манбалардаги маълумотлар асосида таҳлил қилинган дастлабки

маълумот, давлат номининг этимологик талқини ҳисобланади<sup>1</sup>. Бақтрия номи турли ёзма манбаларда турлича ифодаланган бўлсада, улар бир – бирига яқин маънони ифодалайди: “Авесто” да “Бахди”, юнон авторларида “Бақтриана”, Эрон ёзма манбаларида “Бақтриш”, Хитой манбаларида “Дахя”, ҳинд манбаларида “Балҳика” тарзида берилган. Аксариат ёзма манбаларда “Бақтра” номини Амударёнинг ирмоғи бўлган Балхоб дарёси номи билан боғлайдилар. Бу ҳақда Квинт Курций Руф (VII, 4,31), Клитарх, Плиний ва Страбон ёзиб қолдиришган. Клитарх “У (Бақтр дарёси) шаҳарга ва ўлкага номини берди” деб ёзиб қолдирган бўлса, Плинийда “...шаҳар –Зариасп, кейинчалик дарё номи билан Бақтра деб аталди” (Плиний, VI, 48,52). Юнон муаллифлари асарларидан қадимги Бақтрия давлатининг пойтахт шаҳри “Зариасп” деб ҳам аталганлиги ҳақида маълумотга эга бўлаемиз. Бақтрия сўзи дарё номидан келиб чиққанлигини Р.Фрай ҳам ўз тадқиқотида кўрсатиб ўтган<sup>2</sup>. Бақтрия сўзи этник бирликни эмас, географик номдан келиб чиққан.

Ёзма манбаларда давлат бошқаруви, чегаралари ва ҳудудий тузилмалари ҳақида ёзиб қолдирилган. “Авесто” да берилган - оила – “нмана”, уруф – “вис”, қабила – “занту”, мамлакат – “дахью” тушунчалари археологик тадқиқотлар натижасида топилган бир ёки бир неча кичик дарёларнинг ўзанларидаги йирик қалъа, қалъалар ва уларнинг атрофидаги қишлоқларда ўз аксини топган. XX асрнинг 70-80 йилларда Бақтрия ҳудудидан мил.авв. биринчи минг йилликнинг биринчи чорагига оид 240 га яқин ёдгорлик аниқланган. Фақат Сурхондарё воҳасидан 1986 йилга қадар 36 та ёдгорлик топилган.

Қадимги Бақтрия мил.авв. VIII –VI асрларда қудратли давлатлардан бири бўлганлигини Ктесий Книдскийнинг қолдирган маълумоти ҳам тасдиқлайди. Унинг маълумоти Диодорнинг “Тарихий кутубхона” асарида келтирилган: “Бақтриана ўлкаси, кўп шаҳарларга эга, уларнинг орасида асосийси пойтахт шаҳридир. У Бақтра деб номланади ва бошқа шаҳарлардан ўзининг улўворлиги ва аркининг қудратлилиги билан ажралиб турарди. У ерда Оксарт подшолик қилади.....”. Тадқиқотчилар фикрича, Диодор ўз асарининг 2 қисмини Ктесий асаридан фойдаланган ҳолда ёзган<sup>3</sup>. Ктесий ўз маълумотларида Оссурия подшоси Нин ва Семирамида билан боғлиқ афсонани келтиради. Тадқиқотчилар Оссурияда Нин исми подшо ҳумронлик қилмаган ва буни афсона<sup>4</sup> деб баҳолашади. Лекин Оссурия ҳудудида Нин ва Ниневея номли шаҳарларнинг мавжудлиги ҳам афсонанинг остида маълум бир ҳақиқат борлигини асослайди.

Диодор ўз асарида яна қуйидаги фикрларни келтиради: “...Ниннинг бутун Осиёни Таниасдан Нилгача бўлган ҳудудларни эгаллашга иштиёқи кучли эди. Шу сабаб у Мидияга ўз дўстларидан бирини сатрап қилиб тайинлаб, ўн етти йил давомида ҳиндлар ва бақтрияликлардан ташқари, бутун Осиё қабилаларини бўйсундирди”<sup>5</sup>. Диодорнинг қолдирган бу маълумоти ҳам қадимги даврларда, яъни мил.авв. VIII-VII асрларда қадимги Бақтрия давлатининг қудратини акс эттиради. Шунингдек, Нин Бақтрияга икки марта юриш уюштиради. Биринчисида мағлубиятга учрайди. Кейинчалик Оссурияда ўзига мустақкам шаҳар қургач, алоҳида тайёргарлик кўриб, иккинчи марта Бақтрияга юриш қилади. Бу жараён ҳам Диодор асарида қуйидагича таърифланган: “Нин ўзига қарам бўлган барча халқлардан армия тўплади. Ктесийнинг кўрсатишича, бир миллион етти юз минг пиёда аскар, икки юз минг отлик, ўн минг жанг аравалар билан юриш қилди. Бу мисли кўрилмаган армия эди.” Диодор асарида Бақтрия сатрапи Оксарт жанг қилишга яроқли бўлган барча аҳолисини тўплаганда, уларнинг сони тўрт юз мингни ташкил этган. Нин ўз армияси билан Бақтриянинг кўпгина шаҳарларини босиб олишга муваффақ бўлади, лекин пойтахт шаҳар Бақтрани эгаллай олмайди. Шу пайтда Семирамиданинг ёрдами билан Бақтра шаҳри эгалланади. Жангда Бақтрия сатрапи Оксарт ҳалок бўлади. “Нин Бақтриянинг жуда бой олтин ва кумушдан иборат хазинасини эгаллайди”.

Бу воқеалар тавсифи олимлар томонидан афсона тарзда қабул қилган бўлса-да, мил.авв. VIII-VII асрларга оид қадимги Бақтрия ҳудудида кўплаб қалъаларнинг излари топилган<sup>6</sup>. Археологик

<sup>1</sup> Пьянков И.В. Бақтрия в античной традиции (Общее данные о стране: название и территория). Душанбе, Дониш, 1982.

<sup>2</sup> Фрай Р. Наследие Ирана. М.: 1972, Б.74.

<sup>3</sup> Строецкий В. М. Введение к “Исторической библиотеке” Диодора Сицилийского. /Вестник древней истории, 1986, № 2, С.65—82.

<sup>4</sup> Шайдуллаев Ш. Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). т. ф.д. илм. даражасини олиш учун ёзилган дисс. Самарқанд, 2009. Б. 218; 21,19.

<sup>5</sup> Строецкий В. М. Введение к “Исторической библиотеке” Диодора Сицилийского. /Вестник древней истории, 1986, № 2, С.72.

<sup>6</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т.: 2015. Б.110.

тадқиқотлар ҳам қадимги Бақтрия давлатининг мустаҳкам давлатлардан бири эканлигини асослайди. Шунингдек, Бақтрия давлати Оссурия давлатига қарам бўлганлигини ҳам маълум. Асосий масала бу воқеалар Оссуриянинг қайси подшоси даврида содир бўлганлигидир. Чунки, бу воқеалар бошқа юнон муаллифлари- Помпей Трог, Арриан ва Ксенофонд асарларида ёритилган бўлиб, уларда подшолар номи турлича ифодаланган. Ксенофонт бу воқеалар Оссурия шоҳи Киаксар замонида бўлган деб ёзиб қолдирган. Ҳозиргача, Оссурия давлатига қадимги Бақтриянинг тобе бўлганлиги маълум бўлса-да, лекин бу воқеалар қайси вақтда содир бўлганлиги аниқ исботини топган эмас. Шунингдек, Оссурия шоҳлари архивидан Оссурия шоҳидан ёрдам сўраб ёзган айғоқчининг номлари сақланиб қолган. Унда "... лекин, мен ложувард (лазурит)ни олиб кетганимдан сўнг, мамлакатда (Бақтрияда) бунга қарши қўзғолонлар бошланди, шундан сўнг катта ҳарбий куч юборишни илтимос қилдим". Бу маълумот ҳам қадимги даврда Бақтриянинг сиёсий майдонда ўзига хос ўринга эга бўлганлигини кўрсатади. Чунки, антик давр тарихчилари маълумотлари бўйича Бақтрия ложувардлари юқори баҳоланган. Тадқиқотчилар Оссурия подшолиги билан Бақтрия подшолиги ўртасидаги узоқ масофа бўлганлигини инобатга олиб, Бақтриянинг Оссурияга қарам бўлганлигини инкор қиладилар. Лекин Бақтрия ҳудудидаги қимматбаҳо тошлар, асосан ложувард қадимги дунё ҳукмдорлари диққат марказида бўлган. Бойлик уларни узоқ масофани босиб ўтиб, уни қўлга киритишга ҳалал бермаган бўлиши мумкин.

Илк темир даврида, яъни мил.авв. VIII-VI асрларда Бақтрия аҳолиси сув ўзанлари бўйлаб тарқалиб, кенг ҳудудларни ўзлаштирганлар. Сунъий суғориш иншоотлари бунёд этиб, яшаш учун қулай шароитлар яратганлар. Аҳоли дарё ирмоқлари ва каналларнинг соҳилларида яшаб, деҳқончилик воҳасини шакллантирганлар. Деҳқончилик воҳалари ўзига хос бошқарув тизимига эга бўлган давлат бўғини сифатида фаолият юритган<sup>1</sup>. Ҳар бир деҳқончилик воҳасининг маданий ва иқтисодий маркази бўлган. Марказ атрофида, яъни йирик қалъа атрофида қалъа, қўрғон ва қишлоқлар бунёд этилган.

Шимолий Бақтрия ҳудудида олиб борилган археологик тадқиқотлар натижасида ҳар бир деҳқончилик воҳасида марказий қалъанинг ташқарисида 8-12 тагача қишлоқ ва катта патриархал оила қўрғонлари топилган<sup>2</sup>. Бу деҳқончилик воҳалари сиёсий бирлашма - ягона давлатни ташкил қилган. Бундай сиёсий давлат бирлашмаси "Авесто" маълумотларида берилган таърифларга мос келади.

XX асрнинг 70-80-йилларида Сурхондарё вилоятида олиб борилган археологик тадқиқот ишлари натижасида мил.авв. X-IX асрларга оид археологик ёдгорликлар 5та маданий – хўжалик районларга ажратилиб ўрганилган: Уланбулоқ, Шеробод, Бандихон, Миршоди, Вахшувар. Бу даврга оид 8 та қалъа қодиқлари аниқланган<sup>3</sup>. Илк темир даврида 4 та маданий-хўжалик ҳудуд кенг ўзлаштирилганлиги аниқланган. А.С.Сагдуллаев бу даврни Қизил II даври (мил.авв.700-550 йй.) билан боғлаб, 14 та ёдгорликни рўйхатга олган<sup>4</sup>.

XXI аср бошларида Сурхондарё ҳудудида олиб борилган тадқиқот ишлари натижасида шимолий Бақтрия ҳудудидаги илк темир даврига оид ёдгорликлар 3 та деҳқончилик воҳасига ажратилган. Бунда деҳқончилик воҳасининг марказий – йирик қалъа атрофида тўпланганлигига эътибор қаратилган:

1. Шеробод деҳқончилик воҳаси. Уланбулоқсой, Бўстон, Шерободдарё ҳудудларини эгаллаган. Маркази Жондавлаттепа. Бу мировоҳада яна Пшактепа, Кучуктепа, Талашқонтепа I каби ёдгорликлар жойлашган.

2. Бойсун деҳқончилик воҳаси. Бандихонсой, Миршоди (Қизилсув) ҳудудларини бирлаштирган. Маркази Қизилтепа ёдгорлиги. Қизилтепа ва Бандихон атрофларида қатор қишлоқлар - ёдгорликлар мажмуаси қайд қилинган.

3. Сурхон деҳқончилик воҳаси. Амударёнинг чап ирмоғи бўлган Сурхондарёнинг ўрта ва қуйи ҳавзалари ҳудудларини ўз ичига олган. Бу ерда Хаитободтепа воҳанинг маркази вазифасини бажарган. Бу ҳудудда Бандихонсойтепа, Номсизтепа (Термиз шаҳри) каби ёдгорликлар жойлашган.

<sup>1</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Б.269; Шайдуллаев Ш. Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Б.60-63.

<sup>2</sup> Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА №73, – Москва-Ленинград, 1959. С.10.

<sup>3</sup> Сагдуллаев А.С. Основные черты и генезис культуры доантичной Бактрии./Античные и раннесредневековые древности южного Узбекистана. Т.:1989.С.37.

<sup>4</sup> Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. Т.: 1987. С.12.



Худди шундай ҳудудий бўлинмалар қадимги Бақтриянинг бошқа ҳудудлари, яъни жанубий Тожикистон ва шимолий Афғонистон ҳудудида ҳам кузатилган.

XX асрнинг 60-70 йилларида Жанубий Тожикистон ҳудудида 4 та маданий-хўжалик ҳудуд ва 12 та манзилгоҳ аниқланган:

1. Кафирнигон деҳқончилик воҳаси Наҳри-калон канали бўйлаб жойлашган. Унинг маркази Калаи-Мир ёдгорлиги ҳисобланади.

2. Вахш деҳқончилик воҳаси. Вахш Амударёнинг ўнг irmoғи бўлиб, ундан Вахш, Шўраобод, Болдай каналлари чиқарилган. Унинг атрофларида Яван-су (Томошатепа, Шўраисой), Вахш (Болдай тепа, Болдай канал) ҳавзалари ҳудудларини ўз ичига олган.

3. Панж деҳқончилик воҳасида Байтудашт ёдгорликлари жойлашган. Воҳанинг маркази Байтудашт IV ёдгорлиги ҳисобланади.

4. Қизил-су деҳқончилик воҳасида Макони-мор ёдгорлиги жойлашган.

Жанубий Бақтрия, яъни Шимолий ва шимоли-шарқий Афғонистон ҳудудида XX асрнинг 60-70 йилларда И.Т.Кругликова, В.И.Сариниади, П.Бернар, Ж.Гардин, Б.Лионнет томонидан олиб борилган тадқиқот ишлари натижасида илк темир даври ёдгорликларини ҳудуднинг географик тузилиши асосида маданий –хўжалик ҳудудларга ажратганлар<sup>1</sup>.

Жанубий Бақтрия ҳудудида илк темир даврига оид 5та маданий-хўжалик ҳудуд - Балх, Дашли, Наибобод, Шиберган, Олтиндилёр аниқланган. Уларда 50 дан ортиқ ёдгорликлар топилган<sup>2</sup>. Мил.авв. биринчи минг йилликка оид шимолий Афғонистон ҳудудидаги ўрганилган ёдгорликлар тури - ибодатхона ва сарой биноларидан иборат бўлган.

Ўрта Осиёнинг мил.авв. I минг йиллик бошларига тегишли ёдгорликларни археологлар кўпинча Ёзтепа маданияти моддий манбаларига қиёсий ҳолда таҳлил қиладилар<sup>3</sup>. Ёзтепа ёдгорлиги Туркменистоннинг Мурғоб воҳасида жойлашган бўлиб, у XX асрнинг 50 йилларида В.М.Массон томонидан ўрганилган. Ёдгорликдан топилган сопол буюмлар ишланишининг ўзига хос услублари таҳлил қилиниб, шу асосда уларнинг даврий саналари аниқланган.

Мил.авв. VIII –VII асрлардаги қадимги Бақтрия ҳудудида тарқалган маданиятни археологлар бронза даври маданиятининг қайта тикланиши деб кўрсатадилар. А.Асқаров бу ҳолатни қуйидагича баҳолайди: “Қадимги Бақтрия маданияти ўзининг келиб чиқиш тарихий илдизларига кўра, бронза даврининг Сополли маданиятига бориб тақалиши аниқланди. Демак, Кучук I маданияти ворисларининг Қадимги Бақтрия ҳудудларига кириб келиши ва бу типдаги ёдгорликларнинг Ўрта Осиё жанубий вилоятлари бўйлаб кенг ёйилиши, бу заминда қадимдан давом этиб келаётган Намазга VI ва Сополли маданиятларининг инқирозга олиб келмаган, аксинча туб жойли аҳолининг Қадимги Шарқ цивилизациясига хос иқтисодий ва маданий хўжалик анъаналари ривожланишда давом этади. Бу давр маданияти Жанубий Ўзбекистонда Кучуктепадан бошқа Қизилтепа, Жондавлаттепа, Ҳайитободтепа Бандихонттепа, Талашкантепа каби 40 дан ортиқ ёдгорликларида ўз аксини топган.”<sup>4</sup>

Археологик тадқиқотлар натижасида мил.авв. VIII –VII асрларда Бақтрияда давлатчилик тизими “Авесто” маълумотларга мос ҳолда мавжуд бўлганлиги асосланди. Авесто маълумотларидаги давлат – қабилалар бирлашмаси - “дахью” – қадимги Бақтрия давлатининг маркази Бақтра шаҳри ҳисобланган. “Занту” –қабилаларни - йирик марказга эга бўлган деҳқончилик воҳаларида кўрамиз. “Вис”-уруғлар – тадқиқотчилар томонидан аниқланган маданий – хўжалик ҳудудларда ўз аксини топади. “Нмана” –патриалхал оила излари эса, ҳар бир деҳқончилик воҳалари ҳудудларидан топилган уй-қўрғонлар бўлиши мумкин. Деҳқончилик воҳаларида йирик марказий қалъанинг бўлиши, қалъалар, уй-қўрғонлар ва оддий аҳолининг уйларининг излари топилиши ҳудудда маълум бир сиёсий тизилма мавжудлиги ва аҳоли ўртасида ижтимоий табақаланиш мавжудлиги ҳам акс эттиради. Қадимги Бақтрия ҳудуди мил.авв. VIII-VI асрларда аҳоли томонидан кенг ўзлаштирилган, ягона давлат бошқаруви ўрнатилиб, бир хил ижтимоий тузум ва маданият тарқалганлиги исботланган.

<sup>1</sup> Сагдуллаев А.С. Основные черты и генезис культуры доантичной Бактрии. С.30-32.

<sup>2</sup> Сариниади В.И. Древние земледельцы Афганистана. М.: 1977. С.107-112.

<sup>3</sup> Сверчков Л.М. Тохары. Древние индоевропейцы в Центральной Азии. Т.: 2012. С.133.

<sup>4</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи, Б.186-187.

Мил.авв. VIII –VII асрларда қадимги Бақтрия аҳолиси қадимий, яъни бронза давридаги маданий тараққиётини қайта тиклаб, уни янада ривожлантира олдилар. Бронза давридаги маданият Номозгоҳ VI (мил.ав. II минг йилликнинг иккинчи ярми) ва Сополитепаннинг сўнги босқичлари (мил.ав. II минг йилликнинг охири) асосида ўрганилган бўлса, унинг изларини мил. авв. VIII аср иккинчи ярми - VII асрга оид Кучук II, мил. авв. VII асрнинг охири-VI асрлар Кучук III, мил.авв. VIII –VI асрларнинг иккинчи ярмига оид Қизил II маданиятлари асосида тадқиқ қилинган.

Мил.авв. VIII-VI асрларда Ўрта Осиё ҳудудида Ёз II маданияти кенг тарқалган. Унинг характерли белгиси сопол буюмларнинг ишланиши орқали белгиланган. Бу давр сопол буюмлари чархда ишланган, турли геометрик тамғалар босилган сфера, конус шаклида бўлиб, ости коник, гардиши қармоқсимон бўлган. Бундай сопол идишлар бутун Ўрта Осиёдаги қадимги давлатлар ҳудудларидан топилган. Бу эса ўз навбатида, ўша даврларда бутун Ўрта Осиё бўйлаб бир-бирига яқин маданиятга эга бўлган аҳоли яшаганлигидан дарак беради.

## FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MANFAATLAR GURUHI VA SIYOSIY PARTIYALARNING ROLI

**Rasulova N.S. – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Maqolada fuqarolik jamiyatini qurishda manfaatlar guruhi va siyosiy partiyalarning o‘rni, ular faoliyatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan, shuningdek, siyosiy partiyalarning shakllanish jarayonlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** ko‘ppartiyaviylik, siyosiy partiya, manfaatlar guruhi, hokimiyat, siyosiy faollik, saylovlar, protosiyosiy guruhlar, siyosiy elita, davlat siyosati.

## РОЛЬ ГРУППЫ ИНТЕРЕСОВ И ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

**Расулова Н.С. - доцент Военно-технического института Национальной гвардии Республики Узбекистан, кандидат исторических наук**

**Аннотация.** В статье проанализировано место группы интересов и политических партий в формировании гражданского общества, особенности специфики их деятельности, а также изучены процессы формирования политических партий.

**Ключевые слова:** многопартийность, политическая партия, группа интересов, власть, политическая активность, выборы, протополитические группы, политическая элита, государственная политика.

## THE ROLE OF INTEREST GROUPS AND POLITICAL PARTIES IN THE FORMATION CIVIL SOCIETY

**Rasulova N.S. - Associate Professor of the Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, PhD in History**

**Annotation.** The article analyzes the place of interest groups and political parties in the formation civil society, the specifics of their activities and also explored the formation of political parties.

**Key words:** multiparty system, political party, interest groups, power, political activity, elections, proto political groups, political elite, state policy.

Fuqarolik jamiyati demokratik siyosiy tizim shakllanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Davlat va fuqarolik jamiyati o‘zaro ta’siri natijasida bir-birlarini to‘ldiradilar, davlat va jamiyat o‘rtasida butun bir aloqani yaratadi. Har qanday davlat fuqarolarining erkinligi, tashabbuskorona harakatlari uchun zarur shart-

sharoitlarni yaratishi lozim, fuqarolik jamiyati esa bir vaqtning o'zida har bir insonda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi va jamiyat uchun javobgarlik hissi tushunchasini rivojlantirgan holda davlatni "nazorat" qilishi, jamiyaning demokratik institutlarini qo'llab-quvvatlashi kerak.

Fuqarolik jamiyatining ko'lami jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir etish imkoniga ega bo'lgan faol fuqarolar ulushi bilan izohlanadi. Ma'lumki, har qanday murakkab tuzilgan siyosiy tizimda fuqarolarning davlat bilan munosabatlarini bevosita ifodalovchi ma'lum bir mexanizmlar mavjud bo'ladi. Ularning orasida manfaatlar guruhi va siyosiy partiyalar muhim o'rinni egallaydi.

Quyida ushbu siyosiy institutlarning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

"Manfaatlar guruhi" atamasi (interest group), avvalo, siyosiy fanlar tizimida keng foydalaniladi. V.P. Pugachev va A.I. Solovevlarning fikriga ko'ra, manfaatlar guruhi – bu davlat organlari va boshqa siyosiy institutlarga nisbatan o'zlarining hokimiyat ahamiyatiga ega bo'lgan manfaatlarini ifodalashga va himoya qilishga intiluvchi kishilar birlashmasidir.

Bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- guruhning o'z manfaatlariga urg'u berishi, ya'ni ijtimoiy emotsiyalar (his-tuyg'ular) va orzu-umidlar, qoniqmaslik yoki birodarlik his-tuyg'ularining fuqarolarning muayyan siyosiy talablariga aylantirilishida;
- manfaatlarning agregatsiyalanishida, ya'ni ustuvorligi bo'yicha tartibga solinishi, muvofiqlashtirilishi, tabaqalashtirilishi hamda guruh uchun umumiy bo'lgan maqsadlarning ishlab chiqilishida;
- manfaatlar guruhi hal etilishidan manfaatdor bo'lgan muammoning holati haqidagi ma'lumotlarini hokimiyat organlari va boshqa siyosiy institutlarga qadar translyatsiyasi;
- siyosiy elitalar, jamiyatning hokimiyat tuzilmalari shakllanishi jarayonidagi ishtiroki<sup>1</sup>.

Manfaatlar guruhining davlat boshqaruvi tepasiga u yoki bu tarzda kelishga intiluvchi siyosiy partiyadan asosiy farqi uning hokimiyatga kelishga harakat qilmasligida ko'rinadi. Manfaatlar guruhi keng doiradagi ijtimoiy harakatlardan o'zining yaxlitligi (kompaktligi), shaxslararo aloqalarning rivojlanganligi, yuqoriroq darajadagi boshqaruvchanligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga, manfaatlar guruhi ijtimoiy harakatlar muhitida paydo bo'lishi hamda muayyan sharoitlarda siyosiy partiyalarga aylanishi mumkin.

Manfaatlar guruhlari umumiy manfaatlar asosida birlashgan ijtimoiy guruhlardir. A.V.Pavrozning fikricha, manfaat ushbu guruhlarning shunday xususiyatiki, u, birinchidan, guruhni "qandaydir yagona maqsadga birlashtiradi va ayni vaqtda uni boshqa ijtimoiy mavqe va boshqa manfaatlariga ega bo'lgan boshqa jamoalardan ajratadi", ikkinchidan, ushbu guruhning maqsadini – umumiy manfaatni amalga oshirishni belgilaydi. Aynan manfaat guruhni shakllantiruvchi belgi bo'lib, uning a'zolarida o'xshash xatti-harakat yo'nalishini shakllantiradi va bu yo'nalish o'z ehtiyojlarini belgilangan (mavjud) ijtimoiy sharoitlarda maqbul tarzda qanoatlantirishiga intilish bilan bog'liq. Shu bilan guruh vakillari jamiyatda o'z o'rnini egallaydi, ularning boshqa guruhlar va ijtimoiy-siyosiy institutlarning butun majmuyiga faol munosabatini belgilaydi<sup>2</sup>.

Insoniyat tarixida siyosiy partiyalar muammosi qanchalik oddiy tuyulmasin – ancha murakkab va hatto ziddiyatlidir. "Partiya" tushunchasi kattaroq jamoaning muayyan qismi, o'zaro yaqin hamda boshqalardan ajratib turuvchi "o'zimiznikilar" guruhi sifatida juda qadim zamonlardan buyon odamlar hayotida muhim o'rin tutgan. Albatta, bunday guruhlarni ajratish mezonlari turli xil, jumladan, dastlabgi davrda siyosatga mutlaqo aloqasi bo'lmasligi mumkin edi.

Siyosiy partiyalarning tashkil topishi va shakllanishi muayyan jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy (sharoitga) bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Eng umumiy holatda partiya ancha lokal va konyukturaviy sharoitlarda u yoki bu siyosiy kurs tarafdorlaridan shakllanadi, so'ngra ushbu sharoitlar o'zgarib, partiyaning ham o'zgarishga ham majbur etadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha (jumladan, Moris Dyuverje), partiya va uning dastlabgi ijtimoiy bazasi kelib chiqishining muhim xususiyati partiyalarning hokimiyat tuzilmalariga yoki muxolifat (yoki tan olinmagan guruhlar)ga bog'liqligidir. Boshqacha aytganda, partiya tashkil topayotgan paytda uning faollari asosiy o'zagi aynan kimdan shakllanayotgani, ya'ni hokimiyat tepasida turgan va

<sup>1</sup> Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. – М., 1995. – С. 105.

<sup>2</sup> Павроз А.В. Группы интересов в системе политического представительства: современные тенденции // ПОЛИТЭКС. – 2013. Том 9. – № 3. – С.263.

hokimiyat funksiyalariga ega bo'lgan odamlardanmi, siyosatchilar yoxud muxolifatchilardan degan savollarni aniqlashtirish har qanday partiyaning genezisini anqlashda muhimdir.

Mehnat taqsimoti xos bo'lgan har qanday ko'p yoki oz darajada rivojlangan jamiyatda odamlarning ayrim guruhlarini boshqalardan farq qilgan. Mehnat taqsimoti ijtimoiy mavqeda, qiyofada, shuningdek, ushbu mavqega mos keluvchi axloq qoidalarida farq bo'lishiga olib keladi.

L.S. Vasilevning fikricha, turli xil protosiyosiy guruhlar ilk bor neolit davridagi jamoa manzilgohlari darajasida, obro' hamda jamoa rahbariyatidagi mansab uchun kurash davomida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin edi. Turli xalqlarning antropologlari bu haqida to'plagan ma'lumotlar kutilgan maqsadga erishish yo'lida muvaffaqiyat qozonish uchun oila-urug' guruhlarining patriarxlarini (rahbarlari) saxovat ko'rsatish prinsipidan foydalanganlar. Xo'jaliklari turli sabablarga ko'ra boy bo'lganlar majburiy o'zaro ayirboshlash imkoniyatlarini ishga solib, katta obro' orttirar va berilgan moddiy ne'matlarning haqini qaytara olmaydigan, shu bois, o'z obro'lari bilan to'laydigan mijozlarga ega bo'lardilar. Homiylik munosabatlari protosiyosiy tub sabablarga ega guruhlarining eng boshlang'ich shakli bo'lgan<sup>1</sup>.

Bu turdagi guruhlar qisqa muddatli va hatto bir martali bo'lib, aniq vazifaga ega bo'lgan. Ammo ularning raqobati chinakam bo'lib, g'alaba keltirishi yoki keltirmasligi mumkin edi. Davlatchilikning ilk shakllari yuzaga kelgan keyingi bosqichlarda raqobat tor manfaat atrofida birlashuvchi etnik jamoa (qabila) ichidagi guruhlarining kurashiga aylandi, ushbu kurash davomida dohiy mavqeyiga eng katta talabgorlar ichidan eng omadlilari erishishgan. Ularning qo'llab-quvvatlovchi guruhlarini ancha uzoq vaqt mavjud bo'lgan protosiyosiy guruhlarining dastlabgi shakllari deb hisoblash mumkin. Urbanistik sivilizatsiya o'choqlari doirasida hukmdorlarni qo'llab-quvvatlagan jangchilar ham shunga o'xshash guruhlar vazifasini bajarganlar. Ularning protosiyosiy, ya'ni ilk siyosiy mazmunga egaligi aniq shubha uyg'otmaydi. Hokimiyat uchun kurashuvchi siyosiy guruhlar fenomeni antik davr mutafakkirlarining asarlaridayoq uchraydi. Jumladan, Aristotel o'z asarlarida baliqchilar va dehqonlar, shaharliklar va dashtliklar partiyalarini tilga olib o'tgan.

Bir-biri bilan kurashuvchi barqaror guruhlar eng yorqin ko'rinishda faqat antik davrda yuzaga kelishi mumkin edi va yuzaga keldi. Qadimgi yunon polislarini tarixidan, shuningdek, qadimgi Rim tarixidan shu narsa yaxshi ma'lumki, bu jamiyatlar dastlab muayyan darajada siyosiy – aynan siyosiy jihatdan bir-biriga qarama-qarshi turuvchi guruhlariga bo'lingan. Elladada bular demos va aristokratlar, Rimda – plebeylar va patriitsiyalar. Ikkala guruh turli mulkiy imkoniyatlarga, hatto siyosiy huquqlarga ega bo'lgan va shu bois, kambag'allar jamiyatda hukmronlik qilgan adolatsizlikni his qilganlar. Keyinchalik Rim tarixidan ma'lum bo'lganidek, bir-biriga qarama-qarshi turgan, tarkibiy jihatdan ancha shakllangan, hatto o'zlarining e'tirof etilgan yetakchilariga ega bo'lgan siyosiy protopartiyalar, jumladan, optimatlar va populyarlar guruhlarini shakllangan.

Rimning tanazzulga uchrashi bunday antik protopartiyalar tizimining bundan keyingi takomillashishiga nuqta qo'ydi. Biroq ta'kidlash joizki, Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya)da ularga o'xshab ketadigan siyosiy guruhlar mavjud bo'lishda davom etgan, ba'zan hatto otchopardagi g'azabnok muxlislar guruhlarining ekzotik shakllari ko'rinishini olgan. Uyushqoqlik bu guruhlariga ichki muammolar keskinlashgan taqdirda protopartiyalar rolini o'ynash va voqealarning borishiga muayyan siyosiy ta'sir ko'rsatish imkonini berardi.

O'rta asrlarda ilk burjua Yevropasida mavjud bo'lgan guruhlarini antik davrdagiga nisbatan ko'proq seziladigan keyingi partiyaviy-siyosiy tuzilma darajasi deb hisoblash mumkin. Bular Italiyadagi, asosan, Lombardiyadagi hammaga ma'lum bo'lgan gvelflar va gibellinlardir. XII–XV asrlardagi barcha italyan ilk burjuvalari uchun murakkab va juda muhim bo'lgan vaziyatda ularning ikkovi dastlab "Muqaddas Rim imperiyasi"ning tarafdorlari (gibellinlar) va raqiblarini (gvelflar) birlashtirgan. Keyinchalik esa ular ancha tor va ziddiyatli ilk partiyaviy guruhlariga aylangan. Florensiya gvelflari Piza gibellinlariga qarshi kurashishi mumkin bo'lgan, kuchlar nisbati o'zgarganda esa Piza Genuyaga qarshi kurashda gvelflarga suyanishi mumkin bo'lgan. Lombardiyaning ayni bir shahar-davlati (Milan, Bolonya)da shaharliklarning asosiy kuchi bo'lgan savdogarlar va hunarmandlar gvelflar tomonida, xuddi shu shaharlarda yashagan aristokratlar esa

<sup>1</sup> Васильев Л.С. Становление политических партий и партии "нового типа" // Общественные науки и современность. – М., 2010. – № 2. – С.114–116.

gibellinlarga suyangan davrlar ham bo'lgan. Ayni vaqtda boshqa markazlarda (Rim, Siyena) buning teskarisi bo'lishi ham mumkin edi<sup>1</sup>.

Qarama-qarshilik uncha aniq ko'rinib turmasa-da, bular shakllangan ilk partiyaviy guruhlariga aylanib bo'lgan edi. Barqaror ilk partiyalardagi eng asosli jihat – aynan jipslik, manfaatlari shu paytda u yoki bu guruhning yetakchilari manfaatlariga mos kelgan barchaning birlashishi uchun asos bo'la olishidir. Yoki boshqacha aytganda, asosiy jihat – kimning manfaatlar muayyan davrda dushmanlarga qarshi kurashda o'z kuchlarini keskin ko'paytirish uchun tayanch izlayotganlar (gap guruhlar rahbarlari haqida bormoqda) manfaatlar bilan mos kelishidadir. Va bu prinsip allaqachon shakllangan ilk partiyaviy guruhlarda qo'llanilayotgani tasodifiy emas.

Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, biz tahlil etayotgan manfaatlar guruhi va siyosiy partiyalarning ildizi bir. Ammo bu ikkala tuzilmaning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ham bordir.

Jumladan, manfaatlar guruhlar bilan birga ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida mediator funksiyasini siyosiy partiyalar ham bajaradi. Manfaatlar guruhi ham, siyosiy partiyalar ham siyosiy sohada ijtimoiy manfaatlarini himoya qiladi, bu bilan jamiyat va davlat institutlari o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlaydi. Biroq siyosiy tizimdagi o'xshash mavqelariga va ayrim funksional ekvivalentlikka qaramay, partiyalar va manfaatlar guruhlar tashkil etilish prinsiplari va faoliyat xususiyatlarida jiddiy farqlarga ega.

Manfaatlar guruhlar va siyosiy partiyalarning asosiy farqi ularning davlat hokimiyatiga bo'lgan munosabatidadir. Manfaatlar guruhlar saylovlarda o'z nomzodlarini ko'rsatish va hukumat faoliyati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish bilan emas, balki ko'proq davlat hokimiyati organlariga ta'sir etish orqali erishadilar<sup>2</sup>.

Garchi faoliyat xususiyatiga ko'ra manfaatlar guruhlariga o'xshash ko'plab kichik partiyalar mavjud bo'lsa ham (masalan, 1869-yildan hozirgi vaqtga qadar spirtli ichimliklar sotilishiga qarshi kurashayotgan AQSh Proxibitsionist partiyasi), ba'zi manfaatlar guruhlar saylovlarda ishtirok etishdan siyosiy bosim ko'rsatish taktikasi sifatida foydalanadilar. Bugungi kunda ham partiyalar va manfaatlar guruhlar o'rtasidagi prinsipial farq o'zgarmay qolmoqda, ya'ni manfaatlar guruhlar davlat hokimiyatini bevosita bajarishga da'vogar emas, ayni vaqtda partiyalarning maqsadi ham "hokimiyatni amalga oshirishga ta'sir etish"gina emas, balki "hokimiyatni egallash va saqlab turishdir"<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, manfaatlar guruhlar va siyosiy partiyalar siyosatda manfaatlarini himoya qilish funksiyasini amalga oshirish miqyosi va shakli bilan ham farq qiladi. Siyosiy partiyalar yirik ijtimoiy bo'linishlar (sinfiy, diniy, madaniy-hududiy bo'linishlar) asosida shakllanib hamda saylovchilarning iloji boricha ko'proq qismini o'z tomoniga jalb etishga urinib, odatda, keng miqyosdagi ijtimoiy manfaatlariga tayanadilar va shu bois, ularning faoliyati nafaqat u yoki bu ijtimoiy subyektlar manfaatlarini bevosita ifodalashdan, balki turli xil manfaatlarini to'plab, umumiy dasturga birlashtirish, so'ngra ularni davlat hokimiyati organlariga ilgari surishdan, ya'ni manfaatlar agregatsiyasidan iboratdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni ta'kidlash lozim:

– birinchidan, manfaatlar guruhlar ham, siyosiy partiyalar ham aholining davlat bilan munosabatlarida vositachi rolini bajaradi;

– ikkinchidan, manfaatlar guruhlarining vakillik funksiyasi hokimiyat organlariga bosim o'tkazish, umumiy manfaatlariga erishishga intilayotgan davlat bilan xususiy maqsadlar va manfaatlar sohasini ifodalovchi fuqarolik jamiyati o'rtasida vositachilik qilishdan iborat;

– uchinchidan, umuman bugungi kunda siyosatshunoslik fanida manfaatlar guruhi va siyosiy partiyalar o'rtasida o'ziga xos "mehnat taqsimoti"ga oid tasavvurlar shakllangan, ya'ni manfaatlar guruhi alohida manfaatlarini ifodalaydi va ularni siyosiy partiyalarga yetkazib beradi; siyosiy partiyalar esa ushbu manfaatlarini bir tizimga solib, davlat siyosatiga muqobil bo'lgan o'z partiyaviy dasturlariga kiritadilar; – to'rtinchidan, bugungi kunda partiyalarga, odatda, davlat siyosatini shakllantirish jarayonlarida muhimroq

<sup>1</sup>Jordan G. Pressure Groups, Parties and Social Movements: is there a Need for New Delineation? // MEiMO. 1997. – № 1. – P.82–97.

<sup>2</sup>Jordan G. Pressure Groups, Parties and Social Movements: is there a Need for New Delineation? // MEiMO. 1997. – № 1. – P.82–97.

<sup>3</sup> La Palombara J., Weiner M. The Origin and Development of Political Parties // Political Parties and Political Development / ed. by J.La Palombara and M.Weiner. – Princeton: Princeton University Press, 1966. – P.6.

rol berilishiga qaramay, manfaatlar guruhlarining siyosiy vakillik tizimidagi ahamiyati to'xtamay oshib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turli manfaatlar guruhlarining harakatlari siyosiy tizim tuzilishining murakkablashuviga imkon yaratadi. Jumladan, partiyalar vujudga kelish sharoitlarining ko'payishi hamda bu siyosiy muassasalarda guruhbozlikning kuchayishi, boshqaruv tuzilmalari funksiyalarining tabaqalashuvi va tashkiliy qurilishning oqilona tashkil etilishi, ko'ppartiyali tizimlar shakllanishining rag'batlantirilishi va boshqalar hisobidan ro'y beradi.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalar hamda manfaatlar guruhlarining mavjud bo'lishi va real munosabatlarni aks ettirgan holda faoliyat ko'rsatishi – demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi.

#### **V.A. PEROVSKIYNING XIVAGA UYUSHTIRGAN YURISHIGA OID ARXIV MANBALARI (O'ZR MDA I-715 jamg'armasi tavsifi)**

**Adilov J.X. – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola V.A. Perovskiyning 1839-1840-yillarda Xivaga uyushtirgan harbiy yurishi tarixiga oid arxiv manbalari – O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanuvchi I-715 jamg'armasiga bag'ishlangan. Ushbu jamg'armaga asos bo'lgan hujjatlarni yig'ilishi tarixi, tarkibi va V.A. Perovskiyning harbiy yurishiga oid hujjatlar tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, V.A. Perovskiy, O'ZR MDA, I-175 jamg'armasi, A.G. Serebrennikov, "Qishki yurish", "Perovskiy yurishi", Turkiston general-gubernatorligi, Rossiya imperiyasi.

#### **АРХИВНЫЕ ИСТОЧНИКИ О ПОХОДЕ В.А. ПЕРОВСКОГО НА ХИВУ (Описание фонда И-715 ЦГА РУз)**

**Адиллов Ж.Х. – докторант Института истории Академии наук Республики Узбекистан**

**Аннотация.** Статья посвящена анализу архивных источников по истории похода В.А. Перовского в 1839-1840 гг. на Хиву похода – на основе фонда И-715 Центрального Государственного архива Республики Узбекистан. В ней рассматривается история формирования данного фонда и состав хранящихся там документов. Кроме того, анализируются документы о военном походе В.А. Перовского.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, В.А. Перовский, ЦГА РУз, фонд И-175, А.Г. Серебренников, «Зимний поход», «Поход Перовского», Туркестанское генерал-губернаторства, Российская империя.

#### **ARCHIVAL SOURCES ABOUT THE KHIVAN CAMPAIGN OF V.A. PEROVSKY (The description of fund I-715 of TSGA RUZ)**

**Adilov J.H. - PhD student of Institute of history of Academy of Sciences of Republic Uzbekistan**

**Annotation.** The article is devoted to the analysis of archival sources on the history of the Khivan campaign of V.A. Perovsky in 1839-1840 – basing on the fund I-715 of the Central State archive of the Republic of Uzbekistan. There are considered the history of the fund creation as well as the structure of stored documents. Besides it the documents on V.A. Perovsky's military campaign are analyzed.

**Key words:** Khivan khanate, V.A. Perovsky, TSGA RUZ, fund I-175, A.G. Serebrennikov, "Winter campaign", "Perovsky's Campaign", Turkestan general-governorship, the Russian empire.

Ma'lumki, Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar turli tarixiy davrlarda ichki hamda tashqi omillar natijasida doimiy ravishda o'zgarib turgan. O'zaro savdo va elchilik vositasida yo'lga qo'yilgan bu munosabatlar ba'zida ikki davlat o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarga ham olib kelgan. Bunday

to'qnashuvlarning rasmiy ravishda, davlat siyosatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan dastlabkisi A. Bekovich-Cherkasskiy yurishi (1714-1717-yy.) bo'lsa<sup>1</sup>, bu yurish tor-mor qilinganidan so'ng oradan 122 yil o'tib, Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasida yana to'qnashuv yuzaga keladi. Bu jarayon "Perovski yurishi" yoki "Qishki yurish" nomi bilan tarixga kirgan harbiy harakat bilan yakunlandi.

Vasiliy Alekseevich Perovskiyning 1833-yildan Orenburg harbiy gubernatori va Alohida Orenburg korpusi qo'mondoni etib tayinlanishidan so'ng, uning tashabbusi bilan dashtda ko'plab harbiy istehkomlar quriladi. Buning natijasida Rossiya imperiyasi tobora O'rta Osiyoga kirib boradi.

V.A.Perovski imperator va saroyga yaqinligi tufayli Orenburgga kelishi bilan Rossiya ta'sirini O'rta Osiyoning ichki hududlariga yoyishga kirishadi. Xususan, 1834-yil oxirida V.A. Perovskiyning topshirig'iga binoan Xiva xonligi tomonidan "savdo aloqalarini kengayishiga to'sqinlik qilayotgan tadbirlarni yo'q qilish" uchun xonlikka bosim o'tkazish loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu loyihaga "Rossiyaning Xiva xonligi bilan aloqasi va Xiva xonlarini Rossiyaga doir xalqlar huquqiga qarshi ishlari haqida ma'lumot" ham ilova qilingan edi<sup>2</sup>. Aynan shu ma'lumotda V.A. Perovski Xivani bosib olishga doir sabablar va bahonalarni ro'kach qiladi<sup>3</sup>. Ushbu ma'lumotnomada o'sha davr rus harbiy ma'muriyatining Xivaga nisbatan munosabatini yaqqol namoyon etadi. Imperiya davri tadqiqotlarida yurishga sabab qilib xivalik qaroqchilarning rus karvonlarini tunashi, rus fuqarolarni qullikda saqlashi holatlari ko'rsatiladi<sup>4</sup>.

Rossiya imperiyasi davrida V.A. Perovskiyning faoliyatiga doir ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, ularda uning faoliyati doirasida 1839-1840-yillardagi Xiva yurishi ham batafsil yoritilgan<sup>5</sup>. Keyingi davrlarda ham V.A. Perovskiyning faoliyati va uning Xivaga uyushtirgan yurishi turli tadqiqotlar ob'ektiga aylandi.

Shuningdek, mavzuga oid bir qator manbalar ham mavjud bo'lib, ulardan biri Rossiya imperiyasi armiyasi harbiy injeneri, polkovnik Adrian Georgievich Serebrennikovning "Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания" nomli hujjatlar to'plamini nashr etish uchun yig'ilgan materiallarni o'zida birlashtirgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining (keyingi o'rinlarda – O'zR MDA) jamg'armasi (I-715) hisoblanadi. Ushbu I-715 jamg'armasi jami 74 saqlov birligidan iborat bo'lib, Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olish uchun olib borgan 1839-1876-yillardagi harbiy harakatlarini yoritadi<sup>6</sup>. Unda bevosita harbiy xarakatlar va unga bilvosita bog'liq bo'lgan tadbirlarga oid hujjatlar xronologik tartibda joylashtirilishi mo'ljallanadi. A.G. Serebrinnikovning ta'kidlashicha: "To'plangan materiallarni umuman ishlov berilmagan xolda, nafaqat hujjatlarning aniq nusxalari, balki ulardagi rezolyusiyalar, ko'pincha muhim ahamiyatga ega bo'lgan qo'lda yozilgan belgilar va yozuvlar bilan nashr etishga qaror qilindi"<sup>7</sup>. O'z navbatida bu holat ushbu jamg'armadagi hujjatlarning manbaviy ahamiyatini oshiradi.

Yuqorida ta'kidlangan materiallar to'plamini tuzish g'oyasi 1901-yilda Rossiya imperiyasi harbiy vaziri A.N. Kuropatkin tomonidan Turkiston general-gubernatori N.A. Ivanovga taklif qilinadi<sup>8</sup>. Ushbu ma'lumot A.G. Serebrennikov tomonidan ham tasdiqlanadi<sup>9</sup>.

<sup>1</sup> Bu haqida qarang: Гуломов Х.Г. Новый взгляд на экспедицию А. Бековича-Черкасского в Среднюю Азию // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2005, №5-6. 70-76-бетлар.; Адилев Ж.Х. Экспедиция Александра Бековича-Черкасского в Среднюю Азию: историографическая динамика// O'zbekiston tarixi. 2014, №4. 47-61-бетлар. Ўша муаллиф. Александр Бекович-Черкасскийнинг Ўрта Осиёга уюштирган экспедицияси тарихшунослигига доир// Историческая наука в контексте интеллектуального развития Центральной Азии (очерки историографии и источниковедения) / Отв. ред. д.и.н. Д.А. Алимова. Ташкент, Yangi nashr. 2014. 93-99-бетлар.

<sup>2</sup> Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент: Фан, 2005. С. 244.

<sup>3</sup> Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края, составленный А.Г. Серебренниковым. Т. I. – Т., 1908. – С. 24-28.

<sup>4</sup> Захарьин (Якунин) И. Н. Хива. Зимний поход в Хиву Перовского 1839 году и Первое посольства в Хиву в 1842 году. СПб.: Изд. П.П. Сойкина, 1898. С.20; История 4-го Туркестанского линейного батальона, с картой, за период с 1771 по 1882 год, как материал к описанию движения русских в Среднюю Азию. / Сост. В.Н. Зайцев. Т., 1892. С. 7.

<sup>5</sup> Алекстров А.Е. Граф Василий Перовский и степные народы в управлении его Оренбургским краем// Оренбургский край. 1893. №109, 112, 115,118, 121; Бартев П.И. Граф Василий Алексеевич Перовский// Русский архив. 1878. Кн. 1-4. С. 1-26; Голосов Д. Поход в Хиву в 1839 г. отряда русских войск под начальством ген.-адъютанта Перовского// Военный сборник. СПб., 1893. Т. XXIX. №1,2; Даль В.И. Письмо о Хивинском походе. // В кн. Даль В.И. Соч. СПб., М., 1897. Т. 10. С. 442-509; Желябужский Е. Очерки завоевания Хивы. М., 1875; Зыков С.Н. Хивинские дела с 1839 по 1842 гг.// Русское слово. 1862. №3; Иванов М.И. Хивинская экспедиция 1839–1840 гг. СПб., 1873; Игнатович А.В. Хивинский поход в 1839-1840 гг. по записки полковника Зеленина// ТОУАК. Вып. 30. Оренбург, 1914. С.109-119; Скайлер Е. Среднеазиатская культура и наша политика на Востоке// Вестник Европы. 1878. Июнь; Терентьев М.А. Россия и Англия в Средней Азии. СПб., 1875; Севастьянов С.Н. События в Оренбургском крае, подготовившие экспедицию в Хиву 1839-1840 гг.// Труды Оренбургской ученой архивной комиссии. 1906. Вып. XVI.

<sup>6</sup> Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. Ташкент, 1948. С. 145.

<sup>7</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамфарма, 1-рўйхат, 1-иш. 8-варақ.

<sup>8</sup> Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. Ташкент, 1948. С. 145.

<sup>9</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамфарма, 1-рўйхат, 1-иш. 7-8-варақлар.

To'plamni tuzish o'sha vaqtda Yettisuv injener distansiyasi (yo'l uchastkasi. – J.A.) boshlig'i lavozimini egallab turgan harbiy injener polkovnik A.G. Serebrinnikovga topshiriladi. To'rt yil (1902-1905-yy.) davomida olib borilgan izlanishlar natijasida A.G. Serebrennikov tomonidan Peterburg, Moskva, Toshkent, Verniy (Olma-Otaning eski nomi. – J.A.) Orenburg, Tiflis va Omsk arxivlari tadqiq etiladi. Tashqi ishlar vazirligi, Dengiz vazirligi, harbiy vazir kanselyariyasi, Orenburg harbiy okrugi shtabi, Sibir harbiy okrugi shtabi, Turkiston general-gubernatori kanselyariyasi, Yettisuv viloyati qo'shini shtabi, Yettisuv kazak qo'shini viloyat boshqarmasi arxivlari fondlari ko'rib chiqildi<sup>1</sup> va to'plam tarkibiga kiritildi.

A.G. Serebrennikovning o'zi bu haqida: *“Turkiston o'lkasining zabt etilishi uch tomondan – Orenburg, Sibir va Kavkazdan olib borilganligini inobatga olgan holda ushbu zabt etish tarixiga doir ma'lumotlarni yig'ishda, faqatgina hujjatlarning asosiy qismi saqlanadigan Toshkent va Turkiston o'lkasining boshqa shaharlari arxivlari, Bosh shtabning harbiy-ilmiy va umumiy arxivi hujjatlari bilan cheklanib qolmasdan, shuningdek, Orenburg, Omsk, Tiflisda joylashgan arxivlardan ham foydalanishga qaror qilindi. Keyinchalik Turkiston o'lkasining zabt etilishi tarixini yoritish uchun Harbiy Vazirlik kanselyariyasi, Bosh muhandislik boshqarmasi, Dengiz Vazirligi arxivlaridan, Tashqi Ishlar Vazirligining Sankt-Peterburgdagi bosh arxividan va Bosh Shtabning umumiy arxivining Moskva bo'limidagi hujjatlarni ham tadqiq etish zarurati tug'ildi”* deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, Turkiston harbiy okrugi shtabi tomonidan Toshkentda 1908-1915-yillarda to'plangan hujjatlarning mo'ljallangan 30 jildidan faqatgina 14 jildi nashr etiladi (1839-1852 va 1864-1866-yillar uchun). Qolgan jildlar nashrga tayyorlangan edi<sup>3</sup>. Ammo Birinchi jahon urushining boshlanishi natijasida ular nashr etilmay qoladi. Nashr etilgan to'plamlar “oshkor etilmasin” grifi bilan, adadining soni 50 nusxadan iborat bo'lgan holda chop etiladi. Kam nusxada chop etilganligi va XX asrning dastlabki choragida sobiq Rossiya imperiyasi hududida bo'lib o'tgan siyosiy o'zgarishlar natijasida ushbu to'plam bibliografik kamyoblikka aylanadi. Shuning uchun hozirda O'zR MDA da saqlanuvchi I-715 jamg'armasi ushbu to'plamning yagona to'laqonli shakli bo'lib qoldi.

Hozirda jami 74 saqlov birligidan iborat ushbu hujjatlarning 70 jildi bevosita nashrga tayyorlangan hujjatlardan iborat. Jamg'arma tarkibiga kiruvchi qolgan 4 jild A.G. Serebrennikovning to'plamni tuzish bo'yicha ish rejalari va qoralama yozuvlarini o'z ichiga olgan.

I-715 jamg'armasining dastlabki saqlov birliklari 1839-1840-yillarda Turkistonga uyushtirilgan graf V.A.Perovskiyning harbiy yurishi<sup>4</sup>, ushbu yurishga tayyorgarlik va uning borishi va boshqa jihatlarni yorituvchi hujjatlardan iborat. A.G.Serebrennikovning ma'lumotiga ko'ra: *“Marhum general N.A. Ivanovning ko'rsatmalariga asoslanib, ushbu materiallar to'plami muallifi ularni 1839-yildan, ya'ni graf V.A.Perovskiyning Xivaga uyushtirgan qishki yurishidan boshlab yig'ishga kirishgan”*<sup>5</sup>.

I-715 jamg'armasining dastlabki to'rtta saqlov birligida V.A.Perovskiyning Xivaga uyushtirgan yurishi va unga aloqador bo'lgan hujjatlar jamlangan bo'lib, 1-ro'yxat, 1-yig'majildda asosan, 1839-yil voqealari yoritilgan bo'lib, jami 154 hujjat va ushbu hujjatlarga ilovalarni o'z ichiga olgan. Ushbu hujjatlarning barchasi bevosita yoki bilvosita V.A.Perovskiyning Xivaga uyushtirgan yurishiga aloqadordir. Xususan, yurish tarixini bevosita yurituvchi hujjatlardan alohida ahamiyatlisi bu 1835-yilda V.A.Perovskiy tomonidan Xivaga harbiy yo'l bilan kirib borishga doir ma'lumotidir<sup>6</sup>. Ushbu ma'lumotga ilova tarzda Xivaga harbiy yurish loyihasi<sup>7</sup>, yurish ishtirokchilarining tarkibi<sup>8</sup>, yurishga ketadigan xarajatlar<sup>9</sup> haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, V.A.Perovskiyning ma'lumotida Rossiya va Xiva munosabatlarining qisqa tahlili amalga oshirilgan. Unda V.A.Perovskiy Xiva hukumatini A. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi a'zolarini qirib tashlashida ayblab,

<sup>1</sup> Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. Ташкент, 1948. С. 145-146.

<sup>2</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш. 8-варақ.

<sup>3</sup> Центральный государственный исторический архив УзССР. Путеводитель. Сост. Агафонова З.И., Халфин Н.А. Ташкент, 1948. С. 146.

<sup>4</sup> *Yurish haqida batafsil qarang:* Захарьин (Якунин) И.Н. Граф В. А. Перовский и его зимний поход в Хиву. СПб., 1901; Ўша муаллиф. Поход в Хиву в 1839 году отряда русских войск под начальством генерал-адъютанта Перовского // Военный сборник. 1863. Т. XXIX. -№1, январь. С.3-72; Т. XXX. №3; Ўша муаллиф. Хива. «Зимний поход в Хиву Перовского 1839 году» и «Первой посольства в Хиву» в 1842 году. СПб.: Изд. П.П. Сойкина, 1898.

<sup>5</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш. 8-варақ.

<sup>6</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамғарма, 1-рўйхат, 1-иш. 20-27-варақлар.

<sup>7</sup> ЎзР МДА. 30-38-варақлар.

<sup>8</sup> ЎзР МДА. 39-41-варақлар.

<sup>9</sup> ЎзР МДА. 42-46-варақлар.



ushbu ekspeditsiyani elchilik missiyasi ekanligini e'tirof etadi<sup>1</sup>. O'z ma'lumotining so'ngida, V.A. Perovskiy, Xivani bosib olish uchun talay sabablar borligini keltirib, bu bilan Xiva yurishining o'ziga xos epistolyar legitimatsiyasini vujudga keltirishga harakat qiladi<sup>2</sup>. Ushbu loyihaga "Rossiyaning Xiva xonligi bilan aloqasi va Xiva xonlarining Rossiyaga doir xalqlar huquqiga qarshi ishlari haqida ma'lumot" ham ilova qilingan edi<sup>3</sup>. Aynan shu ma'lumotda V.A. Perovskiy Xivani bosib olishga doir sabablar va bahonalarni ro'kach qiladi<sup>4</sup>.

Ushbu jamg'armaning 1-ro'yxat, 2-yig'majildida jami 159 hujjat bo'lib<sup>5</sup>, bu hujjatlarda 1840-yildagi yurishning borishi va uning omadsiz yakunlanishidan keyin ishtirokchilarining ortga qaytishi yoritilgan. Shuningdek, ushbu yig'majildda imperator Nikolay I tomonidan V.A.Perovskiyga yurish uchun yo'llangan reskripti<sup>6</sup>, yurish ishtirokchilarini taqdirlashga doir turli hujjatlar mavjud<sup>7</sup>.

I-715 jamg'armasining 1-ro'yxat, 3-yig'majildida esa 1841-yildagi voqealarni o'zida aks ettiruvchi jami 73 ta hujjat mavjud bo'lishiga qaramay, ularning to'rttasigina V.A. Perovskiyning Xivaga uyushtirgan yurishiga aloqadordir<sup>8</sup>. Ular quyidagilar:

- 1) V.A.Perovskiyning harbiy vazir (graf A.I. Chernishyov – J.A.) nomiga yozgan 1839-1840-yildagi Xiva yurishiga sarf qilingan xarajatlarning hisobotini tasdiqlash haqidagi hujjati<sup>9</sup>;
- 2) Harbiy vazirning imperatorga Xiva yurishiga sarflangan xarajatlar haqida yo'llagan ma'lumot<sup>10</sup>;
- 3) Imperator Nikolay I ning V.A.Perovskiy nomiga yo'llagan Xiva yurishi uchun xarajatlar hisobotini tasdiqlash to'g'risidagi Oliy farmoni<sup>11</sup>;
- 4) Harbiy vazirning V.A.Perovskiy nomiga yo'llagan Xiva yurishiga sarf qilingan xarajatlarga doir hisobotning tasdiqlanishi haqidagi hujjat<sup>12</sup>.

Kam sonli ushbu nashr yurish tarixiga doir barcha hujjatlarni o'zida jamlagan bo'lib, hozirgi kunda bu hujjatlar to'plamini nashr etish uchun yig'ilgan materiallarni o'zida birlashtirgan jamg'arma I-715 raqami ostida O'zR MDA da saqlanmoqda<sup>13</sup>.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Markaziy Osiyo tarixida muhim ahamiyat kasb etgan Rossiya imperiyasining o'lkaga kirib kelishi tarixini yorituvchi ushbu jamg'armadagi hujjatlarning asosiy qismi yuqorida qayd etilganidek, hali nashr etilmagan. Ushbu hujjatlarda Turkiston o'lkasining XIX asrdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, Rossiya imperiyasi bilan munosabatiga doir yangi ma'lumotlar borligini inobatga olgan holda, ularni tadqiq etish va ilmiy muomalaga kiritish zarur deb o'ylaymiz. Buning uchun hozirda O'zR MDAning I-715 jamg'armasida saqlanayotgan hujjatlar mutaxassislar tomonidan tadqiq etilishi va chop etilishi zarur. Shuningdek, ushbu hujjatlarni o'quv xrestomatiyasi sifatida nashr etish ham tarixchi mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

## NIKOH VA OILA MUNOSABATLARINING DUNYOVIY VA DINIY TALQINI

**Xolmirzayev D.X. - Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi**

**Annotatsiya.** Insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi omil uning nikoh va oilaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib baholanadi. O'zbek xalqining azaliy an'alariga ko'ra nikoh va oila tushunchasiga

<sup>1</sup> ЎзР МДА. 20-21-варақлар.

<sup>2</sup> ЎзР МДА. 25-варақ.

<sup>3</sup> Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент: Фан, 2005. С. 244.

<sup>4</sup> Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края, составленный А.Г. Серебrenниковым. Т. I. Ташкент, 1908. С. 24-28

<sup>5</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамғарма, 1-рўйхат, 2-иш.

<sup>6</sup> ЎзР МДА. 311-варақ.

<sup>7</sup> ЎзР МДА. 374-376, 405, 407, 423-424-варақлар.

<sup>8</sup> ЎзР МДА, И – 715-жамғарма, 1-рўйхат, 3-иш.

<sup>9</sup> ЎзР МДА. 103-112-варақлар.

<sup>10</sup> ЎзР МДА. 193-200-варақлар.

<sup>11</sup> ЎзР МДА. 201-варақ.

<sup>12</sup> ЎзР МДА. 202-203-варақлар.

<sup>13</sup> Адиллов Ж.Х. Архивные документы о завоевании Туркестанского края Российской империи (На примере похода В.А. Перовского)// «Документ. Архив. История. Современность». Материалы V Международной научно-практической конференции. Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2014. С. 160-162.

nisbatan munosabat qanday bo'lgan? Ushbu maqolada nikoh va oiladek muqaddas va e'zozli tuyg'uga nisbatan bugungi kundagi munosabat dunyoviy va diniy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Nikoh va oila munosabatlari, din, qadriyat, er va xotin, qarindoshlik, an'ana, urf-odat, dunyoviy va diniy bag'rikeng(tolerant)lik.

### СВЕТСКАЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ БРАЧНЫХ И СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

**Холмирзаев Д.Х. - доцент Ташкентского государственного педагогического университета, кандидат искусствоведения**

**Аннотация.** Фактор, определяющий положение человека в обществе, в первую очередь, оценивается на основе отношений к браку и семье. Каково отношение узбекского народа к понятию брака и семьи? В своей статье автор попытался проанализировать текущее отношение к таким священным и уважительным социальным институтам, как брак и семья.

**Ключевые слова:** брак и семейные отношения, религия, ценности, муж и жена, родство, традиции, обычаи, светская и религиозная толерантность.

### SECULAR AND RELIGIOUS ATTITUDES TOWARDS MARRIAGE AND FAMILY

**Kholmirezayev D.H. - Associate Professor of the Tashkent State Pedagogical University, Candidate of Art Sciences**

**Annotation.** The factor determining the position of a person in society is, first of all, evaluated on the basis of attitudes towards marriage and family. What was the attitude to marriage and family according to the ancient traditions of the Uzbek people? In his article, the author tried to analyze the current attitude towards such sacred and respectful social institutions as marriage and family.

**Key words:** marriage and family relations, religion, values, husband and wife, kinship, traditions, customs, secular and religious tolerance.

Ko'hna an'analarimizga ko'ra, bir oila buzilsa, Allohning Arshi larzaga keladi, degan purma'no tushunchalar o'z qiymatini yo'qotib bormoqda. Taassufki, hozirda har kuni o'nlab oilalarda ajrimlar sodir bo'lishidan Allohning Arshi larzaga kelishi odat tusiga kirdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2017-yilda birgina Samarqand viloyati sudlarida oilaviy muammolar bo'yicha besh mingdan ziyod ish ko'rilgan. Afsuski, ulardan 70 foizi ajralish bilan yakunlanib, yigirma foizi ish yurituvda bo'lsa, faqatgina o'n foiz oilalar mahalla yarashtirish komissiyalarining sa'y-harakati tufayli saqlab qolindi.<sup>1</sup>

Nikoh va oila munosabatlariga nisbatan bepisand va yengil qarashlarning oldi olinmas ekan, ajrimlar bois tirik yetim, farzandlar soni ortgandan-ortib boraveradi. Ushbu dolzarb muammo, nafaqat xotin-qizlar qo'mitasi yoki mahalla yarashtirish komissiyalarining balki qalbida millatning ertasi, sha'ni va g'ururiga nisbatan qayg'urush tuyg'usi bor har bir fuqaroning insoniy vazifa va burchidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatida keltirilishicha, nikohdan ajralgan, baxtsiz hodisa tufayli boquvchisidan ayrilgan va ijtimoiy ko'makka muhtoj 13 mingta oila mavjud. 2019-yilda ularning to'laqonlik umr kechirishi uchun davlat tomonidan moddiy-ijtimoiy ko'mak ko'rsatish rejalashtirilgan.<sup>2</sup>

Jumladan, o'zbek xalqida iymon, e'tiqod, halollik va adolat kabi purma'no so'zlarning dunyoviy va diniy mazmun va mohiyati muqaddas qo'rg'on atalmish oilada poydevori qo'yiladi. Keyinchalik bu amaliy tushunchalar ta'lim va tarbiya maskanlarida ilmiy asosda rivojlantiriladi.

<sup>1</sup> Абдурашидов С. М. Оила ва никоҳ: ҳуқуқий, психологик ва сиёсий масала сифатида // Оила ва никоҳ бугуннинг долзарб масаласи. "Оила" илмий маркази конференция тўплами. — Т.: 2018. — 97 бет

<sup>2</sup> "Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2018 йил Олий Мажлисга мурожаатномаси. Kup.uz

Ilgarilari, nikoh va oila tushunchalariga nisbatan hurmat va e'zoz tuyg'usi, avvalo, oilada bobo-buvi, ota-ona va yoshi ulug' keksalar tomonidan tarbiya mezoni sifatida yoshlikdan singdirilgan. Ammo hozirgi kunda bu kabi suhbatlar ko'pchilik uchun o'z qiymatini yo'qotdi. Mehmondorchilik dasturxonida kechuvchi suhbatlar ham "ko'proq pul topish va tezroq boyish" haqida kechishi odatga aylandi. Avvalo, ko'p pul topish va boy bo'lish, dunyoviy va diniy ta'limotlarda qoralanmagan, lekin hech bir boylik hayotda yo'qotganlarimizni o'rnini to'ldira olmaydi.

Xususan, buzilayotgan nikoh va oilalar to'g'risida qayg'urishga hali ham kech bo'lmadi, ammo vaqt kutib turmaydi. Ta'limning quyi bo'g'inidan boshlab, nikoh va oila konsepsiyasiga asoslangan tarzda ta'lim va tarbiya ishlari izchil olib borilishi lozim. Xususan, oliy ta'lim dargohlarida gumanitar fanlarni o'qitishda nikoh va oilaning muqaddasligi hamda uni asrab-avaylashdan yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shish mumkinligini uqtirish lozim.

Jumladan, aholining asosiy qismi e'tiqod qiluvchi islom dini ta'limotlariga ko'ra, ikki jins vakillari o'rtasidagi yaqinlikning yagona va sha'riy yo'li muqaddas nikoh orqali bog'lanishdir. Islom dinida nikoh va oila qurishga nisbatan, Alloh Taoloning inoyati va Payg'ambarning sunnati sifatida qaralgan. Jumladan, Qur'oni Karimning "Ra'd" surasining 38-oyatida: "Darhaqiqat, Sizdan ilgari ham (ko'p) payg'ambarlar yuborganmiz va ularga xotinlar va zurriyotlar berganmiz", deb marhamat qilinadi. Ushbu oyatning tafsirida aytiladi: Islom dini kelgan vaqtda ba'zi insonlar: "Bu qanday payg'ambar bo'ldiki, ovqatlansa, oila qursa?" deb Rasulullohga (alayhissalom) da'volar qilishdi. Shunda Alloh Taolo ushbu oyati Karimni tushirib, Muhammad (alayhissalom) ham oddiy bashar farzandi ekani, u ham o'zidan oldin kelgan payg'ambarlar singari uylanib, oila qurishi va o'zidan ko'payishi oddiy hol ekanini bildirdi. Rasululloh (alayhissalom)dan rivoyat qilingan hadisda: "To'rt narsa payg'ambarlarning sunnatlari: ya'ni hayo, xushbo'ylik, misvoq tutish va nikoh" dedilar.<sup>1</sup>

"Nikoh" so'zi arab tilida "uylanish" va "qo'shilish" degan ma'nolarni anglatib, shariat istilohida esa nikoh erkak va ayolning o'zaro oila bo'lib yashashga kelishuvidir.

"Rum" surasining 21-oyati karimasida shunday deyilgan: "Uning alomatlaridan (yana biri) — sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o'zlaringizdan juftlar yaratgani va o'rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir".<sup>2</sup>

Islom tarixidan ma'lumki, ba'zi sahobiyalar batamom ibodat bilan mashg'ul bo'lish maqsadida har doim ro'zador bo'lib yurish, kechalari uxlamaslik hamda uylanmaslikka Rasulullohdan (alayhissalom) izn so'raganlari haqida rivoyatlar kelgan. Shunda Nabiy(alayhissalom)ning g'azablari kelib: "Allohga qasamki, men sizlardan ko'ra taqvodorroqman, lekin men ro'za tutaman va ro'za tutmagan kunim ham bo'ladi, kechening bir qismida namoz o'qiyman va qolganida uxlayman hamda nikoh ham quraman. Kim mening sunnatimdan yuz o'g'irsa, u mendan emas", dedilar. Imom Tabaroniy va Imom Bayhaqiy rivoyat qilgan boshqa bir hadisda Rasululloh (alayhissalom): "Kim uylanishga qodir bo'lib uylanmasa, u mendan emas", dedilar. Yana bir hadisi sharifda, Rasululloh (alayhissalom): "Uylaninglar, nasl qoldiringlar, ko'payinglar, bas, men qiyomat kuni sizlardek ummatim (ko'pligi) bilan faxrlanaman deb marhamat qilganlar".<sup>3</sup>

Islom ta'limotlariga ko'ra, oila qurmaslik, o'zini bundan olib qochishdan qaytariladi. Musulmon kishi yoshligidan oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik ko'rishni boshlab, kelajakda yelkasiga tushadigan mas'uliyat yukini ko'tarishga ma'nan hozirlanib boradi. Balog'at yoshiga yetgach esa islom dini talablariga muvofiq oila quradi. Ma'nan va jismonan sog'lom farzand tarbiyasining asosi ham aynan munosib nikoh qurishdan boshlanadi.

Farzand dunyoga keldi, unga munosib tarbiyalash bilan oila, ta'bir joiz bo'lsa, jamiyatning "yadrosi"ga aylanadi. Inson evolutsiyasida oila va jamiyatning o'zaro chambarchas tarzda rivojlanishi, jamiyat kelajagining porloq bo'lishi, oilaning ma'nan va jismonan sog'lom bo'lishi, davriy hodisa sifatida muqaddas diniy manbalarda qayd etilgan:

— oila a'zolarining o'zaro munosabatlari iymon, e'tiqod va o'zaro hurmat asosiga qurilishi, ya'ni er-xotin o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy hamda ma'naviy jihatdan ham tafovut bo'lmasa, oila a'zolari o'rtasida o'zaro tushunmovchiliklarga duch kelinmaydi;

<sup>1</sup> "Qur'oni Karim" da oila, nikoh, er-xotin va farzand tarbiyasiga doir sura va oyatlar. qur'on.uz

<sup>2</sup> "Qur'oni Karim" da oila, nikoh, er-xotin va farzand tarbiyasiga doir sura va oyatlar. qur'on.uz

<sup>3</sup> "Xadisi Sharif" Oila, nikoh, er-xotinlik va farzand tarbiyasiga doir hadislar. muslim.uz va moslima.uz

— oila qurishda har bir shaxs, avvalo, o'ziga munosib juft tanlay bilishi lozim, diniy ulamolar oila qurishni maqsad qilgan yoshlarga dastlab oilalarning sotsial, ma'naviy va madaniy jihatdan bir-biriga o'zaro teng va munosib bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadilar. Nikoh qurishda har jihatdan tenglik, shariatda oila bardavomligi "kafolati" sifatida oilada o'zaro kafolat — tenglik yetishmasligi esa nikohga to'sqinlik qilmasada, ammo zaruriy shart hisoblanadi;

— oilada er-xotinning o'zaro munosabatlarida e'tibor, o'zaro hurmat va oila sirlarini saqlashda sadoqatli bo'lishlari talab etilgan. Zero, bunday oilada tarbiya topib, kamolga yetgan farzandlar istiqbolda ham shu kabi yuksak fazilatlarga ega bo'ladi. Aksincha, oilaning sirlarini oshkor qilish kabi holatlar islom dinida qattiq qoralangan. Bu borada Rasululloh (alayhissalom): "Qiyomat kuni er-xotin o'zaro yaqinlik qilganidan so'ng, ulardan biri o'z sherigining sirini oshkor qilgan kishi Allohning nazdida insonlarning eng yomonidir", deb marhamat qilganlar;

— oilaning ustuni sifatida erkak, o'z zimmasidagi mas'uliyatini his etib, ayoli va farzandlariga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishi yaratgani rahmatiga sazovor bo'ladi. Oilada erkakning asosiy vazifasi oilani asrab-avaylash, moddiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan bekam-u ko'st bo'lishiga harakat qilish kerakligi hadislarda ham keltirilgan: "Mo'minlarning iymoni mukammali — yaxshi xulqlisi ahli ayoliga yaxshi muomalada bo'ladiganidir", "Allohning nazdida bandalarning eng yaxshi xulqlisi o'z ahli ayoliga foydasi ko'proq tegadigan kishidir" yoki "Erlarning yaxshilari ahli ayoliga yaxshi munosabatda bo'lganlaridir" [4];

— yaxshi xulqli va diyonatli erlar o'z ahli ayolini izzat-ikrom qilguvchi, erlarning badxulqi esa ularning xor-u zor qilguvchilardir". Hadislarda bayon qilinishicha bu kabi purma'no hikmatlarga amal qilinishi oilalarning barqaror va mustahkamligini ta'minlashga xizmat qilib kelgan;

— "Ayollarga nisbatan erkaklarning darojotida bir pog'ona ustun (ziyoda)lik bor" (*Baqara, 228*) kabi oyatlarda zikr qilingan "ustun"lik tushunchasini aksariyat erkaklar, ayollarga nisbatan xohlaganini qilishsin yoki istaganlaricha o'z oilasiga zulm o'tkazishsin, deb tushunadilar. Ammo oilada ustunroq bo'lish, aksincha, ahli ayolga nisbatan mas'uliyatni his etish demakdir. Nikohga nisbatan hurmat va e'zozda bo'lgan oilada kamol topgan farzandlarning ma'naviy dunyosi boy bo'lib, moddiy tomondan o'z-o'zini ta'minlash ko'nikmasiga ega bo'lishadi;<sup>1</sup>

— ayolning oila muhitiga mas'ulligi, ya'ni ozodalik, saranjom-sarishtalik va farzand tarbiyasiga nisbatan sidqidildan yondashuvdir.

Din ahlilarining fikricha, oila va nikoh munosabatlarida yuqorida keltirilgan shartlarga rioya qilinsa, bunday sog'lom muhitli oilada kamolga yetgan farzandlar odob-axloq va yuksak fazilatli inson sifatida el-yurt koriga yaraydigan salohiyatli barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadilar.

Darhaqiqat, islom manbalarida oila mustahkamligiga qanchalik e'tibor qaratilgan bo'lsa, uni buzilishi, vayron bo'lishidan shunchalik qaytarilgan. Hadisi Sharifda: "Halol va ruxsat etilgan narsalarning ichida Alloh taolaga xush kelmaydigani — taloqdir", deyilgan.<sup>2</sup>

Hozirgi iqtisodiy qiyinchilik va yetishmovchiliklar davrida o'zaro munosabatda turli kelishmovchiliklar ro'y bergan jarayonida ham inson va uning oilasi sha'niga nisbatan g'iybat, tuhmat va turli noxolis gap-so'zlarni aytish, fikr chiqarishda sabrsizlik qilish va yengil hayot ishtiyoqida nikohni buzish og'ir hamda kechirilmas gunohdir. Ayniqsa, bironing oilasi tinchligiga raxna solish islom dinida qattiq qoralangan.

Bu borada hadisi sharifda: "Kim bironing yoki (rahbar) o'z qo'l ostidagi kimsaning sha'ni, g'ururi yoki oilasini kamsituvchi biror so'z aytsa, bu so'z jamoa yoki oilasida turli mojaro yoki nizo chiqishiga sababchi bo'lsa, u kimsa islom ahlidan emas", deyilgan.<sup>3</sup> Shariatda chorasiz holatdagina taloqqa ruxsat berilgan, biroq, muqaddas manbalarda oilaning buzishdan ko'ra, saqlab qolishga bo'lgan chaqiriqlar ko'plab uchraydi. Er-xotin o'rtasida o'zaro murosaning iloji qolmagan taqdirda ikki tarafdan vositachilar qo'yilib, o'rtalarini isloh qilib, yarashtirish buyurilgan.

Bu borada Qur'oni Karimda: "Ular bilan totuv turmush kechiringiz, agar ularni yomon ko'rsalaringiz, (bilib qo'yingki) balkim, sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh (sizlar uchun) ko'pgina yaxshiliklarni ato qilishi mumkin" (*Niso, 19*) deyilgan. Ushbu oyat tafsirida: "Siz ayolingizning ba'zi ishlarini yoqtirmay qolganingizda ham talog'ini berib ajrashib ketavermang! Aksincha, unga bardosh berib, sabr qiling

<sup>1</sup> "Qur'oni Karim" da oila, nikoh, er-xotin va farzand tarbiyasiga doir sura va oyatlar. qur'on.uz

<sup>2</sup> "Hadisi Sharif" Oila, nikoh, er-xotinlik va farzand tarbiyasiga doir hadislar. muslim.uz va moslima.uz

<sup>3</sup> "Hadisi Sharif" Oila, nikoh, er-xotinlik va farzand tarbiyasiga doir hadislar. muslim.uz va moslima.uz

va tarbiyalang. Ayolingizning har bir jihatini yomon ko'rishingiz mumkin, lekin Alloh taolo ana shu siz yoqirmagan jihat sabab sizga ko'plab yaxshiliklarni ravo ko'radi". deyilgan.<sup>1</sup>

Rivoyat qilinischicha, bir darvesh uzoq bir yurtda yashaydigan avliyoning shon-shuhratini eshitib, uni ko'rmoq uchun yo'lga chiqdi. Tun-u kun yo'l yurib, tog' u toshlardan oshib, yam-yashil yaylovlardan o'tib, nihoyat avliyo yashaydigan shaharga keldi. Uning uyini topib, hurmat bilan eshigini qoqdi. Shayxning xotini eshikdan boshini chiqarib so'radi:

— Nima istaysan?

— Avliyo zotni ziyorat qilish uchun falon shahardan keldim, — dedi darvesh.

Musofirni so'zini eshitgan ayol qah-qah otib kuldi:

— Uzun soqolingga boq, hech o'ylamay ish qilibsang, bu ovoragarchilikni sababi nima? Sening boshqa qiladigan ishing yo'qmidiki, shuncha vaqtingni behuda sarflab, bir ahmoqni ko'rish uchun shuncha zahmat chekibsang, u shunga arziydimi? — deya, eri haqida yana ko'p va xo'p yomon so'zlarni aytib, haqoratlar qilibdi.

Darvesh uning hamma gaplarini sabr bilan eshitib, oxirida:

— Gapingni tugatgan bo'lsang, u muborak zotning qayerdaligini ayt, uni ko'ray, — deya ko'z yoshi to'kibdi.

Darvesh javob sifatida ayoldan yana ko'p haqorat so'zlarni eshitdi.

Darvesh dili ozor cheksa-da, maqsadidan chekinmay odamlardan shayxning o'rmonga o'tin terгани ketganini aniqlab, o'rmonga yo'l olibdi. Yo'lda borar ekan: "Qanday qilib, avliyo bunday badfe'l, tili zahar va og'zi shaloq ayol bilan yashayapti, — deya o'yg'a tildi. Shu vaqt qarshisidan bahaybat bir arslonga o'tinlarini ortib, ustiga o'zi ham minib olgan avliyo chiqibdi. Avliyo darveshning ko'nglidan o'tgan o'y-fikrlarini anglab, dedi:

— Men shu badfe'l xotinga sabr qilib, dard va alam yukini tortayotganim uchun bu arslon hech e'tirozsiz mening yukimni ko'tarishga rozi bo'ldi.<sup>2</sup>

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, nikoh va oila munosabatlari haqidagi dunyoviy va diniy tushunchalarni mazmun va mohiyati, avvalambor oilada shakllantirib, rivojlantiriladi. Nikoh va oila kabi muqaddas tushunchalarga nisbatan halollik, adolat va o'zaro hurmatda bo'lishdek xislatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish, oila, ta'lim va jamiyatni o'zaro uyg'unlikdagi faoliyatidan yuzaga keladi. Barcha Ilohiy dinlarda oila, nikoh va farzand tarbiyasi er-xotin munosabatlarida ularning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Shuningdek, nikohga bo'lgan targ'ib, u payg'ambarlarning sunnati joiz unga ergashish kerakligi uqtirilgan. Shuningdek, dunyoviy tushunchaga ko'ra, jamiyatning muhim bo'g'ini hisoblangan oila va nikohlarni asrash, ularni buzilishiga yo'l qo'yimaslik, farzand tarbiyasiga munosib muhit va shart-sharoit yaratish yurt istiqbolini belgilovchi muhim omillar ekanini yodda tutish zarur.

<sup>1</sup> "Қуръони Карим" да оила, никоҳ, эр-хотин ва фарзанд тарбиясига доир сура ва оятлар. qur'on.uz

<sup>2</sup> Рассказы из Торы. Religiya.ru/ Тўқсон мўмтоз файласуф. Т.: Yangi asr avlodi. 2012, — Б. 97.

**ҲАММАСЛАК АДИБЛАР ИЖОДИДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТАЛҚИНИ**

**Қаҳрамонов Қ. - филология фанлари доктори, профессор**

**Аннотация.** Мақолада ўзбек-қирғиз адабий алоқалари О.Ёқубов ва Ч.Айтматов ижоди мисолида қиёсан тадқиқ этилади. Ҳар иккала ижодкорнинг муштарак мавзудаги асарлари, қаҳрамонларнинг миллий ва умуминсоний қадриятларни улуғловчи характер хусусиятлари таҳлиллар орқали очиб берилади.

**Калит сўзлар:** адабий алоқалар; адабий таъсир; характер, тип, давр руҳи, ижодкор, қадриятлар; реалистик тасвир; романтик руҳ.

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЕДИНОМЫШЛЕННИКОВ**

**Кахрамонов К. - доктор филологических наук, профессор**

**Аннотация.** В статье рассматриваются узбекско-кыргызские литературные сравнительные исследования О.Якубова и Ч.Айтматова. Работы обоих создателей на общую тему, а также черты характера, характеризующие национальные и общечеловеческие ценности, выявлены путем анализа.

**Ключевые слова:** литературные связи; литературное влияние; характер, тип, дух эпохи, креативность, ценности; реалистичное изображение; романтический дух.

**INTERPRETATION OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN THE WORKS OF ALL LITERARY WRITERS**

**Kakhramonov K. - Doctor of Philology, Professor**

**Annotation.** In the given article was described the Uzbek-Kyrgyz literary comparative study by O.Yakubov and Ch.Aytmatov. The works of both creators on a common theme, and the character traits that characterize national and universal values, are revealed by analysis.

**Key words:** literary connections; literary influence; character, type, spirit of the era, creativity, values; realistic image; romantic spirit.

Туркий халқлар қадим-қадимдан жон томири билан туташиб, асрлар оша бир тан бир жон бўлиб яшаб келишмоқда. Уларнинг нафақат урф-одати, яшаш тарзи, тилию дили, айна пайтда миллий - маънавий қадриятлари ҳам муштарак хусусиятларга эга. Шу жиҳатдан айниқса, қирғиз-ўзбек адабий алоқалари алоҳида аҳамият касб этиши шубҳасиз. Бир ёнда Манасу Алпомиш, бир томонда Айтматову Одил Ёқубов, кенг маънода эса кўп асрлик моддий-маънавий, адабий алоқалар бу икки халқнинг маданий юксалишида етакчи омиллардан бири бўлди. “Чингиз Айтматовнинг қаҳрамонлари, айниқса, бизга яқин ва таниш кишилар. Чунки ўзбек ва қирғиз халқларининг маънавий ҳаёти асрлардан бери бир-бирига пайваста, дили-дилига, тили-тилига вобаста, ери-ерига, қалби-қалбига туташдир”<sup>1</sup>, - деб ёзади бу ҳақда адиб асарларининг таржимони, таниқли айтматовшунос олим Асил Рашидов. Дарҳақиқат, бу икки адиб ўртасидаги ижодий дўстлик улар асарларидаги муштарак тамойилларни белгилашга асос бўлади. Зеро, бу икки халқ фарзандининг мақсад ва интилишлари доимо бир-бирига монанд келган, бир-бирига суюнч бўлган. Хусусан, Одил Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” романи эълон қилинганда бу асарнинг нафақат ўзбек халқи ва адабиёти учун, балки бутун туркий халқлар учун муҳим аҳамиятга эга эканини англаб етган Чингиз Айтматов адибга биринчилардан бўлиб табрик йўллаган ва асарга юқори баҳо бериб қуйидагиларни ёзган:

<sup>1</sup> Рашидов А. Чингиз Айтматов мактаби.// Эрта қайтган турналар. –Т.: 2018. – Б. 393.

“Яхши китоб ҳақида гапириш мароқли. Бу – юксак олижаноб проза намунаси. Бадий қуввати жиҳатидан салмоқдор бу тарихий роман мени ларзага солди. Бу эса яхши асарнинг биринчи аломати. Бундан ҳам муҳими шундаки, романни ўқирканман, қўнглимда туркий халқларимиз тарихи учун ифтихор туйғуси жўш урди. Улуғбек шундай даҳоки, у бизнинг асрлар оша тарихимизга, заминда тутган мавқеимизга гувоҳ. Улуғбек бизнинг дилдаги оҳимиз, ҳасратимиз, у буюк инсоний тажрибалар ҳақида, дунё ҳақида юксак мезонларда туриб мулоҳаза юритиш, ҳукм-сабоқлар чиқариш учун асос берадиган шахс...”<sup>1</sup> Тарихан олиб қараганда Чингиз Айтматов ва Одил Ёқубовлар ижодининг бошланиши бир вақтга - урушдан кейинги шахсга сиғиниш иллатлари қораланиб, нисбий эркинлик бошланаётган пайтга тўғри келади. Шу маънода ҳар икки ижодкорнинг ижодига хос дастлабки муштарак жиҳатлардан бири халқларимиз руҳиятида бўлаётган ўзгаришлар, давр руҳининг одамлар ҳаётида тутган ўрни у ёки бу тарзда акс этаётганида кўринади. Хусусан, адиблар ижодининг дастлабки чорак асрида яратилган асарлари гарчи мавзу кўлами, ифода йўсини, характерлар руҳиятини очишдаги бир қатор ўзига хосликлари бўлишига қарамасдан, лекин муштарак жиҳатлари ҳам кўплаб учрайди. Мана шундай уйғун тамойиллардан бири – бу миллий ва умуминсоний қадриятларнинг улуғланишидир.

Адиблар ижодига хос муштарак хронотоп – кечаги кунимиз, собиқ шўролар даврининг у ёки бу жиҳатларини акс эттириши билан характерланади. Айни пайтда уларнинг бошқалардан фарқ қилувчи хусусияти шундаки, асосий эътиборни шўро адабиётига хос бўлган ғоявий ва мафкуравий мотивларга эмас, балки биринчи галда инсоннинг ички олами, кўнгил дардларини миллий бўёқларда, миллийлик тамойилларини умуминсоний қадриятлар билан, ғоялар билан боғлаб талқин этишда кўринади.

Чингиз Айтматов ва Одил Ёқубов яратган қаҳрамонлар оддий қишлоқ одамлари. Уларнинг бир-бирига, ҳаётга бўлган муносабатлари ҳам содда, самимий. Бу қаҳрамонлар бир қарашда атрофимизни ўраб турган одамлардан, уларнинг яшаш тарзидан сира фарқ қилмайдиган, умумхарактерга эга бўлган инсонлардек таассурот қолдиради. Бироқ ижодкорларнинг маҳорати шундаки, қаҳрамонларининг ҳар бири ўз маънавий олами, ўз ички дунёси, қалб кечинмалари ва энг муҳими, ўзларининг яшаш фалсафаси борлиги билан ажралиб туради. Ҳар иккала адиб ижодида ҳам она заминга, ватанга муҳаббат мотивлари устувор йўналишлардан биридир. Бироқ уларнинг ифодаси ўзига хос миллий бўёқларда акс этади. Бу бўёқларни биз асарда тасвирланаётган муҳит, жой манзаралари, табиат ва инсон муносабатлари тасвирлари орқали кўришимиз мумкин. Чингиз Айтматов асарларида кўпроқ тоғ, кенг дала, поёнсиз дашту қирлар, умуман қирғиз халқининг яшаш ҳудуди ва у ерда истиқомат қилаётган одамлар руҳияти, психологияси ўзининг поэтик ифодасини топганини кўришимиз мумкин. Шу жиҳатдан адибнинг “Бўтакўз”, “Сарвиқомат дилбарим”, “Эрта қайтган турналар”, “Оқ кема”, “Байдамтол соҳилларида” каби қисса ва ҳикоялари характерлидир. Бу асарларни ўқиганимизда қирғиз элининг ўзига хос нафасини ҳис этгандек бўламиз. Одил Ёқубов асарларида эса кўпроқ ўтроқ муҳитни, кенг пахта далалари-ю шу заминда яшаб, меҳнат қилаётган одамларнинг орзу-умидлари акс этади.

Модомики, шундай экан бу икки ижодкорни ижодини бир-бирига боғлаб турадиган муштарак жиҳат нима деган саволнинг туғилиши табиийдир. Бизнинг назаримизда ҳар икки ёзувчи ижодига хос бўлган муҳим жиҳатлардан бири энг аввало томири томирига туташ бу икки халқнинг бир-бирига монанд бўлган юксак маънавиятга эга қалб муштараклигидир. Ҳар икки адиб асарларида ҳам қаҳрамонлар характери энг аввало руҳий баркамоллик, чин инсоний хислатларнинг виждон, диёнат, севги, садоқат каби маънавиятга дахлдор тушунчалар билан безатилгандир. Иккинчидан эса, ҳар иккала ёзувчи қаҳрамонларига хос бўлган энг муҳим хислатлардан бири мустаҳкам эътиқод, бурч ва масъулиятни ҳис қилиш туйғусининг устуворлигидир. Буни Ч.Айтматов яратган фидойи муаллим Дуюшэн тимсолида ҳам, Она ер билан тиллашаётган Тўлғоной, Абубакир билан басма бас муштлашаётган, бутун вужуди билан Анорхой кенгликларига мафтун шоиртабиат Камол, покдил Жамила, хокисор Мўмин чол ва унинг Ок кема томон сузиб кетган невараси, Эдигей ва бошқаларнинг О.Ёқубов яратган Машраб, Муқаддас, Нормурод Шомуродов, Отақўзи, Шораҳам Шаввоз, Суюн Бургут ва унинг мард ўғли Лочин каби кўплаб образлар билан қасматдош эканида кўришимиз мумкин.

Бу қаҳрамонлар ҳар қандай шароитда ҳам ўзларининг эътиқодидан воз кечмайди ва муросасиз курашдан ҳеч қачон қайтмайди. Айни пайтда бу улар зиммаларига юклатилган вазифаларга, хоҳ

<sup>1</sup> Каримов Н ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. –Т.: 1999. –Б. 419.

ижтимоий, хоҳ маънавий бўлсин, ниҳоятда катта масъулият билан ёндошади. Умумманфаатини ўз шахсий истакларидан устун қўйиш бу қаҳрамонларнинг асосий аъмолидир. Шу боис бу адиблар ижодида шахсий дард ижтимоийлашиб, умуминсоний моҳият касб этади. Шу жиҳатдан О.Ёқубовнинг “Эр бошига иш тушса” романи билан Ч.Айтматовнинг “Эрта қайтган турналар” қиссасидаги айрим эпизодларнинг муштарак жиҳатлари характерли. Ҳар иккала асар ҳам уруш даври воқеаларига бағишланган. Уларнинг асосий қаҳрамонлари қалбида севги чечаклари ниш ура бошлаган ўсмир болалар. Романдаги шоиртабиат Машраб билан қиссадаги Султонмурот қисматида ўзига хос уйғунлик бор. Ҳар иккала асарда ҳам ота-бола муносабатлари катта инсон меҳрни, соғинч туйғусини ифодалаши билан бирга давр фажиасини очишга ҳам хизмат қилади. Ҳар иккала асарда ҳам оталар сиймоси фарзандлар хотираси орқали жонланади. Адиблар яратган қаҳрамонлар кечинмаларида оталари билан боғлиқ хотиралар тасвир этилган. Бу хотиралар уларнинг мусаффо қалбига ўкинч ва армон, соғинч ва меҳр туйғуларини сингдиради.

О.Ёқубов романида Машрабнинг отаси давр қурбони бўлади. Одатда қаттиққўл бўлган Аъзам ячеяка вафотидан олдин бир сафар ўғлининг бошини силаб меҳр кўрсатади ва унга музқаймоқ олиб бермоқчи бўлади. Аммо ўша кунни сотувда музқаймоқ тугаган эди. Уйга қайтишганда шўро арбоблари кутиб турган бўлишади... Тўхмат балосига учраб бетобланган отанинг руҳий ҳолатларини ёзувчи қўйидагича тасвирлайди.

“У каравотнинг ёнида тўхтаган ўғлига қандайдир маюс меҳр билан бир зум тикилди, лаблари билинар-биланмас пичирлаб:

- Шундай қилиб... Битта мороженое ҳам олиб беролмадим-а, ўғлим, - деди.”<sup>1</sup> Ёзувчи ушбу манзарани кейинчалик Машраб хаёлида қайта жонлантирар экан, “... Ажабо: отасининг: шундай қилиб... Битта мороженое ҳам олиб беролмадим-а, ўғлим,” деган сўзлари маюс тикилган кўзлари, гўё кечагина бўлгандай хаёлида шундай жонли гавдаландики, Машраб юраги “зир титраб кетди”<sup>2</sup>, - деб армон қилишларини адиб кейинчалик “Музқаймоқ” ҳиқоясида бу ҳаётини воқеани бутун тафсилот-у фожиалари билан батафсил тасвирлайди. “Эрта қайтган турналар” қиссасида Султонмуротнинг бир сафар отаси билан шаҳарга тушгани, отасининг уҳлаб ётган ўғлини қулоғига секин шивирлаб ўйғотиши-ю, ўша пайтда дағал соқолининг юзига тегишидаги ёқимли ҳиссиёт, шаҳардан қайтишда юлдузли осмон остида пичан устида ётганда меҳр билан қучоқлаб олиши эпизодларида бир қарашда дийдаси қаттиқдек туюладиган оталарнинг қалбида аслида фарзандларга жуда катта оталик меҳри яширинлигини ёзувчилар маҳорат билан тасвирлай олишидан далолатдир. Асарларда уруш даври учун характерли бўлган фожеа – фронтдан келаётган қора хатлар туфайли бева қолаётган суюкли ёрлар, етим қолган фарзандлар изтиробнинг адиблар томонидан бор кўлами билан тасвирланган лавҳалар давр фожиаси сифатида умуминсоний моҳият касб этади. Асарларда давр фожелигини акс эттирувчи, энг муҳими инсоний туйғуларни ифодаловчи яна бир муҳим муштарак эпизод бор. Қиссада болаларнинг уюштирган от пойгасидан кейин пайи чўзилиб чўлоқланган от воқеасини эшитган. Чекиш бригадир қаттиқ ғазабланиб, Султонмуротга бир қамчи уради. Лекин бошқасига журъат этолмай, ўзи уни қочишга даъват этади. Аммо унинг қочмай жовдираб қараб турганини кўриб, афсус-надомат ила: “...Отанг қайтгач, биргалашиб мен чолнинг адабини берарсизлар...”<sup>3</sup>, дея юпатади. Бу ўринда миллий туйғуларнинг умуминсоний қадрият даражасига кўтарилганини кузатамиз. О.Ёқубов асарида эса ўғли Ёргорнинг буғдой ўғриси сифатида қўлга тушганини эшитган Чавондоз Машраб устига от солади, йўлини тўсган Комилни бир четга ирғитиб, ўғли Қўчқорни устма-уст қамчи билан савалайди. Уям етмагандай, Машрабга қарата: “ – Менинг ўғлимга осилганча, бориб поччангнинг азасини оч! Қорахат келганига бир ҳафтадан ошди-ю, таралабедод қилиб юрибсанлар бу ёқда”<sup>4</sup>, дея юзсизларча бедодлик қилади. Бу эпизодларда нафақат давр фожиасини, балки шу давр етиштарган мулозимларнинг шафқатсизлиги гувоҳига айланамиз.

Ҳар иккала асарда ўсмир ёшларнинг беғубор севгиси маҳорат билан тасвирланади. Машрабнинг Муяссарга муҳаббати ўзбекона, миллий қадриятлар билан тўйинган ҳолда тасвирланса,

<sup>1</sup> Ёқубов О. Эр бошига иш тушса... –Т.:1987. - Б. 59.

<sup>2</sup> Ёқубов О. Эр бошига иш тушса... –Т.:1987. - Б. 59.

<sup>3</sup> Айтматов Ч. Эрта қайтган турналар. –Т.:2018. –Б. 121.

<sup>4</sup> Ёқубов О. Эр бошига иш тушса. Сайланма. Уч жилдлик. –Т.:1987. –Б. 115.



Султонмуротнинг Мирзагул бекечга бўлган севгиси ҳам ўзига хос миллий бўёқларда самимий тасвирланади. Машрабларнинг қиз эътиборини тортиш учун ҳандалак овига бориш қанчалик ҳаётий бўлса, Султонмуротнинг рақиби Онатой билан отда пойга чопиши, Мирзагул совға қилган рўмолча учун муштлиши ҳам шунчалик жозибалидир.

Ҳар икки асарда ҳам уруш даврига хос бўлган қийинчиликлар ҳаққоний тасвирланган. Ўсмир болаларнинг Оқсойдаги қўшимча ерларни шудгорлаб, ғалла экишга сафарбар этилишлари, романда эса болаларнинг эшак карвон билан буғдой ташиш, пахта далаларида ишлашга сафарбар этилишлари, уларнинг меҳнатга бўлган муносабатлари, бирида ғалла ўғрисига, бошқасида от ўғриларига қарши курашлари бу асарларнинг умумий мотивини бирлаштириб турадиган нуқталардир.

Хулоса қилиб айтганда атоқли адиб Ч.Айтматов асарларини нафақат О.Ёқубов, балки С.Аҳмад, Ў.Ҳошимов, Т.Мурод ва С.Ўнар каби турли авлод вакиллари ижоди билан қиёсан ўрганиш, уларга хос муштарак бўлган миллий-маънавий қадриятлар асосида талқин этиш қизиқарли хулосаларга имкон яратиши шубҳасиз.

#### MULOQOT JARAYONIDA KOMMUNIKANTLAR NUTQIDA UCHROVCHI XALQ MAQOLLARINING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

**Raupova L. —Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori**

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga taalluqli turli janrdagi manbalar til xususiyatlari, xususan, xalq maqollari va ularda ishtirok etgan personajlarning sotsial-mental tavsifini nutqiy voqelanishi muammolariga to‘xtalib o‘tilgan. Xalq maqollarining lisoniy jihatdan tahlili va ularning o‘ziga xos xususiyatlarining tavsifi ilmiy manbalar asosida ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xalq hayoti, dunyoqarash, e‘tiqodi, maqol, badiiy adabiyot, muloqot, pragmatika.

#### СОЦИАЛЬНО ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ В РЕЧИ КОММУНИКАНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБЩЕНИЯ

**Раупова Л. – профессор Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы, доктор филологических наук**

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы речи различных жанров, связанные с узбекским фольклором, в частности речевые особенности языка, в частности фольклор и социально-ментальное описание персонажей. Лингвистический анализ народных пословиц и их характерные черты освещены на основе источников.

**Ключевые слова:** общественная жизнь, мировоззрение, верования, пословицы, художественная литература, общение, прагматика.

#### SOCIO-RADIOGRAPHIC PROVERBIAL STUDY DURING THE DIALOGUE

**Raupova L. - professor of Tashkent State University of the Uzbek language and literature, doctor of philological sciences**

**Annotation.** In the given article was described the problems of speech of various genres associated with Uzbek folklore, in particular the speech features of the language, in particular folklore and the social and mental description of the characters. Linguistic analysis of folk proverbs and their characteristics is based on scientific sources.

**Key words:** public life, worldview, beliefs, proverbs, fiction, communication, pragmatics.

Xalq hayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, mafkurasi, dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati, afsona va cho'pchlari, xalqning o'ziga xos urf-odat va qadriyatlari, axloqiy aqidalari, hikmatli so'zu maqol-matallari, o'zbekona odobda va kommunikantlar nutqida aks etishi tushuniladi. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligining turli tarmoqlarini to'liq yoritishga bag'ishlangan qator izlanishlar olib borilishi bilan birga, yanada chuqurroq o'rganilishi lozim bo'lgan sohalar kam emasligi sezilmoqda. O'zbek xalq og'zaki ijodiga taalluqli turli janrdagi manbalar til xususiyatlarini, xususan, ularda ishtirok etgan personajlarning sotsial mental tavsifini nutqiy voqelanish aspektida tahlil qilish shular jumlasidandir. Xalq og'zaki ijodiga doir manbalarning har biri lisoniy jihatdan tahlil qilinganda bir-biridan ancha farq qiladi. Dostonlar tili ertaklardan, maqol va matallar tili topishmoqlar tilidan, xalq qo'shiqlari tili ham boshqa janr til xususiyatlaridan talaygina farqlanadi. Xalq maqollari til xususiyatlari haqida tilshunoslikda maxsus izlanishlar olib borilgan:

Nazar ahli ko'rub nortek yanoqing,

Masal: "Bir noru ming bemor" derlar (Lutfiy).

Ushbu misra "kishilar sening anordek yanog'ingni ko'rib, xalq orasida ishlatiladigan "bir anor ming bemorga davo" ekanligiga iqror bo'lishadi" ma'nosini yuzaga chiqargan. Shuningdek, adib o'z misralarida maqoldan foydalanish bilan badiiy adabiyotdagi irsoli masal san'atiga murojaat qilgan. Chunonchi: O'g'lim, kechagi yurish-turishing meni ancha izza qildi. Mashoyixlar bekorga aytishmagan: Yaxshining xulqi ortiq, yomonning yoqasi yirtiq". Buning mag'zini chaqib ol (Sh.Xolmirzayev). Bunga o'xshash maqollarda yomon, xulqi buzuq, ochko'z, surbet, zo'ravon odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi qoralanadi. Muloqot jarayonida qo'llaniladigan bunday maqollar farzandlarga pand-nasihati o'rnida hamda ularni yaxshilikka, halollikka undash maqsadida ishlatilgan. Bunday maqollarning varintlari ham mavjud. Masalan, "Yomonning tuzga kelgani — qizga kelgani", "Yomon qizga soch bitsa, yoniga yigit yo'latmas", "Yomonning kuchi yapaloqqa yetibdi", "Yomon yer bo'lmaydi, yomon er bo'ladi" va hokazo. Misollarning barchasida niyati qora kimsalardan farzandlarning uzoqroqda yurishi, bunday kimsalar bilan muloqotda bo'lishlikda nihoyatda ehtiyotkorlikka chaqirish bor. Yana misollarga murojaat qilamiz:

Zarbuvi shu o'tirgan ko'yi anchaga o'ziga kelolmay turdi, xayol o'lgur har yoqlarga boshladi-yu, yana shaytonga hay berdi, nachora: "Kuyovni payg'ambarlar siylashgan" (Q.Rahimova).

Qizining qizargan ko'zlariga qaradi-yu, og'zidagi bo'g'zida qoldi: esiga rahmatli oyisi bot-bot takrorlaydigan gapi tushdi: "Kuyovnikida quyruq yegandan — og'lnikida yudruq yegan yaxshi" (A.Qahhor).

Yuqorida keltirilgan maqollar asosan so'zlashuv va badiiy diskurslarda ishlatiladi. Maqol mazmuni kuyovni siylash kerakligi, bu bilan quda-andachilik rishtalarini mustahkam bog'lash mumkinligiga ishora qilinadi. Keltirilgan birinchi misoldagi maqolning kelib chiqishi diniy rivoyat bilan ham bog'liq. Rivoyatda keltirilishicha, payg'ambarimiz o'z kuyovi Hazrati Alini siylagan ekanlar.

Xuddi shu maqolga o'xshash yana bir misolga murojaat qilamiz: Bugungi ishimizdan xursand holda ikkalimiz betma-bet o'tiribmiz. Muallim ming'irlab qo'ydi: Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi, ko'pam xijolat bo'laverma. O'rtamizda ovchilarning, yo'lovchilarning doimiy hamrohi — gulxan (Sh. Xolmirzayev). Qayd etilgan maqol diniy afsonaga asoslangan. Unda aytilishicha, Sulaymon payg'ambar "Bayt ul-muqaddas"ni qurdirganda devlarni majbur qilib ishlatgan.

Devlar payg'ambardan qo'rqqanidan ishlayverishibdi va hatto hassaga tayanib o'lib qolgan Sulaymon payg'ambarini ham sezishmaydi. Nihoyat, jasad ag'anab tushgach, devlar har tarafga qochib ketishadi. Yuqoridagi maqol mazmuni xalq mental dunyosida yashab kelayotgan mana shu afsona bilan bog'liq. Bu afsona tafsiloti adib Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida ham qayd etiladi. Umuman, yuqoridagi misollarning barchasi majoziy ma'noda qo'llangan va ularda inson hamda uning taqdiri masalasi yotadi. Gul bo'lib tug'ilib sassiq alaf bo'lib yashama misrasining ma'nosi — inson bolasi pok bo'lib tug'iladi, ammo ba'zilar o'z hayotlari davomida insoniylik sha'niga noloyiq ishlarni qiladilar va yomon degan nom bilan bu dunyoni tark etadilar.

Mana shunday insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash uchun nasihat tarzida aytilgan.

Ellar hoy majnun tog'ning,

Boshidan tuman ketmashish,

Shubhaga moyil bo'lganning

Ko'nglidan gumon ketmashish (Maxtumquli).

Mazkur misralar orqali gumon iymondan ayrishi ma'nosi, ya'ni gumon tufayli kishi o'z birodarlari, tug'ishganlariga bo'lgan ishonchini yo'qotishi va bu ulardan uzoqlashishiga sabab bo'lishi uqtirilmoqda.

Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmas,  
Riyozat topmaguncha yor vasliga yetib bo'lmas. (Mashrab)

Mashrab yuqoridagi misralar orqali har qanday yaxshi narsaning bir yomon tomoni bo'lishini, mashaqqatsiz rohat yo'qligini ta'kidlaydi. Oyi, axir bekorga aytilmagandir: "Bor tovog'im, kel tovog'im, qaytishda quruq bo'lsang, o'rta yo'lda sin tovog'im." (S.Ahmad. "Kelinlar qo'zg'oloni") Ushbu dialogik diskurs parchasida qo'llanilgan maqolning mazmuni odatga ko'ra, qadimdan qudalar bir-birilarni tansiq taom va sarpo, sovg'alar bilan yo'qlaydilar. Mazkur maqolda har ikkala tomon o'zaro siyab turilishi, agar ularning birortasiga yetarli javob qaytarilmasa, munosabatlar sovishi mumkinligi uqtirilmoqda.

Ovsinjon qarang, ko'zingiz quvonadi, shuni aytadilar: "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r". (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari" qissasi) Mazkur diskursda qo'llanilgan maqol hali bo'lmagan, amalga oshmagan ishning orqasidan maqtanib yurmaslik, turmush qurgan kelin ota uyidan kelganda, uning husni jamoli bilan birga, olib kelgan sepidan ko'ngli to'lgan qudalarga nisbatan aytilgan.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalari orasida maqollar lisoniy va diskursiv strukturasi ko'ra alohidalikka egadir. Jumladan, xalq maqollari she'riy va nasriy shaklda bo'ladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarga o'xshash tarzida ifodalanadi. Ularda hayotiy voqea-hodisa haqida qat'iy hukm ifodalanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etishi mumkin. Bundan tashqari, maqollarda shaxs hayotidagi xususiy holatlar umumlashtiriladi.

Shuning uchun bo'lsa kerak, maqol ifodalangan jumla yoki gap shaxsi umumlashgan gap shaklida namoyon bo'ladi. Ko'rinadiki, xalq maqollari lug'aviy, grammatik va diskursiv birlik sifatida o'ziga xos xususiyat va vazifalarga ega.

Ularning lisoniy qiymat va imkoniyatlari, nutqiy jarayon bilan bog'liq xususiyatlari alohida tadqiq manbasi bo'la oladi. Badiiy adabiyotda muloqotga kirishayotgan kommunikantlar nutqidagi maqol va matallar, fikrni ifodalashning askiya va kinoya kabi o'ziga xos obrazli usullari ular nutqiga sotsial ruh beradi. Masalan, "Boy ila xizmatchi" dramasidagi Gulbahor bilan Jamila nutqlari o'zining poetik harorati bilan xalq qo'shiqlariga yaqin turadi. Jamila G'ofirga munosabatini izhor etar ekan, so'zlamaydi, kuylaydi. So'zlarida kommunikantning butun latofati, tuyg'u va kechinmalarining chuqurligi, muhabbat to'g'risidagi romantik ideallarining musaffoligi namoyon bo'ladi:

"Jamila. Ketamiz! Mag'orada yashasak ham, ishqimni kuylab, sizni allalay. Agar kaftingizga tikan kirsam kiprigim bilan chiqaray! Agar o'tirgan joyingizga xas-xashaklar to'kilsa, sochlarim bilan supuray, changi chiqsa ko'z yoshlarim bilan suv sepay, jonginam!"

Tabiiyki, barcha go'zallik va boyliklarning ijodkori-oddiy mehnatkash oila muhitida voyaga yetgan Jamilaning bu nutqi o'zi singari minglab huquqsiz jamilalar tomonidan to'qilgan qo'shiq bilan uyg'unlashib ketadi:

Yor yurgan ko'chalarni  
Supuray sochim bilan

Changi chiqsa suv sepay  
Ko'zdagi yoshim bilan.

Mazkur qo'shiqda mushtipar o'zbek ayollarining qalb tuyg'ularigina emas, ularning fikrlashi, so'zlashi, orzu-armonlari, dard-hasratlarini ifodalash tarzi ham namoyon bo'ladi. Zotan, faqatgina Jamilagina emas, uning besh asrcha oldin dunyoga kelgan opa:singillari bo'lmish Shirin, Laylilar ham o'z tuyg'u va kechinmalarini xuddi shu kabi iboralar bilan ifoda etgan bo'lsa, ajab emas. Masalan, Shirinning Farhodga maktubida quyidagi dil izhorini o'qiyamiz:

"Tikan kirsam kaftingga kiynasidin,  
Chiqorsam erdi kiprik ignasidin.  
Ayog' sunsang bo'lub g'amdin xaroshing,  
Mudom o'lsa edi qo'ynumda boshing.  
Ko'rub xor-u xas o'rnungda, nihoniy  
Sochim birla supursam erdi oni.  
Chu bilsam garddin ko'nglingda qayg'u,  
Yer uzra ashkdin sepsam edi suv".

Sotsial tiplar sifatidagi oshiq-ma'shuqlarning o'zaro muloqotidagi bunday holatni A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani qahramoni Ra'no tilidan bayon etilgan quyidagi misralarda ko'rish mumkin:

Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin,  
Ne baxt Ra'no xaridoring talab ahlining mirzosi.

Layli, Shirin, Jamila va Ra'no to'rtovlari bir xil holatni, bir-biriga yaqin tuyg'u, fikrni bundan o'zgacha tarzda jo'shqin ifodalashi amri mahol edi. Mazkur obrazlarning xalqchilligi, ular sotsial xarakterining milliyliigi ham xuddi shundadir.

Xullas, xalq maqollarida qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritilmasin, tanlangan muammo har tomonlama, atroflicha yoritiladi. Ularda turli-tuman pragmatik vaziyatni inobatga olgan holda yaratilgan hikmatli so'zlarga guvoh bo'lamiz. Bularning hammasi o'zbek xalqining asrlar davomida naqadar dono va aqlli ijodkor farzandlarga ega ekanini dalillaydi.

Ayni paytda xalq maqollarining uzoq o'tmish mahsuli ekanligi, ayrim namunalarning bugungi kunda tushunish oson emasligini ham izohlaydi. Ba'zan maqollar qatorida shundaylari ham uchraydiki, hatto umumiy fikr nima bilan bog'liq ekanligini anglash qiyin bo'lib qoladi — uning pragmatik jihatdan o'ta xoslanganligi ayon bo'ladi. Masalan, "Bir so'm berib yig'latdim, yuz so'm berib yupatdim" maqolini olaylik. Bu maqolning mohiyatini maqoldagi fikr yo'nalishi va qarshilantirish usulidan tasmollash mumkin. Ya'ni umumiy mazmunda nojo'ya qilingan harakat yoki tadbir oxir — oqibatda insonga qo'shimcha tashvish keltirishi mumkinligi haqida ogohlantirilmoqda. Bu bilan sen shunday harakat qilginki, bu harakating yomon oqibatlarga olib kelmasin, deyilmoqda. Ammo nima uchun bir so'm berib yig'latsa, yuz so'm berib ovutadi yoki yupatadi? Bu pragmatik muammoni hal qilish uchun tadqiqotchilar tarixiy manbalarga murojaat etishgan.

...qadim zamonlarda aza paytida yig'lab beradigan maxsus odamlar bo'lgan. Ularni "giyrandi" deb atashgan. Aslida, "giyrandi", "giryandi" dan olingan bo'lib, "yig'lamoq" fe'li bilan ma'nodoshdir. Uyida biror yaqin odami o'lsa, mayit egasi giyrandini chaqirgan. U aza davomida ma'lum haq evaziga yig'lab berishni bo'yniga olgan.

Lekin giyrandi o'z san'atini shunday egallashi ham mumkin ediki, mayit egasi bu aytuvlarga, bu dod — fig'onga, bu nolalarga chidamasdi. Shunda u giyrandidan yig'lamaslikni so'raydi. Giyrandi esa avjga chiqadi. Natijada, unga beriladigan haq yig'lomagani evaziga juda oshib ketadi.

Maqol mazmuni arzimagan haq evaziga yig'lovchini chaqirish, ammo uning jim bo'lishi uchun katta pul berish voqeasi bilan bog'lanadi. Shunday qilib, maqollar mazmuni ularning o'zi va tabiati kabi sirli olamga egadir. "Zarbulmasal" asari o'sha davr prozasining namunasi bo'lishi bilan birga, folklor materiallaridan foydalanib yozilganligi uchun ham, xalq tilining adabiy tilga yaqinlashtirishga xizmat qilgan asarlardandir. Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida, xalq og'zaki ijodi asarlarini qayta ishlash bilan birga, uning uslubi va badiiy vositalarini ham saqlab qoldi.

Maqollar poetikasi o'zining mukammalligi bilan so'z san'atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Avvalo, shakl va mazmun mutunosibliigi maqollarning asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib yashashini ta'minlagan. San'at asarining darajasini belgilovchi eng talabchan sinov vaqt hisoblanadi. Ayniqsa, vaqt sinovi talabiga og'zaki asarning javob berishi o'ta muhim hisoblanadi. "Qonni qon bilan yuvib bo'lmas" maqolini M. Koshg'ariy "Qanig' qan bila jumas" tarzda keltirgan. Bu maqol olim qalamiga tushguniga qadar necha yillar yashaganini tasavvur qilish qiyin. Ya'ni maqollar asosini ulardagi shakl va mazmun mutanosibliigi belgilaydi.

Aytish lozimki, xalq maqollarining tarixi, mazmun tasnifi, o'rganilishi, badiiyati hamda uning lingvistik tabiati haqida alohida tadqiqotlar yaratilmish kelajak avlod olidida turgan vazifalardan biridir.

## ЯЗЫК В ТЕКСТИЛЬНОЙ ОБЛАСТИ ЗНАНИЯ КАК ОБЪЕКТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ

Акромова Н.Н. - преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматривается терминология на английском языке и тексты, относящиеся к текстильной промышленности, а также научно-техническая терминология.

**Ключевые слова:** лексикология, текстильная терминология, общенаучные, общетехнические, межотраслевые термины, техническая терминология.

#### TO`QIMACHILIK SOHASIDA TILNING LINGVISTIKA OBYEKTI SIFATIDA O`RGANILISHI

**Akromova.N.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilida to`qimachilik sohasidagi matnlarda keltirilgan ilmiy va texnik tarjimadagi terminlar va to`qimachilik sohasida keng tarqalgan terminlar bilan bog`liq umumiy-ilmiy, umumiy texnik va tarmoqlararo terminlar tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** leksika, to`qimachilik, termin, umumiy-ilmiy termin, umumiy texnik terminlar, tarmoqlararo terminlar.

#### LANGUAGE IN THE TEXTILE SPHERES OF KNOWLEDGE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC STUDY

**Akromova.N.** - Teacher of Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** In the given article was described English terminology and texts related to the textile industry, as well as terminology in technical scientific of terms presented in all types of textile text. The textile area of knowledge we consider general scientific, general technical, inter-sectoral terms, which are terms related to the commonly used language, the actual textile terms and analyzed by examples.

**Key words:** lexicology, textile terminology, general scientific, general technical, intersectional terms, technical terminology.

Язык науки и техники является сегодня одним из основных полноправных и самостоятельных объектов исследования наряду с языком художественной литературы, литературной разговорной речью и традиционными диалектами. Следует отметить, что интерес к научному тексту во многом обусловлен актуальностью разработки общенаучных проблем теории классификации. А. С. Герд отмечает свыше шестидесяти параметров классификации текстов, среди которых присутствуют предписывающие тексты, инструкции, описания, рассуждения, повествовательные, объяснительные, полемические, дескриптивные.<sup>1</sup>

Одновременно на язык науки во всех типах текстов влияет языковая норма.<sup>2</sup> В области текстильного дела также необходим анализ:

- структуры целостного научного текста, его парадигматики, синтагматики и семантики;
- специальной терминологии подъязыка в текстильной сфере, природы термина, его место в научно-техническом переводе.

Здесь следует допустить множественность различных взаимодополняющих теоретических моделей. Моделирование семантики научного текста в силу его специфики, в отличие от текста художественного, должно быть ориентировано, прежде всего, на глубокий логико-понятийный, концептуальный анализ содержания научного произведения.

В таком тексте характеристика объекта становится многоплановой, многоаспектной. Характеристика описания объекта нередко дается не в самом тексте, описывается не сам объект, а явления, связанные с ним. В описании может присутствовать сравнение с другими аналогичными объектами, явлениями, имевшими место ранее или в другом месте.

Термин, графема или сочетание графем плюс определение — это минимальный специальный текст. Специфика знаковой функции специального текста состоит в том, что он функционирует как целостное единое образование. Каждый специальный текст обсуждает какую-то одну проблему. Новые слова, термины подчиняются действию всех механизмов системы языка. Понятийный аппарат

<sup>1</sup> Герд А. С. Прикладная лингвистика. СПб, 2005. стр 268.

<sup>2</sup> Карпова О. М. Современная лексикографическая картина Великобритании (на материале новых словарей издательства "HarperCollins") // Англистика XXI века. Сборник материалов III всероссийской научной конференции. СПб, 2007. (Карпова, 2007). стр. 134.

текстильной области знания совмещает в себе общенаучные, общетехнические, межотраслевые термины, термины, связанные с общеупотребительным языком, собственно текстильные термины. Под общенаучной лексикой О. С. Ахманова понимает те слова, при помощи которых можно описать и охарактеризовать явления и процессы в самых разных науках; слова, перешедшие из общеупотребительной лексики и переосмысленные по-новому, с твердо закрепленными за ними понятиями; слова, составляющие костяк научного изложения.<sup>1</sup> По характеру значения общенаучные термины являются широкими и обобщенными, по характеру понятия — чаще всего родовые. Употребляясь в терминологических системах каждой отдельной науки именно в широком значении, они каждый раз конкретизируются помощью определителей, специальных для данной науки.<sup>2</sup>

В текстах текстильной области знания наиболее употребительными словами, относящимися к общенаучным, являются такие лексемы как

*system — тизим / система, method — услуб / метод, structure — тузулишу / структура, theory — назарий / теория, experience — тажриба / опыт, product — маҳсулот / продукт* каби лексемалардир.

Некоторые исследователи, кроме общенаучной лексики, выделяют также общетехнические термины. К ним относятся слова, служащие для обозначения основных технических понятий. Это могут быть как интернациональные слова

*aggregate — бир нечта ускунадан иборат мураккаб машина, / агрегат, apparatus — аппарат, condition — ҳолат, / условие, effect — таъсир, / эффект, instrument — асбоб / инструмент, object — объект / объект, англиз тилидаги сўзлар apparel — либос / одежда, appliance — ускуна / прибор.*

В общетехнических и специализированных технических словарях общенаучные и общетехнические термины не имеют особых помет, указывающих на их закрепленность за отдельной научной или технической областью. Слова, обозначающие специальные понятия в нескольких областях знания, обычно выделяются в отдельный слой и называются межнаучными или межотраслевыми терминами.<sup>3</sup> Критерием отнесения слов к межотраслевым терминам является наличие в словарном толковании специальных помет, например:

bent осадка кровли вблизи рабочего забоя (гор.); ~ coupling link сцепная скоба (ж. д.); ~ spring нитяной тормоз (тек.); body ящик вашгерда (гор.); ~ contact короткое замыкание на массу (эл.); ~ lag грунтовая карта (тек.); carriage вагонетка, вагон (ж.д.); лафет, станок (воен.); каретка (тек).

Большинство ученых отмечает трудность разграничения этих слоев, поскольку происходит постоянное взаимопроникновение из одной группы в другую. Необходимо учитывать несколько условий характер этого деления и невозможность получить непересекающиеся классы слов. Любая классификация лексики по содержательным признакам всегда связана с элементами, обладающими чертами смежных групп.<sup>4</sup> Термины, связанные с общеупотребительным языком. Специальные слова могут функционировать в общеупотребительном языке, при этом теряя ряд своих свойств, (*metal — металл, atom — атом, gas — газ, plastic — пластмасса*). Термины получают такое широкое распространение, что не осознаются как собственно термины *water — сув, voda, weight — вазн, оғирлик, вес, humidity — намлик, влажность, needle — игна, игла, solution — эритма, раствор* С другой стороны, общеупотребительные слова терминологизируются: *boiling off — қайнатиш, отварка, saponification — совунланиш, омыление*. Так, текстильные переводные словари, в частности справочник З. Е. Рабиновича регистрируют большое количество общеупотребительной лексики, на базе которой, при помощи семантического распространения слова приобретает терминологическое значение *treadle — педал, олиб келиш, педаль, подноэска; picking treadle — валик валец ( тўқув дастгоҳининг пастки қисми, ткацкого станка с нижним боем); treadloom — тўқув дастгоҳининг педали, педальный ткацкий станок; trim — безак, наряд, украшение*. Проанализировав примеры,

<sup>1</sup> Ахманова О. С., Глушко М. М., Функциональный стиль общенаучного языка и методы его исследования. М., 1974. стр. 78

<sup>2</sup> Лейчик В. М. Опыт построения классификации терминологических словарей // Теория и практика научно-технической лексикографии. М., 1988. стр. 81

<sup>3</sup> Чупилина Е. И. Типология терминологических систем и преподавание терминологии // Терминология и перевод в политическом, экономическом и культурном сотрудничестве. Омск, 1991. стр. 90—92

<sup>4</sup> Чупилина Е. И. Типология терминологических систем и преподавание терминологии // Терминология и перевод в политическом, экономическом и культурном сотрудничестве. Омск, 1991. стр. 94—94

можно прийти к выводу о том, что первое значение, фиксируемое в справочнике, является общепотребительным, второе — терминологическим.

В заключения при анализе различных областей специальной лексики используются природа термина, специальная терминология подязыков различных наук и отраслей техники, место терминов в научно-техническом переводе, в практике редактирования, в специальных документах, в информационной деятельности, в информатике - таков основной круг проблем, обсуждаемых обычно при обращении к языку науки и техники.

### MUMTOZ ADABIYOT VA MUMTOZ MUSIQA UYG'UNLIGI

**Sayidov B. - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mumtoz musiqa va mumtoz adabiyotning uyg'un jihatlari va bu ikki bir-biriga yaqin sohalarda sermahsul ijod qilgan olimlar xususida so'z boradi. Ayniqsa maqolada hozirgi kundagi musiqashunos va adabiyotshunoslarimiz uchun dolzarb bo'lgan aruz nazariyasi haqida to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** aruz, risola, she'riy o'lchov, bo'g'in, turkiy til, vazn, allomalar, g'azal, barmoq vazni, nasr, mustazod, mumtoz musiqa.

### СОЧЕТАНИЕ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ

**Сайидов Б. - преподаватель государственного института искусств и культуры Узбекистана**

**Аннотация.** В этой статье обсуждается сочетание классической музыки и классической литературы и ученых, которые добились успеха в этих двух смежных областях. В статье особое внимание уделяется теории Аруза, которая актуальна современным музыковедам и литературоведам.

**Ключевые слова:** памфлет, поэтическая шкала, слог, тюркский язык, вазн, ученые, газель, вес пальцев, проза, мустазад, классическая музыка.

### THE COMBINATION OF CLASSICAL LITERATURE AND CLASSICAL MUSIC

**Sayidov B. - teacher of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan**

**Annotation.** In the given article was described the combination of classical music and classical literature and the scholars who have been successful in these two related fields. The article focuses on the theory of Aruz, which is relevant to modern musicologists and literary critics.

**Key words:** pamphlet, poetic scale, syllable, Turkic language, vazn, scientists, gazelle, finger weight, prose, mustazod, classical music.

Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvofaqiyatli ravishda olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Ma'naviy barkamollik, yuksak tafakkur, falsafa, eng ezgu g'oyalar, tashbehli tafakkur tarzi, teran badiiy idrok ming yillik tarixga ega bo'lgan bezavol ma'naviyatimizning barkamol xazinalaridan biri mumtoz she'riyatimizda mujassamdir. Asrlar davomida shakl va mazmun jihatidan beqiyos taraqqiy etgan, jahon mumtoz adabiyoti xazinasini yangi kashfiyotlar bilan boyitgan Sharq she'riyati ayni paytda o'zining boy nazariy zahirasiga ham ega. Bu nazariy bilimlar uch mustaqil sohani o'zida qamraydi: ilmi qofiya - qofiya qonun-qoidalari haqidagi ilm, ilmi bade' - fikrni ravon, nafis ifodalash yo'llari, vositalari haqidagi ilm. Shulardan yana biri ilmi aruz - she'rdagi vazn va ularning qonun - qoidalari haqidagi ilm hisoblanadi. Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va yetuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lmoq, har bir ijodkor qalamining badiiy salohiyatini anglab yetmoq, she'rlarga xos nafis ohanglarni ham,

soʻz sanʼatining betakror nazokatu latofatini ham his etmoq uchun ushbu bezavol obidalarga asos boʻlgan aruz sheʼriy oʻlchov tizimining nazariy qonun-qoidalari va amaliy xususiyatlaridan atroflicha xabardor boʻlmoq talab etiladi. Shunga koʻra aruz ilmi oʻtmishda maktab va madrasalarda maxsus ilm sifatida muttasil oʻrgatilib kelingan. Mustaqillik sharofati bilan davlatimiz taʼlim sohasida “Taʼlim toʻgʻrisida” qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Davlat taʼlim standartlari”ga asoslanib mamlakatimizda amalga oshirayotgan islohotlar qator imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Jumladan, “Aruz ilmi”ni fan sifatida oʻquv dasturlariga kiritilishi va oʻqitilishi shu imkoniyatlar natijasidir. Fan yangi boʻlganligi sabab darslik va oʻquv qoʻllanmalarga ehtiyojning boʻlishi tabiiy. Aruz ilmi ham barcha fanlar singari oʻziga xos murakkabliklarga ega, uni toʻgʻridan – toʻgʻri, tez orada, butunasicha oʻrganib olish qiyin albatta. Shu sabab bilim va koʻnikma hosil qilish uchun zarur deb hisoblangan jihatlar - aruz sheʼr oʻlchovining paydo boʻlishi, nazariy asoslari va eng muhim xususiyatlari, jumladan “hijo”, “juzv”, “ayrim aruziy hodisalar”, “rukn”, “bahr”lar hamda qisman ruboiy vaznlari qamrab olindi. Aruz sheʼr oʻlchovidagi eng zarur va murakkab jarayon zihof oʻzgarishlar bilan bogʻliq jihatlarga koʻproq eʼtibor qaratildi. Sheʼriyatimizda nisbatan koʻp qoʻllanilib kelingan bahrlarning zihof oʻzgarishlari misollar asosida berildi va zihof oʻzgarishlarni yodda saqlab qolishga oson boʻlsin uchun tartibi bilan umumlashtirildi. Shu oʻrinda aytmoqchi boʻlganimiz yana bir fikrki, aruz sheʼr oʻlchovining xususiyatlaridan kelib chiqilib baʼzan oʻrganish qiyin degan xulosalarga ham kelinadi. Darhaqiqat, aruz ilmi chindan ham murakkab, ammo bu degan soʻz uni oʻrganib boʻlmaydi degani emas. Qolaversa, oʻrganib kelishgan va oʻrgansa boʻladi. Inson nutqining oʻziga xos oʻlchangan koʻrinishi sheʼriyatni yuzaga keltiruvchi omillardan biridir. Ammo, har qanday oʻlchov sheʼriyat uchun mezon boʻlavermaydi. Sheʼriyat uchun asrlar davomida toʻplangan ijodiy tajribalar asosida shakllangan oʻziga xos meʼyor - mezonlar mavjud. Hozirda ular ikki yirik sheʼriy sistemani tashkil qiladi. Biri “Barmoq sheʼr sistemasi” boʻlsa, ikkinchisi “Aruz sheʼr sistemasi” boʻlib, Sharqda, xususan klassik sheʼriyatimizda asosiy sheʼriy mezonlar vazifasini oʻtagan. “Barmoq sheʼr sistemasi” turkiy xalqlar sheʼriyati uchun xos, xalq ogʻzaki ijodida paydo boʻlgan va sheʼriy mezon sifatida shakllangan. Misralaridagi boʻgʻinlarning soni barmoq bilan sanab oʻlchangani uchun shunday nom olgan. Bunda “boʻgʻin”, “turoq”, “bosh turoq” asosiy birliklar hisoblanadi.

Boʻgʻin - ritm hosil qiluvchi va misralar tengligini taʼminlovchi birlik hisoblanadi.

Turoq - misralarda boʻgʻinlarning kichik pauza orqali guruhlanib kelishi.

Bosh turoq - turoqlardan birini boshqasiga nisbatan yuqoriroq ohangda boʻlishiga aytiladi. Misollarga murojaat etamiz:

6	5
Yi-git-lar mak-tu-bin / bit-gan-da qon-dan, // = 11.	

6	5
Ke-lin-lar fi-roq-dan / chek-kan-da yo-hu, // = 11.	

6	5
U-ning ham pa-no-hi / qayt-ma-di jang-dan, // = 11.	

6	5
Oʻn toʻq-qiz yo-shi-da / be-va qol-di u, // = 11.	

Koʻrinadiki, misralarda boʻgʻinlarning soni bir xil 11 taga teng. Bu sheʼrda oʻziga xos ritmni yuzaga keltiradi. Turoqlar soni 2 ta boʻlib, birinchisi turoq 6 ta, ikkinchisi 5ta boʻgʻindan tashkil topgan. Shu holat sheʼrning keyingi misralarida ham saqlanadi. Aks holda sheʼrning vazni va ohangiga putur yetadi. Ikkinchi turoq bosh turoq hisoblanadi, chunki asosiy mazmun ustuvorligi shu soʻzlarga jamlangan boʻlib, kuchliroq talaffuzni talab etadi.

Aruz sheʼr sistemasi batamom oʻzgacha manzara kasb etadi. U barmoqqa nisbatan ancha mukammal va murakkab. Bu sheʼriy sistema dastlab arab adabiyotida paydo boʻladi. Manbalarda, xususan Navoiyning “Mezon ul avzon” asarida VIII asrda yashab ijod etgan arab adabiyotshunoslaridan biri Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solinganligi aytiladi: “Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voizi (aytuvchi)dur, chun arab ermish va aning yaqinida bir vodiy ermishki, ani “Aruz” derlar ermish va ul vodiyda aʼrob uylarini tikib, jilva berib, bahoga kiyururlar ermish. Va uyni arab “bayt”der. Chun baytlarni bu Fan bila mezon qilib,



mavzunini nomavzunidin ayururlar, go'yoki qiymat va bahosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila "aruz" debdurlar".<sup>1</sup>

Aruz she'r o'lchovi IX asrning boshlaridan fors-tojik adabiyotida qo'llanila boshlangan. Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, Savajiy, keyinroq Hayyom, Sa'diy, Hofiz va boshqalar ijodidan mustahkam o'rin olgan. Turkiy tilda yaratilgan "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" asarlarining shu vaznda yaratilganligi Aruz she'r o'lchovi XI asrdan turkiy she'riyatga ham ko'chganligini ko'rsatadi. Masalan, "Hibatul haqoyiq" dan olingan quyidagi bayt aruzning "mutaqoribi musammani mahzuf" vaznda ekanligi asar aruz vaznda yaratilganligini ko'rsatadi:

Ba-ho-liq di-nar-ul bi-lik-lik ki-shi,  
 V - - V - - V - - V -  
 Bu-jo-hil bi-lik-siz ba-ho-siz bi-shi.  
 V - - V - - V - - V -  
 fa-u-lun fa-u-lun fa-u-lun fa-al

Keyinchalik Rabg'uziy, Xorazmiy, Badriddin Chochiy, Sayfi Saroiy, Qutb Xorazmiy singarilar ijodidan ham o'rin olib, tobora kengroq kirib borganligi kuzatiladi. XV asr turkiy aruz rivojida alohida bosqichni tashkil etadi. Sababi, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy singari turkigo'y ijodkorlar ijodidan mustahkam o'rin olib sayqal topdi.

Aruz tizimi ham davrlar o'tishi bilan arab, fors-tojik va turkiy she'riyatda birdek qo'llanilish barobarida ilmiy - nazariy jihatdan takomillashib bordi, maxsus ilm sifatida shakllandi, maktab va madrasalarda o'rgatildi, ilmiy tadqiqotlar qilindi, risolalar bitildi. Xalil ibn Ahmaddan keyin bir qator arab olimlari bu ilmning taraqqiyotiga hissa qo'shgan bo'lsalar, fors-tojik adabiyotida Yusuf Nishoburiy (X asr), Rashiddin Votvot (XIII asr) "Hadoyiq us sehr", Shams Qays (XIII asr) "Al mu'jam fi me'yor ash'or al-ajam", Nasriddin Tusiy (XIV asr) "Me'yor ul-ash'or", Salmon Savajiy (XIV asr) "Qasidatun masnuot al-aruz", Jomiy (XV asr) "Risolai aruz" asarlarini yaratdi va fors-tojik aruzining takomili va taraqqiyotiga hissa qo'shdilar. Turkiy aruz esa Alisher Navoiy ijodi orqali sinovdan o'tdi va ilmiy - nazariy tasdiqini topdi. "Mezon ul - avzon" turkiy aruzning nazariy asoslariga bag'ishlab yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar hisoblanadi. "Mezon ul-avzon"da Navoiy "...turkiy alfozg'a dag'i mulohazani lozim ko'ruildi - olame nazarg'a keldi, o'nsakkiz ming olamdin ortuq anda zeb va ziyinat ...» der ekan yozadi: «Chun turk alfoz (lafz,so'z) bilakim nazm voqe' bo'lubtur anga zobitae (qoida,tartib) va qonun yo'q erkondur va ul fan rivoji uchun kasse(kishi) aruz fanida kitobe yo risolae bitolmaydur... va bu sababdin bu ilm zobitasig'a qalam suruldi"<sup>2</sup>deydi. Keyinchalik aruz ilmiga bag'ishlangan bir qator ilmiy - nazariy asarlar yaratildi va yaratilmoqda. Boburning "Mufassal" (Muxtasar), Furqatning "Risolai aruz", (Anvar Hojiahmedov ushbu risola haqida G'.Karimov Ostroumov fondidan topganligini, ammo nashr qilinmaganligini aytadi)<sup>3</sup>. Fitratning "Aruz haqida risola" (1936), A.Rustamovning "Aruz haqida suhbatlar" (1972), U.To'ychiyevning "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi" (1985), A.Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" (1995), "Aruz nazariyasi asoslari" (1982), "O'zbek aruzi lug'ati" (1998) A. A'zamovning "Aruz" (2002) asarlari shu jumladandir. Darhaqiqat aruz vazni murakkab xususiyatlarga ega. Uni o'rganish uchun avvalo arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvini bilish, kuchli xotira quvvatiga ega bo'lish, hamda soddadan murakkabga tomon pog'onama-pog'ona o'rganib borish va esda saqlash orqali o'zlashtirish talab etiladi. Quyidagi tartib aruz vazniga xos tizim hisoblanadi va o'rganishda unga amal qilishni taqozo etadi:

- Eng kichik boshlang'ich birlik sokin va mutaharrik harflardir. (Bu arab grafikasiga asoslangan yozuvli asarlarga xos bo'lib, hozirgi o'zbek aruzida harflar o'rnida eng kichik birlik sifatida "hijo" olinadi.)
- Harflar (hijo)larning birikuvidan "sabab", "vatad", "fosila" deb ataluvchi yirikroq bo'lak keltirib chiqariladi, ular qism, bo'lak ma'nosida "juzv"lar deb ataladi.
- Juzvlarning o'zaro birikuvidan "rukn" kelib chiqadi. Dastlab hosil qilingan ruknlar 8 ta bo'lib, "asllar" deb yuritiladi.
- Ruknlarning baytda turlicha takrorlanishidan asosiy o'lchov "bahr"lar yuzaga keladi.
- Asl ruknlarning baytda takrorlanishi jarayonidagi o'zgarishlar natijasida "zihof" yoki "furu"lar hosil qilinadi.

<sup>1</sup>A.Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1967. 137-bet.

<sup>2</sup>A.Navoiy. Asarlar. 15 tomlik, 14-tom. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T. 1967. 137-bet.

<sup>3</sup>A.Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznini o'rganish. T., "O'qituvchi" 1995. 8-bet.

• Bahrlar tarkibida hijolar sonining tengligi hamda yaqin ohangga ega bo'lishiga qarab guruhlanadi va ular "aruz doiralari" deb yuritiladi.

Aruz vazniga xos muhim xususiyatlardan yana biri vazn talabiga ko'ra yuzaga keladigan o'zgaruvchanlikdir. Ularga vazn talabi bilan yuzaga keladigan muhim aruziy hodisalar sifatida qaraladi:

1. Vasl - (arabcha - ulanish) cho'ziq hijo oxiridagi tovushning keyingi hijoning oldiga o'tishi. Masalan, Suh-bat-ay-lay-lik -Suh-ba-tay-lay-lik.  
Bu-gul-shan-ich-ra - Bu-gul-sha-nich-ra.
2. Taslim - (arabcha - yemirmek) vazn talabiga ko'ra biror harfni tushirilishi hodisasi. Masalan, Sakkiz - sakiz, suv - su, yuvdi - yudi, qilg'aysen - qilg'asen.
3. Taznib - (arabcha - dum yasamoq) vazn talabiga ko'ra biror harfni orttirilishidir. Masalan, Ayt - ayit, ufq - ufuq, umid - ummid, xumor - xummor.
4. Tag'yir - (arabcha - o'zgartirish) so'zlardagi ayrim tovushlarning vazn talabiga ko'ra o'rnini almashtirish hodisasi. Masalan, Diliston - dilsiton, guliston - gulsiton.

Bu hodisalarga oddiy tovush ko'chishi, tushishi yoki orttirilishi deb qaramaslik kerak. Ularni bilmaslik aruz vaznida yozilgan she'rlarning vaznini aniqlashda qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki, bunday hodisalarsiz ba'zan vazn ro'yobga chiqmaydi, hamda bir tovushning ko'chishi, orttirilishi va tushirilishi natijasida butun boshli bir vazn boshqa vaznga o'zgarib ketadi. Misol uchun olaylik, Suh-bat-ay-lay - bu ko'rinishda ushbu so'z hech bir vaznga to'g'ri kelmaydi, vaznsiz, ana shunday paytlarda bu "vasl" hodisasi orqali o'lchamga solinadi. Natijada, Suh-ba-tay-lay (lik-ke-ling-lar jo'-ra-lar-o'r to-g'-lar) shaklida o'zgartiriladi.(fo-i-lo-tun fo-i-lun). Shuningdek, sak-kiz so'zidagi bir cho'ziq sa-kiz so'zida qisqaga, umid so'zidagi qisqa hijo um-mid shaklida cho'ziqqa aylanadi va yangi vazn hosil qiladi. Bulardan ko'rinadiki, aruz vaznini o'rganishda aruziy hodisalarni bilish juda zarur hisoblanadi.

#### MULOQOTDA NUTQNING TA'SIRCHANLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR

**Jumayeva G.A. - Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola nutq madaniyati fani haqida bo'lib, muloqotning shakllanishidagi muhim bosqichlarni, kommunikativ sifatlarning nutq jarayonidagi o'rni, uning ahamiyatini, nutqning ta'sirchanligini oshirishdagi roli haqida fikrlar keltirilgan. Nutq ta'sirchanligining omillari turli adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan solishtirilgan

**Kalit so'z:** muloqot, kommunikativ, nutqiy ta'sirchanlik, nutqiy uslub, nutqiy ton, nolingvistik omil, tana tili.

#### ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ВЛИЯТЕЛЬНОСТЬ РЕЧИ В ОБЩЕНИИ

**Жумаева Г.А. – преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета**

**Аннотация.** Это статья о культуре речи, здесь приведены мнения о важных этапах формирования речи, в частности, о месте коммуникативных качеств в процессе речи, их особенности, о роли развития их влиятельности. Перечислены важные средства влиятельности речи в общении.

**Ключевые слова:** общение, коммуникатив, влиятельность речи, речевой метод, лингвистические средства.

#### FACTORS OF SPEECH EFFECTIVENESS IN COMMUNICATION

**Jumayeva G.A. - Teacher of Tashkent State Pedagogical University**

**Annotation.** In the given article was described the culture of speech, opinions about important stages of speech formation, in particular, about the place of communicative qualities in the process of speech, their

features, about the role of the development of their influence. Listed important means of influence of speech in communication.

**Key words:** communication, communication, speech influence, speech method, non-linguistic means.

Muloqot — insonlar orasidagi axborot almashuv jarayoni bo'lib, u nafaqat lisoniy, balki ruhiyat bilan bog'liq hodisadir. Nutq tinglovchi (adresat) va so'zlovchi (adresant) orasidagi axborot tashuvchi vosita hisoblanadi. Uzatilayotgan axborotning to'liq va ta'sirli yetkazilishi uchun nutqqa bir qancha talablar qo'yiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu talablar — nutqning kommunikativ sifatleri deb yuritiladi.<sup>1</sup> Bularga nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi, nutqning sofligi, nutqning jo'yaliligi kabi sifatlar kiritiladi. Mazkur sifatlarining miqdori va nomlanishi bo'yicha turli adabiyotlarda turlicha fikrlar bildirilgan.

Nutqning ta'sirchanligi masalasi esa ayrim adabiyotlarda kommunikativ sifatlar orasida sanab o'tilsa,<sup>2</sup> ayrim adabiyotlarda esa kommunikativ sifatlar nutqning ta'sirchanligini ta'minlaydi,<sup>3</sup> deb ko'rsatiladi. Bir qarashda birinchi aytilgan fikr to'g'ridek tuyuladi. Biroq chuqurroq o'ylab ko'rilsa, nutqning kommunikativ sifatleri tinglovchi va so'zlovchi orasidagi muloqotning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ya'ni uzatilayotgan axborotni to'liq va aniq bo'lishini ta'minlaydi, xolos. Nutqning ta'sirchanligi deganda, biz ko'proq tinglovchining axborotga bo'lgan munosabatini — diqqatini, e'tiborini hamda notiqning fikrlarini tan olishni nazarda tutish lozim. Shuningdek, muloqot jarayonida berilgan topshiriqning ijrosiga bo'lgan mayl, axborotning mazmuniga munosabat ham bevosita nutqning ta'sirchanligi orqali amalga oshiriladi. Shu bois ta'sirchanlik ko'proq og'zaki nutqda yaqqol seziladi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, N.Mahmudov aytganidek, nutqning kommunikativ sifatleri uning ta'sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Biroq tom ma'noda nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda quyidagi omillarning o'rni muhimroq, deb bilamiz:

1. Nutq egasining mavqeyi.
2. Nutq uslubi.
3. Nutq toni.
4. Ifoda topqirligi.
5. Nolingvistik omillar (harakatlar, mimika).

Masalaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun mazkur omillarni birma-bir tahlil qilib o'tish maqsadga muvofiq.

Muloqotning ta'sirchanligida nutq egasining mavqeyi. Har qanday nutqning ta'sirchanligida, eng avvalo, notiqning mavqeyi muhim o'rin tutadi. Biror tashkilot yig'ilishida xodimlarning nutqiga nisbatan rahbarning nutqi e'tiborli va ta'sirli bo'lishi tabiiy. Shuningdek, sinfda yoki auditoriyada o'qituvchi nutqi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nutqning ta'sirchanligi iyerarxik tizimga proporsional tarzda amalga oshadi. OTM misolida buni ko'radigan bo'lsak "rektor→dekan→kafedra mudiri" pog'onali tizimda oddiy o'qituvchi uchun topshiriqning bajarilishiga bo'lgan mayl pastdan yuqoriga qarab kuchayib boradi. Ya'ni bir xil topshiriqni qaysi pog'onadan berilishiga qarab mas'uliyat va topshiriqni bajarishga mayl o'zgaradi. Agar katta rahbar oddiy xodimga aylansa, albatta, uning nutqiga oldingidek e'tibor qaratilmaydi.

Umuman olganda, nutq egasi (adresant)ning mavqeyini to'rt turga ajratish mumkin. Adresantning bunday mavqega ega bo'lishi, shubhasiz, adresatlarga ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy mavqe: nutq egasining siyosiy obro'si, ijtimoiy tabaqasi, mansabi, unvoni, darajasi kabilar. Odatda, xalqning ishonchini va mehrini qozongan shaxslar ijtimoiy-siyosiy obro'ga ega bo'lishadi. Omma oldidagi chiqishlarda siyosiy muammolarning to'g'ri yechimini bayon qila olish, ijtimoiy turmush taraqqiyotini to'g'ri tahlil qilish, muayyan mansabda ko'p yillar davomida faoliyat olib borish, nasl-nasabining obro'li bo'lishi, ijtimoiy faoliyatining davlat va hukumat tomonidan taqdirlanganligi (unvonlar va darajalarga ega bo'lish) ijtimoiy-siyosiy mavqeyini oshiradi. Bunday shaxslar xalq va davlat hurmatiga loyiq insonlar bo'lib, bu holat ularning muloqot jarayonidagi interaktiv xususiyatlarini kuchaytiradi;

<sup>1</sup> Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. — T. 2007. 42-b.

<sup>2</sup> Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Toshkent — 2011. 42-b

<sup>3</sup> Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002.—168-b.

2) iqtisodiy mavqe: nutq egasining boyligi, mol-dunyosi, tashqi ko'rinishi, kiyinishi. Odatda nutq egasining iqtisodiy mavqeyiga e'tibor qaratilishi ko'proq norasmiy davralarda kuzatiladi. To'y-marosimlar, ziyofatlar, norasmiy yig'ilishlar shular jumlasiga kiradi. Bunday yig'ilishlarda iqtisodiy mavqeyi kuchli bo'lgan shaxslarning nutqi e'tiborliroq bo'lishi kuzatiladi. Shu bois ham xalqimiz orasidagi "Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning bolasi gapirsin" degan ibora keng tarqalgan.

Notanish davraga kirib borgan kishining tashqi ko'rinishiga qarab e'tibor qaratish ham odat tusiga kirgan. Afandining to'yga yangi chopon kiyib borganida unga ko'rsatlayotgan iltifotga javoban "E, choponim, ich choponim, bu iltifotlar men uchunmas sen uchun..." degan iborasi ham bejizga aytilmagan.

3) intellektual mavqe: nutq egasining donishmandligi, ziyoliligi, to'g'riso'zligi, vaziyat va voqelikni aqliy baholash salohiyati. Adresantning dunyoqarashi, ziyrakligi, aqliy salohiyati uning nutqida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, rahbar xodimlar, o'qituvchilar, ustozlar ana shunday fazilatga ega bo'lishi juda muhim.

Xususan, har qanday rahbar o'zi boshqarayotgan jamoaning haqiqiy lideri bo'lgandagina shunday mavqeni egallashi mumkin. Ba'zi hollarda jamoa orasida rahbarning intellektual obro'si tushib ketisa, jamoada yangi lider paydo bo'lishi tabiiy. Bu holat esa albatta boshqaruvga salbiy ta'sir yetkazadi.

4) professional mavqe: o'z kasbining ustasi bo'lishi. Jamiyatda har qanday jamoa odatda kasbiy birlashma hisoblanadi. Bir xil kasb egalari yoki yaqin kasb egalari biror jamoaga birlashadilar. Jamoada professional mavqega ega xodimlarning, guruhda boshqalarga nisbatan savodli bo'lgan talabalarning nutqiga e'tibor ko'proq qaratiladi. Interaktiv ta'sir o'tkazishdagi muhim jihat boshqa kasbdoshlariga nisbatan kasbining ustasi bo'lishidir. Yaxshi mutaxassisnigina kasbdoshlari so'zsiz tan oladi va topshiriqlarini sidqidildan ijro qilishadi.

Nutq uslubi. Nutq uslubi ham muloqotda ta'sir doirasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tinglovchilarning kayfiyati va muloqot jarayoni vaziyatiga qarab nutq uslubi tanlanadi. Biz nutq uslubini tahlil qilishda rahbar xodimlar nutqi misolida kuzatishlar olib bordik.

Odatda, rahbarlar quyidagi uslublardan keng foydalanishadi:

1) rasmiyatchilik uslubi: davlat, hukumat va rahbariyat toshiriqlarini huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan asoslagan holda diqqat-e'tiborni qozonish. Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, hukumat qarorlari, rahbariyat buyruqlari kabilar bilan rahbar o'z fikrlarini asoslab xodimlarga topshiriq berishi mazkur uslubning asosi hisoblanadi. Biroq kundalik topshiriqlarning barchasini bunday uslubda olib borish maqsadga muvofiq emas. Bu hol xodimlarni rahbardan bezdirishi mumkin.

2) pand-nasihat uslubi: maqol, rivoyat va boshqa vositalar yordamida tinglovchilarning diqqatini jamlash. O'rni va mavridi bilan bu uslubdan foydalanish samarali natija beradi. Albatta, bu uslubning ham me'yorini bilish lozim.

3) iltimos yoki da'vat uslubi: tinglovchilarni maqtash, alqash, iltimos qilish orqali ularning diqqatini qozonish. Odatda korxonada yoki tashkilot biror yutuqqa erishganda yoki qiyin ahvolda qolganda mazkur uslubdan foydalanish samarali hisoblanadi. Xodimlarni yaxshi faoliyati uchun maqtash va qiyin damlarda ruhlantirish rahbarning fazilatidir. Shundagina xodimlar unga ergashadi va topshiriqlarni sidqidildan ado etishadi.

4) buyruq-po'pisa uslubi: tinglovchilarni qo'rqitish, haqorat qilish orqali ularning diqqatini jalb qilish. Avtoritar metoddan ish olib boruvchi rahbarlarga xos muloqot uslubi. Mazkur uslubda muloqotga kirishganda xodimlar topshiriqlarni sidqidildan emas, shunchaki rahbardan qo'rqanidagina bajarishadi. Bu uslubda xodimlari bilan muomala qilgan rahbarlar mansabdandan ajralgan paytda butunlay obro'sizlanib qoladi.

Muloqotning ta'sirchanligida nutq toni. Ta'sirchanlikni ta'minlovchi omillardan yana biri nutq tonidir. Tajribali rahbarlar muloqotning mazmuniga qarab ovoz kuchini o'zgartirib turishadi. Nutq jarayonidagi to'xtalishlar, ovoz pardasining ko'tarilishi yoki pasayishi tinglovchining diqqat e'tiborini ushlab turishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda, tayanch so'zlarning mantiqiy urg'u bilan talaffuz qilinishi maqsadga muvofiq. Besamar baqirishlar orqali hech nimaga erishib bo'lmaydi. Ovoz tonini tanlashda tinglovchilarning kayfiyatini hisobga olish juda muhim. Ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarda, avvalo, past ohangda ta'sirli jumalardan foydalanish lozim. Muayyan pauzalar ham tinglovchilarni bosiq kayfiyatga keltiradi. Shuningdek, fikrini jamlab, diqqatini to'plashga xizmat qiladi. Nutqdagi uzun-qisqa pauzalar kuchli bo'ron oldidan hukm suradigan sokinlikka o'xshab ketadi.

Auditoriya to'liq buysundirilgandan keyingina ovoz tonini kuchaytirib fikrlarni ifodalash maqsadga muvofiq. Bu holat xuddi jang oldidan dushman pozitsiyasini yaxshi o'rganib hujumga o'tish taktikasiga o'xshab ketadi.

Ifoda topqirligi. Muloqot jarayonida uzatilayotgan axborotning mazmuniga mos shakl tanlanadi. Gap shundaki, inson tafakkuridagi til birliklari bir mazmundagi axborotni bir necha shaklda uzatish imkoniyatini beradi. Vaziyatga va maqsadga muvofiqini tanlash esa notiqning ifoda topqirligiga bog'liq. Notiq har qanday salbiy axborotni yoki qaltis undovni tinglovchiga beozor va ko'zlagan maqsadiga mos shaklda yetkazishi muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Kaykovusning "Qobusnoma" sida xalifaning tushida barcha tishlari to'kilib qolganligi haqidagi tushi mutabbirlar tomonidan ikki xil shaklda ta'riflangan. Ulardan biri: "...Sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi, sendan boshqa hech kim qolmaydi" desa, ikkinchisi: "...sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo'ladi" — deydi. Bu ikkala jumlada deyarli bir xil ma'no ifodalangan bo'lsa-da, ifoda topqirligiga ko'ra ikkinchi javob maqsadga muvofiqdir. Shunga o'xshash yana bitta misol keltiramiz. Hosil mavsumida xorijdagi nufuzli agrosanoat korxonasi rahbari kattaroq avtokompaniyaga murojaat qilib, yuk tashitish istagida ekanligini xat orqali bildiradi. O'z navbatida avtokompaniya rahbari yuk tashish istagi borligini, biroq kunduzi mashinalari band bo'lganligi sababli faqat tungi vaqtlardagina bu ishni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini xat orqali bayon qiladi. Bunday javobni nufuzli rahbar o'ziga haqorat deya qabul qiladi va boshqa avtokompaniyaga murojaat etadi. Mashinalari kunduzgi vaqtda mavsumiy ish bilan bandligiga qaramasdan tadbirkor avtokompaniya rahbari buyurtmani yo'qotmaslik uchun ifoda topqirligidan samarali foydalanadi va taxminan shunday mazmunda javob qaytaradi: "Muhtaram janob ... ! Sizdek nufuzli korxonasi rahbarining e'tibori bizga tushib, buyurtma berishga istak bildirganingizdan boshimiz ko'kka yetdi. Sizga bo'lgan ehtiromimiz ramzi sifatida yuklaringizni nafaqat kunduzi, balki tunda ham tashib berishga tayyor ekanligimizni bildiramiz".

Mazkur xatning mazmuni oldingi avtokompaniya rahbari javobidan deyarli farq qilmaydi. Biroq ifoda shakliga ko'ra butunlay boshqacha. Albatta, bunday ehtirom ifodalangan hamkorlik taklifi har qanday rahbar tomonidan rad etilmasligi tabiiy. Notiq doimiy ravishda ifoda topqirligiga amal qilishi lozim. Tinglovchilarning har qanday e'tirozlariga o'rinni javob topa olishi lozim. Aks holda rahbar jamoa orasida sekin-asta obro'sizlana boradi. Notiqning xarakter xususiyatlari ham nutqning ta'sirli bo'lishiga bevosita aloqador. Xususan, to'g'riso'z va va'dasida turuvchi shaxslarning nutqi tinglovchilar tomonidan ishonarli qabul qilinadi. Ayniqsa, rahbar xodimlarning o'z so'zida turishi xodimlar hurmatini qozonishda muhim omil hisoblanadi.

Nolingvistik omillar. Tinglovchilar diqqatini tortishda nolingvistik omillar (notiqning harakatlari, mimikasi)ni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Notiqning nutq jarayonida yurib gapirishi, to'xtab qolishi, qo'llarining harakati, nigohi va yuz harakatlari (mimika) ham tinglovchilar diqqatini jalb qiladi. Maqsadga muvofiq qilingan har qanday harakat muvaffaqiyat garovi bo'lsa, o'rinsiz harakat ta'sirchanlikni pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, og'zaki muloqot yuzma-yuz shaklda bo'lsa, ta'sirchanlikni oshiruvchi nolisoniy vositalardan ham samarali foydalanish mumkin. Yuzma-yuz muloqotning eng muhim xususiyati shundaki, kinetik nutq orqali ham ko'plab axborotlarni yetkazish imkoniyati tug'iladi. "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati" da kinetik nutq: Turli imo-ishora, tana a'zolari harakatidan aloqa vositasi sifatida foydalanish; shunday vazifa bajaruvchi imo-ishora xatti-harakatlar, — deya izohlanadi.<sup>1</sup> Gap shundaki, inson lisoniy vositalar orqali yetkaza olmaydigan ko'plab axborotlarni kinetik nutq orqali to'liq ifodalay oladi. Ayniqsa, munosabat bildirishda verbal vositalar kinetik nutq o'rnini hech qachon bosa olmaydi. Tana tili (kinetik nutq)ning yana bir xususiyati shundaki, unda axborotni yashirish, soxtalashtirish yoki yolg'on axborot uzatish deyarli mumkin emas. Chunki tana tili ko'pchilik holda inson tafakkuridan tashqarida, ong ostida faoliyat olib boradi.<sup>2</sup> Uni faqat aktyorlarga boshqarishi mumkin. Bu hodisa ko'proq muloqotning interaktiv xususiyatlari doirasida o'rganiladi. Bir xil harakatlarning doimiy ravishda takrorlanishi ham xuddi nutqda parazit so'zlarni qo'llashga o'xshab tinglovchilarni zeriktiradi va e'tiborini chalg'itadi. Harakatlar va nigohlar nutq mazmuni va toniga muvofiq bo'lgandagida diqqatni tortadi. Muhim masala xususida gapirayotganda derazaga, shiftga yoki xonadagi boshqa biror buyumga nigohni yo'naltirish nutqning ta'sirchanligiga butunlay putur yetkazadi. Bunday vaziyatda tinglovchilarni ko'zlariga tik qarab gapirish esa aksincha ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

<sup>1</sup> Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2002. — 44 -b.

<sup>2</sup> Piz Allan. Tana tili (harakatlardan fikrni qanday o'qish mumkin). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

Xulosa qilib aytganda, nutqning ta'sirchanligiga erishish uchun uning kommunikativ sifatlaridan tashqari yuqorida sanab o'tilgan omillarni ham hisobga olish zarurdir.

### ОСНОВНЫЕ ПРИЗНАКИ АНТИТЕЗЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

**Гулямова З.Р.** - старший преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета

**Аннотация.** В статье мы ставим перед собой задачу изучить и обобщить накопленный в теории лингвостилистики опыт с тем, чтобы выявить обобщённые признаки антитезы как стилистического приёма. Рассмотрим некоторые определения антитезы, данные в наиболее авторитетных учебных пособиях английского языка.

**Ключевые слова:** стилистический приём, явления, антагонистические черты, противопоставление, сентенция.

### O'ZBEK TILIDA ANTITEZANING ASOSIY BELGILARI

**Gulyamova Z.R.** - Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada biz antitezning umumiy belgilarini stilistik vosita sifatida aniqlash uchun lingvostilistika nazariyasida to'plangan tajribani o'rganish va umumlashtirish vazifasini oldimizga qo'ydik. Ingliz tilining eng nufuzli darsliklarida berilgan antitezaning ba'zi ta'riflarini ko'rib chiqing.

**Kalit so'zlar:** stilistik qurilma, hodisalar, antagonistik xususiyatlar, kontrast, maksim.

### THE BASIC SIGNS OF AN ANTITHESIS IN THE UZBEK LANGUAGE

**Gulyamova Z.R.** - Senior Lecturer, Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** In article we put before ourselves the problem to study and generalize experience acquired in the theory of linguistics to reveal generalized signs of antithesis as stylistic device. We will consider some definitions of antithesis given in the most authoritative manuals of English language.

**Key words:** stylistic reception, the phenomena, antagonistic lines, opposition, a maxim.

Как отмечает Гальперин И.Р., в целях создания контрастной характеристики описываемого явления, данное явление часто сопоставляется с другим, логически ему противоположным. Такое сопоставление выявляет не общие черты предметов и явлений, а противоположные, антагонистические черты. Факты объективной действительности не сближаются по общим признакам, а отталкиваются друг от друга.

И.В.Арнольд даёт следующее определение: «Антитезой в стилистике называются резкое противопоставление понятий и образов, создающее контраст». Контраст дан антитезами, т.е. стилистическими фигурами, усиливающими выразительность за счёт столкновения в одном контексте прямо противоположных понятий.

Многие исследователи отмечают, что антитеза как стилистический приём, заключающийся в противопоставлении и противополжении, использует антонимы, антонимированные слова и другие виды противопоставлений, лексических, грамматических и чисто логических.

Анализ употребляемых антонимов и антитезы целесообразно строить на теории оппозиций, и, в частности, применять критерий одномерности и многомерности, который впервые был использован для изучения антитезы Л.Т. Бабахановой. Исследователь справедливо отмечает, что «проведённые разграничения многочисленных оппозиций на две большие группы- одномерные и многомерные- выявляют проблему логического и лингвистического в содержании антитезы, а также показывает связь одного с другим».

Явление антитезы, как показали наблюдения, прослеживаются и во многих других языках. В частности оно обнаруживается и в узбекском и в русском языках.

